Lirik va ibratli ertaklar. Bu ertaklarda nozik ruhiy kechinmalar, muhabbat, sadoqat, yovuzlik va ezgulik kabi mavzular badiiy ifoda topadi: “Chin muhabbat”, “Ko‘ngil ko‘zi”, “Ona duosi”. Bu ertaklardan ko‘riladigan asosiy maqsad −axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, estetik tarbiya berish.

O‘zbek xalq ertaklarining sujet tuzilishi, asosan, klassik dramatik modelga – kirish (ekspozitsiya), voqea rivoji, cho‘qqi nuqtasi (kulminatsiya) va yakun (rezolutsiya) bosqichlariga asoslanadi. Shu bilan birga, ular o‘ziga xos milliylik va an’anaviy shakllarga ham egadir.

V.Propp tomonidan taklif etilgan funksional modelga ko‘ra, ertaklarda syujet quyidagi doimiy ketma-ketlikda rivojlanadi:

1) qahramon safarga chiqadi;
2) vazifa beriladi (muammo);
3) to‘siqlar duch keladi;
4) yordamchi personaj (pari, kampir, qush, hayvon va b.) paydo bo‘ladi;
5) qahramon sinovdan o‘tadi;
6) yovuz kuch ustidan g‘alaba qozonadi;
7) mukofotlanadi, nikoh yoki podsholik bilan yakun topadi.

Masalan, “Oltin bolalar” ertagida qahramonlar tug‘ilishi, ularning ajratilishi, sinovli yo‘lga chiqishi, sehrli yordamchilar (qush, pahlavon, quduq), yovuzlik bilan kurash va nihoyat, adolat qaror topishidek an’anaviy struktura mavjud.

Ko‘plab ertaklarda voqealar uch marta takrorlanadi: uch o‘g‘il yo‘lga chiqadi, uchta topshiriq beriladi, uch sinovdan o‘tiladi. Bu Sharq an’anaviy og‘zaki adabiyotida “muqaddas sonlar” konsepsiyasiga tayanadi (3, 7, 40 va h.k.), [3;18-b.].

Kompozitsiya elementlari qat’iy tuzilgan:

Kirish qismi – “Bor ekan, yo‘q ekan...” kabi folklor formulalari orqali boshlanadi.

Asosiy qism – voqealarning zanjirli rivoji, konflikt va qarama-qarshiliklar.

Yakun qismi – axloqiy saboq, ezgulikning g‘alabasi, ijobiy yakun.

Bu tuzilma ertaklarni nafaqat estetik, balki didaktik jihatdan ham ta’sirli qiladi.

O‘zbek xalq ertaklarida obrazlar tizimi ramziy va funksional xususiyatga ega. Obrazlar orqali xalqning axloqiy ideallari, ijtimoiy qarashlari va orzu-umidlari ifodalanadi.

Markaziy qahramonlar – xalq ideallarining in’ikosi bo‘lib ishtirok etadi. Qahramonlar, ko‘pincha, kambag‘al, lekin dono, sabrli, halol kishilar sifatida tasvirlanadi. Masalan: “Boy ila gado” ertagida gadoning donoligi va tozaligi boyning hiylakorligi bilan qarama-qarshi qo‘yiladi.

“Zumrad va Qimmat” ertagida sabr-toqatli Zumrad go‘zal mukofotga, yovuz Qimmat esa jazoga duchor bo‘ladi. Bu orqali xalq ertaklarida axloqiy dualizm (ezgulik-yovuzlik, rost-yolg‘on, sadoqat-xiyonat) asosiy tamoyil sifatida ko‘rinadi.

Yordamchi obrazlar – timsoliy vosita sifatida e’tirof etiladi. Yordamchi obrazlar (pari, kampir, qush, daraxt, sehrli buyum), ko‘pincha, ramziy ma’noga ega. Ular: Xudo inoyati yoki tabiatning kuchi sifatida talqin qilinadi. Masalan, “Sehrgar bola” ertagida yigitga yordam bergan kampir –oqsoqol nasihatining timsoli, oltin uzuk esa halollik va sabrning mukofoti sifatida aks etadi.

Yovuz obrazlar–ijtimoiy salbiy kuchlar sifatida qo‘llanadi. Yovuzlar, ko‘pincha, quyidagi obrazlar orqali gavdalanadi: Ajdaho, dev, zolim podsho, xunuk kampir, hasadgo‘y opa-singillar. Ular nafaqat individual shaxs sifatida, balki ijtimoiy adolatsizlik, zo‘ravonlik, johillikning ramzi sifatida ko‘rinadi.

O‘zbek ertaklarida ayol obrazlari ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Pozitiv: mehribon ona, sabrli qiz, sadoqatli yor (Zumrad, Ona duosi).

2. Negativ: yovuz kampir, hasadgo‘y xotin, zolim o‘gay ona (Qimmat, Kampir va dev). Bu kontrast xalq ongi uchun qanday ayol ideal hisoblanganini ham ko‘rsatadi.

Aksariyat ertaklarda asosiy g‘oya halollik, mehnatsevarlik, sadoqat va sabr fazilatlarining yovuzlik, hiyla, zo‘ravonlik ustidan g‘alabasidir. Bu bilan ertak xalqni axloqiy tarbiyalaydi, ijtimoiy ongni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek xalq ertaklari milliy madaniyat, axloq, estetik qarashlar va tarixiy ongni ifodalovchi noyob og‘zaki badiiy meros hisoblanadi. Ular o‘zining sujet qurilishi, obrazlar tizimi, ramziy mazmuni hamda g‘oyaviy qatlamlari bilan o‘zbek xalqining mentaliteti, orzu-umidlari, ijtimoiy ideallari va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi.

Maqolada quyidagilar asosiy ilmiy xulosalar sifatida ta’kidlanadi:

1. Ertaklarning klassik struktura va ramziy shakllari ularni nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy, psixologik vosita sifatida ham dolzarb qiladi.

2. Obrazlar tizimi orqali xalqning qadimiy dunyoqarashi, diniy tasavvurlari va ijtimoiy baholari ifodalanadi.

3. O‘zbek ertaklarini o‘rganishda hanuzgacha manbashunoslik, tasniflash, zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish bo‘yicha kamchiliklar mavjud.

4. Yangi yondashuvlar (komparativ tahlil, psixoanaliz, lingvokulturologik izlanishlar) ertaklarni yanada chuqurroq va tizimliroq o‘rganish imkonini beradi.

Demak, xalq ertaklarini tadqiq etish bugungi ilmiy muhitda ham dolzarb bo‘lib, bu yo‘nalishda yanada keng qamrovli, tizimli va xalqaro talabga mos izlanishlar olib borish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Пропп.В. Морфология сказки. “Academia”, Ленинград, 1928, 152 с.

(2). Леви-Строс К. Неприрученная мысль. Леви-Строс К. Леви-Строс К. Первобытное мышление. Москва, 1994, с. 390.

(3). Rustamov A. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent, “Fan”, 1978.

(4). Dundes A. Interpreting Folklore. Indiana University Press, 1980, 420 p.

(5). Шукуров А. Кулса – гул, йигласа – дур: эртаклар. 1983.
(6). Ўзбек халқ эртаклари. I – II томлар, Тошкент, Ўздавнашр, 1961– 1963.
(7). Мирзаев Т., Жураев М., Турдимов Ш., Эшонкулов Ж., Тиловов А. Ўзбек фольклори. Дарслик, Тошкент, “Тафаккур бўстони”, 2020, 240-бет.
(8). https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/51480
(9). https://tsuull.uz/uz/content/folklorshunoslik-va-dialektologiya

Juraboyev Ikromjon Abdullajon o‘g‘li (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti; juraboyevikromjon5@gmail.com)

IMOM G‘AZZOLIY – ZAMONDOSHLARI VA ZAMONAVIY G‘AZZOLIYSHUNOSLAR TALQINIDA

Annotatsiya. *Maqola islom tafakkuri tarixida “Hujjat ul-Haqq” rutbasi bilan nom qozongan Abu Homid Muhammad G‘azzoliyning serqirra boy ijodiy, ilmiy-ma’naviy merosini Sharq va G‘arb sharqshunoslari, shuningdek, g‘azzoliyshunoslar tomonidan o‘rganilishi tahliliga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar:*Sharq, G‘arb, Hujjat ul-Haqq, sharqshunos, Ba’daviy, Murtazo Zubaydiy, Faxri Majid.*

Джурабоев Икромджон Абдулладжон угли (докторант-исследователь Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; juraboyevikromjon5@gmail.com)

ИМАМ ГАЗАЛИ – В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ И СОВРЕМЕННЫХ УЧЁНЫХ-ГАЗАЛИСТОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу изучения многогранного творческого, научно -духовного наследия Абу Хамида Газали, известного в истории мысли Ислама как «Худжат ул-Хакк» востоковедами Востока и Запада, а также учеными-газаливедами.*

Ключевые слова: *Восток, Запад, ориенталист, Бадави, Муртаза Зубайди, Фахри Мажид*

Juraboev Ikromjon Abdullajon ugli (Research doctoral student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi; juraboyevikromjon5@gmail.com)

IMAM GHAZALI –IN THE INTERPRETATION OF HIS CONTEMPORARIES AND MODERN GHAZALI SCHOLARS

Annotation. *The article deals with the analysis of the study of the multifaced, rich, creative, scientific cultural heritage of Abu Khamid Mukhammad Ghazzali who was well known with the title of “Khujjat ul Khaqq”, by the western and Eastern orientalists, scholars who study Ghazzali’s work.*

Keywords: *East, West, orientalist, Badavi, Murtaza Zubaidy, Majeed Fahri*

Kirish. Arab-musulmon taffakkuri tarixida Muhammad G‘azzoliy kabi yirik ijodiy shaxs bo‘lmagan. Gap faqat, o‘zining shuhrati bilan o‘z zamondoshlari va oddiy xalq, Sharqning ziyolilari, vazirlar, amirlar va xalifalarning hurmatiga sazovor bo‘lganligida emas, gap shundaki, uning faoliyati o‘z davrining g‘oyaviy, falsafiy, siyosiy va madaniy darajasini belgilab berishidan tashqari, Sharq va G‘arb madaniyati rivojlanishiga ham ta’sir o‘tkazdi.

Abu Homid G‘azzoliy ijodiga qiziqish uning hayotlik davridayoq paydo bo‘lgan edi. O‘rta asrlar davridan boshlaboq, bir qancha tadqiqotchilar G‘azzoliyning asosiy tamoyillari bayon etilgan risolalariga o‘z e’tiborlarini qaratib, ularni tahlil qilish uchun bir qancha asarlar yozdilar. Xususan, Abu G‘ofur ibn Ismoil Foris Nishopuriy, Ibn Asakir, Ibn al-Javziy, Shamsiddin Abul Abbos Ahmad ibn Xolliqon, Imom Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahobiy, Shayx Salohiddin Abulsafa Xalil ibn Aybaki Sa’fadiy, Imom Abu Muhammad Abdulloh ibn As’ad ibn Ali ibn Sulaymon Afifaddin Yafan, Takiuddin Subki, Tosh Kubrazoda, Murtazo Zubaydiy va boshqalar. Bu o‘rta asr olimlari o‘z asarlarida G‘azzoliy qarashlarining g‘oyaviy yo‘nalishi va uning hayot yo‘lini tahlil qilganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. G‘azzoliy merosiga bo‘lgan domiy qiziqishni, jahon falsafasida shakllangan mutafakkir merosini o‘rganish an’anasi mavjudligi haqidagi fakt ham asoslaydi. Sharq va G‘arb tadqiqotchilari tomonidan G‘azzoliy ijodi ma’lum darajada o‘rganilgan, asarlarining haqiqiyligi belgilangan, shu bilan birga, ushbu asarlar xronologiyasi ham tuzilgan, uning falsafiy-teologik, ijtimoiy-axloqiy va pedagogik qarashlari umumiy tahlil qilib chiqilgan.

G‘azzoliy haqidagi ilmiy adabiyotlar hajmi va tadqiqot metodiga ko‘ra, quyidagi to‘qqizta guruhga ajratiladi: 1) biografik va bibliografik asarlar; 2) G‘azzoliyning faylasuflar bilan bahsiga doir asarlar; 3) G‘azzoliyning ismoiliylar bilan bahsiga doir asarlar; 4) falsafa va mantiqqa tegishli asarlar; 5) axloqqa doir asarlar; 6) zamonaviy sotsiologiya metodlaridan foydalanish orqali amalga oshirilgan qiyosiy tadqiqotlar; 7) G‘azzoliyning “Ihyou ulumid-din” asariga bag‘ishlangan tadqiqotlar; 8) mutafakkirning muayyan asarlariga doir tadqiqotlar; 9) tarjimalariga sharhlar [1;12-b.].

G‘azzoliy haqidagi tadqiqotlar to‘g‘risida gap ketganda, avvalo, arab olimlaridan: Al-Buqro Abdul-Ato, Al-Rifa’iy Ahmad Farid, Al-Shariyoziy Ahmad, Abdu Rahmon Ba’daviy, Rizo Muhammad, Muborak Zakiy, Umar Farrux, Majid Faxrilarni alohida ajratib ko‘rsatish lozim. Bu olimlar o‘z asarlarini bevosita G‘azzoliy falsafasidagi asosiy muammolarni tahlil qilishga qaratganlar.

Xususan, Al-Buqro Abdul Atoning “G‘azzoliyning iqrori”, Ar-Rifa’iy Ahmad Faridning “Al-G‘azzoliy” asarlarida alloma tarjimayi holi hamda risolalari haqida so‘z yuritilib, uning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-diniy roliga baho berib o‘tilgan. Al-Buqro G‘azzoliyning “Shubhalardan xalos qiluvchi” asarini ko‘rib chiqib, tahlil qilgan holda, uning g‘oyalari evolyusiyasining obyektiv bayonini berib, kashfiyotlariga e’tibor qaratadi.

Al-Buqro o‘z tadqiqotida mutafakkir dunyoqarashining ko‘pgina jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Al-Buqro tadqiqotlarining eng e’tiborli jihati shundaki, ushbu asar G‘azzoliy ijodiga bevosita tegishli bo‘lgan manbalarni har tomonlama o‘rganish asosida yozilgan. Shu bilan birga, al-Buqro bir qator muhim muammolarga yechim topa olmagan. Uning muammolari tahlilida G‘azzoliyning peripatetik falsafaga bo‘lgan munosabati ancha yuzaki yoritilgan.

G‘azzoliyning falsafa va axloq muammolariga bag‘ishlangan, hajman uncha katta bo‘lmagan, ammo tarkibi jihatidan ancha qimmatli hisoblangan Rizo Muhammadning “Al-G‘azzoliy” va Zakiy Muborakning “G‘azzoliy etikasi” asarlari mavjud. Rizo Muhammad tadqiqotlarining ijobiy tomoni, unda G‘azzoliy falsafasining ko‘pgina muammolari, xususan, ontologiya va gnoseologiya muammolari yetarli tarzda ochib berilgan. Zakiy Muborak G‘azzoliyning axloqiy ta’limotini tahlil qilishda, asosiy e’tiborni mutafakkir ta’limotining diniy tomoniga qaratadi. Umar Farruxning hammualliflikdagi “Arab tafakkuri tarixidan” asari va Faxri Majidning “Islom falsafasi tarixidan” [2;427-b.] nomli monografiyasidagi tadqiqotlarga kelsak, ular G‘azzoliy g‘oyalarini falsafa tarixi darsligi darajasida tahlil qilganlar.

Ancha qimmatli tadqiqotlar G‘azzoliy tavalludining 900 yilligiga bag‘ishlangan to‘plamda mavjud bo‘lib, u 36 ilmiy ma’ruzani o‘zida jamlagan. G‘azzoliy yashagan davr, uning hayot yo‘li va ijodiy merosi, shuningdek, uning realistik qarashlar rivojiga ko‘rsatgan ta’siriga bag‘ishlangan suriyalik Faylasuf Xolid Muizning–“G‘azzoliy Damashqda”, eronlik tadqiqotchi Mustafo Javodning “Imom al-G‘azzoliy davri”, Muhammad al-Muntasir al-Qattoniyning “G‘azzoliy va mag‘rib” va Muhammad Arjunning “G‘azzoliy shaxsiyatini tushunish kaliti” deb nomlangan maqolalari berilgan.

1985-yilda “Maorif” jurnalida G‘azzoliy tavalludining 900 yilligiga bag‘ishlangan eronlik tadqiqotchilarning maqolalar to‘plami nashr qilindi. Mutafakkirning hayot yo‘li, ijodi va biografiyasiga Ismoil Saodatning “Hujjatulislom – G‘azzoliy haqida esdaliklar”, Nasrullo Puriy Xavorning “Aynalkuzot va Imom Muham-mad G‘azzoliy” nomli maqolalari berilgan. Unda, shuningdek, mutafakkirning islom dini, kalom ilmi, mantiq, so‘fiylikdagi roli va o‘rni ko‘rib chiqilgan [3;8-b.]. Aynalkuzot Hamadoniyning G‘azzoliyga qarshi qaratilgan tanqidi asosan axloq, ontologiya, gnoseologiya va uch olam muammolariga tegishli.

Muhammad Xansoriy “G‘azzoliyning falsafa va mantiqqa bo‘lgan munosabati” nomli maqolasida G‘azzoliyning peripatetik falsafasidan chuqur xabardorligini hisobga olib, uning matematika, fizika va mantiqqa bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Shuningdek, u Ibn Rushdning G‘azzoliy falsafasiga nisbatan egallagan pozisiyasini tanqid ostiga oladi. Abdul Karim Surush “G‘azzoliy va mavlaviya” maqolasida so‘fiy Jaloliddin Rumiyning G‘azzoliyga bo‘lgan munosabatini belgilab, “Diniy ilmlarni jonlantirish” asarini “Masnaviyi ma’naviy” bilan taqqoslab, G‘azzoliyning Jaloliddin Rumiy qarashlariga bo‘lgan ta’sirini isbotlab beradi.

To‘plamda G‘azzoliy falsafasiga bag‘ishlangan Abdu Rahmon Ba’daviyning “G‘azzoliy va uning grek manbalari”, Muhammad al-Findiyning “G‘azzoliyning diniy falsafasidan”, Muhammad Abdul Muiz Nasrning “G‘azzoliyning siyosat falsafasi”, Hasan as-Saatiyning “G‘azzoliy ta’limotida pozitivizm”, Xiyom an-Nuvaylatning “G‘azzoliy ta’limotida shubhalar amaliyoti”, Ali Abu Bakrning “G‘azzoliy fanlarni yangilovchi”, Abdul Hamid Hasanning “Haqiqatni anglashda G‘azzoliy uslubi”, Taysir shayx al-Ardning “G‘azzoliy ta’limotida bilish nazariyasi”, Muhammad al-Hoshimiyning “G‘azzoliyni tushunishda sabablilik va muvofiqlik” kabi maqolalari mavjud.

Abdu Rahmon Ba’daviy, Hasan as-Saatiy, Bayumiy Makdur, Usmon Iso Shaxniy va boshqalar G‘azzoliy qarashlarini ilohiyotga doir emas, balki falsafiy deb qarab, allomaning falsafiy dunyoqarashini ijobiy va ob’yektiv tomondan yoritishgan. Shuningdek, Salohiddin Saljuqiyning “G‘azzoliyning axloq sohasiga ta’siri”, Fatxiy Sulaymonning “G‘azzoliy tarbiya to‘g‘risida”, Usmon Aminning “G‘azzoliy ta’limotida axloq”, Ibrohim al-Qattonning “Imom al-G‘azzoliy – o‘qituvchi va tarbiya”, Muhammad Mexti Alomning “G‘azzoliy hasad haqida”, Abdul Karim Usmonning “G‘azzoliy psixologiya funksiyasi haqida” kabi maqolalari ancha qiziqish uyg‘otadi. Ularda mutafakkirning axloqiy-psixologik va pedagogik qarashlari tahlil qilingan. G‘azzoliy tasavvufiy dunyoqarashining o‘ziga xosligini tushuntirib berishga bag‘ishlangan maqolalar jumlasiga

Ahmad Faud al-Axvoniyning “G‘azzoliy ijodida diniy hissiyot”, Umariddinning “G‘azzoliyda muhabbat tushunchasi Xudoga muhabbat alomati bilan” va Abduhalim Mahmudning “Imom al-G‘azzoliy va sirni anglash” kabilarni kiritish mumkin. Ushbu maqolalar mualliflari mantiqiy tarzda, G‘azzoliy tasavvufidagi asosiy vazifa ekstatik holat bilan o‘zidan ketish orqali emas, balki vaqtga bog‘liq bo‘lmagan tajriba, ma’naviy shakl orqali erishish lozimligini qayd qilganligini ta’kidlab, bu pozisiya uning bilish nazariyasiga ta’sir o‘tkazganligini asoslashga harakat qilganlar.

G‘azzoliyning peripatetiklarga bo‘lgan munosabati, uning Sharqdagi peripatetizmni tanqid qilishi, sunniylik bilan tasavvufni birlashtirishga qo‘shgan hissasi hamda falsafa va dinning o‘zaro bog‘lanishi, aql va kashfiyot masalalari Ali Xalabiyning “Faylasuflarga raddiya” asaridagi “So‘zboshi”sida, Zabeullax Safoning “Islomda dunyoviy fanlar”, Ehson Tabariyning “Mutakallimlar va falsafaga tanqid”, G‘ulom Husayn Ibrohim Dinoniyning “Islom dunyosida falsafiy tafakkurdagi ziddiyatlar” [4;211-b.] va Said Jaloliddin Oshtiyoniyning “Muhammad G‘azzoliyning “Faylasuflarga raddiya”sini aniqlashtirish” asarlarida bayon qilingan.

Eron olimi Sayyid Muhammad Hotamiy “Islom tafakkuri tarixidan” deb nomlangan asarida G‘azzoliyning peripatetik falsafaga ko‘rsatgan ta’siri va uning adolatli jamiyat qurish borasidagi fikrlarini tahlil etib, o‘z munosabatini bildiradi.

G‘azzoliyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari Husayn Ibrohimning “Islomning siyosiy tarixi”, Askar Huquqiyning “Eronda va Islomda siyosiy g‘oyalar tarixi”, Taba Tabaiyning “Eronda siyosiy tafakkurning inqirozi”, “Eronda siyosiy tafakkur tarixiga falsafiy so‘zboshi” va Hotam Qodiriyning “G‘azzoliyning siyosiy qarashlari” kabi asarlarida tadqiq qilingan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, G‘azzoliy musulmon jamoasida ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etishda rasionalistik pozisiyani egallab, o‘zining obyektivligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, pokistonlik tadqiqotchilar Sa’id Shayxning “Mutoliati tatbiqidar falsafai islom” (Islom falsafasining qiyosiy o‘rganilishi) va Abul Xoliqning “G‘azzoliy etikasi” asarlarida “fayz” nazariyasi, iloxiy bilimlar, qalb, diniy tajriba, sababiylik, iroda erkinligi kabi muammolarga e’tibor qaratadilar. Pokistonlik shoir va mutafakkir Muhammad Iqbol o‘zining “Eronda falsafaning rivojlanishi” asarida mutafakkirning fal-safa va axloq haqidagi g‘oyalarini tahlil qilib, uni buyuk skeptik deb nomlaydi.

Tahlil va natijalar. Bunga o‘xshash tadqiqotlarni, shuningdek, Luis Gardetning “Islom: din va jamiyat” asarida ham ko‘rish mumkin. Tadqiqotchi G‘azzoliyning “Shubhalardan xalos qiluvchi” asariga tayanib, uning teologik faoliyat davrini tahlil qilib, u reformator sifatida o‘z ishini oxirigacha yetkaza olmadi, ammo, umrining oxirigacha ilohiyotshunos bo‘lib qoldi, degan xulosaga keladi. Bu g‘oyani boshqa bir tadqiqotchi A.Laust davom ettiradi. U “Siyosat va G‘azzoliy” nomli asarida sunniylik siyosiy ta’limotining shakllanishi, ummatning tamoyillari, imom va sultonlarning diniy, sud va ijro amaliyoti sohalaridagi vazifalar hamda muammolari bo‘yicha G‘azzoliy g‘oyalarining mohiyatini mufassal tahlil qiladi.

1. Turk faylasufi Muboxat Turkerning 1956-yilda Anqarada “uch raddiya” nuqtayi nazaridan falsafa va din o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar” maqolasida musulmon mualliflariga tegishli uch “Raddiya”ni G‘azzoliyning “Faylasuflarga raddiyasi”, Ibn Rushdning “Raddiyaga raddiya” va Turk ilohiyot olimi Xoja Zodaning “Faylasuflarga raddiya”sini taqqoslab, G‘azzoliy g‘oyalarini himoya qiladi.

XIX asr boshiga kelib G‘arbiy Yevropada sharqshunoslar tomonidan G‘az- zoliy ijodiga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Asin Palasios, Artur Arberri, Venzik, M.Smit, I.Oberman, D.B.Makdonald tahlil qilib, mutafakkir qarashlarini tarixiy usul doirasida tadqiq qiladi.

2. F.Jabrening “Psixologik va tarixiy negizda G‘azzoliyni haqiqatan tushunish”, “G‘azzoliyni anglash nazariyasi”, “Al-G‘azzoliy”, Umaruddinning “Al-G‘azzoliy falsafasida axloq” va Abul Qosimning “Al-G‘azzoliy etikasi. Islomda sinkretik etika” asarlarini ham alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ushbu mualliflar G‘azzoliy ijodida psixologiya, axloq, ontologiya va gnoseologiya muammolarini chuqur va beg‘araz tahlil qilishgan.

3. Inqilobgacha bo‘lgan Rossiyada G‘azzoliy haqida yozilgan Rizouddin Faxriddinning “Imom G‘azzoliy” asari diqqatga sazovordir. Muallifning ta’kidlashicha, G‘azzoliy islom ta’limoti muhtoj bo‘lgan davrda paydo bo‘lgan. Biroq, deb ta’kidlaydi muallif, islom ta’limotini himoya qilib, G‘azzoliy faylasuflarga nisbatan hujumga o‘tadi va bu ularning g‘azablanishiga olib keladi.

4. G‘azzoliy haqida rus sharqshunoslarining asarlari juda ham kam. A.E.Shmid va A.Y.Krimskiyning asarlarini shu yerda aytib o‘tish mumkin. G‘azzoliy asarlari bo‘lmaganligi sababli Rossiya sharqshunoslarining ko‘pchiligi mutafakkir ijodi bilan tanishligi yuzaki bo‘lgan. Bunga A.Y.Krымskiy tomonidan o‘sha davrda Yevropa sharqshunoslarining G‘azzoliyga “faylasuflar kushandasi” sifatida qarashlarini takrorlashi yaqqol misoldir.

Ko‘pgina rus va Sobiq Ittifoq tadqiqotchi sharqshunoslari uchun G‘azzoliy g‘oyalari jaholatparastlikni inkor etib bo‘lmas isboti hisoblanardi. Shu sababli G‘azzoliy falsafasi maxsus o‘rganiladigan predmet hisoblanmas edi.

5. G‘azzoliyning ba’zi bir g‘oyalari talqini, masalan, uning tasavvufiy qarashlari G.M.Kerimovning “G‘azzoliy va so‘fizm” [5;7-b.] asarida ko‘rib chiqilgan. S.K.Grigoryanning “Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining o‘rta asrlar falsafasi” nomli monografiyasida G‘azzoliy ijodiga maxsus bob ajratilgan. Allomaning diniy reformatorlik faoliyati I.L.Petrushevskiyning “VII–XV asrlarda Eronda islom” asarida ko‘rib chiqilgan.

G‘azzoliyshunos olimlar ko‘pchiligining umumiy e’tirofiga ko‘ra, xristian ilohiyotshunoslari tomonidan musulmon mutafakkirlari oldiga qo‘yilgan masalalarga asosan G‘azzoliy javob berganini ta’kidlashadi. Shu sababli, Professor Xitti uning javoblarini “botiniy-psixologik javoblar”, [6;28-b.] deydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, haqiqiy dindorlik va o‘ta insoflilik G‘azzoliy asarlariga ulug‘vorlik baxsh etgan. Shu sababli G‘azzoliyning serqirra boy ilmiy-ijodiy va ma’naviy merosi Sharq va G‘arb tadqiqotchilarining doimiy diqqat markazida bo‘lgan. Buning asosiy sababi, tasavvufning qonunlashtirilgan qoidalari va uning ko‘plab musulmon dinshunoslari tomonidan tan olinishida G‘azzoliy xizmatlarining mahsuli ekanligi. Musulmon tafakkuri tarixida G‘azzoliyning roli va o‘rni eronlik mualliflarning sharhlarida ham yaqqol ko‘rinadi. G‘azzoliyga bag‘ishlangan mashhur asarlardan biri Jaloliddin Humoyunning “G‘azzoliynoma” asari. Bu monografiyada muallif, mutafakkir davridagi ijtimoiy-siyosiy sharoit muammolarini yoritib, ularning mutafakkir hayoti va ijodiga ta’sirini ko‘rsatib o‘tadi. G‘azzoliyning falsafa, siyosat, axloqqa bo‘lgan munosabatini tahlil qiladi. Shu bilan birga, G‘azzoliy asarlarining musulmon dunyosi falsafiy tafakkurida katta rol o‘ynaganini isbotlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Наумкин В.В. Трактат. Газель «Воскрешение наук ро вере» Абу Хамида. М., “Наука”, 1980, с. 12.

(2). Fakhry M. A history of islamic philosophy. N.Y. L., Colambia univ press, 1970, r. 427.

(3 Шамолов А.А. Философско-теологические воззрения Газали. Диссертация на соиск. учёной степени доктора философ. наук, Душанбе, 2003, с. 8.

(4). G‘ulom Husayn Ibrohim Dinoniy. Mocharoi fikri falsafi dar chaxoni islom. Tehron, 1376, s. 211.

(5). Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, “Sharq”, 2009, 6–7-betlar.

(6). Mahmud As’ad Jo‘shon. Tasavvuf va go‘zallik. Toshkent, “Movarounnahr”, 2006.

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Namangan davlat Chet tillari instituti dotsenti; E-mail: odadaboev@mail.ru)

G‘ARB ADABIYOTI HUJJATLI ROMANLARIDA AMIR TEMUR SIYMOSI TASVIRI

Annotatsiya. *Maqolada G‘arb adabiyotidagi hujjatli romanlar janrida Amir Temur siymosining badiiy talqini hamda tarixiy haqiqatning adabiy interpretatsiyasi tahlil qilinadi. Fransuz adabiyotidagi asarlar misolida sarkarda obrazining g‘arbona idrokdagi shakllanishi va unga ta’sir ko‘rsatgan madaniy hamda mafkuraviy omillar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, G‘arb adabiyoti, hujjatli roman, tarixiy obraz, badiiy talqin, tarixiy dalillar.*

Дадабоев Олимжон Ортикович (доктор философии по филологическим наукам, доцент, Наманганский государственный институт иностранных языков; E-mail: odadaboev@mail.ru)

ОБРАЗ АМИРА ТЕМУРА В ДОКУМЕНТАЛЬНЫХ РОМАНАХ ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В статье анализируется художественная интерпретация образа Амира Темура в жанре документального романа западной литературы, а также литературное осмысление исторической правды. На материале произведений французских авторов раскрываются особенности формирования образа полководца в западном восприятии и культурно-идеологические факторы, повлиявшие на этот процесс.*

Ключевые слова: *Амир Темур, западная литература, документальный роман, исторический образ, художественная интерпретация, исторические факты.*

Dadaboyev Olimjon Ortiqovich (Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Associate Professor Namangan State Institute of Foreign Languages; E-mail: odadaboev@mail.ru)

THE DEPICTION OF AMIR TEMUR IN DOCUMENTARY NOVELS OF WESTERN LITERATURE

Annotation. *The article analyzes the artistic interpretation of the image of Amir Temur in the genre of documentary novels in Western literature, as well as the literary comprehension of historical truth. Based on works by French authors, the study reveals the peculiarities of the formation of the military leader’s image in the Western perception and the cultural and ideological factors that influenced this process.*

Keywords: *Amir Temur, Western literature, documentary novel, historical image, artistic interpretation, historical facts.*

Kirish. Jahon adabiyotida tarixiy shaxslar va voqealarni hujjatlarga asoslangan ravishda yoritish, ilmiy-tarixiy manbalardan foydalangan holda badiiy asarlar yaratish yangi estetik hodisaga aylangan. Bu hodisaning shakllanishi va taraqqiyoti adabiyotshunoslikdagi muhim an'analardan biri bo‘lib, u nafaqat badiiy nasrga, balki ma'rifiy va ilmiy-tarixiy adabiyotga ham yangicha nuqtai nazarni olib kirdi. Endi bunday ijodiy jarayonning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq tadqiq etish, uning asosidagi estetik va metodologik qonuniyatlarni aniqlash, shu bilan birga, bunday asarlarga xolis va ilmiy asoslangan baho berish masalalari dolzarblik kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. G‘arb adabiyotida, ayniqsa, hujjatli romanlar yaratish XX asr so‘nggi choragidan boshlab jiddiy taraqqiy eta boshladi. Bu kabi asarlar tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini nafaqat badiiy tasvir, balki ilmiy tahlil va hujjatlarga tayanib yoritishga qaratilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifasi – o‘quvchini tarixiy voqealarning haqiqiy manzarasi bilan tanishtirish va ma'naviy-estetik his-tuyg‘ular bilan bir vaqtda aqliy tafakkurini ham rivojlantirishdir. Shu tariqa, bunday asarlar jahon adabiyotida tarixiy badiiylik va ilmiy tadqiqotlarning muvaffaqiyatli uyg‘unlashuvi sifatida qabul qilinmoqda. Xususan, fransuz yozuvchisi Jan Pol Runing “Tamerlan” [4;240-b.] badiasi ana shunday asarlardan biridir. Asar ikki qismdan iborat: birinchi qismi Amir Temurning davlat tepasiga kelishi hamda fotihlik yurishlariga bag‘ishlangan; ikkinchi qismda muallif Sohibqiron haqidagi o‘z qarashlarini yozadi. Biz uchun asarning ana shu ikkinchi qismi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, yevropalik temurshunos yozuvchilar ichida Jan Pol Ru birinchilardan bo‘lib Amir Temur masalasiga dalillarga suyangan holda xolis yondashishga harakat qilgan.

Jan Pol Ru asarning kirish qismida Amir Temur shaxsiyatidagi qarama-qarshiliklar haqida so‘z yuritadi: “Temur shaxsiyatidagi hamma narsa ziddiyatli bo‘lib tuyuladi. Buyuk amirni bizga haddan tashqari mag‘rur etib tasvirlashgan, biroq u taxtga boshqa kishini o‘tqazib, o‘zi oddiygina mansab bilan cheklangan. U me'moriy obidalarni vayron qilgan, lekin, shu bilan birga, jon dili bilan ularni qurgan ham. U shafqat nimaligini bilmagan, biroq, shu bilan birga, kechirimli bo‘lgan” [3;15-b.]. Jan Pol Ru ana shunday uslub va tasvir bilan o‘quvchi e'tiborini tortadi. Asar avvalida qo‘yilgan bu muammo o‘quvchini asarga va, albatta, Amir Temur shaxsiga bo‘lgan qiziqishini orttirishi, shubhasiz.

Ko‘pchilik ongida Sohibqiron salbiy shaxs sifatida qotib qolgan. Lekin har qanday zamonaviy tadqiqotda oqlash va tiklashga bo‘lgan intilish mavjudki, bu qoida tusiga kirgan. Jan Pol Runing fikricha, tarixchilar asrlar davomida o‘z davrida hukmron bo‘lgan g‘oya va boshqa ta'sirlar ostida qolganlar. Endi esa zamon o‘zgarib, tarixiy dalillar ma'lum bir manfaatlar asosida emas, balki xolis o‘rganish vaqti kelganini nazarda tutish kerak [3;135-b.]. Yozuvchining gapi haqiqat. Zero, nafaqat sobiq sho‘ro tuzumi hukm surgan o‘lkalarda, balki bir qator G‘arb mamlakatlarida ham davrga xos g‘oyaviy ta'sirlar Amir Temur shaxsiga baho berishda jiddiy rol o‘ynagan.

Jan Pol Runing Amir Temur atrofida bildirilgan fikrlar va u haqda bitilgan yozma manbalardagi mayda-chuyda, bir qarashda arzimasdek bo‘lib ko‘ringan dalillardan asl manzarani tiklashga uringani va bunga erishgani asar boshidanoq ma'lum bo‘lib turadi.

Jan Pol Ru ba'zi o‘rinlarda o‘zi uchun ustoz sifatida bo‘lgan Rene Grusse fikrlariga qarshi chiqadi. “Temurni yomon ko‘rganidan Rene Grussening shunchalar “ko‘zi ko‘r” bo‘lganki, hatto uni “strategik makiavellizm”da, “davlat manfaatlari bilan uyg‘unlashib ketgan yovuz ikkiyuzlamachilik”da ayblaydi va, tabiiyki, men uning bu fikrlariga qo‘shila olmayman”. O‘ziga “Kuch adolatdadir” degan shiorni bayroq qilib olgan insonning ayyor va dog‘uli bo‘lganiga men ishonmayman”, deydi u. Temurning hayotida do‘stlikka xiyonat qilganlarga nisbatan nafratini isbotlovchi ko‘plab voqealar bo‘lgan. Harbiy hiyla ishlatish – bu haqqoniy siyosatdir. U har doim ham o‘z rejalarini sir tutgani, doimo g‘animlarini o‘zi qo‘ygan tuzog‘iga tushirgani – bularning hammasi jang qoidalari doirasidagi ishlardir [3;144-b.].

Yana bir o‘rinda yozuvchi, Temur haqiqatda his-tuyg‘usiz inson edimi, degan savolga javob berishga harakat qiladi. Buyuk amir haqiqiy, chin muhabbat bilan sevishga qodir inson bo‘lgan, deydi u. U o‘z oilasiga qattiq bog‘lanib qolgan bo‘lib, ular uchun hamma narsaga tayyor edi. Xususan, qiyin kunlarida hamisha yordam qo‘lini cho‘zgan singlisi Turkon Oqani umrining oxirigacha inilik muhabbati bilan sevgan, uning uchun dunyodagi eng go‘zal maqbaralardan birini qurdirgan. Otasi oldidagi o‘g‘illik burchini, bir dam bo‘lsin, unutmagan: harb yurishlaridan vataniga qaytganda doim, ishi ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, uning qabrini ziyorat qilish uchun vaqt ajrata olgan. O‘g‘li Jahongir Mirzo va qizi Oqa Begining vafoti uning qaddini bukadi. Nevarasi Muhammad Sultonning o‘limi esa uni butkul umidsizlikka tushirib qo‘yadi.

Sulton Boyazidning o‘limidan qattiq qayg‘uradi. Ulug‘bek tug‘ilganda esa butun Mordin aholisiga avfi umumiy e’lon qiladi.

Yozuvchi Jan Pol Ru Sohibqiron hayotidagi ana shunday qayg‘uli, ba’zan esa shodlik onlarini bayon qilar ekan, Sohibqiron “qalbining tubiga tushganing sayin uning botinidagi suv zohiriga qaraganda ancha tiniq ekani ayonlashadi”, - deya ta’kidlaydi [3;142-b.].

Jan Pol Runing fikricha, Anatoliyadagi vayronagarchiliklar ham afsona bo‘lib, haqiqatga mos kelmaydi [3;159-b.]. Bu fikrni turkiyalik olim Marmara universiteti professori Mehmed Shimshirgil ham tasdiqlaydi. Uning ta’kidlashicha, Amir Temurning Turkiyani bosib olishi masalasida ko‘plab soxta ma’lumotlar mavjud. Masalan, Boyazid haramining xo‘rlanishi, Sivosdagi qirg‘in haqidagi gaplar, umuman, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi, deb aytadi u [5].

Natijalar. Amir Temur vayronkorlikni yomon ko‘rganini, hatto sho‘rolar davrida u haqda asar yozgan Sergey Borodin ham tasdiqlagan. Xususan, u “Samarqand osmonida yulduzlar” asarida shunday deb yozadi:

“ *–Ko‘rdingizmi, kimning gunohini so‘raganingizni? ...Kimni yoqladingiz? – dedi u ginaxonlik bilan. – Bizlar quramiz, u yovvoyi cho‘chqa buzadi*” [1;17-b.].

Fransuz yozuvchisi, Temur bosib olingan o‘lkalarning ilm ahlini Samarqandga jo‘natgani haqidagi gaplardan hamma bezor bo‘ldi, deydi. Bu haddan tashqari bo‘rttirib aytilgan gaplardir... Albatta, u mayda hunarmandlarni va bir qancha mohir ustalarni olib keltirgan. Shu o‘rinda, balki, ularni oliyhimmat homiy sifatida o‘z mamlakatiga jalb qilmaganmikin, degan o‘rinli savol tug‘iladi. Na Ibn Xaldun va na Hofiz Abro‘ Transoksiana yo‘liga qadam bosganlar. Shuning uchun iste’dod, ilm va san’at rivoj topishi uchun ma’lum bir muhit zarur ekani haqiqat. Qandaydir bir tabibning Damashqdan, musiqachining Bag‘doddan ko‘chirib olib kelingani ma’lum. Bir qancha kerakli odamlar Bursadan olib kelingan, biroq ularning hammasi oradan bir qancha vaqt o‘tgach, ozod qilingan [3;180-b.].

Muhokama. Jan Pol Runing gapida jon bor. Zero, Damashqdan qul qilib haydab kelingan Ibn Arabshohning Samarqandda olgan tahsilini erli xalqning ancha-muncha bolasi ko‘rmagan edi. Aytishlaricha, Ibn Arabshoh Samarqandda o‘z davrining ilg‘or ziyolilaridan saboq olgan. “Samarqandda yashagan yillari (1401–1408) Ibn Arabshoh o‘z bilimini istaganicha oshirishga muyassar bo‘lgani va keyinchalik juda ko‘p o‘lkalarga sayohat qilgani uning Samarqandda biror tazyiq ostida yashamaganligidan dalolat beradi… O‘sha vaqtda Samarqandda istilo etilgan mamlakatlardan keltirilgan taniqli olim, tabib, faqih, san’atkor va hunarmandlarning ko‘p bo‘lgani Ibn Arabshoh kabi ilm toliblarining etarli bilim olishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi” [2;11-b.].

Jan Pol Runing keyingi e’tirozi Amir Temurni savodsiz deb aytganlarga qarshi edi. “Bu bilan nimani nazarda tutganlarini bilishni xohlardim”. Agar u yoshligidayoq Kesh darveshlari qo‘lida ta’lim olgan bo‘lsa, o‘qish va yozishni bilmasligi g‘alati bo‘lar edi. Amir Temurning biografiyasini yozganlar uni faqat arab tilini bilmasligini aytmoqchi bo‘lganliklarini taxmin qilishga asosimiz bor. Ibn Arabshoh Amir Temurning arab tilini bilmasligi haqida yozgan. Bu ma’lumotni o‘ziga dastak qilib olgan ba’zi bir g‘arblik “bilimdonlar” Sohibqironni muman savodsiz bo‘lgan, deb og‘iz ko‘pirtiradilar. Ammo yana xuddi shu Ibn Arabshohning Amir Temur fors, turk va mo‘g‘ul tillarini boshqalardan yaxshi bilgan, deb aytgan ma’lumotini ana shular bilib bilmaganlikka oladilar.

Yana diqqatga sazovor tomoni shundaki, aynan Sohibqiron nomi bilan bog‘liq bo‘lgan Uyg‘onish davri borki, buni Jan Pol Ru ham o‘z kitobida Temuriylar Uyg‘onish davri deb ataydi. “Temuriylar Uyg‘onish davri musulmon tsivilizatsiyasi tojining eng go‘zal javohirlaridan biridir”, deb ta’riflaydi u [3;264-b.].

Amir Temur haqidagi Sharq manbalarining yevropaliklar tomonidan o‘rganilishi G‘arb adabiy kontekstidagi mazkur mavzudagi mazmun mohiyatiga bir qancha o‘zgarishlar olib kirdi. Arab, fors tilida yozilgan ko‘plab manbalardagi Amir Temur to‘g‘risida ma’lumotlar sharqshunoslar uchun katta ijodiy arsenal vazifasini bajara boshladi.

Xulosa. Bizningcha, har qanday janrdagi asarda ham, agar bu asar tarixiy shaxs haqida bo‘lsa, o‘tmishda ro‘y bergan voqealar mohiyatiga chuqurroq kirib borish taqozo etiladi. Tarixiy shaxsning o‘sha davr jamiyatidagi o‘zgarishlarga qay darajada aloqasi bor, bu o‘zgarishlar kishilik jamiyatining rivojlanishi-ga olib keldimi yoki inqirozga sabab bo‘ldimi, mana shu kabi savollarga ham javob berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бородин Сергей. Самарқанд осмонида юлдузлар. 2-китоб, Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1970.

(2). Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. У.Уватов сўз боши. Т., “Меҳнат”, 1992.

(3). Ру Жан Пол. Тамерлан. М., “Молодая гвардия”, 2007.

(4). Roux, Jean-Paul. Tamerlan. “Paris: Fayard”, 1991.

(5). https://www.youtube.com/watch

Seytniyazov Tursinboy (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika institutining mustaqil izlanuvchisi)

PEYZAJ TASVIRNING ZAMON IFODASI

Annotatsiya*. Maqolada tabiat obrazining badiiy asarda xronotopni yaratishga munosabati haqida adabiyotshunoslik fanida dalillar mavjud. Xronotopning asosiy qismi bo‘lgan vaqtni ifodalashda ham tabiat tez-tez ishtirok etadi. Ayniqsa, yil fasllarini tabiat obrazlari ifodalasa, bu ijodkorning badiiy haqiqatga munosabati hisoblanadi. Tabiat obrazining mavsumiy vaqtni anglatishi – xronotopning obrazli ifodasi ham hisoblanadi. “Adabiy asar cheksiz ko‘p namunaviylik va chuqur ma’noga ega bo‘lgan zamon va makon tushunchasiga ega. Bu yerda vaqt obrazi biografik (bolalik, yoshlik, keksalik, qarilik), tarixiy (asrlar va avlodlar almashinuvi, jamiyat hayotidagi yirik voqealar tavsifi), kosmik (abadiy va dunyoviy tarix haqida tushuncha), kalendar (yil fasllarining, odatdagi kunlar va bayram kunlarining o‘zgarishi), sutkalik (kunduz va tun, tong va oqshom) ishtirok etadi, shuningdek, harakatda bo‘ladigan va bo‘lmaydiganlar, o‘tmishning, bugunning, kelajakning aloqasi haqida tushuncha olishga harakat qilgan va shu bilan milliy adabiyot janrlarni takomillashtirgani maqolada oz ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiyot, nasr, roman, badiiy tasvir, vaqt, peyzaj.*

ВЫРАЖЕНИЕ ВРЕМЕНИ В ОБРАЗЕ ЛАНДШАФТА

Аннотация. *В статье приводятся литературоведческие данные о связи образа природы с созданием хронотопа в художественном произведении. Природа также часто участвует в отображении времени, которое является ключевой частью хронотопа. Особенно когда времена года представлены образами природы, это отражает отношение художника к художественной реальности. Изображение природы как сезонного времени также считается образным выражением хронотопа. В литературном произведении бесконечное множество примеров и глубокий смысл понятия времени и пространства. Здесь образ времени биографический (детство, юность, старость, дряхлость), исторический (смена веков и поколений, описание важнейших событий в жизни общества), космический (концепция вечной и светской истории), календарный (смена времен года, обычных дней и праздников), суточный (день и ночь, рассвет и закат), а также попытки понять соотношение между тем, что находится в движении, и тем, что не находится в движении, прошлым, настоящим и будущим, и, таким образом, совершенствование жанров национальной литературы, что отражено в статье, немногочисленны.*

Ключевые слова: *литература, проза, роман, изобразительное искусство, время, пейзаж.*

TIME EXPRESSION OF LANDSCAPE IMAGE

Annotation. *The article presents evidence in literary criticism about the relationship of the image of nature to the creation of a chronotope in a work of art. Nature also often participates in the expression of time, which is the main part of the chronotope. Especially when the images of nature express the seasons of the year, this is the attitude of the artist to artistic reality. The representation of seasonal time by the image of nature is also a figurative expression of the chronotope. A literary work has an infinite number of examples and a deep meaning of the concept of time and space. Here, the image of time is biographical (childhood, youth, old age, senility), historical (change of centuries and generations, description of major events in the life of society), cosmic (concept of eternal and secular history), calendar (change of seasons, ordinary days and holidays), diurnal (day and night, dawn and dusk), as well as attempts to understand the relationship between what is and what is not in motion, the past, present, and future, and thus the improvement of national literature genres, which is reflected in the article, are few.*

Keywords: *Literature, prose, novel, painting, time, landscape.*

Kirish (Введение/Introduction). Tabiat obrazining badiiy asarda xronotopni yaratishga munosabati haqida adabiyotshunoslik fanida dalillar mavjud. Xronotopning asosiy qismi bo‘lgan vaqtni ifodalashda ham tabiat tez-tez ishtirok etadi. Ayniqsa, yil fasllarini tabiat obrazlari ifodalasa, bu ijodkorning badiiy haqiqatga munosabati hisoblanadi. Tabiat obrazining mavsumiy vaqtni anglatishi – xronotopning obrazli ifodasi ham hisoblanadi. Adabiy asar cheksiz ko‘p namunaviylik va chuqur ma’noga ega bo‘lgan zamon va

makon tushunchasiga ega. Bu yerda vaqt obrazi biografik (bolalik, yoshlik, keksalik, qarilik), tarixiy (asrlar va avlodlar almashinuvi, jamiyat hayotidagi yirik voqealar tavsifi), kosmik (abadiy va dunyoviy tarix haqida tushuncha), kalendar (yil fasllarining, odatiy kunlar va bayram kunlarining o‘zgarishi), sutkalik (kunduz va tun, tong va kech) ishtirok etadi, shuningdek, harakatda bo‘ladigan va bo‘lmaydiganlar, o‘tmishning, bugunning, kelajakning munosabati haqida tushuncha [7;213-b.]. Mashhur nazariyotchining vaqt xronotopini sanab o‘tganini va ular orasida mavsumiy xronotopning mavjudligini ham ko‘rdik. Ana shu mavsumiy vaqt birligi peyzaj tasviri orqali qanday yaratilishini o‘rganish adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan muhim sanaladi.

A(dabiyotlar tahlili va metodlar (Литература/Materials и метод and methods). Mavsumiy vaqt tabiat obrazi orqali bevosita ifodalanmasdan, balki o‘simliklarning tur-tusi, ularning o‘sib rivojlanish bosqichlarining tasviri, hayvonlar, qushlarning harakati, yer, suv, havodagi o‘zgarishlar, osmon jismlarining harakatlari va h.k. orqali ifodalanadi. Bunda yozuvchidan bu hodisalarni bilish ham talab etiladi. Agar yozuvchi shu hodisalarning tub mohiyatini tushunmay tasvirlasa, unda bu obraz ishonchsiz chiqadi. «Tań sáhár háwlige shıqqan Ís’haq mollanıń qulaǵına tırrıwlaǵan ses shalındı. Ol basın kóterip, kókke kóz tasladı. Ál-hawada sap dizilip, quslar ushıp barar, olardıń názeri shıǵıs tárepke baǵdarlanǵan edi» [2;118-b.].

Muhokama (Обсуждение/Discussion). Bu manzaraga e’tibor bersak, qushlarning tong sahardan to‘planib, tipirchilab uchib borayotgani ularning uzoq parvozga otlanganini anglatadi. Qushlar erta bahorda va kuzda shunday uzoq parvozlarni amalga oshiradi. Erta bahorda ular janubdan shimolga uchib keladi, kuzda esa, aksincha, sharqi-janubga qarab yo‘l oladi. Demak, bu yerda voqea kuzda yuz berayotganini o‘quvchi anglaydi. Yozuvchi vaqt birligini obrazli qilib yasash uchun shu yo‘lni tutgan. Agar u voqeani “erta kuz edi” yoki “kech kuz edi” deb boshlasa ham, vaqtni anglatar edi. Ammo bu holda asarda badiiylik yo‘qoladi, u oddiy xabar bo‘lib qolar va bu publitsistik janrning tasvirlash usuli hisoblanadi.

Ikkinchidan, bu tasvirda ramziy ma’no ham bor. Is’hoq mulla bu vaqtda ustozi Alovuddin xo‘janing topshirig‘i bilan Iroqda bo‘lib turgan edi. U yerga ilm o‘rganishga borgan Is’hoq mulla Mas’ud shayxning uyida ancha vaqtgacha to‘xtab qoladi. U yerda ilm o‘rganadi, Mas’ud shayx uni hurmat qiladi, hattoki, unga qizi Zaynabni ham bermoqchi bo‘ladi. Ular ustoz-shogird tutinib ko‘p suhbatlashadi. Ammo Is’hoqda vatan sog‘inchi ustunlik qila beradi. U keyingi vaqtlarda eliga qaytishni qo‘msaydigan bo‘ldi.

«Shákirttiń óz jurtına qaytıw haqqında bergen xabarı tosınnan bolǵan edi, ásirese, Ziynep salqın suwsınlı gúzeni qolınan túsirip ala jazladı.

– Buxaraǵa ketemen demekshisiz be?

Kewilsiz esitilgen dawıs shayıqtiki edi.

Al, bayǵus Ziynep óz háreketinen qısınǵan bolıw kórinedi, jaqın jerdegi esikke «sıp» etip kirip ketti.

– Jurtıma qaytpaqshıman, – dedi bas tómen salınǵan Ís’haq molla» («Dárwish». 117-b.).

Biroq bundan keyin ham Mas’ud shayx Is’hoqni eliga yuborishni istamadi, u o‘zi ham qizi Zaynabni Is’hoq mullaga nikohlab bermoqchi, qizining ham yigitga ko‘ngli yo‘q emas edi. Kuz oxirlab qoldi, oldinda sovuq qish, bunday vaqtda uzoq safarga yo‘lga chiqish xavfli degan bahona bilan Is’hoqni to‘xtatdi. Shunday kunlarning birida erta uyg‘onib hovliga chiqqan Is’hoq yuqoridagi manzaraga duch keldi. Qushlar Is’hoq-qa –”bizlar tug‘ilgan yerga ketyapmiz, sen qaytmaysanmi?” deb uchib ketayotgandek tuyuldi. Mana, shu ishoradan ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushgan Is’hoq: “Ularning ba’zilari Qo‘ng‘irot atrofidagi ko‘llarda uya qurib, chiqargan polaponlarini ergashtirib kelayotgandir?!” degan o‘yga keladi-da, qaytishga qaror qiladi.

«Belgisiz bir kúshtiń aydawında ishke kirdi. Ayaǵınıń ushınan basıp, bólmedegi qorjının aldı. Yadına álleneler tústi, shaması, tekshedegi qaǵaz benen qálemdi alıp, xantaxta ústine eńkeydi. Soń asıǵıs jaza basladı». («Dárwish». 118-b.) Xullas, Is’hoq mulla ustozi Mas’ud shayxga va qizi Zaynabga xat yozib qoldirib, eliga qaytib ketdi. Mana, shu kichkina tabiat ko‘rinishi, birinchidan, qanday fasl ekanini anglatsa, ikkinchidan, Is’hoqda eliga bo‘lgan sog‘inch tuyg‘ularini uyg‘otdi. Muallifning bu tabiat tasvirini ma’lum bir ijodiy niyat asosida chizgani ko‘zga tashlanadi. Buni yozuvchining badiiy haqiqatni berishdagi mahorati va o‘ziga xos badiiy uslubi sifatida qarash mumkin.

«Muz túsip, seń júgirilgeni menen kún ele suwık edi. Írashtıń ıǵına tikse, qálegen waqıtta tıqqan muz ırashtı pıt-shıt etip, suw bir ketse tikken qosıńdı, kórpe tósegińdi qaysı toǵaydan tabatuǵınıńdı hesh kim bilmeydi» [5;144-b.].

«Awıldıń qubla shetiniń saqshısınday, jalǵız túp emen múlgip tur. Shayıq onnan da salqınlıq kútedi, nársiz. Tek ǵana aynalasındaǵı kók maysa ańqıydı, sonıń jupar iyisi ǵana úyge álle qanday lázzet jiberip tur» [3;20-b.].

Tolǵan ay súttey jarıq edi, qubladan qońır salqın samal esedi. Búrtik jara baslaǵan Sarı ataw torańǵıllarınıń iyisi tanawǵa uradı. Qazıw bası sirá dúz degendey emes, arbalarǵa, kóliklerge erip kelgen iytler eshekler aqırsa qosıla úrip, átirapqa lolı kóship kelgendey bolıp atır («Xalqabad». Birinshi kitap. 198-b.).

Keltirilgan parchalarda qishning so‘nggi kunlari, yozning qoq o‘rtasi, jazirama issiq paytlari, bahor boshlanib o‘simliklarga jon kirayotgan paytlar tasvirlangan. Ularda ham birinchi parchadagidek mavsumning nomi aytilmaydi. O‘quvchi tasvirlangan manzara orqali gap qaysi fasl haqida borayotganini anglab oladi.

Sh.Seytovning”Xalqobod” romanining uchinchi kitobidan olingan matnda vaqtning qishning so‘nggi kunlari ekanini bilish qiyin emas. Odatda, Qoraqalpog‘iston sharoitida muz tiqish, qizil suv muzning ustidan yurib, atrofni suv olish fevral oyida yuz beradi. Muzning ustidan kelgan suv ariqni ham yiqitib yuborib, atrofning suvga g‘arq bo‘lishi ko‘p marta takrorlangan. Yozuvchi mavsumga xos bo‘lgan ob-havoning shu o‘ziga xosligini muz ko‘rinishi (Muz tushib, muz qoplangani bilan kun hali sovuq edi) orqali mohirona yetkazgan. Roman muallifi shu kichik ikki jumla orqali bir necha badiiy vazifani hal etgan. Birinchidan, mavsumiy vaqtni anglatib tursa, ikkinchidan, o‘sha davrda yashagan xalqning turmush tarzini (Irashning etagiga tiksa, xohlagan vaqtda tikkan muz irashni mayda-mayda qilib, suv bir ketsa tikkan qo‘shingni, ko‘rpa-to‘shagingni qaysi to‘qaydan topishingni hech kim bilmaydi) ham ko‘rsatib bergan. Xalq qo‘sh-kapalarda yashab turganligi uchun ularni o‘zlari qulay deb topgan yerga tikaveradi. Yuqoridagi parchada qo‘shni ariqning etagiga tikish orqali erta bahordagi izg‘irin shamoldan himoyalanish niyati tasvirlangan. Hali bahor boshlanmay turib daryoga yaqin yerga chaylasini tiksa, suvga ekin ekadi yoki suv betiga chiqqan, hali to‘liq jon kirmagan “halima baliq”ni ushlab yeydi. Ularning bu niyatiga erishishiga tabiat ham birdan yo‘l qo‘ymaydi, muz ustidan oqqan toshqin suv bunday chaylalarni parcha-parcha qilib tashlashini aytish orqali muallif badiiy haqiqatni turmush haqiqati orqali yetkazishga erishgan.

Yozuvchining “Xalqobod” romanida har faslni tasvirlashning o‘ziga xos usuli bor. “Yozuvchining “Xalqobod” tetralogiyasida yoz, bahor, kuz va qishga xos bo‘lgan mavsumiy tabiat manzaralari ixchamlashtirilib, muallifning o‘z oldiga qo‘ygan poetik g‘oyasi va ideyasini to‘liq tarzda dalillab berishga xizmat qiladi. Chunki badiiy niyat hamisha plastik o‘ziga xoslikka ega. Voqeiylik tamoyillari asosida paydo bo‘lgan qahramonlarning xatti-harakatlari sahnaviy ko‘rinishni keltirib chiqaradi” [4;17-b.].

T.Qayipberganovning romanidan keltirilgan matnda voqea yoz mavsumida bo‘layotganini bir so‘z birikmasi (Shayx undan ham salqinlik kutadi) orqali anglash mumkin. Birinchi gapda yolg‘iz tup eman ramziy ma’noda (Qishloqning janubiy chekkasining qo‘riqchisiday) tasvirlangan. Ammo u eman yilning hamma mavsumida ham o‘sha joyida “qo‘riqchilik” vazifasini bajarib turaverishi mumkin. Murod shayxning shu emandan salqinlik kutishi (eman juda katta, yaproqli) kunning juda issiq ekanini anglatadi, bunday issiq kunlar yoz mavsumida bo‘lishi sira ham ma’lum.

Natijalar (Результаты/results). “Xalqobod” romanidan keltirilgan matnda tabiat katta bir harakat maydoni sifatida tasvirlanadi. To‘lgan oyning sutday yorug‘ ekanligi, janubdan qo‘ng‘ir shamolning esishi odatdagidek tungi tabiatni tasvirlashning bir ko‘rinishi. Ammo ushbu tasvirlarda “Burtak yora boshlagan” iboralari mavsumni – bahorning kelganini anglatib turibdi. Yozuvchining suratida “Sariq orol tollarining hidi dimoqqa uradi” degan iborasi juda muvaffaqiyatli chiqqan. Sababi, erta bahorda, jon kirib turgan paytlari turang‘ilarning hidi kuchli seziladi. Ikkinchidan, tungi paytda bu hid kunduzgiga qaraganda ham kuchliroq seziladi. Muallif tabiatning shu o‘ziga xosligini to‘g‘ri anglagan, shuning uchun ham uning bu tabiat obrazini berishi ishonchli chiqqan. Qazishma boshi ko‘p odamlarni to‘plaganini, bu yerda jonli harakatning xarakterini “aravalarga, ulovlarga ergashib kelgan itlar eshaklar o‘kirsa, qo‘shilib hurib, atrofga lo‘li ko‘chib kelgandek” tasvirlashi orqali bera olgan.

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретические основы формирования у учащихся понятия информационной безопасности. Обоснована необходимость доступного донесения начальных знаний в области информационной безопасности до школьников, развития у них цифровой культуры и формирования навыков защиты персональных данных. Также освещены пути интеграции знаний об информационной безопасности в учебные программы на основе педагогического подхода и дидактических принципов. В статье даны методические рекомендации, направленные на формирование информационной культуры учащихся в условиях современных цифровых угроз и негативного влияния технологий на образовательную среду.*

Ключевые слова: *информационная безопасность, цифровая культура, учащиеся, информационные технологии, персональные данные, педагогический подход, информационная культура, меры защиты, цифровые угрозы, информационная грамотность.*

Abdullayev Sherzod (Independent researcher at Urgench State Pedagogical Institute)

STUDYING THE THEORETICAL FOUNDATIONS OF FORMING THE CONCEPT OF INFORMATION SECURITY AMONG STUDENTS

Annotation. *This article analyzes the theoretical foundations of forming the concept of information security among students. The necessity of conveying basic knowledge about information security to school-aged children in an understandable manner, developing their digital culture, and forming skills to protect personal data is substantiated. The article also highlights ways to integrate information security knowledge into educational curricula based on pedagogical approaches and didactic principles. Methodological recommendations are presented for shaping students’ information culture in the face of digital threats and the negative impact of modern technologies on the educational environment.*

Keywords: *information security, digital culture, students, information technology, personal data, pedagogical approach, information culture, protection measures, digital threats, information literacy.*

Kirish (Introduction). So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi, internet tarmog‘ining butun dunyo bo‘ylab barcha yoshdagi foydalanuvchilar uchun qulay axborot almashinuvi vositasiga aylanishi natijasida xavfsizlik tushunchasiga yangi bir yo‘nalish – **axborot xavfsizligi** qo‘shildi. Bu atama, asosan, jamiyatga ishonchli, haqqoniy va xolis ma’lumotlar oqimini ta’minlaydigan muhitni shakllantirish zaruratini anglatadi. Axborot xavfsizligi deganda, eng avvalo, mustaqil va tashqi bosimlardan xoli ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan ishonchli ma’lumotlar oqimini ta’minlash tushuniladi. Bunday axborot vositalari har qanday siyosiy kuchlar, iqtisodiy guruhlar yoki ijtimoiy qatlamlar manfaatlariga xizmat qilmasligi kerak. Ularning asosiy vazifasi – fuqarolarda jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan xolis fikr shakllanishiga yordam berishdan iborat. Amaliyotda esa, afsuski, bu tamoyillar doim ham to‘liq amalga oshmaydi. Shu sababli, ayniqsa, yosh avlodni turli xil axborot xurujlaridan himoya qilish davlat va jamiyat oldida dolzarb vazifa sifatida turibdi.

Axborot xavfsizligi konsepsiyasi bir qancha yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi, jumladan:

–xolis axborot muhitini shakllantirish. Bu yerda mustaqil OAV tarmog‘ini rivojlantirish muhim aha-miyat kasb etadi;

–shaxs va jamiyatning axborotdan erkin foydalanish huquqini ta’minlash;

–axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni bartaraf etish, xususan, telefon, kompyuter tarmoq-lari orqali sodir etilishi mumkin bo‘lgan firibgarlik, kiberhujum va noqonuniy mablag‘lar oqimini to‘xta-tish;

–shaxs va tashkilotlarni axborot-psixologik tahdidlardan himoya qilish;

–jamiyat imidjini asrash, yolg‘on axborot, mish-mishlar va bo‘htonlarga qarshi kurashish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Axborot xavfsizligiga tahdidlar turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bois himoya choralarini ishlab chiqish ham ko‘p yo‘nalishli bo‘lishi zarur.Bu iqtisodiyot, siyosat, mudofaa kabi sohalarda va davlat, hudud, tashkilot yoki shaxs darajasida

amalga oshiriladi. Davlat miqyosidagi axborot xavfsizligi milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa, muayyan tashkilot doirasidagi xavfsizlik – ichki axborot oqimida yuzaga keladigan salbiy holatlarni (masalan, mish-mish, tuhmat va noto‘g‘ri ma’lumot tarqatilishi) jilovlashga qaratiladi. Har ikkala holatda ham axborot tahdidlari inson faoliyatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omil sifatida baholanadi. Aynan axborot xurujlari – bu shaxsga, muayyan tashkilot va davlatga yo‘naltirilgan ta‘sir bo‘lib, uning asl maqsadi o‘sha shaxs, tashkilot va davlatning normal hayot tarzining buzilishini nazarda tutgan siyosiy va ijtimoiy guruhlarning g‘arazli niyatlaridan kelib chiqadi [1].

Zamonaviy davrda yuz berayotgan jadal taraqqiyot jarayonlari an’anaviy tamoyillar, shu jumladan, vaqt va makon o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tushunchasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Barcha faoliyat turlarida yangi yondashuvlar, ilg‘or rivojlanish strategiyalari shakllanib, natijada insonlar va mintaqalarning o‘zaro integratsiyalashuvi kuchaymoqda. Bunday o‘zgarishlar shaxs dunyoqarashining shakllanish jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Endilikda insonlar tobora ko‘proq axborot oqimi, ya’ni, yaqin yoki olis manbalardan uzluksiz tarqalayotgan turli ma’no va mazmundagi axborotlarning doimiy bosimi ostida yashashga majbur bo‘lmoqda. Ushbu axborot oqimi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ko‘pincha, ma’lum guruh yoki manfaatlarga xizmat qiluvchi ideologik yuklama bilan tarqatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bugungi kunda axborot jamiyatning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib borgan bo‘lib, u ishtirok etmagan bilim sohasi deyarli mavjud emas. Axborotning o‘zi turli ko‘rinishlarda – ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va boshqa kontekstlarda, har xil ma’nolarda talqin etilmoqda. XXI asr – bu axborotga oid nazariy va amaliy faoliyatlar eng yuqori darajaga chiqqan davr hisoblanadi. Shu bois zamonaviy mutaxassislar va olimlar ushbu davrni tobora ko‘proq ‘axborot asri” sifatida e’tirof etmoqda. Axborotga quyidagicha ta’rif berish mumkin: u manbasi va ifoda shaklidan qat’i nazar, shaxslar, predmetlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar haqidagi ma’lumotlar yig‘indisidir. Jahon amaliyoti ko‘rsatmoqdaki, davlat axborot infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy yoki texnik sohalarga, balki jamiyat va fuqarolarning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi, siyosiy ishtiroki kabi jihatlariga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotini jadallashtiradi [2].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida “shaxs – jamiyat – davlat” o‘rtasidagi aloqalarning o‘zaro uyg‘unligi va yaxlitligini saqlab qolish tobora murakkablashib bormoqda. Chunki axborot oqimining kuchayishi, odamlarning axborot to‘lqinlari orasida yashashga majbur bo‘lishi inson tafakkuri va ongining keskin o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda axborot-psixologik himoya alohida dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu konsepsiya nafaqat siyosiy ziddiyatlarning oldini olishga, balki shaxsning o‘zini anglash, insonlararo sog‘lom munosabatlarni shakllantirish, axborot vositalari orqali insonparvar tafakkur, ijodiy yondashuv, yaratuvchanlik salohiyati va bunyodkorlik ruhini rivojlantirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Bugungi global jamiyatni samarali boshqarish, zamon talablari asosida inson taraqqiyotini ta’minlash uchun siyosiy-huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik hamda axborot-kommunikatsiya tizimlari bo‘yicha integratsiyalashgan yondashuv zarurdir. Bu jarayonda samarali boshqaruv uslublarini aniqlash, hokimiyatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, fuqarolik birligini shakllantirish va davlat taraqqiyotini ta’minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan zararli yoki buzg‘unchi g‘oyalarning oldini olishda yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash, ularning ongini shakllantirish muhim vosita hisoblanadi. Bu borada pedagoglar, psixologlar, ota-onalar va keng jamoatchilikning bilimi, tajribasi va mas’uliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

U.D.Qodirovning “Globallashuv sharoitida destruktiv tahdidlar oldini olishning ijtimoiy-psixologik jihatlari” mavzusidagi ilmiy maqolasida globallashuv fonida yuzaga kelayotgan ijtimoiy xavf-xatarlarga qarshi kurashishning dolzarbligini asoslab bergan. Muallifning fikricha, bunday tahdidlarni barvaqt aniqlash, ularning manbalarini tahlil qilish va samarali oldini olish choralari ishlab chiqish ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim o‘rin tutadi.

O.Sh.Muxtorov esa o‘z ilmiy ishlarida yoshlarning axborotga munosabati va undan foydalanish holatini sotsiopsixologik mezonlar asosida o‘rganadi. Xususan, u yosh avlodning axborot olishdagi individual strategiyalarini, axborot manbalarini tanlashdagi ustuvor yo‘nalishlarini hamda axborot xurujlariga qarshi psixologik barqarorlik darajasini tahlil qilgan. Tadqiqotda yoshlarning axborot madaniyati darajasi, axborot faolligining motivatsion tarkibi, ularning dunyoqarash modellaridagi ustuvorliklar va ehtiyojlar iyerarxiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Muxtorov o‘z tadqiqotlarida “Turli axborot manbalaridan yoshlar foydalanish holati” nomli maxsus so‘rovnoma, N.I.Gendina, G.A.Starodub, Y.V.Ulenkolarning “Yuqori sinf o‘quvchilarining axborot madaniyati asoslari” testi, Y.N.Dolgova, A.S.Kopova, G.N.Malyuchenko va V.M.Smirnovning “Axborot faolligining motivatsion tarkibi” so‘rovnomasi, G.N.Malyuchenko va V.M.

Smirnov tomonidan ishlab chiqilgan “Dunyo individual modellarining ijtimoiy-psixologik tahlili” testi, I.A. Akindinovaning “Ehtiyojlar iyerarxiyasi modifikatsiyasi” metodikasi, V.F.Ryaxovskiyning “Kirishimlilik va kommunikativlik” testi kabi metodik vositalardan foydalangan [3]. Tadqiqot natijalari ochiq axborot muhitida yoshlarning psixologik himoya mexanizmlarini mustahkamlash, ularning axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali yondashuvlarni asoslab bergan. E’tiborga molik jihati shundaki, Muxtorov tomonidan qo‘llanilgan ba’zi metodikalar hali ko‘plab mahalliy tadqiqotlarda keng qo‘llanilmagan. Bu esa uning ishini innovatsion yondashuvlar bilan boyitadi.

Bugungi kunda ommaviy axborot tizimi global xarakterga ega ochiq tizim sifatida faoliyat yuritmoqda. Axborot oqimini butunlay bir markazdan yoki davlatdan turib nazorat qilish deyarli imkonsiz bo‘lib qolmoqda. Shu bois bu tizim ochiq va umumiy foydalanishga ochiq ommaviy axborot maydoni sifatida baholanadi. Ochiq axborot tizimi deganda axborot vositalari va unda berilayotgan axborotlarning oshkoraligi, shaffofligi dunyo axborot maydonida axborot almashinuv jarayonining jamiyat ehtiyoji sifatida namoyon bo‘lishi va axborotlarning shaxs hayoti-faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borishi jarayoni tushuniladi. Axborot olish kafolati bu bevosita shaxsiy manfaatdan ustun turadigan, umummilliy manfaatga daxldor bo‘lgan qadriyatga aylanmog‘i lozim. Ana shunday sharoitda qanday mazmundagi axborotni tarqatishni man etish, jamiyatning psixologik holatiga salbiy ta‘sir etuvchi ijtimoiy, milliy, diniy, etnik, tafovut va kelishmovchiliklarni kuchaytiruvchi, zo‘ravonlik va urushni targ‘ib etuvchi pornografiya, maishiy buzg‘unlik, shaxslar mavqeyi, obro‘si va sha‘niga salbiy ta‘sir etuvchi axborotlarni chegaralashning norasmiy, vijdon bilan bog‘liq bulgan, sog‘lom aql va yuksak tafakkurga tayangan ma‘naviy-ruhiy me’yorlarni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi [4].

XX asrning ikkinchi yarmi axborot tizimlari hamda telekommunikatsiya texnologiyalarining keskin rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar inson faoliyatining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib bordi va global axborot makonining shakllanishiga zamin yaratdi. Shunday qilib, axborot texnologiyalarining keng qamrovli ta’siri bugungi kunda jahon taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida tan olinmoqda.

Davlatning ichki va tashqi siyosatida axborot xavfsizligini ta’minlash strategik ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada milliy manfaatlar asosida aniq vazifalar belgilanadi. **Axborot xavfsizligi** deganda shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi manfaatlarini turli tahdidlar va xavf-xatarlardan himoya qilish holati tushuniladi. Shaxsning axborotga oid manfaatlari, avvalo, uning qonun bilan taqiqlanmagan jismoniy, aqliy va ma’naviy salohiyatini erkin rivojlantirish imkoniyati bilan bog‘liq. Bunda axborotga erkin kirish va undan foydalana olish shaxs xavfsizligining asosi sifatida qaraladi. Jamiyat manfaatlariga esa, inson ehtiyojlarini qondirish, demokratik-huquqiy davlat barpo etish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash kiradi. Davlatning axborot sohasidagi manfaatlari esa axborot olish va undan samarali foydalanish, ichki siyosiy-iqtisodiy muvozanatni saqlab qolish, xalqaro axboriy hamkorlikni rivojlantirish hamda milliy axborot infratuzilmasini barpo etish bilan bog‘liq.

Milliy manfaatlar, mazmunan, quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, insonning konstitutsiyaviy huquqlari doirasida axborotga erkin ega bo‘lishi va undan foydalanishi, jamiyatning ma’naviy o‘sishini ta’minlash, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, madaniy va ilmiy salohiyatni rivojlantirish.

Ikkinchidan, ichki axborot bozorini zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirish, axborotlarni yig‘ish, saqlash va maqsadli iste’molga yo‘naltirish, ilmiy tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish.

Uchinchidan, axborot resurslari va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini himoya qilish orqali tizimli xavfsizlikni ta’minlash.

Bugungi kunda turli manipulativ vositalar yordamida ayrim shaxslar yoki guruhlar psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatish holatlari ko‘paymoqda. Jumladan, insonning hayotga bo‘lgan qarashlarini, qadriyatlarini, ijtimoiy yo‘nalishini o‘zgartirish, tanlagan yo‘lini shubha ostiga olish, davlat boshqaruv tizimiga ishonchsizlik uyg‘otish kabi urinishlar **destruktiv axborot-psixologik ta’sir** sifatida talqin qilinadi. Bunday harakatlar nafaqat axborot xavfsizligiga, balki jamiyat barqarorligiga ham jiddiy tahdid tug‘diradi. Axborot xavfsizligining asosiy tarkibiy qismlari: xalqaro munosabat va xalqaro xavfsizlik muammolari yo‘nalishiga qaratilgan virtual kutubxonalar fondi, xavfsizlik muammolari hujjatlarni tez qidiruv tizimi, rasmiy hujjatlarga asoslangan jahon yangilliklari obzori, siyosiy inqirozlar va nizolarni belgilab beruvchi xalqaro anjumanlar, xalqaro munosabatlar muammolari va xavfsizlik muammolari ma‘lumotlari o‘rganish muhim vazifalardan biridir [5].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Jamoatchilik fikrini shakllantirish va uni ilmiy asosda o‘rganish har qanday davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Aholining

iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarga oid qarashlari, munosabatlari va talablarini o‘rganish orqali ijtimoiy fikr monitoringi olib boriladi hamda mavjud ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilinadi. Bu jarayon sotsiologik tadqiqot usullarini qo‘llash, ochiq axborot tizimlaridan ma’lumotlarni qabul qilish, ularni tahlil qilish va talqin etish kabi murakkab, ammo zaruriy bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishdagi ayrim metodologik masalalar haligacha to‘liq ishlab chiqilmagan holda qolmoqda. Bugungi global axborotlashuv sharoitida xalqaro maydondagi tahdidlar shakli keskin o‘zgarib bormoqda. Ayniqsa, noan’anaviy xavf-xatarlar, xususan, informatsion va psixologik hujumlar tobora jiddiy tus olmoqda. Bu tahdidlar nafaqat harbiy tizimga, balki uning asosiy tayanchi hisoblangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga bevosita zarar yetkazishga yo‘naltirilmoqda.

Bunday axborot hujumlarining eng xavfli jihati zamonaviy internet texnologiyalari vositasida yosh avlod ongiga milliy qadriyatlarimizga mutlaqo zid bo‘lgan, buzg‘unchi g‘oyalar va xatarli tushunchalarni singdirishga urinishdir. Bu esa, o‘z navbatida, nafaqat axborot xavfsizligiga, balki ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy taraqqiyotga ham bevosita tahdid tug‘diradi. Shu bois noan’anaviy xavflarni oldindan aniqlash, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va ijtimoiy fikrni boshqarish mexanizmlarini mustahkamlash hozirgi davrda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy davrda “axborot globallashuvi” tushunchasi hayotimizga tobora chuqurroq kirib bormoqda. Global axborot maydonining kengayishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni, balki inson tafakkuri va ongiga bo‘lgan ta’sirni ham kuchaytirmoqda. Ayniqsa, axborot vositalari orqali inson ongini egallash va shu yo‘l bilan turli siyosiy maqsadlarni amalga oshirishga intilish holatlari bugungi kunda ochiq-oydin ko‘zga tashlanmoqda.

Hozirgi kunda axborot vositalari va texnologiyalari qurol darajasiga chiqib ulgurgan. Jahon axborot maydonida kim hukmronlik qilsa, u mafkuraviy, siyosiy va madaniy jihatdan ustunlikka erishadi, degan qarash bugungi hayotda o‘z isbotini topmoqda. Shu bois axborot xavfsizligini ta’minlash, ayniqsa, yosh avlodni axborot xurujlaridan himoya qilish har bir millatning strategik ustuvor vazifasiga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Шакуров Р.Х. Психология смыслов: теория преодоления. “Вопросы психологии”, 2003, № 5, с. 18–30.

(2). Шакуров Р.Х. Психология смыслов: теория преодоления. “Вопросы психологии”, 2003, № 5, с. 18–30.

(3). Рахимова И. Ўсмир ёшидаги болаларда компьютер ўйинларига тобелиги намоён бўлишининг психологик хусусиятларини экспериментал аниқлаш. Педагогика. Тошкент, 2014, 3-сон, 26–28-бетлар.

(4). Пенкин С.А. Философский анализ квантовой концепции сознания. Дис..канд.. филос... наук, Москва, 2006, с. 150.

(5). Носков Ю.Г. Опасностъ и безопасностъ с позиции деятельностного подхода. Безопасностъ, 1998, № 1–2 (41), с. 172.

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi; E-mail: esanovas@mail.ru)

TALABALARDA KASBIY-IJTIMOIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA XALQ HUNARMANDCHILIGINING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarni xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy va ijtimoiy ko‘nikmalar bilan qurollantirish masalalari yoritilgan. Hunarmandchilik faoliyati orqali talabalarda mehnatsevarlik, ijodkorlik, jamoada ishlash, madaniy merosga hurmat kabi muhim ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu yo‘nalishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan pedagogik metodlar va texnologiyalar misollar bilan ko‘rib chiqiladi. Maqola metodik-uslubiy yondashuv asosida yozilgan bo‘lib, o‘qituvchilar va pedagogik kadrlar uchun foydali tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *xalq hunarmandchiligi, ijtimoiy kompetensiyalar, kasbiy ko‘nikmalar, talaba, amaliy mashg‘ulot, pedagogik texnologiya, madaniy meros.*

Эсанова Сарвиноз Уктамовна (Институт предпринимательства и педагогики Денова, преподаватель кафедры дошкольного образования; E-mail: esanovas@mail.ru)

РОЛЬ НАРОДНЫХ РЕМЁСЕЛ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-СОЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы формирования профессиональных и социальных навыков у студентов на основе народных ремёсел. Анализируются возможности развития у студентов таких компетенций, как трудолюбие, креативность, работа в коллективе и уважение к культурному наследию через ремесленную деятельность. Также освещаются педагогические методы и технологии, которые могут быть использованы в этом направлении. Статья*

написана в методико-практическом русле и содержит полезные рекомендации для преподавателей и педагогов.

Ключевые слова: *народные ремёсла, социальные компетенции, профессиональные навыки, студент, практические занятия, педагогические технологии, культурное наследие.*

Esanova Sarvinoz Uktamovna (Institute of Entrepreneurship and Pedagogy Denau, Teacher of the Department of Preschool Education; E-mail: esanovas@mail.ru)

THE ROLE OF FOLK CRAFTS IN DEVELOPING STUDENTS' PROFESSIONAL AND SOCIAL SKILLS

Annotation. *This article explores the role of folk crafts in developing students' professional and social skills. It analyzes how engagement in traditional crafts can foster important competencies such as diligence, creativity, teamwork, and respect for cultural heritage. The paper also presents pedagogical methods and technologies that can be applied in this context. Designed with a methodological approach, the article offers practical recommendations for educators and teaching professionals.*

Keywords: *folk crafts, social competencies, professional skills, student, practical training, pedagogical technology, cultural heritage.*

Key words: *folk crafts, pedagogy, social competence, education, practical art.*

Kirish (Introduction). Hozirgi globallashuv zamonida oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida talabalarning nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalariga, balki ularning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta’lim talabalardan faqat nazariy bilimlarni emas, balki jamoada ishlash, muloqot qilish, mehnatsevarlik, muammolarni mustaqil hal etish, madaniy qadriyatlarga hurmat kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishni ham talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, xalq hunarmandchiligi o‘zbek xalqining boy madaniy merosi sifatida bu jarayonda katta tarbiyaviy va metodik imkoniyatlarga ega. Hunarmandchilik faoliyati orqali talabalar nafaqat kasbga oid amaliy tajriba orttiradilar, balki ijtimoiy jihatdan faollik, sabr-toqat, jamoaviylik, milliy o‘zlikni anglash kabi muhim kompetensiyalarni ham egallaydilar.

Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada talabalarni xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy-ijtimoiy ko‘nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatlari, bu boradagi samarali metodik yondashuvlar, o‘quv jarayoniga integratsiyalash mumkin bo‘lgan texnologiyalar yoritiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvning zamonaviy ta’limda tutgan o‘rni va istiqbollari ham muhokama qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Yurtimizda an’anaviy xalq hunarmandchiligi asrlar davomida muvaffaqiyatli rivojlanib kelgan. Sovet davrida esa hunarmandlar qatlamiga mayda burjua mulkdorlari sifatida qaralib, ularning faoliyati yo‘q qilindi. Natijada hunarmandchilikning tabiiy rivojlanish jarayoni ham to‘xtab qoldi. Bugungi yangilanayotgan hayotda esa hunarmandchilikni rivojlantirish yangi mazmun, yangi shakllar va ustalarni tayyorlashga oid yangi yondashuvlar bilan asoslanishi lozim. Shu munosabat bilan, xalq hunarmandchiligi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu esa madaniy-rivojlantiruvchi muhit asosida tashkil etiladigan ta’lim asosida amalga oshirilishi zarur.

Xalq hunarmandchiligiga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari masalasi bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular qatoriga A.B.Nekrasova, S.F.Gruzenberg, N.G.Alekseev kabi tadqiqotchilarni alohida e’tirof etish lozim. Mazkur olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlari vositasida xalq hunarmandchiligining ilmiy-pedagogik jihatlarini, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurining shakllantirishdagi rolini ko‘rsatib berishga intilganlar. L.V.Orlova, P.N.Magomedova, Z.F.Islamova kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda xalq san’atini o‘qitishdagi pedagogik imkoniyatlar ochib berilgan. Biroq bu ishlarning ko‘pchiligi asosan maktab o‘qituvchilari va maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini tayyorlashga qaratilgan.

G.A.Fedotova ta’kidlaganidek, talaba-yoshlarda xalq hunarmandchiligi asosida kasbiy-ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish yosh avlodni milliy madaniyatga hurmat ruhida tarbiyalash, kasb-hunar sirlarini saqlab qolish va uni keyingi avlodlarga yetkazish yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘lib xizmat qiladi [2].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Talabalarda kasbiy-ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda xalq hunarmandchiligining o‘rnini ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, induksiya, deduksiya, analiz, sintez kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligi milliy madaniyatimizning ajralmas qismidir. Og‘ir tarixiy sinovlarga qaramay, yurtimiz o‘zining madaniy ildizlarini, an’analarini va xalq amaliy san’atining uslubiy xususiyatlarini asrab qoldi. Professor D.A.Amanjonova ta’kidlaganidek, xalq amaliy san’atini tiklash, rivojlantirish va ommalashtirish muammosi hozirda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan [2;28-b.].

Zamonaviy global o‘zgarishlar va jamiyatdagi transformatsiyalar sharoitida milliy o‘zlikni saqlab qolish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Etnomadaniy makonni qayta yaratish, ya’ni, folklor va turmush tarziga oid an’analarni, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish borasidagi harakatlar natijasida ko‘plab tematik bog‘lar, turizm yo‘nalishlari tashkil etilmoqda.

O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida an’anaviy xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlari qayta tiklanmoqda va rivojlantirilmoqda. Ularni asrash va targ‘ib qilish, shuningdek, ularning manfaatlarini davlat miqyosida himoya qilish maqsadida bir qator tashabbuskorlar tomonidan turli assotsiatsiyalar va markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, “Hunarmand” uyushmasi, “Ipak yo‘li” amaliy san’at festivali, milliy brend yarmarkalari orqali yuzlab ustalar o‘z mahsulotlarini ommaga namoyish qilmoqda.

Har yili o‘tkaziladigan xalqaro ko‘rgazma-yarmarkalarda Buxoro zardo‘zligi, Marg‘ilon atlas va adras to‘qimachiligi, Rishton kulolchilik san’ati, Toshkent zargarlik maktabi, Xiva yog‘och o‘ymakorligi, Qo‘qon do‘ppi tikuvchiligi kabi san’at markazlari o‘z ijod namunalari bilan ishtirok etmoqda. Hozirgi kunda xalq amaliy san’atining 10 dan ortiq asosiy yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular orasida eng yetakchilari yog‘ochga ishlov berish, kulolchilik, kashtachilik, to‘qimachilik, metallga ishlov berish va boshqalar hisoblanadi [3;133-b.].

Talaba-yoshlar uchun bu yo‘nalish nafaqat xalqning urf-odatlari bilan tanishish, balki kasbga yo‘naltirish, mehnatni qadrlash, milliy madaniyatga yaqinlashishning ham samarali vositasidir. Bugungi kunda ham talabalar jamiyatning ijodiy va innovatsion kuchi sifatida milliy madaniyatning rivojida muhim o‘rin tutmoqda. Shubhasiz, yosh avlodni ijtimoiylashtirish va ularni qadriyatga sodiq insonlar sifatida shakllantirishdagi eng asosiy vosita bu madaniyatdir [3;136-b.].

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiyalar zamonida talaba-yoshlarning kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorligini ta’minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunda nafaqat zamonaviy texnologiyalarni egallash, balki madaniy merosga asoslangan qadriyatlarni anglash va o‘z hayotida qo‘llay olish ko‘nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xalq hunarmandchiligi yoshlarni mehnatga, estetik didga, madaniy merosga hurmat bilan qarashga o‘rgatadigan noyob tarbiya vositasidir.

Xalq hunarmandchiligi an’analari nafaqat ijodiy tafakkurni, balki mas’uliyat, sabr, jamoada ishlash, o‘z mehnatini qadrlash kabi kasbiy-ijtimoiy fazilatlarni ham rivojlantiradi. Talabalarni bu sohalarga jalb etish orqali ularning amaliy bilim va ko‘nikmalari ortib, ijodiy salohiyati kengayadi, o‘z kasbiga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgaradi [2;19-b.].

Hunarmandchilik faoliyati yoshlar orasida tadbirkorlik g‘oyalarining shakllanishiga, mahalliy xomashyo bilan ishlash, milliy brendlar yaratish kabi iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirishlariga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu jarayon kasb-hunar kollejlarida, universitetlarda texnologik ta’lim va dizayn, madaniyatshunoslik, iqtisodiyot kabi yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun nihoyatda foydalidir.

Shu bilan birga, xalq hunarmandchiligi orqali talabalarda milliy o‘zlikni anglash, o‘z xalqining madaniy boyligini qadrlash, qadimiy san’at shakllarini saqlab qolishga bo‘lgan mas’uliyat hissi ortadi. Bu esa ularni nafaqat o‘z kasbida, balki jamiyatda faol, vatanparvar va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi [5;139-b.].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xalq hunarmandchiligi talaba-yoshlar kasbiy-ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda beqiyos pedagogik, estetik va tarbiyaviy salohiyatga ega bo‘lgan madaniy merosdir. Bu merosni ta’lim tizimiga integratsiya qilish, uni yangicha yondashuvlar bilan rivojlantirish dolzarb va istiqbolli yo‘nalishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10–11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 30.12.2021. Lex.uz.

(2). Amanjonova D.A. O‘zbekistonning qo‘l mehnati bilan yaratilgan bebaho boyliklari. Toshkent. 2011, 78-bet.

(3). Boboyeva Y.V. Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda rekreativ texnologiyalar vositalari orqali yondashuv. Zamonaviy fan va ta’lim muammolari. 2017, № 3, 132–137-betlar.

(4). Duncker K. Zur Psychologie des produktiven Denkens. Berlin, “Springer”, 1935.

(5). Дольгирева Е.В. Формирование сценарно-режиссерской техники бакалавров социально-культурной деятельности в педагогическом вузе. Монография, Москва, Московский городской педагогический университет, 2018, 232 с.

Turdimuratov Baxtiyor Kurbonovich (Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi oqituvchisi; E-mail: baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com)

OLIY TA’LIMDA BO‘LAJAK “AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KREATIV FIKRLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA’LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo‘lajak axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining kelgusi kasbiy pedagogik faoliyatida ta’lim jarayonlarida innovatsion usullar orqali interfaol metodlarini qo‘llash jarayonida kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, bilim va ko‘nimlarini egallab borishi masalalari muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion texnologiyalar, innovatsion ta’lim metodlari, interfaol metodlar, metod, pedagog, kreativ fikrlash, kreativ qobiliyat, faoliyat, qobiliyat,bilim, ko‘nikma, malaka.*

Турдимуратов Бахтияр Курбонович (Термезский филиал Ташкентской медицинской академии, преподаватель кафедры “Социально-гуманитарные науки”; E-mail: baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com)

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ДИСЦИПЛИНЫ «ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ» В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы развития навыков творческого мышления, приобретения знаний и умений в процессе применения интерактивных методов с инновационными методами обучения в будущей профессиональной педагогической деятельности будущих учителей информационных технологий.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, инновационные методы обучения, интерактивные методы, метод, учитель, творческое мышление, творчество, деятельность, способности, знания, умения, компетенции.*

Turdimuratov Bakhtiyar Kurbonovich (Termez branch of Tashkent Medical Academy Streamer of the Department” social and humanitarian Sciences”; E-mail: baxtiyor.turdimurodov6668@gmail.com)

THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL METHODS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING SKILLS IN THE TRAINING OF TEACHERS OF THE FUTURE DISCIPLINE “INFORMATION TECHNOLOGY” IN HIGHER EDUCATION

Annotation. *This article discusses the issues of developing creative thinking skills, acquiring knowledge and skills in the process of applying interactive methods with innovative methods in educational processes in the future professional pedagogical activities of future information technology teachers.*

Keywords*: innovative technologies, innovative methods of teaching, interactive methods, method, teacher, creative thinking, creativity, activity, abilities, knowledge, skills, competencies.*

Kirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi oliy ta’limda o‘qituvchilar tayyorlash sifatiga yuqori talablar qo‘ymoqda. Ayniqsa, “Axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha pedagoglarni tayyorlashda kreativ (ijodiy) fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Bunda innovatsion ta’lim metodlari muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrda ta’limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, mana shu sababli barchamiz «yangi innovatsion ta’lim texnologiyalari» atamasini ishlata boshladik. Shaxsiy kompyuter ta’limning imkoniyatlarini butunlay o‘zgartirib yubordi. Internet leptoplar ta’lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil va kreativ fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda [1].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mustaqil hamdo‘stlik davlatlari olimlaridan L.Vigotskiy, A. Leontev, D.Elkonin, O.Vasilchenko, E.Melkumova, V.Miretskaya, M.Suxomlinova, E.Emmanuel kabilarining ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari o‘rganilgan. Xorijiy

olimlarning E.P.Torrance, N.Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno ishlarida shaxsning individual qobiliyatlari, ijodiy salohiyatini namoyon etish masalalari ochib berilgan.

Kreativlik (lot., ing. “sreate” – yaratish, “sreative” yaratuvshi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovshi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvshi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

P.Torrens fikrisha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o‘zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirshanli [2].

Kreativlik (ijodiylik) – qandaydir yangi, betakror narsa yarata olish layoqati, yangicha fikrlash, original g‘oya va yechimga olib keluvchi aqliy jarayon. Tushunchaga berilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, kreativlik ham xuddi tashabbuskorlik, ishga ijodiy yondashuv xislatlari singari albatta tug‘ma, ilohiy tuhfa bo‘lishi aslo shart emas.

Talabalarning kreativlik xususiyatlari darajasi haqida, avvalambor ularning o‘quv jarayonidagi va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda erishgan yutuqlari orqali xulosa qilishimiz mumkin. Ammo ijodiy faollikni o‘z vaqtida aniqlash juda muhim, bu faqat kreativ muvaffaqiyat uchun imkoniyatdir. Talabalarni ijodiy faolligini muntazam ravishda o‘rganish va rivojlantirish kerak, aks holda ularning ijodiy faollik qobiliyatlari asta-sekin yo‘qolib boradi [3].

Innovatsion ta’lim metodlarining rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o‘qituvchi o‘z kasbiy tayyorgarligini, pedagogik mahoratini rivojlantirib borishini talab etadi.

Hozirgi kun ta’lim tizimida amal qilayotgan an’anaviy ta’limni mazmunan va uslubiy yangilash va ta’lim jarayonini tashkil etishni tubdan o‘zgartirish davr taqozosidir. Bunda, ta’lim tizimiga innovatsion ta’lim metodlaridan foydalanish qo‘llash orqali, ta’lim samaradorligini yuqori pog‘onaga ko‘tarishni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, mamlakatimizda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ning uchinchi bosqichi – to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish davri ketmoqda. O‘tilgan davr mobaynida yaratilgan ma’muriy-huquqiy hujjatlar fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini yaratishga asos bo‘lib, o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari bu ta’lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv qilish maqsadida qo‘llaniladigan yangi texnologik vositalar, metodlar va yondashuvlardir.

Tadqiqot metodologiyasi: Kreativ fikrlash bu mavjud andazalardan chiqib, yangicha yondashuvni shakllantirish, muammoni noodatiy hal qilish ko‘nikmasidir. Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchisida quyidagi jihatlar muhim:

- muammoni turlicha tahlil qilish;
- yangi g‘oyalar ilgari surish;
- raqamli vositalardan samarali foydalanish.

Kreativlik bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvcilari dunyoqarashi, birinchidan, kreativ faoliyat strategiyasini ko‘rsatib beradi; ikkinchidan, natijalariga baho berishda ishonchli, tartibga soluvchi ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Bularni umumlashtirgan holda, bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvcilarining boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati sifatida aniqlash mumkin. Bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvcilari kreativ qobiliyatlari intellekt tarkibiy qismining mantiqiyligini ko‘rsatishi kerak [4].

Zero, raqamli transformatsiya davrida oddiy bilim yetarli emas, ijodiy yechimlar va yangicha qarashlar muhim rol o‘ynaydi.

Shu maqsadda innovatsion ta’lim metodlaridan (loyihaviy ta’lim, gamifikatsiya, “6 shlyapali fikrlash”, SCAMPER, kollaborativ texnologiyalar va boshqalar) foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo‘llari o‘rganiladi. Ushbu yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni, muammo yechish qobiliyatini va kasbiy moslashuvchanlikni ham shakllantiradi.

1. Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning). Mazmuni: Talabalar muammoni aniqlab, unga amaliy loyiha orqali yechim topadilar (masalan, IT darslari uchun mobil ilova, veb-sayt, sun’iy intellekt moduli yaratish).

Kreativ fikrlashga ta’siri:

Muammoga noan’anaviy yondashishni o‘rgatadi.

Qisqa va uzoq muddatli rejalashtirishni talab qiladi.

Jamoaviy ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Qo‘llash misoli:

“Python dasturlash tilida yosh bolalar uchun o‘quv dastur yaratish” loyihasi – talabalar nafaqat dasturlash, balki ijodiy interfeys, o‘quv motivatsiyasi haqida ham o‘ylashadi.

2. Gamifikatsiya (Gamification).

Mazmuni: O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini (ball to‘plash, bosqichlar, reytinglar, mukofotlar) kiritish.

Kreativ fikrlashga ta’siri:

Rag‘batlantirish orqali yangi yondashuvlar sinab ko‘rishga undaydi.

Qiziqarli muhit orqali ijodiy faollikni oshiradi.

Qo‘llash misoli:

“IT Quest” o‘yini: talabalar har bir modulda vazifani bajarsa, ball to‘playdi. Har bir bosqichda mini-topshiriq (algoritm yozish, dizayn yechimi) mavjud.

3.“6 shlyapali fikrlash” (De Bono Method).

Mazmuni: Muammoni turli rakurslardan ko‘rib chiqish: oq (faktlar), qizil (his-tuyg‘ular), qora (tanqid), sariq (ijobiy tomonlar), yashil (yangi g‘oyalar), ko‘k (boshqaruv).

Kreativ fikrlashga ta’siri:

Har xil fikr yo‘nalishlarida ishlashni o‘rgatadi.

Bir muammoga bir nechta nuqtai nazardan qarashni rivojlantiradi.

Qo‘llash misoli:

“Bulutli texnologiyalarning afzallik va xavflarini 6 shlyapa yordamida tahlil qilish” — talabalar har bir shlyapa ostida bahs yuritadi.

4. Kollaborativ texnologiyalar (Collaborative Learning Tools).

Mazmuni: Jamoadagi hamkorlik, onlayn yoki oflayn tarzda – Google Docs, Miro, Trello, Discord va h.k. vositalar bilan.

Kreativ fikrlashga ta’siri:

Fikr almashish, qarama-qarshi g‘oyalardan sintez qilishni o‘rgatadi.

Birgalikda g‘oya ishlab chiqish orqali ijodiy yondashuvlar kuchayadi.

Qo‘llash misoli:

Google Jamboard’da “Smart City” konsepsiyasi bo‘yicha guruhlik dizayn fikrlar taqdimot yaratish mumkin.

Amaliy darslarda metodlarni qo‘llashga doir misollar

Metod	Misol	Kutilgan natija
Loyihaviy ta’lim	“Onlayn test yaratish” loyihasi	Dasturlashda kreativlik
Gamifikatsiya	Kahoot orqali test	Rag‘bat va raqobat
6 shlapa	Dasturiy yechimni turli nuqtayi nazardan baholash	Analitik va tanqidiy fikrlash
SCAMPER	Dasturdagi funksiyani takomillashtirish g‘oyalari	Innovatsion yondashuv

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining turlari. MOOC (Massive Open Online Courses). Katta auditoriyalarga mo‘ljallangan onlayn kurslar, ma-salan, Coursera, edX, Udemy, bu ta’lim jarayonini global miqyosda kengaytiradi.

Multimedia va interaktiv vositalar. ***Interaktiv taxtalar (Smart boards).*** Bu vosita sinfda interaktiv o‘rganish jarayonini yaratadi, o‘qituvchilar va talabalar birgalikda ishlashni ta'minlaydi. Shuningdek, ular texnologiyalarni o‘zlashtirishni osonlashtiradi.

Video darslar va animatsiyalar. Talabalarga murakkab mavzularni vizual tarzda tushuntirish imkonini beradi, bu esa o‘rganish samaradorligini oshiradi.

Tahlil va natijalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari o‘qituvchilar va talabalarga o‘rganish jarayonini yangi va qiziqarli shakllarda olib borishga imkon beradi. Ular o‘rganishning yanada individual va moslashuvchan usullarini yaratadi, shuningdek, kreativ va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarining afzalliklari. ***Individual o‘rganish imkoniyatini yaratadi.*** Texnologiyalar talabalarning individual ehtiyojlariga mos o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Jamoaviy ishlashni rivojlantiradi. Onlayn platformalar va interaktiv vositalar talabalarga guruhda ishlash imkoniyatini beradi.

Eng yangi bilimlarga kirish imkoniyatini yaratadi. Internet va onlayn platformalar orqali talabalar eng yangi ma’lumotlarga osongina erishishadi.

Tajriba-sinov loyihasi davomida eksperimental va nazorat guruhlaridagi talabalar kreativ fikrlash ko‘nikmalari quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

Divergent fikrlash (g‘oya xilma-xilligi).

Kreativ muammo yechimi (noodatiy qaror qabul qilish).

Innovatsion yondashuvga moyillik.

Boshlang‘ich va yakuniy test natijalari (o‘rtacha ballarda)

Ko‘rsatkich	Nazorat guruhi (boshlang‘ich)	Eksperimental guruhi (boshlang‘ich)	Nazorat guruhi (yakuniy)	Eksperimental guruhi (yakuniy)
G‘oya ishlab chiqish	45	46	50	76
Muammoni hal qilish	40	42	47	80
Ijodiy yechimlar taklifi	43	44	48	82
O‘rtacha ball	**42.7**	**44.0**	**48.3**	**79.3**

Grafik tahlil (ko‘rinish tavsifi). **Nazorat guruhi**da o‘zgarish kam – odatiy metodlar talabalar ijodkorligini sezilarli darajada oshirmadi. **Eksperimental guruh**da o‘rtacha ball 44 dan 79.3 gacha oshdi. Bu in-novatsion metodlar (loyihaviy ta’lim, gamifikatsiya va boshqalar) samarali bo‘lganini ko‘rsatadi.

So‘rovnoma natijalari (eksperimental guruh)

Savol (soddalashtirilgan)	Ha (%)	Yo‘q (%)
Darslar sizda yangicha fikrlashga undadi	93	7
Masalalarni noodatiy yondashuv bilan hal qilishga urinaman	89	11
Gamifikatsiya darsda ishtirokni oshiradi	95	5
Loyiha topshiriqlari sizda ijodiylikni kuchaytirdi	90	10

Umumiy tahliliy xulosa. Innovatsion metodlar (xususan, loyihaviy ta’lim, gamifikatsiya, “6 shlyapa” va SCAMPER) talabalarning kreativ fikrlash darajasini **sezilarli darajada oshirdi.**

Eksperimental guruh talabalari **mustaqil fikrlash, noodatiy g‘oyalar taklif qilish va axborot texnolo-giyalarini ijodiy qo‘llash**da yuqori natijalarni ko‘rsatdi.

So‘rovnomalar ham bu metodlarning **motivatsion va ijodiy foydasini isbotladi.**

Xulosa. Bo‘lajak “Axborot texnologiyala Turdimuratov Bakhtiyar Kurbonovich (Termez branch of Tashkent Medical Academy Streamer of the Department” social and humanitarian Sciences”; E-mail:baxtiyor. Turdimurodov6668@gmail.com) o‘qituvchilarini tayyorlashda faqat bilim berish emas, balki ularda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish ham muhim. Bunga erishish innovatsion metodlardan keng foydalanish orqali mumkin. Bu yondashuv, o‘z navbatida, zamonaviy raqamli texnologiyalarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak “Axborot texnologiyalari” fani o‘qituv-chilarini tayyorlashda **innovatsion ta’lim metodlarini qo‘llash orqali** ularning **kreativ fikrlash ko‘nik-ma-larini samarali shakllantirish mumkin**. Bu esa kelgusida IT sohasidagi darslarni yangicha, zamonaviy yon-dashuvlar bilan olib boradigan mutaxassislarni yetishtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-farmoniga 1-ilova https://lex.uz/ru/ docs/-4545884

[2]. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati, T., 2017, 39-bet; https://new.tdpu. uz/abiturient/showpage/4158

[3]. Ayosova Zarina Qurbonovna. Talabalarda kreativlikni shakllantirish usullari va xususiyatlari International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 3/ISSUE 7/UIF:8.2/ MODERNSCIEN CE.UZ, ISSN:2181-3906/2024; https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/35314

[4]. Турдымуродов В. (2023). Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini takomillashishi psixologo-pedagogik fenomen sifatida. Цифровизация современного образования: проблема и решение 1(1), 103–107. Извлечено от; URL:https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24689

[5]. http://www.uza.uz

Radjapova Dilafruz Amanturdiyevna (Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi;
E-mail: radjapovadilafruz17@gmail.com)

TALABALARDA DIVERGENT TAFAKKURNI MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada texnologiya ta’limida talabalarda divergent tafakkurni muammoli o‘qitish asosida rivojlantirish, “Texnologiya” fani o‘qituvchisi konvergent (chiziqli) tafakkur tufayli har qanday masalani yagona to‘g‘ri yechim bilan hal qila olishi hamda xilma-xil fikrlashning ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar*: texnologiya fani, divergent tafakkur, konvergent (chiziqli) tafakkur, tafakkurni shakllantirish, xilma-xil fikrlash, shaxs tafakkuri, o‘n ikki tug‘ma xislat, idrok etish, tafakkurni shakllantirish, ijodiy kreativlilik, turli yondashuvlar.*

Раджапова Дилафруз Амантурдиевна (преподаватель Термезского государственного университета;
E-mail: radjapovadilafruz17@gmail.com)

РАЗВИТИЕ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В статье освещается развитие дивергентного мышления у учащихся в процессе обучения по технологическому направлению на основе проблемного обучения, способность учителя по предмету «Технология» решать любую задачу единственным правильным решением за счет конвергентного (линейного) мышления, а также важность дивергентного мышления.*

Ключевые слова: *технология, дивергентное мышление, конвергентное (линейное) мышление, формирование мышления, дивергентное мышление, индивидуальное мышление, двенадцать врожденных черт, восприятие, формирование мышления, творчество, различные подходы.*

Radjapova Dilafruz Amanturdiyevna (Teacher at Termez State University;
E-mail: radjapovadilafruz17@gmail.com)

DEVELOPMENT OF DIVERGENT THINKING IN STUDENTS BASED ON PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY

Annotation. *The article highlights the development of divergent thinking in students in technology education based on problem-based learning, the ability of a “Technology” teacher to solve any problem with a single correct solution due to convergent (linear) thinking, and the importance of divergent thinking.*

Keywords: *Technology, divergent thinking, convergent (linear) thinking, thinking formation, divergent thinking, individual thinking, twelve innate traits, perception, thinking formation, creative creativity, different approaches.*

Kirish. Ta’lim millatning kelajagidir. Dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari asosida oliy ta’limning maqsad va vazifalarini zamon talabiga moslashtirgan holda takomillashtirilgan yangi tarzda shakllantirishga e’tibor qaratilmoqda. Bundan nazarda tutiladigan asosiy maqsad o‘z muvaffaqiyati hamda jamiyat muvaffaqiyati uchun mas’uliyatli talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularning qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishdir. Bugungi kunda o‘qituvchining asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarning ijodkorligini shakllantirish, shaxsiy individual sifatlarini rivojlantirgan holda, turli vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga o‘rgatishdan iboratdir [2].

Bugungi kunda turli sohalarda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqaruvda ko‘pchilik muammolarning bir emas bir nechta yechimi mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin aksariyat adabiyotlarda topshiriqlar “konvergent” natijaga tegishli ekanligini ko‘rishimiz mumkin [7]. Ko‘p hollarda topshiriqlarning shartlari yagona yechim mavjudligini nazarda tutadi hamda qat’iy mantiqiy mulohaza yuritish yo‘li bilan yoki talaba tomonidan o‘zlashtirilgan qoida va algaritmlardan foydalangan holda yagona to‘g‘ri javob hosil qilinishi mumkin. talabaning divergent tafakkurini rivojlantirish uchun topshiriqlar tizimining taqdim etilmaganligi; talabalar divergent tafakkurini rivojlantirishga pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etish zarurati bilan maktab darsliklarida mos topshiriqlarni yetarli darajada taqdim etilmaganligi o‘rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligini ko‘rishimiz mumkin [10].

Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan jamiyatda texnologik tafakkur, yangilikka intilish va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, texnologiya fani ta’limida bu jihatlar alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, texnologiya fani nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikma va ijodiy yondashuvni ham talab etadi [8].

Konvergent tafakkur bu mavjud ma’lumotlar asosida yagona, to‘g‘ri yechimni topishga yo‘naltirilgan chiziqli fikrlash jarayonidir. Masalan, texnologiya fani o‘qituvchisi texnik topshiriqni aniq algoritm

asosida hal etishga odatlangan bo‘lishi mumkin. Bu esa masalalarga bir yoqlama, ko‘proq an’anaviy yondashuvni shakllantiradi.

Divergent tafakkur esa, aksincha, muammoga bir nechta yechim topishga intilishni, yangi g‘oyalarni ilgari surishni, kreativ va noan’anaviy fikrlashni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi tafakkur, ayniqsa, texnologik loyihalash, muqobil materiallardan foydalanish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Muammoli o‘qitish metodi talabalarda mustaqil fikrlash, muammoni chuqur tahlil qilish va bir nechta echim variantlarini ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, quyidagi topshiriqlar orqali divergent tafakkurni rag‘batlantirish mumkin:

- *“*Ochish topshirig‘i”. Talabaga ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqish vazifasi beriladi. Ammo bu mahsulotni tayyorlash uchun materiallar to‘liq emas yoki mavjud emas. Talaba muqobil yechimlar ishlab chiqadi.
- *“*Bir nechta variantlar topish”. Masalan, buyumga ishlov berishda turli usullarni taqqoslash va ular asosida eng maqbulini tanlash.
- “Kreativ loyiha”. Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi va ular “hayotni yengillashtiruvchi” yangi texnologik mahsulot loyihalashlari kerak bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarida divergent tafakkurni muammoli ta’lim texnologiya asosida takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Angliya (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university), AQSH (Princeton university), AQSH (Association for Educational Communications and Technology–AECT), Germaniya (Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn), Janubiy Koreya (Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University), Rossiya (Ta’lim akademiyasi), Fransiya (University of Strasbourg), Yaponiya (Miyagi pedagogika universiteti)da olib borilmoqda [5].

O‘tgan yillar davomida psixologik va pedagogik adabiyotlarda divergent tafakkurni shakllantirish, rivojlantirish muammosi bir necha bor ko‘tarilgan. Ko‘pgina tadqiqotchi olimlar, jumladan, mamlakatimiz olimlaridan tafakkur jarayonlarini o‘rganish ustida B.R.Adizov, Z.X.Abdinazarova, E.G‘oziyev, Sh.O‘. Nurullayeva, O.P.Aslonova va boshqalar tafakkurning turlari, tezligi, kengligi va ijodiy kriativlilik haqidagi tadqiqot ishlarini olib borganlar [4].

Texnologiya fani o‘qituvchisi konvergent tafakkur asosida o‘quvchilarga aniq va lo‘nda yechimlarni taqdim etishi mumkin, bu esa ularning texnik kompetensiyasini oshiradi. Biroq faqat konvergent yondashuv bilan cheklanish, talabalarning ijodkorlik salohiyatini cheklaydi. Shuning uchun o‘qituvchi muammoli vaziyatlar yaratishi, ochiq savollar berishi, mustaqil tahlil va tajriba asosida fikrlashga yo‘naltirishi lozim [9]. Hozirgi zamonda “Texnologiya” fani o‘qituvchisi nafaqat mustahkam, chuqur bilimga ega bo‘lishi, balki ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni g‘ayritabiiy, mustaqil ravishda ijodiy hal qila oladigan va bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarini divergent tafakkurini rivojlantiradigan bo‘lishi kerak [3].

Divergent tafakkur – bu bir muammo yoki vaziyatga bir nechta ijodiy, noodatiy va original yondashuvlar orqali yechim topish qobiliyati. Bu tafakkur turi talabalarni kreativ fikrlashga, muammolarni turli yo‘llar bilan hal qilishga o‘rgatadi.

Divergent tafakkurning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

–savol yoki muammo qo‘yiladi;

–ko‘plab g‘oyalar ilgari suriladi;

–turli burchaklardan qarash rag‘batlantiriladi;

–o‘zgacha, noodatiy va ijodiy yechimlar ishlab chiqiladi;

–tanlangan fikrlar asosida amaliy qaror qabul qilinadi.

Texnologiya fanida ham talabalarga muammoli vaziyat paydo bo‘lganda, ularga qanday yechimlar topish, savol-javob, bahs-munozara, loyiha asosida tarzida ko‘plab yechimlar berish mumkin va bu yechimlar orasidan eng maqbulini tanlab olish ham muhim aha-miyatga ega hisoblanadi. Bu orqali talabalarda ijodiy fikr-lashni rivojlantirish muammoli vaziyatlarda ko‘plab ye-chimlar berish orqali ular bilimini rivojlantirishga eri-shish mumkin bo‘ladi.

Muammoli o‘qitish bu o‘quvchilarga tayyor bilim-larni berish o‘rniga, ularni muammoli vaziyatlar orqali mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va yechim topishga un-daydigan o‘quv jarayonidir.

1-rasm. Muammoli o‘qitish metodini qo‘llash texnologiyasi.

Ko‘pincha, “Texnologiya” fani o‘qituvchisi konvergent (chiziqli) tafakkur tufayli har qanday masalani yagona to‘g‘ri yechim bilan hal qila oladi, maktab talabalarining tafakkurini shu birgina yechimni topish usuli bilan rivojlantiradi. Bunday tafakkurni qat’iy belgilangan fikr yo‘nalishini nazarda tutishi bilan izohlash mumkin. Fikrlashning aniq bir o‘lchovliligi vaziyatni yetarli darajada idrok etishga, boshqa odamlarni fikrlarini qabul qilishga to‘sqinlik qiladi va shaxsiy muloqotni qiyinlashtiradi. Konvergent tafakkurdan farqli o‘laroq, divergent tafakkur mavjud bo‘lib, u xilma-xil fikrlash, aynan shu savolga ko‘plab javoblarni topishni o‘z ichiga oladi.

Yurtimiz yoshlari ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilishi, xususan, bo‘lajak talabalarga ta’lim beruvchi o‘qituvchilarning psixologik, pedagogik tayyorgarligini nazariy-didaktik, metodik tayyorgarligini takomillashtirish, boshlang‘ich ta’limni izchillik, uzviylik va tizimlilik prinsiplari asosida tashkil etishning me’yoriy-huquqiy fundamenti yaratilmoqda. Talabalarda divergent tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ularni maktab ta’limi jarayonida psixologik qo‘llab-quvvatlash zarurati bilan bog‘liq. Yurtimizda so‘nggi paytlarda nazariy fanlarni talabalar tomonidan o‘zlashtirilishiga yuqori talablar qo‘yilmoqda. Divergent tafakkurni rivojlantirish talabaning umumiy intillektual rivojlanishiga yordam beradi, ayniqsa, texnologiya fanidan talabalarning umumiy intillektual qobiliyatlari rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Har qanday predmet yo‘nalishida divergent topshiriqlar deyilganda, ko‘plab yechimlar mavjudligi, aniqroq qilib aytganda, ko‘plab to‘g‘ri javoblar mavjudligi nazarda tutiladi.

Xulosa. Texnologiya ta’limida konvergent va divergent tafakkur o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilgandagina, talabalar nafaqat to‘g‘ri yechimni topishga, balki yangi g‘oya va innovatsiyalar ishlab chiqishga ham qodir bo‘ladilar. Shuning uchun texnologiya fani o‘qituvchilari muammoli o‘qitish metodlariga asoslangan mashg‘ulotlar orqali talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantirishlari zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, divergent tafakkur talabalarda bir muammoni turli yo‘llar bilan hal qilish, erkin va noodatiy fikrlash, kreativ g‘oyalar yaratish, variantlarga boy qarorlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Divergent tafakkur talabalarning ixtirochilik va muammoli vaziyatlarga nisbatan mustaqil yondashuvini rivojlantiradi. Texnologiya ta’limida bu tafakkurni shakllantirish uchun muammoli o‘qitish metodini qo‘llash o‘z samarasini beradi. Bu uslub talabaning nafaqat texnik bilimini, balki ijodiy salohiyatini ham yuzaga chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., “O‘zbekiston”, 2017, 546-bet.

(2). Абдукаримов Х. Професиональное воспитание личности учителя в процессе прерывного педагогического образования. Автореферат дисс доктора пед.наук, Т., 1997, с. 46.

(3). Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishidagi akademik-litseylarda matematika o‘qitish misolida). Ped.fan.dok. dis avtoref., T., 2006, 49-bet.

(4). Abdullayeva Sh.A. O‘quvchilarda refleksiv mushohada qilish ko‘nikmalarini shakllantirish. Toshkent, “Fan”, 1992, 193-bet.

(5). Boltaeva Sh.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslarini takomillashtirish. Samarqand, 2019, 168-bet.

(6). Musaev U. Umumiy o‘rta ta’lim jarayonini liberallashtirishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fan.nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, T., 2004, 130-bet.

(7). Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Avtoref. dis ped. fan. dokt., T., 2007, 45-bet.

(8). Ibragimov R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, Qori Niyoziy nomli O‘zPFITI, 2002, 265-bet.

(9). Shomirzayev, M.Kh. (2020). Ethnic characteristics of national traditional crafts. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (12), p. 216–225.

(10). Shomirzayev M.X. Texnologiya fani jarayonida o‘quvchilarni tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatiga tayyorlash. Ta’lim-tarbiya kontekstida fanlararo sinxron va asinxron bog‘lanishlar. Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. T., “Noshirlik yog‘dusi”, 2019, 176 –178-betlar.

Polvonov Baxtiyor Zaylobidinovich (Farg‘ona davlat Texnika universiteti professori, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori),
Bozorov Erkin Xojiyevich (M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti professori, fizika-matematika fanlari doktori),
Palvanova Gulnoza Satimbayevna (M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi),
Fozilova Mohichehra Dilmurod qizi (Farg‘ona davlat Texnika universiteti assistenti)

TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURTLARIDA NURLANISHLARNING MODDALAR BILAN O‘ZARO TA’SIRI FANINI KOMBINATSION USLUBLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH ASOSIDA UMUMLASHGAN METODLI DARS ISHLANMALARNI YARATISH

Annotatsiya. *Ushbu ilmiy maqolada tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida “Nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri”fanini o‘qitish jarayonida kombinatsion uslublarni qo‘llash orqali umumlashgan metodli dars ishlanmalari yaratish masalasi yoritilgan. Fanni o‘qitishda samarali pedagogik metodlarni integratsiya qilish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni amalga oshirishga qaratilgan. Tadqiqotda muammoli o‘qitish, interfaol o‘qitish va kooperativ o‘qitish kabi ilg‘or pedagogik metodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida talabalarning ilmiy fikrlash, mustaqil o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishilgan.*

Kalit so‘zlar: *kombinatsion uslub, pedagogik metodlar, muammoli o‘qitish, interfaol o‘qitish, kooperativ o‘qitish, innovatsion pedagogika, ta’lim samaradorligi, organayzerlar.*

СОЗДАНИЕ ОБОБЩЕННЫХ МЕТОДИЧЕСКИХ УЧЕБНЫХ РАБОТ ПО ОРГАНИЗАЦИИ НАУКИ О ВЗАИМОДЕЙСТВИИ ИЗЛУЧЕНИЯ С ВЕЩЕСТВОМ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМБИНИРОВАННЫХ МЕТОДОВ

Аннотация. *В данной научной статье рассматривается вопрос создания обобщенных методических планов занятий с использованием комбинаторных методов в процессе преподавания предмета «Взаимодействие излучений с веществом» в медицинских вузах. Целью проекта являются интеграция эффективных педагогических методов и внедрение инновационных педагогических подходов в преподавание естественных наук. Исследование показывает, что сочетание передовых педагогических методов, таких как проблемно-ориентированное обучение, интерактивное обучение и кооперативное обучение, привело к развитию у студентов научного мышления, самостоятельного обучения и практических навыков.*

Ключевые слова: *комбинационный метод, педагогические методы, проблемное обучение, интерактивное обучение, кооперативное обучение, инновационная педагогика, эффективность обучения, органайзеры.*

THE CREATION OF GENERALIZED METHODOLOGICAL TEACHING WORKS ON THE BASIS OF ORGANIZING THE SCIENCE OF THE INTERACTION OF RADIATION WITH MATTER IN MEDICAL UNIVERSITIES USING COMBINATION METHODS

Annotation. *This scientific article discusses the issue of creating generalized methodological lesson plans using combinatorial methods in the process of teaching the subject "Interaction of radiation with substances” in medical universities. It is aimed at integrating effective pedagogical methods and implementing innovative pedagogical approaches in teaching the subject. The research shows that as a result of the combination of advanced pedagogical methods such as problem-based learning, interactive learning and cooperative learning, students' scientific thinking, independent learning and practical skills were developed.*

Keywords: *combinational method, pedagogical methods, problem-based learning, interactive learning, cooperative learning, innovative pedagogy, educational effectiveness, organizers.*

Kirish. Bugungi kunda tibbiyot sohasida bilim olish jarayoni nafaqat an’anaviy o‘qitish usullari, balki innovatsion pedagogik metodlar yordamida yanada samarali va ilg‘or shakllarga o‘tkazilgan. Nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri fanining o‘qitilishi, biologiya, kimyo va fizika fanlarining sintezini o‘z ichiga olgan murakkab jarayonni anglatadi. Bu fan talabalarga nurlanishning moddalarga qanday ta’sir

qilishini, qanday turdagi nurlar moddalarda energiya yo‘qotishini yoki chiqarilishini o‘rganishga imkon beradi. Tibbiyotda nurlanishlarning ko‘plab sohalarda qo‘llanilishi, masalan, rentgenologiya, onkologiya, radioterapiya va boshqa diagnostika usullari bilan bog‘liq bo‘lib, bu sohalarda talabalar tomonidan yaxshi nazariy va amaliy bilimlarni egallash zarurati mavjud. Shuning uchun bu mavzuni o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlarning qo‘llanilishi nafaqat nazariy bilimlarni, balki talabalarni amaliy ko‘nikmalar va tahliliy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan [1].

Masalan, muammoli o‘qitish metodi yordamida talabalar nurlanish va moddalarning o‘zaro ta’sirini o‘rganish davomida real hayotdagi muammolarni hal qilishga o‘rganishadi. Interfaol o‘qitish metodida esa talabalar turli interaktiv vositalar yordamida o‘z bilimlarini oshiradilar, virtual laboratoriyalar orqali nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’sirini ko‘rishadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda, “Nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri” fanini o‘qitishda uch xil pedagogik metoddan foydalanishning samaradorligi tahlil qilindi: muammoli o‘qitish, interfaol o‘qitish va kooperativ o‘qitish metodlari. Darslarning har bir metodiga mos ravishda talabalar o‘rtasida interaktiv muloqot va ilmiy izlanishlar tashkil etildi. Darslar interfaol taqdimotlar, guruh ishlari va virtual laboratoriyalar yordamida tashkil etiladi.

Muammoli o‘qitish metodida talabalarga nurlanishlar va moddalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tushunishga yordam berish uchun konkret ilmiy masalalar taqdim etildi. Interfaol o‘qitish metodida talabalarga zamonaviy texnologiyalar yordamida vizual materiallar, diagrammalar, simulatsiyalar va laboratoriyaviy mashg‘ulotlar orqali mavzuni o‘rganish imkoniyati yaratildi. Kooperativ o‘qitish metodida esa talabalarga guruhlarda ishlash, bilim almashish va hamkorlikda ilmiy ishlarni bajarish imkoniyati taqdim etiladi. Ushbu metodlar yordamida o‘qitish jarayonida talabalar o‘zaro hamkorlikda ishlashdi, ilmiy masalalarni hal qilishga kirishdilar va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rganishdi. Har bir metod bo‘yicha darslar va ishlar o‘zining xususiyatlari bilan tashkil etildi va ular o‘zaro bog‘liq holda taqdim etildi [2;3-b.].

1. Nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri, **Asosiy tushunchalar.** Nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri fanida, asosan, quyidagi asosiy jarayonlar o‘rganiladi:

Absorbsiya. Nurlarning modda tomonidan so‘rilishi va energiya o‘tishi.

Emissiya. Moddaning energiya chiqarishi (nurlanish).

Sekinlashish va diflatsiya. Nurlarning modda ichida tarqalishi va sekinlashishi.

Ionlashish. Yuqori energiyali nurlar moddalarga ta'sir qilib, ionlarning shakllanishiga olib keladi.

Bu jarayonlar talabalarga ilmiy nuqtayi nazardan chuqur tushunishga yordam beradi, keyinchalik, klinikada nurlanish terapiyasi va diagnostikasi uchun zarur bo‘lgan asosiy bilimlarni beradi.

2. Qo‘llanilgan uch turdagi pedagogik metod yordamida o‘qitish masalalari.

2.1. Muammoli o‘qitish metodi. Muammoli o‘qitish metodi talabalarni muammoni mustaqil hal qilishga o‘rgatadi. Bu metod orqali talabalar ilmiy jihatdan tahliliy fikrlashni rivojlantirishadi, shuningdek, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishda muammolarni yechishga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llaydilar.

Darsda qo‘llanilishi. Dars boshida talabalarga “Moddalar nurlanishni qanday so‘rishi va qanday chiqarishi mumkin?” kabi savollarni berish.

Talabalar bu savolga javobni izlab, o‘z bilimlarini tahlil qilishadi va muammo asosida mavzuni chuqurroq o‘rganadilar. O‘qituvchi har bir talabadan javob olish orqali mavzu bo‘yicha umumiy xulosaga keladi.

Natijalar. Birinchi bosqichda, muammoli o‘qitish metodini qo‘llash orqali talabalar nurlanish va modda o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning asosiy jarayonlarini tushundilar. Talabalar nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda yanada faolroq ishtirok etdilar va bilimlarining amaliy qo‘llanilishini ko‘rishdi. Shuningdek, bu metod talabalarni mustaqil fikrlashga undadi va ularga ilmiy masalalarni hal qilishda yangi yondashuvlarni o‘rganishga yordam berdi [4].

Kooperativ o‘qitish metodida talabalar guruhlar bo‘lib ishlashdi va bir-birlariga bilim ulashishdi. Har bir guruh o‘z vazifasini bajarish uchun ilmiy materiallarni tahlil qilishdi, keyinchalik, o‘z natijalarini boshqa guruhlarga taqdim etdilar. Ushbu metod talabalar o‘rtasida bilim almashish va hamkorlikda ishlashni rivojlantirdi. Darslarning yakunida talabalar o‘quv maqsadlariga erishganini ko‘rsatdi: ular nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri haqida nazariy va amaliy bilimlarni egallashdi, ilmiy izlanishlar olib bordilar va o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirdilar. Bularning barchasi o‘qitish metodlarining samarali ishlashini tasdiqlaydi.

Tajribaviy tadqiqotlar tayyorligi va o‘tkazilishi. Tajriba ishlari Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat Texnika universiteti (TDTU), Buxoro davlat Tibbiyot instituti (BuxDTI), Farg‘ona Central Asian Medical University (CAMU) va Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti (ToshPTI)larida amalga oshi-

rildi. Tadqiqot sinov ishlari tayyorgalik, o‘rganish va shakllantiruvchi bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir oliy o‘quv yurtining tanlab olingan guruh talabalari orasida o‘tkazildi. Sinovlar, uch xil pedagogik metod – mu-ammoli o‘qitish, interfaol o‘qitish va kooperativ o‘qitish metodlari asosida tashkil etildi. Har bir metodning o‘ziga xos hususiyatlarini va ularning o‘qitish jarayonida talabalar tomonidan qanday qabul qilinishini tahlil qilish uchun tegishli o‘qitish dasturi va o‘quv materiallari tayyorlandi.

O‘rganish bosqichi. Bu bosqichida, har bir pedagogik metodga oid o‘qitish darslari, amaliy mashg‘ulotlar va ilmiy izlanishlar talabalar bilan birgalikda amalga oshirildi. Muammoli o‘qitish metodida talabalar mavzu bo‘yicha berilgan savollarni mustaqil ravishda tahlil qilishdi va mavzuga oid ilmiy muammolarni hal qilishga intilishdi. Har bir talaba o‘z fikrini bildirish va guruh bo‘lib ishlashga harakat qildi. Bu metod talabalarning mustaqil fikrlash va ilmiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.



Muhokama. Pedagogik metodlarning samaradorligi, albatta, talabalar ishtiroki va o‘z bilimlarini faol qo‘llashga bog‘liq. Muammoli o‘qitish metodida talabalar ilmiy muammolarni hal qilishga undaladi, bu esa ularga nafaqat o‘z bilimlarini chuqurlashtirish, balki ilmiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Interfaol o‘qitish metodida esa talabalar ilg‘or texnologiyalar yordamida mavzuni o‘rganadilar, bu esa o‘qitishni yanada interaktiv va samarali qiladi. Kooperativ o‘qitish metodida talabalar o‘rtasidagi hamkorlik va bilim almashish, guruhlar o‘rtasidagi ishonchni va ilmiy natijalarga erishishda motivatsiyani oshiradi**.** Sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, *muammoli o‘qitish* metodining samaradorligi, talabalarni mustaqil fikrlashga undashda aniq ko‘zga tashlanadi. Talabalar ilmiy muammolarni hal qilishda yanada faol ishtirok etdilar va o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga erishdilar. *Interfaol o‘qitish* metodida talabalarning o‘zaro hamkorlikda ishlashlari va innovatsion texnologiyalar yordamida amaliy mashqlarni bajarishlari o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. *Kooperativ o‘qitish* metodida esa talabalar o‘rtasidagi bilim almashish va guruh ishlarida ishlash, ilmiy natijalarni birgalikda olishda o‘ziga xos imkoniyatlar yaratdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalar *interfaol o‘qitish* metodida ko‘proq ijobiy natijalar ko‘rsatishdi, chunki bu metod nafaqat talabalarni faol o‘qishga undaydi, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘z bilimlarini mustahkamlashga imkon yaratadi. *Kooperativ o‘qitish* metodida esa talabalar o‘rtasida bilim almashish va guruhlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish samarali bo‘ldi [6;8-b.].

Xulosa. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida nurlanishlarning moddalar bilan o‘zaro ta’siri fanini o‘qitishda muammoli o‘qitish, interfaol o‘qitish va kooperativ o‘qitish metodlari samarali ishlaydi. Ushbu metodlar talabalarni faol o‘rganishga, ilmiy tahlil qilishga va guruh bo‘lib ishlashga undaydi. Natijada talabalar ilmiy fikrlash, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘zaro hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini egallaydilar. O‘qitishda innovatsion texnologiyalar va ilg‘or pedagogik metodlarni qo‘llash, o‘qitish jarayonini samarali va interaktiv qilishga yordam beradi. Shuningdek, yagona umumlashgan metodli grafik, diagramma va organayzerli dars ishlanmasi yordamida talabalarning o‘zlashtirishi yanada samarali bo‘ladi. Maqola natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu metodlarning integratsiyasi nafaqat talabalar bilimini oshirish, balki ularga tahliliy va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdurashidov Sh.Sh., & To‘laganov N.N. Zamonaviy pedagogik metodlar va ularning oliy ta’limdagi ahamiyati. Toshkent (2018), “Oliy ta’lim” nashriyoti.

(2). Jumayev, T.Y. Interaktiv ta’lim texnologiyalari va ularning tibbiyot oliygohlaridagi roli. Toshkent (2020), Toshkent Tibbiyot akademiyasi nashriyoti.

(3). Beknazarov M., & Qodirov M. Nurlanishlar va moddalar bilan o‘zaro ta’sir. Fizika va tibbiyot fanlari orqali tahlil. Buxoro (2019), Buxoro davlat Tibbiyot instituti nashriyoti.

(4). Axmedov Sh.T., & Ismatullayev M.X. Pedagogika va ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish. Modellar va ilmiy yondashuvlar. Farg‘ona (2021), Farg‘ona markaziy Osiyo tibbiyot universiteti nashriyoti.

(5). Bozorov E.H., Polvonov B.Z. Tibbiyot universitetlarida nurlanishlarini moddalar bilan o‘zaro ta’siri fanini innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish. Toshkent (2025), “O‘zMU xabarlari”, (3/1/1), 407–410-betlar.

Shokirova Diloramxon Abduvali qizi (PhD, Andijon davlat universiteti dotsenti, Andijon, O‘zbekiston; diloromhon0099887700@gmail.com)

BOLA NUTQIDA GENDERGA OID DISKURSIV FARQLANISHLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘g‘il bolalar nutqida kuzatiladigan genderga oid pragmatik og‘ishlar va ularning sotsiomadaniy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot Shokirova Diloramxon Abduvali qizining dissertatsiyasining 4-bob 1-bo‘limida yoritilgan ilmiy xulosalar asosida qurilgan. Nutqiy yetishmovchiliklarning tipologiyasi, ularning lingvopragmatik sabablari va bartaraf etish yo‘llari IMRAD uslubida tahlil qilinadi. Maqolada bola nutqini rivojlantirishda ijtimoiy muhit, madaniy stereotiplar va kommunikativ kutishlarning ta’siri alohida ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *bola nutqi, gender pragmatikasi, o‘g‘il bola, nutqiy yetishmovchilik, stereotip, kommunikativ og‘ish.*

Шокирова Дилорамхон Абдували кизи (PhD, доцент, Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан; diloromhon0099887700@gmail.com)

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЕНДЕРНОЙ ДИСКУРСИВНОЙ ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ В ДЕТСКОЙ РЕЧИ

Аннотация. *В статье анализируются гендерные прагматические отклонения, наблюдаемые в речи мальчиков, и их социокультурные основания. Исследование опирается на научные выводы, изложенные в главе 4, разделе 1 диссертации Шокировой Дилорамхон Абдували кизи. В формате IMRAD рассматривается типология речевых недостатков, их лингвопрагматические причины и пути устранения. В статье подчёркивается влияние социальной среды, культурных стереотипов и коммуникативных ожиданий на развитие детской речи.*

Ключевые слова: *детская речь, гендерная прагматика, мальчики, речевые недостатки, стереотип, коммуникативное отклонение.*

Shokirova Diloramkhon Abduvali qizi (PhD, Associate Professor Andijan State University, Andijan, Uzbekistan; diloromhon0099887700@gmail.com)

LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF GENDERED DISCURSIVE DIFFERENTIATION IN CHILDREN’S SPEECH

Annotation. *This article analyzes gender-specific pragmatic deviations observed in the speech of boys and explores their sociocultural foundations. The study is based on the scientific conclusions presented in Chapter 4, Section 1 of the dissertation by Shokirova Diloramkhon Abduvali qizi. Within the IMRAD framework, the typology of speech deficiencies, their linguopragmatic causes, and potential solutions are systematically examined. The article highlights the significant influence of the social environment, cultural stereotypes, and communicative expectations on the development of children’s speech.*

Keywords: *child speech, gender pragmatics, boys, speech deficiencies, stereotype, communicative deviation.*

Kirish. Bola nutqi – bu inson tafakkuri, psixik holati va sotsiomadaniy muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon bo‘lib, u orqali bola nafaqat til tizimini egallaydi, balki ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi va shaxsiyati shakllanadi. Til bolaning tashqi dunyo bilan muloqot vositasi sifatida, jamiyatda qabul qilingan madaniy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va gender rollarini ham singdiradi. Shu bois bola nutqini o‘rganishda uni faqat individual rivojlanish natijasi sifatida emas, balki ijtimoiy-gender kontekstda ham ko‘rib chiqish zarur.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bola nutqida gender tafovutlari aniq namoyon bo‘ladi. O‘g‘il va qiz bolalar tilga bo‘lgan munosabati, ifoda uslubi va kommunikativ niyatiga ko‘ra farqlanadi. Bu farqlar, ayniqsa, pragmatik va sotsiomadaniy jihatdan yaqqol seziladi. Pragmatik og‘ishlar va stereotipik til birliklari bola qanday jamiyatda shakllanayotganini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

O‘zbek madaniyatidagi an’anaviy gender stereotiplari ham bu nutqiy xatti-harakatlarga ta’sir ko‘rsatadi. O‘g‘il bolalardan jasorat, qat’iyat va hissiyotlarini cheklash kutiladi, bu esa ularning nutqida buyruq ohangi, emotsional ifoda yetishmasligi, muloqotda raqobatchilikka moyillik kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Bunday xatti-harakatlar Graysning kooperativlik prinsipi, Brown va Levinsonning odob nazariyasi, Holmes va Tannening gender kommunikatsiyasi haqidagi qarashlariga zid bo‘lishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi – o‘g‘il bolalar nutqidagi tipik genderga oid xatoliklarni aniqlash, ularning lingvopragmatik va sotsiomadaniy asoslarini tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat. Bunday tahlillar bola tilidagi har bir og‘ish ortida jamiyatdagi rollar, stereotiplar va kommunikativ kutishlar yotganini anglashga yordam beradi. Bu esa nafaqat tilshunoslik, balki ta’lim amaliyoti uchun ham muhim bo‘lib, tenglikka asoslangan kommunikativ muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot o‘z tabiatiga ko‘ra, fanlararo yondashuvga tayanadi. Chunki bola nutqida uchraydigan genderga oid nutqiy xatolar faqat lingvistik hodisa bo‘lib qolmay, balki psixologik, sotsiomadaniy va madaniyatshunoslik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli metodologik asos sifatida gender tilshunosligi, lingvopragmatika, psixolingvistika, diskursshunoslik va madaniyatshunoslik kabi bir nechta yo‘nalishlar uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqot predmeti. Bolaning til tizimini o‘zlashtirishdagi umumiy rivojlanish emas, balki bu jarayonda ijtimoiy-gender stereotiplarning qanday til vositalari orqali ifodalanganini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida 5–10 yoshdagi o‘zbek o‘g‘il bolalarning og‘zaki va yozma nutq namunalaridan foydalanildi. Bu davr bolaning tafakkuri va kommunikativ kompetensiyasi shakllanayotgan, shuningdek, jinsiy o‘zlikni anglash jarayoni faollashayotgan bosqichdir.

Nutq namunalari rolli o‘yinlar, interaktiv ertaklar, teatrlashtirilgan sahnalar va erkin muloqotlardan to‘plandi. Bunday kontekstlar bolaning nutqiy faoliyatida erkinlik va tabiiylikni ta’minlaganligi sababli, lingvopragmatik jihatdan ishonchli tahlil olib borish imkonini berdi. Tahlil natijasida o‘g‘il bolalarning nutqida uchraydigan stereotipik konstruksiyalar aniqlanib, ularning ijtimoiy kutishlar bilan qanday bog‘liq ekani ko‘rsatildi. Masalan, “Qizlar yig‘laydi” yoki “O‘g‘il bola baqirsa bo‘ladi” kabi iboralar orqali gender stereotiplari til vositasida qanday shakllanishi diskursiv yondashuv orqali tahlil qilindi.

Pragmatik og‘ishlar Graysning kooperativlik prinsiplari (aniqlik, qisqalik, samimiylik, relevans) va Brown, Levinsonning odob me’yorlari nazariyasi asosida tahlil qilindi. Unga ko‘ra, o‘g‘il bolalarning nutqida buyruq ohangi ustuvorligi, emotsional ifodaning sustligi, dialogik hamkorlikning pastligi kabi belgilar mavjudligi aniqlandi.

Psixolingvistik yondashuv orqali bola nutqidagi kognitiv va emotsional jarayonlar tahlil qilindi. Vigotskiy, Piaget va Bruner nazariyalari asosida bolaning o‘zini ifoda eta olmagan holatlari, hissiy noaniqlikda til vositalarini noto‘g‘ri tanlashi kabi holatlar aniqlashtirildi. Yarim tuzilgan suhbatlar orqali bolaning ijtimoiy rollarga munosabati, gender haqidagi tasavvurlari va kommunikativ strategiyalari chuqur tahlil qilindi. Bu kompleks yondashuv bola tilidagi genderga oid nutqiy og‘ishlarni nafaqat tashqi ifoda, balki ularning ichki psixososial va madaniy ildizlari bilan birga o‘rganish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar nutqidagi yetishmovchiliklar faqat grammatik yoki fonetik og‘ishlar bilan cheklanmaydi. Bu xatoliklar ko‘proq pragmatik, emotsional va sotsiokognitiv darajalarda namoyon bo‘ladi hamda madaniy stereotiplarning bola nutqiga ta’siridan darak beradi.

Birinchi navbatda, o‘g‘il bolalar emotsional holatni ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunga jamiyatda bolalarga nisbatan qo‘yilgan ijtimoiy bosim, masalan,“Yig‘lama”, “Erkak baquvvat bo‘ladi” kabi stereotipik qarashlar sabab bo‘ladi. Natijada bola ichki his-tuyg‘ularini til orqali ifodalashni o‘rganmaydi yoki bunga ehtiyoj sezmaydi. Jumladan:

• “Men unga aytmadim, u o‘zi bilib olsin”.

• “Yig‘lash yomon, o‘g‘il bolalar yig‘lamaydi”.

Ikkinchidan, ularning nutqida buyruq, tanqid va bahsli ohang ustunlik qiladi. Bu esa Graysning kooperativlik prinsiplariga zid keluvchi holatlarni yuzaga keltiradi, ayniqsa, “moslik” va “samaradorlik” mezonlari buziladi. Misollar:

• “Tez ol buni, men aytdim-ku!”

• “Sen qilolmayapsan, men qilaman”.

Uchinchidan, o‘g‘il bolalarning nutqida gender stereotiplari chuqur ildiz otgani kuzatiladi. Kasb-hunar, faoliyat turlari va ijtimoiy rollar jinsga qarab taqsimlanadi. Bu esa bola dunyoqarashini toraytiradi. Misollar:

• “Qizlar pishiriq qiladi, men urushaman”.

• “Men futbolchi bo‘laman, qizlar rasm chizadi”.

Tahlil Holmes (2008) va Tannen (1990) kabi olimlarning fikrlari bilan mushtarak bo‘lib, bunday stereotipik iboralar muloqotda gender tengsizligini mustahkamlashini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, o‘g‘il bolalarda monologik yondashuv ustun bo‘lib, suhbat davomida uzluksiz gapirish, boshqa replikalarga javob bermaslik, savol-javobdan qochish holatlari kuzatiladi. Bu esa muloqotda interaktivlik va empatiyaning sustligidan darak beradi.

Beshinchidan, o‘g‘il bolalar ba’zan kontekstga mos bo‘lmagan nutq aktlarini tanlaydi. Masalan, do‘stona muhitda ham buyruq ohangi yoki boshqaruvga asoslangan gaplar ishlatiladi:

• “Buni hozir ol!”

• “Sen hozir ayt, keyin men aytaman”.

Brown va Levinson nazariyasiga ko‘ra, bu kabi nutqiy strategiyalar “threat to face” holatini vujudga keltiradi, ya’ni suhbatdoshning ijtimoiy obro‘siga tahdid soladi. Shu tarzda o‘g‘il bolalar nutqidagi lingvopragmatik xatoliklar jamiyatdagi gender stereotiplarning bevosita aksidir va ularni bartaraf etish uchun madaniy, psixologik va metodik yondashuvlar zarur.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar nutqidagi xatoliklar faqat grammatik kompetensiyaning sustligi bilan emas, balki jamiyatda mavjud ijtimoiy stereotiplar, madaniy kutishlar va psixososial omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Bu xatoliklar bolaning til tizimini yetarlicha egallamaganidan emas, balki jamiyat unga yuklagan genderga xos kommunikativ modellarning avtomatik tarzda qabul qilinishi natijasida yuzaga keladi.

Holmes (2008) ta’kidlaganidek, erkaklar diskursda, ko‘pincha, hokimiyat, ustunlik va rasmiylik bilan bog‘liq rollarni egallaydi. Tadqiqotda uchragan “Sen qilolmayapsan, men qilaman” yoki “Tez ol buni, men aytdim-ku!” kabi ifodalar Holmesning nazariyasini tasdiqlaydi. Bu holatlarda o‘g‘il bola suhbatdoshga nisbatan o‘z pozitsiyasini ustun qo‘yadi. Shuningdek, Brown va Levinson (1987) ilgari surgan “Politeness Theory” asosida olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalarning nutqida suhbatdoshning “face”ini saqlovchi emas, balki unga tahdid qiluvchi, ya’ni keskin buyruq, inkor, tanqid kabi nutq aktlari ustunlik qiladi. Bu esa “positive face” va “negative face”ka e’tiborsizlikni ko‘rsatadi.

O‘zbek madaniyatidagi erkaklik modeli – “yig‘lamaslik”, “jasorat”, “buyruq berish” kabi stereotiplar orqali bola nutqida diskursiv kontrastlar shakllanadi. Masalan, “O‘g‘il bola yig‘lamaydi”, “Qizlar pishiriq qiladi, men urushaman” kabi iboralar orqali kasb, rol va xatti-harakat jins asosida ajratiladi. Bu esa bola nutqining emotsional, empatik va intellektual registrlarida nomutanosiblikka olib keladi. Tadqiqot, shuningdek, madaniy ta’lim va mediavositalarining o‘g‘il bolalar ongida kommunikativ stereotiplarni shakllantirishdagi rolini ochib beradi. Multfilmlar, o‘yinchoqlar va videokontentlarda erkak qahramonlar, asosan, jangari va buyruq ohangida namoyon bo‘ladi, bu esa “muloyim bo‘lish”ni zaiflik deb qabul qilishga olib keladi. Natijada dialogik muloqot, tenglik, empatiya, iltimos shakllari kabi kommunikativ kompetensiyalar rivojlanmaydi. Gender neytral kommunikatsion muhit yaratish bu borada dolzarb vazifa bo‘lib, lingvistik xatolarni faqat grammatik nuqtai nazardan emas, balki psixosotsial ildizlar bilan birga tahlil qilish lozim. Holmes, Tannen, Ergasheva, Brown va Levinsonlar nazariyalari shuni ko‘rsatadiki, gender komponenti inobatga olinmasdan bola tilini to‘liq tahlil qilish imkonsizdir.

Xulosa. Olib borilgan lingvopragmatik va psixolingvistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘g‘il bolalar nutqidagi xatoliklar yuzaki grammatik qoidalarni buzish emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixososial omillar bilan bog‘liq murakkab hodisadir. Ular bolaning shaxsiy rivoji, ijtimoiy rolni o‘zlashtirishi va madaniyatda mavjud gender stereotiplarining ta’siri ostida shakllanadi. Xususan, emotsional ifodaning yetishmasligi, buyruq ohangi, stereotipik nutq birikmalari va monologik yondashuvlar o‘g‘il bola nutqining asosiy xatoliklari sifatida ajralib turadi.

Tadqiqot davomida 5–10 yoshdagi o‘zbek o‘g‘il bolalarining nutq namunalari tahlil qilinar ekan, “O‘g‘il bola yig‘lamaydi”, “Men aytdim, bo‘ldi” kabi bayonotlar orqali jamiyatdagi gender stereotiplari bolaning nutqiga qanday singganini yaqqol ko‘rish mumkin bo‘ldi. Bunday og‘ishlar bolaning lingvistik qobiliyatidan emas, balki unga berilgan ijtimoiy rollarning til orqali ifodalanishidan dalolat beradi.

Holmes (2008), Tannen (1990) va Brown, Levinson (1987) nazariyalariga tayanib aytish mumkinki, jamiyatda erkaklarga nisbatan “ustun”, “hissiz”, “direktiv” bo‘lish talabi erkak nutqining keskin, emotsiyadan xoli shakllanishiga olib keladi. Shokirova Diloramxonning tadqiqotida bu jarayon aynan bolalikdan boshlanishi va bola nutqida stereotipik konstruksiyalarning kuchli ifodalanishi ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’lim tizimida genderga sezgir yondashuvni shakllantirish, kommunikativ muhitda tenglikni ta’minlash zarur. Bu borada o‘qituvchilar va metodistlar faqat grammatik qoidalarni emas, balki emotsional ifoda, empatiya, muloyim murojaat, tinglash kabi kompetensiyalarni rivojlantirish-

ga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Ayniqsa, o‘yin, rolli dialog, teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar orqali o‘g‘il bolalarda “tinglash”, “hissiyotini nomlash”, “boshqaning fikriga quloq solish” kabi yumshoq kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish muhimdir.

An’anaviy metodikalarda grammatik to‘g‘rilik ustuvor bo‘lsa-da, aynan pragmatik va emotsional sohalar ijtimoiy moslashuvchanlikda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ko‘plab holatlarda o‘g‘il bolalar empatiya va muloyimlikni zaiflik belgisi deb qabul qiladilar, bu esa kommunikativ noqulayliklar va mojarolarga olib keladi. Shu sababli dars jarayonida “Qanday his qilding?”, “Sen nima deb o‘ylaysan?” kabi savollarga asoslangan faol suhbat muhiti yaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bola nutqidagi genderga oid xatoliklarni bartaraf etish bir yoqlama tilshunoslik yondashuvidan emas, balki psixologiya, pedagogika va lingvistikaning integratsiyasiga asoslangan tizimli yondashuvni talab qiladi. Ana shundagina, o‘g‘il bolalarda sog‘lom, empatik va ijtimoiy mos kommunikativ ko‘nikmalar shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Shokirova D.A. (2025). Bola nutqida gender xoslanishi (Ingliz va o‘zbek tillari misolida). DSc dissertatsiyasi, Andijon davlat universiteti.

(2). Holmes J. (2008). Gendered Talk at Work. Wiley-Blackwell.

(3). Tannen D. (1990). You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. Ballantine Books.

(4). Brown P., & Levinson, S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge University Press.

(5). Ergasheva M. (2018). Gender tilshunosligi asoslari. Toshkent, “Fan”.

(6). Vigotsky L.S. (1986). Thought and Language. MIT Press.

(7). Cameron D. (1995). Verbal Hygiene. Routledge.

(8). Labov W. (1972). Sociolinguistic Patterns. University of Pennsylvania Press.

(9). Eckert P., & McConnell-Ginet, S. (2003). Language and Gender. Cambridge University Press.

(10). Nurmonov A. (2007). Til va tafakkur. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Fayziyeva Mo‘tabar Mardonovna (Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi)

DEMOKRATIK TA’LIM-TARBIYA TUSHUNCHASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada demokratik ta’lim tushunchasining ilmiy-nazariy, falsafiy mohiyati tahlil etiladi. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim hamda demokratiya va demokratlashuv tamoyillarining falsafiy mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratildi. Shuningdek, demokratik ta’lim muassasasidagi tenglik va umumiy javobgarlik, ishonch, o‘zaro hurmat va muloqot, tolerantlik, tanlov erkinligi, ratsional raqobat kabi jihatlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *demokratik ta’lim-tarbiya, tenglik va umumiy javobgarlik, ishonch, o‘zaro hurmat va muloqot, tolerantlik, tanlov erkinligi, ratsional raqobat.*

КОНЦЕПЦИЯ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В статье анализируется научная, теоретическая и философская сущность концепции демократического образования. Кроме того, было уделено внимание философскому содержанию современного образования, принципам демократии и демократизации. В нем также рассматриваются такие аспекты, как равенство и общая ответственность, доверие, взаимное уважение и диалог, толерантность, свобода выбора и разумная конкуренция в демократическом образовательном учреждении.*

Ключевые слова: *демократическое образование, равенство и общая ответственность, доверие, взаимное уважение и диалог, толерантность, свобода выбора, рациональная конкуренция.*

THE CONCEPT OF DEMOCRATIC EDUCATION

Annotation. *The article analyzes the scientific, theoretical and philosophical essence of the concept of democratic education. In addition, attention was paid to the philosophical content of modern education, the principles of democracy and democratization. It also considers such aspects as equality and shared responsibility, trust, mutual respect and dialogue, tolerance, freedom of choice and reasonable competition in a democratic educational institution.*

Keywords: *democratic education, equality and shared responsibility, trust, mutual respect and dialogue, tolerance, freedom of choice, rational competition.*

Kirish. “Demokratik ta’lim bu demokratik qadriyatlarni birinchi o‘ringa qo‘yadigan gumanistik ta’limning bir qismidir. Demokratik ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchiga o‘zini mustaqil shaxs sifatida

tushunishga yordam beriladi va amalda inson huquqlari haqida o‘rgatiladi. O‘quvchi o‘rta maktabda o‘qiyotgandayoq nimani o‘rganishini tanlash huquqiga ega bo‘ladi, shuningdek, kattalar va bolalar o‘rtasida teng huquqlilik munosabati shakllantiriladi”. Ushbu ta’rifdan kelib chiqqan holda shuni anglash mumkinki, demokratik ta’lim sistemasida mustaqillik ustuvor prinsip sanaladi. Ko‘pgina Yevropa mamlakatlari allaqachon demokratik ta’lim muhitida faoliyat olib boradi. Ya’ni, maktab davridayoq ta’lim oluvchilarga erkinlik berilishi, ular asosan, o‘z xohishlariga binoan fanlar hamda fan o‘qituvchilarini tanlashlari, o‘z yoqtirgan mashg‘ulotlarini bajarishlari va hokazo huquqlar kafolatlanadi. Bizningcha, ta’limdagi mazkur mustaqillikning yutuqlari bilan birgalikda, o‘ziga yarasha kamchiliklari ham bo‘lishi mumkin. Vaholanki, ta’lim va tarbiya jarayonida har doim ham haddan ortiq erkinlik samarali bo‘lmasligi mumkin. Erkinlikning ham ta’lim-tarbiya jarayonida me’yori bo‘lmog‘i lozim. Misol uchun, demokratik ta’lim-tarbiyada farzandlar ma’lum bir yoshga yetgach o‘z xohishiga binoan alohida yashashi, ota-onasiga hisob bermasligi, xohlaganidek turmush tarzini belgilashi va hokazo erkin faoliyatlar bilan shug‘ullanishi mumkin. An’anaviy ta’lim-tarbiya jarayonida esa, bu jarayon ancha cheklangan, ya’ni ota-ona, ta’lim muassasasi nazorati mavjud bo‘ladi. Shu boisdan ham demokratik ta’lim sistemasiga o‘tishda, avvalo, har bir xalq o‘z qadriyatlari, mentaliteti, milliy ruhiyatini inobatga olishi lozim. Agar bu jihatlar inobatga olinmasa, demokratik ta’lim tamoyillari ta’lim-tarbiya taraqqiyotiga xizmat qilmasligi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Manbalarda qayd etiladiki, demokratik ta’limning nazariy asoslari ko‘pgina manbalarda, asosan, G‘arb mamlakatlari ta’limiga bog‘lab tushuntiriladi. Shuningdek, “G‘arb mamlakatlari ko‘p tuzilmali maktab sistemasi bilan ajralib turadi, boshqacha aytganda, nafaqat turli mamlakatlar, davlatlar, balki bir davlatning turli maktablarida ham qayd etilgan tamoyillar sezilarli farqlar bilan amalga oshirilishi mumkin” [1]. Ya’ni, demokratik ta’lim sistemasida har bir ta’lim muassasasi o‘zini-o‘zi boshqarishga asoslanadi. Hatto, bir mamalakat ichida ham ta’lim dargohlari turlicha dasturlar, o‘quv rejalari, darsliklar hamda turlicha boshqaruv prinsipalari asosida faoliyat olib borishi mumkin. Ular o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini takomillashtirib borish uchun o‘zaro raqobatlashadi. O‘zi uchun nima to‘g‘riligi hamda nima samarali bo‘lishini, asosan, o‘zi hal etadi. Bu jarayonda muhim jihat xususiylashtirishga qaratiladi. Shu bilan birga, ta’lim dargohining faoliyatiga ta’sir etuvchi muhim qarorlar ko‘pchilikning ovozi bilan qabul qilinadi. Demokratik ta’limda har qanday muhim qarorlar qabulida ta’lim beruvchilar ham, ta’lim oluvchilar ham, ota-onalar ham ovoz berish huquqiga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, keng doiradagi masalalarni hal qilinishida bolaning ovozi kattalar ovoziga teng bo‘ladi.

Demokratik ta’lim muammosining nazariy-falsafiy asoslarini yoritib berishda D.Greenbergning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. U o‘z tadqiqotlarida demokratik ta’lim muassasasining asosiy qonunqoidalari, yuzaga kelish bosqichlari, muammolari, jamiyatdagi mavqei borasida tadqiqotlar olib borgan. Ayniqsa, demokratik maktablarda ta’lim oluvchilar bilan muammolar hamda jamiyat va demokratik ta’lim borasidagi ilmiy mulohazalari e’tirofga loyiqdir [2;67-b.]. Manbalarda qayd etilishicha, birinchi demokratik maktablar Angliya hamda AQSHda tashkil topgan. Angliyadagi Yanush Korchak bolalar uyi va Summerhill maktabini bunga misol qilib keltirish mumkin. Summerhill 1921-yilda Aleksandr Neill tomonidan asos solingan va eng qadimgi demokratik maktab hisoblanadi. AQSHda esa 1968-yilda Sadberi vodiysi demokratik maktabi ochilgan [3]. Aslida, sharq mamlakatlarida vujudga kelgan ilk maktablar ham demokratik tamoyillar asosida boshqariladigan bugungi zamonaviy maktablarga juda yaqin hisoblanadi. Ya’ni, ularda ham xususiylik elementlari, erkinlik, mustaqillik tamoyillari ustuvor edi. Ta’limga majburiyat sifatida emas, balki qadriyat sifatida yondashuv hukmron edi. Ta’lim oluvchi ishtiyoqidan, layoqatidan, qobiliyatidan kelib chiqqan holda, bilim olish bilan shug‘ullanar edi. Misol uchun, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy falsafiy manbasi “Avesto”da keltirilgan dastlabki ta’lim dargohlari hisoblangan Otashkadalar xususidagi mulohazalar fikrimizning yorqin dalilidir. Faylasuf olim O.Fayzullayev bu kitob haqida fikr yuritib, “Avesto Aristotel yozgan “Fizika” va “Metafizika” kitoblaridan 400 yil ilgari yaratilgan. Bu kitoblarda asosiy tamoyil hisoblanuvchi dialektika “Avesto”da ham markaziy o‘rinni egallagan. “Avesto”da falsafaning dastlabki bilish nazariyasi ham bor” [3], degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, “Avesto”, mohiyatan, demokratik g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan. O‘z davrida, hatto kodeks darajasiga ko‘tarilgan. Taniqli olim L.Levitin ta’biri bilan aytganda: “Sosoniylar davrida (mil. 3–7-asrlar) kodeks sifatida tartib berilgan zardushtiylikning muqaddas kitoblari to‘plami “Avesto” asrlar davomida mintaqadagi ijtimoiy va shaxsiy hayotniizga solib turgan diniy va huquqiy aqidalar majmuasidan iborat” [4]. Vaholanki, “Avesto”ning bugungi kun yoshlari uchun o‘z qadrini yo‘qotmasligi, ahamiyati juda beqiyos ekanligining yana bir omili shundaki, unda nafaqat komil, yetuk insonlar, balki ularni shu yo‘lga boshqara olgan ustozlar, ya’ni ilm va kasb o‘rgatuvchilar ham e’zozlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. “Demokratik maktablarda jamiyatning barcha a’zolari, yoshi va maqomidan qat’iy nazar, maktab qoidalari, o‘quv dasturlari, loyihalar, xodimlarni yollash, hatto budjet masalalari kabi muhim qarorlar bo‘yicha teng ovozga ega bo‘lishadi. Talabalar nimani, qachon, qanday va kim bilan o‘rganishlarini o‘zlari tanlaydilar. O‘rganish sinfda yoki sinfdan tashqarida, o‘yin va an’anaviy o‘rganish orqali amalga oshirilishi mumkin. Asosiysi, bilim berishda o‘quvchilarning ichki motivatsiyasiga rioya qilish va ularning qiziqishlarini inobatga olish lozim” [5]. Demak, demokratik ta’limning eng muhim vazifalari ham talabaning intilishi, xohishi, maqsadlari va qobiliyatini inobatga olish orqali belgilanadi. Zero, “Demokratiya – mudom xalq va uning qiziqishlari bilan bog‘liq, o‘tkinchi, tarixiy xarakterga ega, hokimiyatga, davlat va jamiyatni boshqarishga taalluqli voqelik” sifatida e’tirof etiladi [6;9-b.]. Demokratik ta’limda ham xalq xohishi ustuvor sanaladi. Bunday ta’lim dargohlarining aksariyatida baholash mezonlari hamda aniq reytinglar ham mavjud emas. Ko‘pchiligida ta’lim oluvchilar uchun rag‘batlantirishning turli shakllaridan hamda ma’lum bir semestr yoki o‘quv yili yakunida o‘quvchi haqida o‘qigan fanlari yuzasidan erishgan yutuqlarini tavsiflovchi rezyume berishdan foydalaniladi. “Demokratik ta’lim – bu ta’lim oluvchi hamda jamiyat ehtiyojlariga eng mos keladigan ta’lim shakli hisoblanadi. U buni birgalikda muammolarni hal qiluvchi va ijodiy moslashuvchan fikrlovchi shaxslarni rivojlantirish orqali amalga oshiradi. Demokratik ta’lim har qanday o‘quv muhitida barcha yoshdagi o‘quvchilarga nisbatan qo‘llanilishi mumkin... BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasining 12-moddasida bolalar o‘zlariga taalluqli bo‘lgan masalalar bo‘yicha o‘z fikrini bildirish huquqiga ega bo‘lgan jamoalardir, deb ta’kidlanadi. Bu jamoalar..., barchasi bir-biridan noyobdir. Ularning har biri demokratik ta'lim amaliyotida xilma-xillik spektrida o‘z o‘rni egallaydi” [7]. Mazkur mulohazalardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash o‘rinlik, demokratik ta’lim muhitida har bir ta’lim oluvchiga noyob, takrorlanmas qobiliyat egasi sifatida qaraladi hamda har birining qobiliyati, iqtidorini rivojlantirishga harakat qilinadi.

Demokratik maktablarda ham xuddi demokratik jamiyat singari bo‘linish prinsipi mavjud. Ya’ni maktab parlamenti, ijroiya hokimiyati, sud (nazorat organi).

Maktab parlamenti maktab hayotida muhim hisoblanadigan qarorlar, qoidalar, tamoyillarni ko‘pchilikni ovozi orqali qabul qiladi. Bu jarayonda barcha ishtirok etishi mumkin. Ijroiya bo‘limi maktab parlamentida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta’minlaydi, rioya etilishi yuzasidan o‘z faoliyatini olib boradi. Sud, ya’ni, nazorat bo‘limi butun maktab faoliyati hamda qarorlar ijrosini nazorat qiladi. Bu organga istalgan kishi barcha muammolar yuzasidan shikoyat qilishga haqli hisoblanadi.

Umuman olganda, g‘arb mamlakatlarida, asosan, “Demokratik maktab orqali demokratik jamiyat sari” tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda demokratik ta’lim dargohlarini 4 ta muhim xususiyati ko‘rsatib o‘tiladi: “1. Ta’lim yo‘nalishlarini (sinflar, fanlar, faoliyat) erkin tanlash: maktab o‘quvchilari nimani o‘rganishni va buni qanday amalga oshirishni o‘zlari tanlaydilar (lekin hech kim umumiy ta’lim dasturini yakunlash bo‘yicha umumiy vazifani bekor qila olmaydi). 2. Demokratik o‘zini-o‘zi boshqarish: maktab hayotidagi kundalik va strategik qarorlarning aksariyati umumiy yig‘ilishlarda birgalikda qabul qilinadi, bu yerda bitta bolaning ovozi bitta kattalar ovoziga teng. 3. Baholash bola shaxsining o‘ziga qaratiladi, uni boshqalar bilan solishtirmasdan yoki universal test shkalasi orqali amalga oshiriladi. 4. Turli yoshlar doirasida keng ko‘lamdagi mashg‘ulotlar amalga oshiriladi. Katta yoshdagi bolalar kichiklarga yordam berishadi, kichiklari o‘smirlardan o‘rganadilar. Demokratik maktabda yoshning xilma-xilligi tufayli muvozanatli, iliq muhit yaratiladi. Bundan tashqari, kattalar bilan ko‘p muloqot qilish tufayli kichik yosh guruhlari yaxshi ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lib boradilar”. Shu boisdan ham bugungi kunga kelib demokratik ta’limni hamda demokratik maktab muhitini shakllantirish uchun jahon miqyosida keng ko‘lamdagi islohotlar, ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 1993-yildan boshlab deyarli muntazam tarzda demokratik ta’lim borasida xalqaro konferansiya amalga oshirib kelinadi. Bunday xalqaro konferensiya dunyoning turli rivojlangan mamalakatlarida tashkil etiladi. Bunda demokratik maktablarning afzalliklari, muammo va yutuqlari, tashkil etish yuzasidan takliflar, tajribali demokratik maktablar faoliyatlari muhokama etiladi. Birinchi bo‘lib Xalqaro Demokratik Ta’lim Konferensiyasi, Isroil davlatida Yakob Xertz tomonidan tashkil etildi. Shundan boshlab, Angliya, Avtraliya, Yaponiya, Yangi Zellandiya, Germaniya, AQSH, Janubiy Koreya kabi bir qancha ta’lim sistemasi taraqqiy etgan mamlakatlar har yili demokratik ta’lim bo‘yicha xalqaro konferensiyaga mezbonlik qilib kelishmoqda.

Shunisi e’tiborliki, demokratik tamoyillar asosida boshqariladigan ta’lim muassasalarida “ta’lim beruvchilar ta’lim oluvchilarga oddiygina topshiriq berishdan ko‘ra erkinlik va ozodlikka olib boradigan rahbarlik rolini o‘z zimmalariga oladilar. Bundan tashqari, ta’lim oluvchilarning sog‘lom va xavfsiz ta’lim

olish huquqi, ularning uzoq muddatli aqliy, hissiy va jismoniy farovonligini qo‘llab-quvvatlash demokratik ta’lim pedagogikasining asosidir” [7;8-b.]. Demak, ta’lim oluvchining har tomonlama rivojlanishi, ham jismonan, ham ma’nan kamol topishi, intellektual salohiyati demokratik ta’lim falsafasining muhim talabi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, har qanday ta’lim sistemasining o‘ziga xos konstruktiv va destruktiv tomonlari bo‘lganidek, demokratik ta’limni ham biz mukammal ta’lim shakli sifatida e’tirof eta olmaymiz. Mazkur ta’lim sistemasini ham ma’lum bir kamchiliklari mavjud, ayniqsa, sharq xalqlarida qo‘llanilishi biroz murakkabroq kechadi. Shu boisdan ham har bir xalq demokratik ta’lim prinsiplarini qo‘llashda, albatta, o‘z an’anaviy ta’lim yuqtuqlari va imkoniyatlarini ham inobatga olishi zarur hsoblanadi.

Xulosa qilib fikr yuritganda, demokratik ta’lim, avvalo, erkinlikka, mustaqillikka, insonparvarlik va tolerantlikka asoslangan ta’lim bo‘lib, bugungi kunda demokratik jamiyat qurish uchun muhim asos hisoblanadi. Demokratik davlat hamda tenghuquqlilikka asoslangan fuqarolik jamiyati sari borish demokratik ta’lim orqali kechadi. Zamonviy ta’lim-tarbiya sistemasini shakllantirish demokratik ta’lim-tarbiya tamoyillarini qabul qilish orqali amalga oshadi. Zamonaviy, innovatsion demokratik ta’lim-tarbiya tamoyillari milliy ta’lim-tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina, samrali natijalar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://ru.wikipedia.org/wiki /Демократическое_образование#:~:text.

(2). Greenberg, D. Announcing a New School… The Sudbury Valley School Press Winch Street, Framingham, Mass. 01701. 1973, 66, 97-bet.

(3). Файзуллаев О. Фалсафа фанлари методологияси. Т., “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2006, 124-бет.

(4). Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. Т., “Ўзбекистон”, 2001, 70-бет.

(5). Сергей Л. Мне повезло, что я выбрал ту профессию, которую безумно люблю (по итогам выступления А.С.Калабалина на «Макаренковской среде» // газета «Истринские вести», № 15 (11.962) 15 апреля 2011 года.

(6). https://eudec.org/democratic-education/what-is-democratic-education/.

(7). Арон Р. Демократия и тоталитаризм. Москва, АСТ, 1993, с. 9.

Jabborov Bekjon Bayjonovich (Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi)

EKOLOGIK TA’LIM VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINING UZVIY BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarish masalasining dolzarbligi va barqaror rivojlanish uchun ahamiyati tahlil qilinadi. 2024-yil 2-may kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Suv resurslarini boshqarish: davlat, biznes va jamiyatning roli” mavzusidagi panel muhokamaning natijalari asosida, mamlakatda suv taqchilligi muammosi, uning kelajakdagi prognozlari va ehtimoliy yechimlari yoritilgan. Tadqiqotlarda suv resurslarining kamayishi, sanoat va qishloq xo‘jaligidagi suv iste’molining o‘sishi va iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Mazkur maqola O‘zbekistonda suv ta’minoti barqarorligini ta’minlash va suv resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha strategik yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tahlillar milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlash uchun zaruriy xulosalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *suv resurslari, suv tanqisligi, barqaror rivojlanish, suvni boshqarish, suvni tejash, iqlim o‘zgarishi, irrigatsiya tizimlari, qishloq xo‘jaligi, sanoat, xalqaro hamkorlik, investitsiya, ekologik muvozanat, suv siyosati, transchegaraviy suvlar, suv ta’minoti.*

Джабборов Бекжон Байжонович (преподаватель Центра педагогического мастерства Хорезмской области)

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЕГО НЕРАЗРЫВНАЯ СВЯЗЬ С ЦЕЛЯМИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматривается актуальность управления водными ресурсами в Узбекистане и его значение для устойчивого развития страны. На основе результатов панельной дискуссии “Управление водными ресурсами: роль государства, бизнеса и общества”, состоявшейся 2 мая 2024 года в Ташкенте, анализируются проблемы вододефицита, прогнозы на будущее и возможные решения. Освещаются вопросы сокращения водных ресурсов, роста потребления воды в промышленности и сельском хозяйстве, а также негативное влияние изменения климата.*

Данное исследование направлено на разработку стратегических подходов к обеспечению стабильности водоснабжения и эффективному использованию водных ресурсов в Узбекистане.

Проведенный анализ помогает сформулировать ключевые выводы, необходимые для обеспечения национальной безопасности, экономической стабильности и экологического баланса.

Ключевые слова: *водные ресурсы, водный дефицит, устойчивое развитие, управление водными ресурсами, водосбережение, изменение климата, ирригационные системы, сельское хозяйство, промышленность, международное сотрудничество, инвестиции, экологический баланс, водная политика, трансграничные воды, водоснабжение.*

Jabborov Bekjon Bayjonovich (teacher at the Pedagogical Mastery Center of Khorezm Region).

ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ITS INTEGRAL CONNECTION WITH SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

Annotation. *This article examines the importance of water resource management in Uzbekistan and its role in ensuring sustainable development. Based on the results of the panel discussion "Water Resource Management: The Role of Government, Business, and Society", held on May 2, 2024, in Tashkent, the study analyzes the challenges of water scarcity, future projections, and potential solutions. It highlights issues such as the reduction of water resources, increasing water consumption in industry and agriculture, and the negative impact of climate change.*

This study aims to develop strategic approaches to ensuring water supply stability and efficient use of water resources in Uzbekistan. The conducted analysis provides key insights necessary for maintaining national security, economic stability, and ecological balance.

Key words: *Water resources, water scarcity, sustainable development, water management, water conservation, climate change, irrigation systems, agriculture, industry, international cooperation, investment, ecological balance, water policy, transboundary waters, water supply.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda ekologik muammolar jahon miqyosida dolzarb bo‘lib, ularni hal etishda ta’limning o‘rni beqiyosdir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muhitni asrash va kelajak avlodlar uchun qulay sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bu jarayonda ekologik ta’limning ahamiyati ortib, u insonlarda tabiatga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik ta’lim nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq bilimlarni o‘rgatish, balki inson faoliyatining ekologik izlarini kamaytirish bo‘yicha ongli yondashuvni rivojlantirishga ham qaratilgan. Yosh avlodni ekologik tafakkur asosida tarbiyalash orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish osonlashadi. Chunki ekologik ongli shaxs tabiatga zarar yetkazmaslik, muhitni yaxshilash va ekologik muammolarga amaliy yechim topish uchun harakat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Dunyo bo‘ylab eng dolzarb ekologik muammolardan biri havo ifloslanishidir. Zavod va fabrikalardan chiqayotgan tutun, avtomobillar chiqarayotgan gazlar havoning sifatini yomonlashtirib, inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Havo ifloslanishi natijasida ko‘plab kasalliklar kelib chiqadi va iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Iqlim o‘zgarishi yana bir global ekologik muammo hisoblanadi. Havo haroratining ortishi, muzliklarning erishi, kuchli bo‘ronlar va qurg‘oqchilik kabi holatlar bu muammoning natijasidir. Bunga inson faoliyati, ayniqsa, yoqilg‘i mahsulotlarining ko‘p ishlatilishi va o‘rmonlarning kesilishi sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Chuchuk suv tanqisligi ham jiddiy ekologik muammolardan biridir. Ko‘pgina hududlarda ichimlik suvi yetishmovchiligi kuzatilmoqda (1-rasm). Bu holat suv resurslarining noto‘g‘ri ishlatilishi, daryolar va ko‘llarning ifloslanishi natijasida yuzaga kelmoqda. Suv tanqisligi nafaqat odamlarga, balki butun ekotizimga zarar yetkazadi.

1-rasm. Suv resurslarining noto‘g‘ri ishlatilishi, daryolar va ko‘llarning ifloslanishi.

O‘rmonlarning kesilishi ham global ekologik muammolardan biridir. O‘rmonlar kislorod ishlab chiqaradi va iqlimni tartibga solishga yordam beradi. Ammo daraxtlarning kesilishi natijasida atmosfera tarkibi o‘zgarib, tuproq eroziyasi yuzaga keladi va ko‘plab hayvon turlari yashash joyidan mahrum bo‘ladi (2-rasm).

2-rasm. Daraxtlarning kesilishi natijasida atmosfera tarkibi o‘zgarib, tuproq eroziyasi.

Chiqindilar muammosi ham dolzarb masalalardan biridir. Plastik mahsulotlarning ortiqcha ishlatilishi va ularning qayta ishlanmasligi atrof-muhitga katta zarar yetkazmoqda. Dengiz va okeanlarga tashlangan plastik chiqindilar suv hayvonlariga zarar yetkazib, ekotizim muvozanatini buzmoqda.

Ushbu ekologik muammolarni hal qilish uchun har bir inson o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Kamroq plastik ishlatish, chiqindilarni saralash, daraxt ekish, suv va elektr energiyasidan tejamkor foydalanish kabi oddiy harakatlar orqali biz atrof-muhitni asrashga yordam bera olamiz. Ekologik muammolar global bo‘lsa ham, ularning oldini olish har birimizning kundalik odatlarimizga bog‘liqdir. Faqatgina hamkorlik va ongli yondashuv orqali biz sayyoramizni kelajak avlodlar uchun asrab qolishimiz mumkin.

Barqaror rivojlanish maqsadlarining biri sifatida ekologik ta’lim global hamkorlikni talab qiladi. U ta’lim tizimining barqarori bosqichlarida integratsiyalashgan holda olib borilishi lozim. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’lim muassasalarigacha ekologik mas’uliyat tushunchasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ta’lim jarayoniga amaliy mashg‘ulotlar, ekosistemalarni o‘rganish, chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha loyihalar va ekologik tadbirlarni kiritish samarali natijalar beradi (3-rasm).

3-rasm. Ekologik tadbir tashkil qilish usuli.

Shuningdek, ekologik ta’lim barqaror iste’mol madaniyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Insonlarning tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha chiqindi hosil qilishning oldini olish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga e’tibor qaratishi jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida ham ekologik ta’limning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatda ekologik muhitni yaxshilash, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi orasida ekologik madaniyatni oshirish borasida ko‘plab dasturlar amalga oshirilmoqda. O‘quv dasturlariga ekologik mavzularni kengroq joriy etish, maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologiya bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida muhim qadamlardir [1].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ekologik ta’lim barqaror rivojlanish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatning ekologik mas’uliyatini oshirish orqali atrof-muhit muammolarini kamaytirishga xizmat qiladi. Ushbu ta’lim yo‘nalishi insoniyatning ekologik inqirozga qarshi kurashish imkoniyatlarini oshiradi va kelajak avlodlar uchun sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Toshkent, O‘zbekiston (UzDaily.uz) –2024-yil 2-mayda Toshkentda bo‘lib o‘tgan Invest Forum doirasida tashkil etilgan “Suv resurslarini boshqarish: davlat, biznes va jamiyatning roli” mavzusidagi panel muhokamada mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan masalalar muhokama qilindi.

Sessiyaning moderatorligi Boston Consulting Group (BCG) kompaniyasining hamkori va boshqaruvchi direktori Igor Alekseev tomonidan olib borildi. U O‘zbekistonda suv resurslarining qisqarishi bilan bog‘liq dolzarb muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha taklif etilgan yechimlar haqida ma’lumot berdi [2].

Prognozlarga ko‘ra, 2040-yilga borib, aholi sonining ortishi va iqtisodiy ehtiyojlarning o‘sishi natijasida mamlakatda suvga bo‘lgan talab 23%ga oshishi kutilmoqda. Ayniqsa, sanoat sohasida bu ko‘rsatkich 150%ga yetishi mumkin.

2024-yil 2-mayda Toshkentda o‘tkazilgan “Suv resurslarini boshqarish: davlat, biznes va jamiyatning roli” mavzusidagi panel muhokama O‘zbekistonning suv resurslari bilan bog‘liq dolzarb muam-molarini tahlil qilish va ularni hal qilish yo‘llarini muhokama etish uchun muhim platforma bo‘ldi. Ushbu tadbir mamlakatning barqaror rivojlanishi va suv ta’minotining kelajagi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston qurg‘oqchil mintaqada joylashgani va suv resurslarining aksariyati transchegaraviy daryolarga bog‘liq ekanini hisobga olsak, suvdan samarali foydalanish va uni tejash dolzarb masala sanaladi. Forumda ta’kidlanganidek, 2040-yilga borib, mamlakatda suvga bo‘lgan talab 23%ga oshishi, sanoatda esa 150%ga yetishi kutilmoqda. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi va transchegaraviy suv oqimlarining qisqarishi tufayli suv resurslari kamayishi davom etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Muhokamada suvni tejash bo‘yicha innovatsion texnologiyalar va strategik rejalashtirish muhim o‘rin egalladi. Xususan, qishloq xo‘jaligida suv sarfini kamaytirish uchun tomchilatib sug‘orish tizimlarini keng joriy etish, sanoatda aqlli ishlab chiqarish jarayonlari ni rivojlantirish va ichimlik suvi ta’minoti tizimini modernizatsiya qilish muhim chora-tadbirlar sifatida ko‘rsatib o‘tildi.

Suv resurslarini samarali boshqarish uchun davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar hamkorligi muhim ekanligi ta’kidlandi. Xalqaro moliyaviy institutlar va investorlarning ishtiroki suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yirik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi.

Ushbu muhokama natijalari O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, suv ta’minoti bilan bog‘liq muammolarni hal etish va kelajak avlodlar uchun barqaror resurslar yaratishga xizmat qiladi. Mamlakatning suv siyosatini samarali shakllantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali O‘zbekiston uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishi mumkin.

O‘zbekiston suv resurslari mamlakatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Suv qishloq xo‘jaligi, sanoat, ichimlik suvi ta’minoti va ekotizim barqarorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Respublikada suv resurslari, asosan, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolardan shakllanadi. Biroq bu daryolarning katta qismi qo‘shni davlatlardan oqib kelgani sababli, suvdan samarali foydalanish masalasi O‘zbekiston uchun muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish dolzarb vazifalardan biridir. Qishloq xo‘jaligida suv sarfini kamaytirish maqsadida tomchilatib sug‘orish va zamonaviy sug‘orish texnologiyalarini keng joriy etish muhim hisoblanadi. Bu usullar tuproqdagi namlikni saqlashga yordam berib, suv isrofini kamaytiradi. Shuningdek, daryolar va kanallar orqali suv yetkazib berish tizimini optimallashtirish orqali suvning bug‘lanishi va yo‘qotilishining oldini olish mumkin.

Ichimlik suvi ta’minoti ham suv resurslaridan samarali foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Aholi zich joylashgan hududlarda ichimlik suvining sifati va yetkazib berish tizimi doimiy ravishda yaxshilanib borishi lozim [3]. Buning uchun suvni tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish va yer osti suvlaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Shuningdek, suv zaxiralarini muhofaza qilish va ifloslanishining oldini olish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rish talab etiladi.

O‘zbekiston suv resurslaridan foydalanishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham e’tibor qaratmoqda. Suvni tejash va taqsimlash bo‘yicha qo‘shni davlatlar bilan kelishuvlar tuzish, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlarda ekologik barqarorlikni saqlash va tabiiy resurslardan uzoq muddatli foydalanish tamoyillariga amal qilish kerak.

Suvdan samarali foydalanish bo‘yicha targ‘ibot ishlari ham katta ahamiyatga ega. Aholining suv tejash madaniyatini oshirish, suvdan isrof qilmasdan foydalanish bo‘yicha ta’lim berish kelajak avlodlar uchun suv resurslarini asrab qolish imkonini beradi. Mahalliy darajada ham suvdan oqilona foydalanishga e’tibor qaratish, jumladan, yaroqsiz suv oqimlarini kamaytirish, qayta ishlash va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun muhim chora-tadbirlar ko‘rilishi zarur.

O‘zbekiston suv resurslaridan samarali foydalanish orqali ekologik muvozanatni saqlash, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash va aholining ichimlik suvi bilan ta’minlanishini yaxshilashga erishishi mumkin. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va aholining ekologik ongini oshirish muhim vazifalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari”, 2023-yil.

(2). Boston Consulting Group (BCG). “Suv resurslarini boshqarish: global tajriba va O‘zbekiston uchun tavsiyalar”. 2024-yil.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi. “O‘zbekistonning suv resurslari va ulardan samarali foydalanish strategiyasi”. Rasmiy hisobot, 2023-yil.

(4). Jahon Banki. “Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish va barqaror rivojlanish”. Tadqiqot hisobotlari, 2022-yil.

Madetbayeva Xurliman Saparg‘aliy qizi (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika institutining magistranti)

“TARBIYA” FANINI OQITISHDA KLASTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Tarbiya” fanini o‘qitishda klaster texnologiyasidan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Klaster texnologiyasidan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, tarbiyaviy tushunchalarini tizimli o‘zlashtirishdagi roli, ularning tafakkur jarayonlariga ko‘rsatadigan ta’siri haqida fikr yuritilgan. Maqolada nazariy va amaliy misollar orqali klaster texnologiyasining afzalliklari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: klaster texnologiyasi, tarbiya fani, pedagogik asoslar, psixologik asoslar, mustaqil fikrlash, vizual tafakkur, innovatsion yondashuv, tizimli o‘rganish.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАСТЕРНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В данной статье освещаются педагогические и психологические основы использования кластерной технологии при преподавании предмета воспитания. Рассматривается роль кластерной технологии в развитии самостоятельного мышления учащихся, в систематическом усвоении воспитательных понятий, а также её влияние на мыслительные процессы обучающихся. В статье обоснованы преимущества кластерной технологии на основе теоретических и практических примеров.*

Ключевые слова: *кластерная технология, предмет воспитания, педагогические основы, психологические основы, самостоятельное мышление, визуальное мышление, инновационный подход, систематическое обучение.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF USING CLUSTER TECHNOLOGY IN TEACHING THE SUBJECT OF EDUCATION

Annotation. *This article explores the pedagogical and psychological foundations of using the cluster technology in teaching the subject of education. It discusses how the use of cluster technology contributes to the development of students’ independent thinking, the systematic assimilation of educational concepts, and its impact on their thinking processes. The article substantiates the advantages of cluster technology through theoretical and practical examples.*

Keywords: *Cluster technology, the subject of education, pedagogical foundations, psychological foundations, independent thinking, visual thinking, innovative approach, systematic learning.*

Kirish (Введение/Introduction). Zamonaviy ta’lim jarayoni o‘qituvchidan yoshlarga faqat bilim berib qo‘ymasdan, uning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy va ma’naviy shakllanishiga yordam berishni talab qilmoqda. Tarbiya fanini o‘qitar ekan, unda klaster texnologiyasidan foydalanish orqali tarbiyaviy tushunchalarini yanada mustahkamlashga, o‘qishga qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi. Klaster texnologiyasi – bu bilimlarni tizimli tartibga solish, fikrlarni jamlash, o‘z fikriga ega bo‘lish, jamaoviy ishlashga o‘rgatishni mustahkamlovchi metod hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020-yildagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-qarorni qabul qildi. Yagona “Tarbiya” fani 1–9-sinflarda 2020–2021-o‘quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021–2022-o‘quv yilidan boshlab ajratilgan umumiy soatlar doirasida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqbol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtiradi [1].

Klaster texnologiyasi. Klaster lotincha (cluster) – *tugun, guruh, yig‘indi* degan ma’noni bildiradi. Klaster texnologiyasi fikrlarning tarmoqlanishi bo‘lib, o‘quvchilarning dars jaroyanida o‘rganayotgan mavzusini chuqqurroq va osonroq tushunishi uchun qo‘llaniladi. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkam-

lash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda shu mavzu boyicha tasavvurlarini chizma, grafik ko‘rinishida ifodalashga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология исследования/Research methodology). Ushbu maqola nazariy metodik tahlil asosida tayyorlandi. Tadqiqot jarayonida klaster texnologiyasidan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari yoritib berildi. Ilmiy tadqiqot jarayonida mavzuga oid jurnallar, maqolalar, dissertatsiyalar o‘rganildi. Ilmiy metodlar va klassik pedagogik qarashlar hamda zamonaviy o‘qitish texnologiyalari asosida klaster metodining afzalliklari baholandi. Mazkur maqola Konseptual model (biror murakkab hodisani grfik, chizma asosida tushintirish), analitik (mavjud adabiyotlar asosida tahlil qilish), komparativ (bor bolgan metodlar asosida mavzuni yoritib berish) yondashuvlar asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natiyjalar (Анализ и результаты/Analysis and Results). Tarbiya – bu bilim beruvchi va shaxsni yetuk inson qilib shakllantirishga yordam bervchi fan. Ushbu fanni o‘qitishda an’anaviy uslublar bilan bir qatorda zamonaviy interaktiv yondashuvlar, jumladan, klaster texnologiyasi keng qo‘llanilishi kerak. Masalan, “odob” mavzusini o‘rganishda: “tarbiya”, “salomlashish”, “ota-onaga hurmat”, “halollik” kabi tushunchalarni, o‘tilayotgan fan bilan bog‘liqli tarzda klaster orqali guruhlab, o‘quvchilar ongida ularning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirib berish mumkin. Bu orqali o‘quvchilar mavzuni kengdan tushunishga va mavzuga oid ko‘plab ma’lumotlar olishga yordam beradi. Klaster texnologiyasini qo‘llash orqali guruhni jonlantirish mumkun, o‘tilayotgan fan mavzusiga barcha o‘quvchi qatnashadi, sinf faol boladi. Guruhda barcha o‘quvchining fikri inobatga olinganligi sababli, o‘quvchilarda o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi va ijtimoiylashadi. Tahlil qilingan manbalar asosida shuni xulosa qilish mumkunki, klaster texnologiyasi o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi, emotsional va intellektual holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina o‘qituvchilar bir ovozdan “texnologiya” bugungi kunda o‘qituvchi faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biriga aylanib borayotgani va ta’lim jarayonining sifat jihatidan yangi samaradorligi va optimal darajasiga o‘tishni anglatadi. “Texnologiya modaga hurmat emas, balki zamonaviy ilmiy va amaliy tafakkur uslubidir” [2;11-b.].



Pedagogik asoslari (Педагогические основы/Pedagogical foundations). Faol o‘qitish va interfaollik: o‘quvchini darsga qiziqishini orttiradi, foal bo‘lishga chorlaydi. K.D.Ushinskiy faollik tamoyilida klaster tuzish o‘quvchining darsdagi faolligini oshiradi degani.

Ko‘rgazmalilik va vizual tafakkurga asoslanish: J.A.Komenskiy “didaktikada” ta’limni ko‘rgazmalilik, izchillik va bosqichma – bosqichlik asosida qurishni taklif qilgan. Klaster texnologiyasi ham vizual xarita orqali tushunchalarni izchil, mantiqiy tartibda joylashtirishga yordam beradi. Komenskiy o‘zining mashhur “Didaktika asoslari” asarida., ta’limda sezgi organlari orqali bilim olish birinchi darajada ahamiyatga ega ekani, ya’ni, bilimlar ko‘rish, eshitish va his qilish orqali egallanadi deb ta’kidlagan [3;137-b.].

Hamkorlikda o‘rganish. Guruhda ishlash orqali o‘quvchilar bir-biri bilan muloqot qiladi, bir-birini eshitadi va ijtimoiylashadi.

Refleksiya va tahlilga asoslanganlik. Klaster ishlangandan keyin o‘quvchilar o‘zlari bajargan ishga baho beradi va tushuntirib beradi, bu o‘z-o‘zini baholash va tanqidiy fikrlash konikmasini rivojlandiradi.

Kreativlik va ijodkorlikni rivojlandiradi: klaster tuzish jaroyanida yangi g‘oya va fikrlarni o‘ylab topadi va ijodkorlik ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Psixologik asoslari (Психологические основы/Psychological foundations). Vizual idrok va tafakkurga tayanish: o‘quvchilar mavzuga oid klaster ishlaganda ko‘rish orqali xotirasida saqlap qolish va tushunish qobiliyati oshadi. Masalan, V.F.Shatolovning “signallar tizimi” metodida: vizual axboratlar samarali o‘zlashtirilishini aytib o‘tadi. Shatolov ta’kidlaydiki: “Tushunchalar va munosabatlarni sxemalar, belgi va grafik shaklida ifodalash bu bilimlarni ongli va samarali o‘zlashtirishning eng qisqa yo‘lidir” [4; 42-b.].

Motivatsiyani oshiradi: o‘quvchilar mavzuga oid klaster tuzishganda izlanishadi, o‘z fikrlarini ifodalay oladi bu esa mavzuga qiziqishni uyg‘otadi va ichki motivatsiyani kuchayttiradi.

Emotsional holatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi: o‘quvchi klaster tuzishga o‘z fikrini bildiradi va u inobatga olinishi orqali, o‘zida qadrlanganlik hissini sezadi. Bu esa uning emotsional barqarorligini va o‘ziga ishonchini oshiradi.

V.A.Suxomlinskiy o‘quvchining qalbiga murojaat etish, uning hissiy kechinmalariga ta’sir etish orqali mustaqil fikrlash va tog;ri xulosa chiqarishga yo;naltirish zarurligini alohida ta’kidlagan [5;24-b.].

A.Bandura “ijtimoiy o‘rganish” nazariyasida: o‘quvchilar boshqalarning fikrini ko‘rib, yanada ko‘proq narsalarni o‘rganadi deyilgan, ya’ni, o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan bilim va ko‘nikmalarni ijtimoiy muloqot orqali muvaffaqiyatli egallashi mumkun deb ta’kidlagan [6;22-b.].

Rus psixologi L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasida: o‘quvchilar bilimlarni boshqalar bilan muloqotda samaraliroq egallaydi, deyilgan. Klaster tuzishda ham guruh bilan ishlash, bahslashish, fikr almashish jarayonlaridan foydalaniladi. Bu esa o‘quvchilar orasida ijtimoiylashish va muloqatni oshiradi [7;86-b.].

Xulosa (Заключение/Conclusion). Tarbiya fanini klaster texnologiyasi orqali o‘quvchilarga tushuntirish bu samarali usul hisoblanadi. Chunki o‘quvchilar ko‘rish orqali, ya’ni, klaster tuzish orqali mavzuni xotirasida saqlab qola oladi va oson tushunib oladi. Klaster texnologiyasini foydalanishda pedagogik va psixologik jihatlariga asoslanib yondashilsa, fan mavzusi yanada tushunarli bo‘ladi va o‘quvchilarning qiziqishlari ortadi, qobiliyatlari aniqlanadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi va motivatsiya oladi.

Ta’limda faqat pedagogik yondashuv bilan cheklanib, faqatgina o‘quvchining bilimi va xulq-atvoriga e’tibor qaratish biryoqlamalikdir va psixologik tarafdan ham yondashib, uning hissiyotlari, psixologik holati va qiziqishlari ham hisobga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). axborat – huquqiy portali

(2). Педагогические технологии. Образовательные технологии ученик и практикум для академического бакалавриата. В 3 ч, часть 1, 2018, с. 11.

(3). Didaktika asoslari. Komenskiy A. Pedagogika. 1982, 137-bet.

(4). Шатолов В.Ф. Опорный конспект: как творить мысль. “Просвещение”, 1996, с. 42.

(5). Suhomlinskiy V.A. Bolalarga yuragimni beraman. 1979, 24-bet.

(6). Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977, p. 22.

(7). Vigotsky L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higer Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, p. 86.

Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich (Buxoro davlat Pedagogika instituti “Matematika va informatika” kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent; email: gulomjonqurbonov0880@gmail.com)

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA MASOFAVIY O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISH MODELLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli muhitning ta’lim tizimiga chuqur singib borishi sharoitida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy metodik adabiyotlar tahlil qilindi, hamda muallif tomonidan to‘plangan ko‘p yillik pedagogik tajriba asosida masofaviy o‘qitishning turli modellari hamda raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish yo‘llari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, o‘quv jarayonini raqamli muhitda tashkil etish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar tavsiflab berildi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli ta’lim, masofaviy o‘qitish, masofaviy texnologiyalar, raqamli ta’lim muhiti, raqamli texnologiyalar, pedagogik texnologiya, masofaviy model.*

Курбонов Гулямжон Гафурович (заведующий кафедрой “Математика и информатика” Бухарского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук (PhD), доцент; email: gulomjonqurbonov0880@gmail.com)

МОДЕЛИ ОРГАНИЗАЦИИ ДИСТАНЦИОННОГО УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ПЕДАГОГИКИ

Аннотация. *Настоящее исследование выполнено с учётом стремительного развития информационных технологий и активного проникновения цифровой трансформации в различные сферы деятельности. Работа базируется на глубоком анализе современных научно-методических источников, а также на многолетнем педагогическом опыте автора. В рамках исследования представлены различные модели дистанционного обучения и раскрыты оригинальные подходы к организации учебного процесса с использованием возможностей цифровой образовательной среды.*

Ключевые слова: *цифровое образование, дистанционное обучение, дистанционные технологии, образовательная цифровая среда, цифровые инструменты, педагогические технологии, дистанционная модель.*

Gulomjon Gafurovich Kurbanov (Head of the Department of Mathematics and Informatics Bukhara State Pedagogical Institute PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor; email: gulomjonqurbonov0880@gmail.com

MODELS FOR ORGANIZING DISTANCE LEARNING IN THE CONTEXT OF DIGITAL PEDAGOGY

Annotation. *This study was carried out based on an in-depth analysis of a wide range of scientific and methodological sources, as well as the authors’ extensive experience in the field of education. The research takes into account the rapid development of information technologies and their widespread integration across various domains through digital transformation. The paper presents different models for organizing remote education within digital learning environments and highlights unique approaches to structuring the educational process under such conditions.*

Key words: *digital education, distance learning, remote technologies, digital learning environment, educational technologies, digital tools, distance learning model.*

Kirish. Zamonaviy bosqichda masofaviy, elektron va raqamli ta’lim texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida internet asosidagi interaktiv o‘quv tizimlari shakllanmoqda. Shu bilan birga, raqamli o‘qitishning didaktik asoslari hali to‘liq o‘zlashtirilgan deb bo‘lmaydi. Xususan, masofaviy ta’limning asosiy didaktik tarkibiy qismlarini tizimli tasniflashda bir qator muammolar kuzatilmoqda. Bunday holat, eng avvalo, ta’lim muhitining dinamikligi, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi, ta’lim sifati va samaradorligiga bo‘lgan talablarning ortib borayotgani, hamda turli sohalarning bosqichma-bosqich raqamlashtirilishi bilan bog‘liqdir [1;144–145-b.].

Ushbu maqolada zamonaviy onlayn muloqot vositalarining rivojlanish yo‘nalishlari hamda raqamli ta’lim muhitida ishtirokchilar o‘rtasidagi bilvosita aloqaning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot masofaviy ta’limning mavjud shakllarini aniqlash, ularni tartibga solish va tizimlashtirish zaruratidan kelib chiqadi. Muammoni chuqur o‘rganish maqsadida bir qator pedagogik metodlardan – mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili, ilgari olingan tajribaviy natijalarni o‘rganish, shuningdek, muallifning shaxsiy tajribasi asosida tayyorlangan ilmiy manbalarni ko‘rib chiqish va umumlashtirish, tizimli tahlil va pedagogik modellashtirish yondashuvlaridan foydalanilgan [2;145–146-b.].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Raqamli ta’lim muhitining shakllanishi bilan bog‘liq didaktik asoslarni chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar davomida har bir bosqichda erishilgan nazariy va amaliy natijalar ketma-ket tahlil qilinib, ularning rivojlanish dinamikasi baholab boriladi. Tadqiqot jarayonida aniqlangan har bir didaktik yondashuv raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim sifati va samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi [3;166–167-b.]. Bu esa, o‘z navbatida, chop etilgan maqolalar va monografik asarlarda o‘z aksini topmoqda.

Ushbu maqolaning asosiy vazifasi – ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonida masofaviy o‘qitishni tashkil etishning innovatsion shakllarini ishlab chiqishdan iborat. Ta’kidlash joizki, ushbu tadqiqot mualliflari “masofaviy ta’lim” atamasini masofadan turib o‘qitish texnologiyalarining kompleks tizimi sifatida talqin qiladilar. Bu yondashuv faqatgina Internetdan foydalanishni emas, balki masofaviy ta’limning to‘laqonli tizimini (MTT) o‘z ichiga oladi. Ya’ni, bunda raqamli axborot resurslari bilan bir qatorda an’anaviy bosma (qo-g‘ozli) manbalardan foydalanish ham ko‘zda tutiladi.

Mazkur tadqiqotda M.V.Klarin, B.T.Lixachyov, V.P.Bespalko, I.P.Volkov hamda T.I.Shamova kabi bir qator olimlarning mualliflik ta’riflariga tayanilgan. Ushbu maqolada ta’lim texnologiyasiga oid turli

nazariy qarashlar va yondashuvlar tahlil etilib, pedagogik texnologiya mohiyatini sharhlashda turli olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asos sifatida olingan. Keltirilgan tushunchalar mavjud ilmiy manbalar bilan solishtirilib, mualliflik izohlari va konseptual kengaytmalar orqali mazmunan boyitilgan [4;36–37-b.]. Taklif etilgan ushbu yondashuv jamiyat hayotining barcha jabhalarida raqamlashtirish jarayonlari izchil amalga oshirilayotgan bugungi zamonaviy sharoitlarga to‘liq mos keladi.

Raqamli muhit sharoitida masofaviy ta’limning uzviy pedagogik jarayonini samarali modellashtirishga qaratilgan eksperimental faoliyat, eng avvalo, ta’lim jarayonining har bir bosqichini zamonaviy talablarga muvofiq tashkil etish hamda raqamli ta’lim makonining imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda, professor-o‘quvchi va talaba o‘rtasidagi kommunikativ jarayonni shakllantiruvchi zamonaviy tendensiyalarni ifoda etuvchi atamalar tizimini aniqlashtirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ta’lim jarayonini barcha ishtirokchilar uchun qulay bo‘lgan, raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan muhitda tashkil etish orqali o‘quv faoliyatining samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi [1;145–146-b.]. Asosiy e’tibor zamonaviy texnologik yechimlar yordamida ta’limning interaktiv va moslashuvchan shakllarini joriy etishga qaratilgan. Bu jarayonni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar va ilg‘or ta’limiy vositalardan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur kontekstda “texnologiya” tushunchasi, asosan, bilimlarni uzatish hamda o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu bois biz bu yerda bevosita mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy ta’lim modellari tasnifi doirasida fikr yuritamiz.

Ilmiy-eksperimental tadqiqotlar davomida masofaviy ta’limni tashkil etish modellari o‘quv jarayonida subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir usullariga asoslanib tasniflandi. Natijada, quyidagi asosiy model turlari ajratib ko‘rsatildi:

1. Masofaviy modellar. To‘liq hajmda masofaviy ta’limni tashkil etishga asoslangan bo‘lib, bu yerda butun o‘quv jarayoni masofadan boshqariladi va amalga oshiriladi.

2. Raqamli modellar. Ta’limni tashkil etishda raqamli ta’lim muhiti vositalaridan foydalanishga asos-langan model bo‘lib, ta’limiy kontent, o‘zaro aloqa va baholash raqamli platformalar orqali amalga oshi-riladi.

3. Asinxron model. Bu modelda ta’limiy muloqot real vaqtga bog‘liq bo‘lmagan holda, ya’ni mustaqil ravishda amalga oshiriladi. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi aloqalar elektron pochta, masofaviy ta’lim tizimlari yoki keys-texnologiyalar orqali yo‘lga qo‘yiladi. Internet bu yerda axborot vositasi va aloqa platformasiga kirish vositasi sifatida ishlaydi. Aloqa shakllari: individual va guruhli.

4. Sinxron model. Ta’limiy jarayon real vaqt rejimida, “shu yerda va hozir” tamoyiliga asoslangan holda amalga oshiriladi. Vebinar platformalari, messenjerlar va boshqa sinxron aloqa vositalari orqali muloqot tashkil etiladi. Bilim yetkazish uchun vebinarlar, masofaviy ta’lim tizimlari va messenjerlar qo‘llaniladi. Aloqa shakllari: frontal (umumiy), individual va guruhli.

5. Integrallashgan model (kombinatsiyalashgan). Bu model sinxron va asinxron muloqotlarni uyg‘unlashtirgan bo‘lib, ikki xil tartibda qo‘llaniladi:

Birinchisi. Bir ta’lim muassasasi kesimida tashkillashtirilgan sinxron va asinxron (masofaviy tizimlar yordamida muloqot shakllari uyg‘unlashadi.

Ikkinchisi. Turli yo‘nalishdagi ta’lim muassasalari o‘rtasidagi tarmoq orqali hamkorlik tashkil etish asosida o‘quv jarayonlariga mos tashkillashtiriladi. Sinxron va asinxron formatlar kombinatsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Bu tartiblar o‘quv jihozlarini taqdim etish usuli, hamkorlik tizimlari va ta’limiy texnologiyalar asosida farqlanadi [5;76–77-b.].

6. Gibrid model. Bu model an’anaviy (yuzma-yuz) va masofaviy o‘qitish shakllarini sinxron ravishda birlashtiradi. Ya’ni, o‘quvchilarning bir guruhi darsda shaxsan ishtirok etsa, boshqasi shu darsda masofadan turib qatnashadi. Vebinarlar orqali bir vaqtda muloqot olib boriladi. Internet bu yerda nafaqat aloqa vositasi, balki o‘quv jarayoniga kirish imkoniyatini beruvchi muhim infratuzilma elementi sifatida ishlaydi.

7. Aralash model. Mazkur modelda o‘qitish jarayoni sinxron (vebinarlar, real vaqt muloqoti) va asinxron (masofaviy platformalar, mustaqil ishlar) formatlarda navbatma-navbat amalga oshiriladi. O‘quvchilar ba’zida auditoriyada, ba’zida esa masofadan turib ishtirok etadilar. Bu model turli o‘quv shakllarining ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi.

8. Masofaviy model (umumiy shakl). Bu model sinxron va asinxron usullarni o‘zida mujassamlashtiradi. Vebinarlar, masofaviy ta’lim tizimlari va turli onlayn platformalar orqali ta’limiy jarayon tashkil etiladi. Aloqa shakllari: individual va guruhli, real vaqtda hamda vaqtga bog‘liq bo‘lmagan tarzda amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Masofaviy ta'limni tashkil etish modellari.

Tahlil va natijalar. Raqamli ta'lim jarayonini samarali yo'lga qo'yish imkoniyatlarini tahlil etish davomida, mavjud pedagogik muhit xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'quv faoliyatining shakllarini tizimlashtirishga xizmat qiluvchi asosiy mezonlar aniqlab chiqildi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini moslashuvchan va maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda asosiy determinant omillar sifatida Internet texnologiyalaridan foydalanish darajasi hamda raqamli muhitda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv muloqotni tashkil etish mexanizmlari ajralib turadi.

Shu bois o'rganilayotgan tasnif mezonlari quyidagi omillar bilan belgilanadi: Internet vositalaridan foydalanish xususiyatlari, pedagogik interaktsiyani tashkil etish shakllari, ta'lim ishtirokchilari soni va ularning faoliyatidagi o'zaro bog'liqlik darajasiga ajratiladi. Mazkur yondashuv, raqamli ta'limning dinamik muhitiga moslashuvchan modelni shakllantirish imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. Ta'limni samarali tashkil etishning shakllari.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada masofaviy ta'limni tashkil etish modellarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, raqamli ta'lim formatlarining sinxron va asinxron ko'rinishlari tahlil qilinadi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida raqamli muhitda ta'lim jarayonini loyihalashda muhim hisoblangan metodik yondashuvlar aniqlanib, ularning amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Tasnif etilgan modellarning har biri, zamonaviy ta'limda pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun qanday yondashuvlar zarurligini ochib beradi. Jumladan, ta'lim beruvchidan o'z o'quv kursini internet texnologiyalari hamda raqamli ta'lim muhiti imkoniyatlariga asoslangan holda puxta rejalashtirish va qurishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л., Шитова В.А. Развитие форм организации дистанционного обучения в эпоху цифровизации образования. Вестник Томского государственного университета. 2023, № 497, с. 143–150. doi: 10.17223/15617793/497/15.

[2]. Vayndorf-Sysoeva, M.E., Subocheva, M.L. & Shitova, V.A. (2023) Development of forms of organizing distance learning in the era of digitalization of education. Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta. Tomsk State University Journal. 497, pp. 143–150 (In Russian), doi: 10.17223/15617793/497/15.

[3]. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л., Шитова В.А. Методы цифрового обучения: классифика-ция, средства и инструменты, матрица согласования. "Вестник Томского государственного университета", 2024, № 501, с. 164–172. doi: 10.17223/15617793/501/19.

[4]. Бедерханова В.П. Педагогическое проектирование в инновационной деятельности. Учеб. пособие, Краснодар, 2000, 54 с.

[5]. Монахов В.М. Педагогическое проектирование – современный инструментарий дидактических исследований. “Школьные технологии”, 2001, № 5, с. 75–89.

Buriyev Xoliddin Ja’farovich (Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi)

AXBOROTLASHGAN TA’LIMDA OLIY TA’LIM MUASSASINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasini boshqarishni takomillashtirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan tizimini rivojlantirish jarayonlari raqamli platformalar orqali amalga oshirishning ijtimoiy jihatlari, pedagogik jihatlari, psixologik va tashkiliy shakillarini amalga oshirishdagi muammolarining yechimlarini xususida so‘z borgan.*

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, talabalar, raqamli transformatsiya, boshqaruv, pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy pedagogika raqamli muhit, resurslar, korporativ boshqaruv, boshqaruv usullari, integratsiyalashuv.*

Буриев Холиддин Джафарович (преподаватель Термезского государственного университета)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМ УЧЕБНЫМ ЗАВЕДЕНИЕМ В СИСТЕМЕ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В статье рассматриваются социальные, педагогические аспекты, психологические и организационные формы реализации процессов совершенствования управления высшим учебным заведением посредством цифровых платформ, основанных на широком использовании информационно-коммуникационных технологий.*

Ключевые слова: *высшее образование, студенты, цифровая трансформация, менеджмент, педагогические технологии, социальная педагогика, цифровая среда, ресурсы, корпоративное управление, методы управления, интеграция.*

Buriyev Kholiddin Ja’farovich (Teacher of Termez State University)

IMPROVING THE MANAGEMENT OF A HIGHER EDUCATION INSTITUTION IN INFORMATION-BASED EDUCATION AS A SOCIAL-PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. *This article discusses the social aspects, pedagogical aspects, psychological and organizational forms of implementing the processes of improving the management of a higher education institution through digital platforms, based on the widespread use of information and communication technologies.*

Keywords: *Higher education, students, digital transformation, management, pedagogical technologies, social pedagogy, digital environment, resources, corporate governance, management methods, integration.*

Kirish. Rivojlangan mamlakatlar – AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy kabilarda ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va vositalarining rivoji zamirida ta’lim iste’molchilari tomonidan elektron xizmatdan foydalanish shakllariga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda hamda bu yo‘nalishda keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu sababli bugungi kunda ta’lim menejmentida maqsadli faoliyatni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi vazifalarni bajarish jarayonlarini o‘rganish hamda turli sharoitlarda boshqaruv funksiyalarini axborot ayirboshlash kontekstida oqilona amalga oshirish, axborot xizmati tizimining funksional vazifalarini muvaffaqiyatini ta’minlash zarurati mavjud.

Dunyo hamjamiyati va davlatlar o‘rtasidagi turli madaniy, ta’limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi ta’limning barcha bo‘g‘inlarida, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalari pedagogik jarayonida sifatli ta’limni tashkil qilish axborot xizmati kontekstida baholanmoqda va mazkur tizimni modernizatsiyalash, innovatsion g‘oya va shakllar asosida olib borish va amaliyotga joriy etish eng dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Hozirgi davrda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, oliy ta’lim muassasalarida, boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish global zaruratga aylandi. Raqamli transformatsiya jarayonlari boshqaruv tizimiga sifat jihatidan yangi yondashuvlarni joriy etishni talab qilmoqda. Bunda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, o‘quv jarayonini rejalashtirish, talaba va professor-o‘qituvchilar faoliyatini monitoring qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini boshqarish kabi jarayonlar axborotlashgan boshqaruv tizimlari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimida raqamlashtirish, “Elektron universitet” platformalarini joriy etish, masofaviy va gibrid ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qator islohotlar olib borilmoqda. Ammo amaliyotda mazkur jarayonlar samaradorligi ko‘p jihatdan boshqaruvning pedagogik va ijtimoiy omillariga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham axborotlashgan ta’lim sharoitida OTM boshqaruvini takomillashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida ilmiy tadqiqot talab etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, uni zamonaviy talablarga moslashtirish va xalqaro standartlarga integratsiyalash muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Olimlarning ilmiy ishlarida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqildi, xususan:

– o‘qituvchining ijodiy faoliyati va pedagogik mahorati, ta’lim tashkilotlari rahbarlarining kasbiy mahorati (L.A.Baykova, V.I.Zagvyazinskiy, N.V.Kuzmina, Y.L.Lvova, V.V.Popov, I.P.Rachenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqalar) o‘rtasidagi bog‘liqlik.

M.Y.Oleshkov va V.M.Uvarov o‘quv jarayonini “maqsadli o‘quv va kognitiv faoliyatning shaxsiy ahamiyatli usullarini qo‘llash orqali har bir talabaning sub'ektiv tajribasini ochib berish va undan foydalanishga asoslangan shaxsning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlaydigan dialektik o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘qitish va o‘qitish tizimi” deb ta'riflaydi.

O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini boshqarish bo‘yicha quyidagi olimlar tadqiqotlar olib borgan: E.A. Seytxalilov, Sh.Kurbonov, M.Tojiyev, B.Abdullayeva, O.Quysinov, U.Inoyatov, K.Muxamedov, I. Majidov, K.Yuldashev, A.Saidov va boshqalar. Oliy ta’lim boshqaruvi bo‘yicha xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ham muntazam tadqiqotlar olib bormoqda, jumladan;

– UNESCO – oliy ta’limning global rivojlanishi va boshqaruvi bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi;

– OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) – Ta’lim siyosati, oliy ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazadi;

– World Bank – ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va oliy ta’limni moliyalashtirish bo‘yicha izlanishlar olib boradi.

Axborotlashgan ta’lim – bu ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) keng foydalanishga asoslangan tizim bo‘lib, unda bilim berish, o‘qitish va o‘rganish jarayonlari raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etadi, balki ta’lim sifatini oshirish, talabaning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Axborotlashgan ta’limning rivojlanish bosqichlarini quyidagicha ajratish mumkin:

1. Kompyuterlashtirish davri (1980–1990) – ta’lim jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanishning boshlanishi.

2. Internetlashtirish davri (1990–2005) – global tarmoq orqali o‘quv materiallarini almashish va masofaviy ta’limning shakllanishi.

3. Raqamli transformatsiya davri (2005-yildan hozirgacha) – sun’iy intellekt, Big Data, bulutli texnologiyalar asosida boshqaruv va ta’lim jarayonini optimallashtirish.

Zamonaviy oliy ta’lim boshqaruvi bir nechta modellarga asoslanadi:



1-rasm. Oliy ta’lim boshqaruvining zamonaviy modellari.

Axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish talabalardan bir qator ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlikni talab etadi: didaktik materiallarni va faoliyatiga oid hujjatlarni tayyorlashda matn muharriridan samarali foydalanish, multimedia taqdimotlarini tayyorlash, tarmoq ichida ma’lumotlarni izlash va muloqot qilish. Ushbu vazifalarni bajarishda talabalardan kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishlik talab etiladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga juda ham ko‘plab ko‘nikmalarni oladi. Shular ichidan talabalar tomonidan kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishlikning eng kerakli va zarur bo‘lgan tayanch qismini ajratib olish muhimdir.

Axborotlashgan pedagogik texnologiyalarni vujudga kelishi, bu jamiyat rivojlanishi va o‘qituvchilar o‘zgarishining natijasidir. Har bir yangi davr o‘zgarishlarini va yangiliklarini taqozo etadi. Yangi axborotlashgan pedagogik texnologiyalarning maqsadi har yangi bosqichda asosan ta’lim va tarbiya samarasini oshirishga qaratilgandir. Ta’lim-tarbiya jarayoni samarasini oshirish yangi sifat darajasiga o‘tish imkonini beradi. Bu maqsadga erishish uchun esa axborotlashgan pedagogiktexnologiyalarni, ya’ni, o‘qish jarayonining borishi va tashkil qilishni yangi samarali ko‘rinishlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu axborotlashgan pedagogik texnologiyalar hozirgi davr uchun, ya’ni, insonning rivojlanish darajasi va texnikaning rivojlanish darajasiga mos tushishi hamda inson va texnik resurslarni uyg‘un birlashishinita’minlashi kerak. Yangicha yondashuv, yangicha fikrlash asosida o‘qitish jarayonida bilim oluvchilarning o‘quv-bilimfaoliyatining samarali shakl va uslublarini joriy etish, ularning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish kerak. O‘quv -tarbiya jarayonini lmiy va metodik jihatdan mukammal tashkil etish muvaffaqiyatlar garovidir. Bunda barcha turdagi mashg‘ulotlar va mustaqil topshiriqlar o`quvchilarni o‘ylashga, ijodiy mehnat qilishga, har tomonlama fikr yuritishga, berilgan topshiriqlarni o‘z hayotiy tajribalariga asoslanib hal etishga o‘rgatadi.

Axborotlashgan boshqaruv pedagogik jarayonni quyidagi yo‘nalishlarda rivojlantiradi:



2- rasm. Axborotlashgan boshqaruvning pedagogik jarayoni.

Muhokama. Ijtimoiy jihatlar – axborotlashgan ta’lim sharoitida oliy ta’lim muassasasini boshqarish jarayonida ijtimoiy omillar muhim rol o‘ynaydi. Ular quyidagilardan iborat:

– inson resurslari tayyorgarligi – o‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarining raqamli kompetensiyasini oshirish zarurati;

– ijtimoiy tengsizlik – talabalar orasida internet va texnik vositalarga teng imkoniyatlarning mavjud emasligi;

– madaniy moslashuv – yangi texnologiyalarni joriy etishda milliy ta’lim an’analari bilan uyg‘unlashtirish masalalari;

– talabalar va o‘qituvchilarning raqamli muhitga psixologik tayyorgarligi.

Pedagogik jihatlar. Pedagogik jihatlar axborotlashgan boshqaruvning ta’lim jarayoniga bevosita ta’siri bilan belgilanadi. Asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

– o‘quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;

– o‘qituvchi rolini bilim beruvchi shaxsdan koordinator va mentor darajasiga o‘zgartirish;

– baholash mezonlarini zamonaviy, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarga moslashtirish;

– talabalarning raqamli savodxonligini oshirish.

Psixologik va tashkiliy to‘siqlar. Axborotlashgan boshqaruvni joriy etishda psixologik va tashkiliy to‘siqlar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

– yangilikka qarshilik va o‘zgarishlardan qo‘rquv;

– raqamli tizimlarga moslashish jarayonida yuzaga keladigan stress;

– boshqaruv tizimida rol va vakolatlarni qayta taqsimlash zarurati;

– texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborotlashgan ta’lim sharoitida oliy ta’lim muassasasini boshqarishni takomillashtirish murakkab, ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etadigan jarayondir. Boshqaruv tizimining samaradorligi nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki pedagogik tamoyillar va ijtimoiy omillarni inobatga olishga ham bog‘liq.

Axborotlashgan boshqaruv OTM faoliyatida shaffoflik, tezkorlik va samaradorlikni oshiradi. Raqamli platformalarni joriy etishda pedagogik moslashuv va ijtimoiy tenglik masalalari hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchilar va boshqaruv xodimlarining raqamli kompetensiyasi boshqaruv tizimining muvaffaqiyatida asosiy omil hisoblanadi. Teskari aloqa mexanizmlari va data-driven qarorlar ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4310-qarori. 2019-yil 7-may//Lex.uz

(2). Ziyonet.uz – O‘zbekiston ta’lim portali. https://ziyonet.uz (murojaat qilingan sana: 2025-yil 10-aprel).

(3). Abdullayeva M.T. Innovatsion pedagogika. Toshkent, “Muharrir”, 2021, 160-bet.

(4). To‘xtasinov S., Toshpo‘latov Sh. Ta’lim boshqaruvi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, “Ilm Ziyo”, 2019, 198-bet.

(5).Yuldashev J.A. Oliy ta’lim menejmenti. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2018, 212-bet.

(6). R.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T., TDPU, 2005.

(7). R.Ishmuhamedov. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T., “Iste’dod”, 2008.

Berdiyeva Dilafruz Shuxratovna (Buxoro davlat Pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi; berdievadilafruz@buxdpi.uz)

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RAHBAR MALAKASINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining malakasini oshirish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va samarali pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan. Tadqiqotda rahbarlarning faqat boshqaruv ko‘nikmalarigina emas, balki kuchli liderlik sifatlarini ham rivojlantirish zarurligi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajribaga tayangan holda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar va diagnostik vositalar joriy etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan. Maqola maktabgacha ta’lim tizimi rahbarlari malakasini oshirishning zamonaviy usullarini nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim menejmenti sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, rahbar malakasi, liderlik kompetensiyasi, pedagogik shart-sharoit, zamonaviy usullar, ta’lim menejmenti, innovatsion boshqaruv, malaka oshirish, psixologik-pedagogik muhit, o‘quv-axborot resurslari.*

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ РУКОВОДИТЕЛЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация. *В данной статье проанализированы современные подходы и эффективные педагогические условия в процессе повышения квалификации руководителей дошкольных образовательных организаций. В исследовании научно обоснована необходимость развития у руководителей не только управленческих навыков, но и сильных лидерских качеств. Также даны рекомендации по*

внедрению специальных программ и диагностических средств, направленных на развитие лидерских компетенций с опорой на международный опыт. Статья направлена на теоретическое и практическое совершенствование современных методов повышения квалификации руководителей системы дошкольного образования и служит методической основой научно-практических исследований в области управления образованием.

Ключевые слова: *дошкольное образование, квалификация руководителя, лидерская компетентность, педагогические условия, современные методы, управление образованием, инновационный менеджмент, повышение квалификации, психолого-педагогическая среда, учебно-информационные ресурсы.*

MODERN METHODS OF IMPROVING THE SKILLS OF MANAGERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation*. This article analyzes modern approaches and effective pedagogical conditions in the process of improving the skills of the heads of preschool educational organizations. The study highlights the need for leaders to develop not only managerial skills, but also strong leadership qualities on a scientific basis. Recommendations for the introduction of special programs and diagnostic tools aimed at the development of leadership competencies, relying on international experience, are also presented. The article is aimed at theoretical and practical improvement of modern methods of improving the skills of leaders of the preschool education system, and serves as a methodological basis for scientific and practical research in the field of Educational Management.*

Keywords*: preschool education, leadership qualification, leadership competence, pedagogical conditions, modern methods, educational management, innovative management, professional development, psychological and pedagogical environment, educational and information resources.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonining rivojlanish bosqichida rahbar shaxsidan faqatgina boshqaruv kompetensiyalari emas, balki kuchli liderlik sifatlari ham talab etilmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimida ushbu talabning dolzarbligi yanada ortib, bu sohada faoliyat yurituvchi rahbarlar bolalar rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik muhitni samarali boshqarish, jamoani umumiy maqsad sari birlashtirish, innovatsion tashabbuslarni amaliyotga tatbiq etish va strategik yondashuvlarni qo‘llash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari zarur. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari rahbarlik faoliyatini an’anaviy nazoratga asoslangan boshqaruvdan strategik va innovatsion yetakchilik darajasiga ko‘tarishni ko‘zda tutadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarida liderlik salohiyatini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy asosda aniqlash bugungi kunda dolzarb ilmiy-metodik masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda rahbarlarning kasbiy va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan turli pedagogik shart-sharoitlar taklif etilgan. Jumladan, V.A. Sadiyev o‘zining ilmiy izlanishlarida ta’lim muassasalarini transformatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan kadrlar resurslari, normativ-huquqiy va o‘quv-metodik ta’minot, texnologik baza, moddiy-ma’naviy resurslar, moliyaviy barqarorlik hamda raqamli axborot muhitini asosiy omillar sifatida belgilaydi. G.N.Nigmatova maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarida iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish jarayonini uch bosqichli pedagogik shart-sharoitlar:

1) rahbarning o‘z ta’limiy ehtiyojini aniqlash;

2) modulli andragogik dastur asosida o‘qitish;

3) rivojlanish dinamikasini monitoring qilish orqali amalga oshirishni taklif etadi. Sh.N.Qosimova esa uzluksiz malaka oshirish jarayonida ehtiyojga mos o‘quv rejalar, maxsus qisqa kurslar, motivatsion-hamkorlik muhiti hamda andragog-o‘qituvchi tomonidan rahbarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini muhim pedagogik shartlar sifatida qayd etadi. N.Sh.Miryusupova maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini rivojlantirishda aksiologik, akmeologik, tizimli, kompetensiyaga asoslangan va refleksiv yondashuvlar uyg‘unligida ishlab chiqilgan qisqa muddatli kurslar dasturini samarali model sifatida taklif etadi. Shu bilan birga, rahbarlarni psixologik va andragogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sifatini boshqarishning dolzarbligini chuqur anglash hamda bu yo‘nalishda doimiy professional o‘sishni ta’minlash zarurligi alohida ta’kidlanadi. Ushbu ilmiy konsepsiyalar maktabgacha ta’lim tizimi rahbarlarining liderlik salohiyatini shakllantirish uchun nazariy-metodik poydevor vazifasini bajaradi.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari – bu oila va jamiyatning bolalar tarbiyasi va ularning intellektual, jismoniy hamda ma’naviy kamolotini ta’minlashga qaratilgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladigan ijtimoiy-pedagogik muassasalardir. Ular o‘z faoliyatida milliy va hududiy xususiyatlarni, shuningdek, bolalarning yosh va individual rivojlanish bosqichlarini hisobga oladi. Qonunchi-

lik va pedagogik tamoyillarga zid bo‘lmagan sharoitda maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘z tashabbusi asosida mustaqil qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Mazkur muassasalar nafaqat tarbiyaviy-ta’limiy jarayon sifati uchun, balki bolalar va ota-onalarning qonuniy huquqlarini ta’minlash hamda jamiyat va davlat manfaatlariga rioya etish uchun ham javobgardir.

Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari – mudira – tashkilotning boshqaruv va pedagogik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi shaxs sifatida alohida o‘rin tutadi. U oliy ma’lumotli va kamida besh yillik pedagogik ish tajribasiga ega bo‘lishi lozim. Mudira ta’lim-tarbiya jarayonining davlat talablari, sanitariya-gigiyena me’yorlari va pedagogik metodikalarga muvofiq tashkil etilishini ta’minlaydi. Shuningdek, jamoada sog‘-lom ma’naviy-psixologik muhit yaratish, xodimlar o‘rtasida hamkorlik va intizomni mustahkamlash ham uning vazifalariga kiradi. Rahbar kadrlarni tanlash va joylashtirishda ularning kasbiy salohiyati, shaxsiy fazilatlari hamda sohaga bo‘lgan moyilligini inobatga oladi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti mudiralarida liderlik sifatlarini rivojlantirishda quyidagi pedagogik shartsharoitlar ajralib turadi:



1-rasm. Pedagogik shart-sharoitlarning mazmuni.

Tashkiliy-pedagogik jarayonlar tarkibiga bayram tadbirlarini o‘tkazish, ochiq mashg‘ulotlar va sayrlarni tashkil etish, shuningdek, bolalar va pedagoglarni ko‘rik-tanlovlarga jalb etish kiradi. Mudira ota-onalar bilan muntazam ravishda muloqot o‘rnatadi, umumiy majlislar va ota-onalar universitetlari orqali oilaviy tarbiya masalalarini muhokama qiladi hamda amaliy tavsiyalar beradi. Bunday hamkorlik mexanizmlari mahalla qo‘mitalari, jamoatchilik va maktablar bilan integratsiyalashgan holda amalga oshiriladi. Mazkur hamkorlikning maqsadi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirishdir.

Maktabgacha ta’lim muassasasining ma’muriy-xo‘jalik faoliyati binoni texnik va estetik jihatdan jihozlash, ta’mirlash, pedagogik jarayonni zarur vositalar va inventarlar bilan ta’minlash, bolalar maydonchasini standartlarga muvofiq jihozlash, oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash va yozgi sog‘-lomlashtirish mavsumlarini samarali tashkil etishni qamrab oladi. Rahbar shuningdek, bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish maqsadida tibbiy xizmat faoliyatini yo‘lga qo‘yadi, sanitariya va yong‘inga qarshi tadbirlar bajarilishini qat’iy nazorat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari pedagogik jarayon sifatini oshirish, xodimlarning kasbiy malakasini rivojlantirish, ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etish va jamoada barqaror ishlash muhiti yaratishga qaratilgan kompleks boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi. U jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda kadrlar attestatsiyasini o‘tkazadi, metodik yordam ko‘rsatadi va xalqaro tajriba asosida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etadi. Natijada maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligi oshadi, bolalarning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatga moslashuvi uchun puxta poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Miryusupova Sh.N. Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini rivojlantirish. Avtoreferat, Toshkent, 2024, 14-bet.

(2). Nigmatova G.N. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining iqtisodiy kompetentligini shakllantirish. Avtoreferat, Toshkent, 2023, 13-bet.

(3). Sadiyev V.A. Oliy ta’lim muassasasi transformatsiyasining tashkiliypedagogik sharoitlarini yaratish. Avtoreferat, Toshkent, 2021, 19-bet.

(4). Abdullayev A.A. System of information and communication technologies in the education. Science and world International scientific journal, 2 (№ 5), p. 19–21.

(5). Abdulkhayevich A.A. Challenges, Cluster and Professional Support of Today’s Early Educators’ through Literacy and Language that Creates a Sense about the Concept of Early Education. International Journal of Word Art, (2), 2020.

(6). Abdullayeva, M. Bo‘lajak tarbiyachilarning qobiliyatini rivojlantiruvchi asosiy omil. Zamonaviy fan va ta’lim-tarbiya: muammo, yechim, natija, (2020), 1, 112–114-betlar.

Iminov Odilbek Nabidjanovich (Andijon davlat Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi)

ZAMONAVIY FALSAFANI O‘QITISHDA ILMIY ADABIYOT VA MATNLARDAN FOYDALANISH ZARURATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy falsafa ta’limida ilmiy adabiyot va matnlarning ahamiyati, ularning samarali qo‘llanilishi hamda bu jarayonda uchraydigan muammolar tahlil qilinadi. Axborot oqimi kuchaygan bugungi kunda talabalarning informatsion xabardorligi ortib borayotgan bo‘lsa-da, bu bilimlarni falsafiy asoslangan tizimga aylantirish zarurati ortmoqda. Maqolada ta’lim jarayonining modernizatsiyalashuvi, innovatsion pedagogik yondashuvlar, til falsafasi va falsafiy matnlarning stilistik xususiyatlari kabi masalalarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, falsafa darslarining metodikasini takomillashtirish, tarixiy va nazariy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish hamda talabalarni yuzaki qarashlar va ekstremistik g‘oyalardan himoya qilish dolzarb vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *falsafa ta’limi, zamonaviy metodlar, ilmiy matnlar, til falsafasi, o‘quv materiallari, mualliflik matni, axborot texnologiyalari, falsafiy tafakkur, ta’lim innovatsiyalari, ekstremizmga qarshi kurash.*

НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И ТЕКСТОВ В ПРЕПОДАВАНИИ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация. *В данной статье рассматривается значение научной литературы и текстов в преподавании современной философии, анализируется эффективность их использования и выявляются возникающие в этом процессе проблемы. В условиях усиления информационного потока увеличивается осведомлённость студентов, однако возрастает необходимость трансформации этих знаний в упорядоченную философскую систему. Особое внимание уделяется модернизации образовательного процесса, инновационным педагогическим подходам, философии языка и стилистическим особенностям философских текстов. Также подчёркивается актуальность совершенствования методики преподавания философии, интеграции исторического и теоретического подходов, а также защиты студентов от поверхностных взглядов и экстремистских идей.*

Ключевые слова: *философское образование, современные методы, научные тексты, философия языка, учебные материалы, авторский текст, информационные технологии, философское мышление, образовательные инновации, борьба с экстремизмом.*

THE NECESSITY OF USING SCIENTIFIC LITERATURE AND TEXTS IN TEACHING MODERN PHILOSOPHY

Annotation. *This article explores the importance of scientific literature and texts in the teaching of modern philosophy, analyzes the effectiveness of their application, and discusses challenges encountered*

in this process. In today's environment of intensified information flow, students' informational awareness is increasing, yet the need to systematize this knowledge into coherent philosophical understanding is becoming more urgent. The article highlights the modernization of the educational process, innovative pedagogical approaches, the philosophy of language, and the stylistic features of philosophical texts. It also emphasizes the importance of improving teaching methodologies, integrating historical and theoretical approaches, and protecting students from superficial thinking and extremist ideologies.

Keywords: *philosophy education, modern methods, scientific texts, philosophy of language, educational materials, authorial text, information technologies, philosophical thinking, educational innovations, combating extremism.*

Kirish. Hozirgi davrda falsafani o‘qitishda barcha fanlarni o‘qitishda bo‘lgani kabi, innovatsion uslublarni qo‘llash, ulardan samarali foydalanish masalasi kun tartibiga qo‘yilmoqda. Bugun falsafadan ma’ruza o‘qish 5–10 yil, hatto 2–3 yil oldingi o‘qishga o‘xshay olmaydi. Zero, oldingi davrlarda o‘qituvchi o‘z diqkatini ko‘proq informatsiya berishga qaratgan bo‘lsa, hozirgi kunda matbuot, radio, televideniya, ayniqsa, internet kabi ommaviy axborot vositalari shunday ko‘p va turli ma’lumotlar beryaptiki, falsafa o‘qituvchisi bu vazifani o‘zidan soqit qilib, buning o‘rniga e’tiborini shu ma’lumotlarni qay tariqa falsafiy umumlashtirish, baholash, tahlil etish kerak, degan vazifaga qaratishiga to‘g‘ri keladi. Ayni shunga ko‘ra ham darsga o‘tgan yildagi, o‘tgan oydagi, hatto o‘tgan kuni yozilgan ishchi yozuvlari yo ma’ruza matnining o‘zi bilan kirish, yangi ma’lumotlarni hisobga olmaslik, o‘qituvchini noqulay vaziyatga tushirib qo‘yadi. Zero, hozirgi talaba o‘tgan yilgisidan ma’lumotliroqdir. Lekin uni aqlli deb ham bo‘lmaydi. Chunki bu ma’lumotlar, aslida, bir qopga tartibsiz solib tashlangan xilma-xil buyumlarga o‘xshaydi. Bilim esa muayyan muammoni yoritishga yordam beradigan tartibli organik tizim bo‘lishi kerak. Biz bu ma’lumotlardan misol tariqasida keng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Lekin buning uchun talaba bilan yaqindan tanishish, ular nima bilan qiziqayotganlari, nimalarni ko‘rayotganlari, tinglayotgani yoki o‘qiyotganlari bilan qiziqish, tanishib borish kerak. Ammo falsafa o‘qituvchisi talabani qiziqtirgan masalalar saviyasida qolib ketishi kerak ekan, degan fikrni bildirmaydi. Aksincha, agar talabaning qiziqish doirasi tor, yuzaki bo‘lsa, o‘qituvchi uni kengaytirishi, kerakli yo‘nalishga va teranlikka yo‘naltirishi kerak. Ekstremizm xavfi kuchayib borayotgan bugungi kunda biz talabaga, ayniqsa, yaqin bo‘lishimiz, uni qiynayotgan muammolarni yechishiga yordam berishimiz kerak.

Adabiyotlar tahlili. Yurtboshimiz ta’kidlab o‘tganidek, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta’lim tarbiyasiga har birimiz mas’ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak.[1]

Jamiyat hayotining yangilanib borishi hayotning barcha jabhalariga yangi axborot texnologiyalarining kirib kelishi, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar va bu sohada ham pozitivlik, ham postmodernizm g‘oyalarining namoyon bo‘lishi inson dunyoqarashiga ijobiy ta’sir etyapti. Ta’lim sohasini modernizatsiyalashtirishning dolzarbligi ilmiy hamda pedagogik doiralarda chuqur tahlil qilinmoqda va bu borada bahs munozaralar yaxshi natijalar bermoqda. Ta’lim sohasida davlat standartlari uchinchi avlodining joriy qilinishi va u asosida yangi ishchi dasturlar, o‘quv, uslubiy va nazorat materiallarining joriy qilinishi ko‘plab savollarni vujudga keltirmoqda.

Davlatimiz tomonidan oliy ta’lim oldiga yuqori malakali umummadaniy hamda kasbiy salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarni yetkazib berish masalasi qo‘yilgan. Umumiy ta’lim sohasi mazmunini modernizatsiya qilish strategiyasida uning asosini tashkil etadigan (kognitivlik, operatsion texnologik, motivlilik, axloqiylik, ijtimoiylik, kundalilik) kabi jihatlar e’tirof etilgan.

Ta’kidlash joizki, komponentlik ta’lim natijalarini (bilim va ko‘nikmalarini) qadriyatlar tizimining yo‘naltirilganligini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilar ushbu ta’rifni shunday bayon qilishni taklif qiladilar. Fikrimizcha, falsafani o‘qitish jarayonida talabalarga samarali metodikani tanlash hamda ta’lim texnologiyalarini maqsadli tatbiq qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldirib boradigan jihatlarga e’tibor qaratish lozim. Bu esa falsafiy bilimlarning ratsionalligi (ya’ni aql yordamida o‘zlashtirilganligi) tizimliligini va ijodiy yondashish erkinligini shakllantirib, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni kengaytiradi. Tajribali o‘qituvchilarni talabalarning mavhum nazariyalarga berilib ketishi yoki ijodiy erkinlikni suiste’mol qilishi mumkinligi haqida ogohlantirishga ehtiyoj yo‘q. Lekin yosh pedagoglar bu holatlarga yo‘l qo‘ymaslik lozimligini doimo yodlarida tutishi kerak. Umumqabul qilingan g‘oyalarni kerakli va asosli argumentlarsiz obro‘zsizlantirishga urinish talabalar orasida uchrab turadigan holatdir.

[1] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 89-бет.

Bunday sharoitda falsafaning fan yoki fan emasligi, uning madaniyatdagi o‘rni, falsafa darslarini qanday tashkil qilish masalasidagi bahs-munozaralar hamon davom etib kelmoqda. Falsafani o‘qitishda tarixiy, madaniyatshunoslik va nazariy metodlardan foydalanish kerakmi yoki S.L.Katrechko tomonidan taklif etilgan “Suqrotcha suhbatlar” usulidagi o‘ziga xos falsafa kurslarini tashkil etib, qadriyatlarga asoslangan metodlarni qo‘llash zarurmi, degan muammo hozir ham mavjud.[1]

Professor T.Ortiqov fikricha, “falsafa bo‘lajak mutaxassislarda, talabalarda dunyoqarashni shakllantirishda peshqadam omil ekan, u insoniyat tarixida mujassamlangan falsafiy fikr ummonidan suv ichishi kerak. Lekin u yoki bu tafakkur usulini o‘rganishda universal andozani qidirish befoyda, balki ularning andozalari faqat o‘zlariga mos va xos ekanligini unutmaslik kerak”,[2] deb ta’kidlab o‘tadi.

Shuni aytib o‘tish joizki, falsafa darslarini tashkil qilishdagi muammolar talabalar tomonidan materialni o‘zlashtirishdagi kamchiliklar paydo bo‘lishiga olib keladi. Buning oqibatida esa talabalar falsafiy matnlarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Muammoni hal qilishda falsafa darslarini tashkil qilish metodikasi bilan bir qatorda, falsafiy matnlar tili, stilistikasi muammolariga ham e’tibor qaratish lozim. Bu borada til falsafasi muammosi mustaqil va sezilarli muammo sifatida qolmoqda. Ammo falsafa tili muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlar yo‘q emas. Rus olimi N.M.Azarovaning monografiyasida “Lingvistlar (V.Z.Demyankov, L.M.Granovskaya, B.L.Boruxov, L.L.Shestakova, Y.V.Sergeeva, S.N.Starodubesva boshqalar) tadqiqotlarida asosan metaforalar turlari, simvollar va ba’zi konseptlar haqida fikr yuritilgan, xolos”, deb aytib o‘tadi.[3]

Yuqorida tilga olingan N.M.Azarovaning monografiyasi birinchi bo‘lib rus falsafiy matnlarning tipologik belgilarini o‘rganishga qaratilgan. Unda XX asr rus falsafiy matnlarning ilmiyligi masalasi o‘rganilgan. Azarova o‘z tadqiqotlaridan kelib chiqib, shunday xulosaga keladi: “Falsafa ma’naviy faoliyatning shunday o‘ziga xos turi, ya’ni, madaniyatning alohida shakli hisoblanib, unda bayon etilayotgan matn ham alohida tilni talab qiladi. Falsafa tili fan tilidan farq qiladi. Lingvostilistika doirasida falsafiy matnlarni ilmiy til tarkibiga kiritish noto‘g‘ri”.[4] Ushbu qarashlardan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, falsafiy matnlar mustaqil maqomga ega, uslub jihatdan badiiy adabiyot matnlariga yaqin hisoblanadi.

Mualliflik falsafa konsepsiyasi bayon qilinayotgan falsafiy matnni muallif falsafa matni deb qabul qilinadi. Bunday matnlarda til munosabatlari tizimi qayta ko‘rib chiqilgan. Falsafiy iboralar ilmiy iboralar tarkibidan tashqarida hisob qilinsa-da, ular o‘rtasida uyg‘unlik ham mavjud.[5] Bunday matnlar o‘z yo‘nalishiga qarab, turlicha shaklda namoyon[6] bo‘ladi. Masalan, Gegelning mualliflik matnlarini keltirishimiz mumkin. Uning “Ruh fenomenologiyasi” kitobi (mualliflik falsafiy matn), “Falsafa tarixidan ma’ruzalar” kitobi (mualliflik o‘quv matni), “Kim mavhum fikrlaydi” asari (mualliflik ommabop matn) misol bo‘la oladi.

Muallif falsafiy matnlariga yaqin tadqiqot matnlari ko‘plab uchraydi. Masalan, M.K.Mamardashvilining ushbu asarlari: “Fikrlash shakllari va mazmuni (Gegelning bilish shakllari tanqidi)” tadqiqiy falsafiy matn; “Antik falsafa bo‘yicha ma’ruzalar” falsafiy o‘quv matni; “To‘g‘ri fikrlamaganimizda iblis bizni o‘ynatadi” tadqiqiy ommabop matnlarni keltirishimiz mumkin.[7] Shuni eslatib o‘tish joizki, nemis falsafasining asosiy yo‘nalishlaridan biri omma ma’rifati masalasi edi. Ma’rifatparvarlik davri nemis falsafasining asosiy yo‘nalishi bu ommabop falsafa hisoblangan ko‘plab faylasuflar, xususan, Mendelson, Nikolai, X.Garvi, T. Abt va boshqalar psixologik, falsafiy va axloqiy ta’limotlarining omma orasida tarqalishi masalasiga alohida e’tibor qaratganlar.[8]

---

[1] Катречко С.Л. Специфика философского дискурса. Философия в современном мире: опыт философского дискурса. Москва, 2003, с. 230–233.

[2] Ортиқов Т. Фалсафа фанми ёки... “Мулоқот”, 1994, 11–12-sonlar, 31–32-betlar.

[3] Азарова Н.М. Язык философии. Типологический очерк языка русских философских текстов XX в.: монография. Москва, “Логис/Гнозис”, 2010, с. 7.

[4] Азарова Н.М. Язык философии. Типологический очерк языка русских философских текстов XX в. Монография, Москва, “Логис/Гнозис”, 2010, с. 18.

[5] Азарова Н.М. Язык философии. Типологический очерк языка русских философских текстов XX в. монография, Москва, “Логис/Гнозис”, 2010, с. 212.

[6] Жижек С. Гегель в подключенном мозге. Санкт Петербург, “Скифия-принт”, 2020, с. 264.

[7] Подорога В.А. Топология страсти. Мераб Мамардашвили: современность философии. Москва, “Канон”, 2020, с. 352.

[8] Маркелова Е.В. Стилевая классификация философских текстов и ее использование в методике преподавания философии. “Сибирский педагогический журнал”, № 8, 2012, с. 86.

Zamonaviy tadqiqiy ommabop matnlar orasiga D.A.Gusevning “Falsafa” ilmiy ommabop qo‘llanmasini kiritish mumkin. Ushbu qo‘llanmaga yozilgan annotatsiyada shunday fikrlar bayon qilingan: “Muallif falsafiy ta’limotlar, g‘oyalarni rejali tarzda yetkazishni, falsafiy ta’limotlarni ipidan ignasigacha yetkazish masalasini qo‘ymagan, balki o‘quvchilarga falsafa haqida asosiy tushunchalarni yetkazish, ularga falsafaning qiziqarli jihatlarini bayon qilib berishga harakat qilgan”. Ushbu qo‘llanma oliy o‘quv yurtlari talabalari hamda o‘rta maktabning yuqori sinf o‘quvchilari va oddiy kitobxonlarga mo‘ljallangan.[1]

Falsafiy matnlar o‘zida ham mualliflik, tadqiqiy matnlarni birlashtirib turadi. Dissertatsiya matnlari ham, o‘z navbatida, mavzu va mazmuni jihatidan falsafiy asoslarga ega bo‘lib, o‘zida kommunikativlik, ya’ni bog‘lovchilik xususiyatini kasb etadi va o‘ziga xos janr va til yordamida ifodalanadi. Ilmiy-falsafiy matnlar qatoriga falsafiy fanlardan yozilgan dissertatsiyalarni, maqolalarni kiritish mumkin. Ularda mantiqiylik, isbotlanganlik, aniqlik, tushunarlilik va ma’lum standartlarga moslik kabi jihatlar bo‘lishi talab qilinadi. Ilmiy o‘quv matnlari sifatida esa faylasuflar uyushmalari tomonidan tanlangan qo‘llanmalar, ma’ruzalar tavsiya etiladi. Ularda falsafiy ta’limotlar tizimli izchil ravishda bayon qilinadi. Ilmiy ommabop falsafiy matnlar mualliflik falsafiy matnlardan o‘zining qomusiyligi, qattiq tizimlashtirilganligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy fan sohalari uchun nomutaxassis yo‘nalishdagi talabalarga falsafa darslarini tashkil etishda foydalaniladigan falsafiy matnlar tizimi mantiqiy, soddaroq tilda bayon etilgani ma’qul bo‘lar edi. Chunki falsafani o‘qitishdan maqsad, uni ommabop qilish emas, balki talabalarda dastlabki falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga ko‘maklashishdan iborat. Falsafa o‘qituvchilari ularning asosiy maqsadi talabalarda nazariy fikrlash va madaniyatni tarbiyalash ekanligini tan oladilar. Ushbu maqsadga yetishish uchun esa dogmatizm, apologetika va mavhum nazariyachilik to‘siqlarini yengib o‘tish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Falsafani o‘qitishda bugungi zamonaviy yetakchi o‘zbek faylasuf olimlaridan N.Shermuhammedova, I.Saifnazarov, B.To‘rayev, J.Yaxshilikov, F.Yuldasheva, T.Ortiqov va shu kabi yana boshqa taniqli olimlarimizning darsliklari, o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, falsafa fanlari doktori, professor I.Saifnazarovning “Mening hayot falsafam”, “Mening oilam – mening baxtim”, “Ustozim – hayotim chirog‘i”, “Mahalla bu mening faxrim” kabi talabalar uchun ishlab chiqilgan dasturlari talabalarning falsafa faniga qiziqishida muhim asos bo‘ladi. Ularning falsafiy tafakkuri shakllanishiga xizmat qiladi. Jumladan, “Mening hayot falsafam” dasturida “Hozirgi mutaxassisligingiz sizga qanchalik yoqadi? Keyinchalik, yana qanday qo‘shimcha mutaxassislikni egallamoqchisiz, nima uchun? Sizning hayot yo‘lingizga ta’sir ko‘rsatgan, hurmat-e’tiboringizga loyiq bo‘lgan ustozlaringiz bormi? Qaysi faylasuflarning qarashlari sizga yoqadi yoki yoqmaydi, nima uchun? Sizning hayot falsafangiz nimadan iborat?” kabi savollar berilgan.

“Mahalla bu mening faxrim” dasturida esa talabalar tomonidan o‘zining yashab turgan mahallasidagi olimlar, ziyoli kishilar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar bazasini shakllantiradi. Yoshlarning falsafiy dunyoqarashini kengaytirish, bilimlari va huquqiy-falsafiy muloqot madaniyatini yanada yuksaltirish, ilmiy mushohada qilish va mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kelgusida talabalarni jamiyatda va milliy iqtisodiyotimizning turli sohalarida o‘zining munosib o‘rnini topishga yo‘naltirishdan iborat bo‘lgan qiziqlarli topshiriqlar beriladi.

Tahlil va natijalar. Mustaqil ish matn va taqdimot shaklida, rasmlar, diagrammalar bilan, chiroyli dizaynda albom-taqdimot tayyorlanadi. Unda barcha qo‘yilgan savollarga to‘liq, dalillar bilan, o‘z pozitsiyasini asoslagan holda javob tayyorlash zarur. Taqdimot, dastlab, elektron shaklda o‘qituvchiga yuboriladi, muhokamadan so‘ng eng yaxshi deb topilgan taqdimotlar albom shaklida topshiriladi va barcha tinglovchilarga ko‘rsatiladi.

Talabaning falsafiy tafakkurini rivojlantiruvchi mana shunday metodlardan foydalanish orqali har qanday mutaxassislikda tahsil olayotgan o‘quvchilar ongida falsafa fani zarur ekanligini anglab yetishishlariga erishiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida falsafiy ta’limni o‘qitish amaliyotini tahlil qilish va maxsus olib borilgan tadqiqotlar falsafani o‘qitish jarayonida oliy ta’lim muassasalari talabalarining qadriyatlarini shakllantirish nazariyasi va amaliyotida quyidagi kamchiliklar aniqlandi, masalan, kelajakdagi muhandisning kasbiy faoliyatga tayyorgarligining muhim qismi va bilim hamda ko‘nikmalari bilan uning tizimini shakllantirish qiymat yo‘nalishlari – hali oliy ta’lim muassasalaridagi falsafa fani o‘qituvchilari harakati uchun qo‘llanma bo‘lmagan; kelajakdagi muhandislarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan o‘quv dasturlari mavjud, ammo ushbu universitetlarning talabalari uchun qiymat yo‘nalishlarini shakllan-

[1] Гусев Д.А. Философия. Популярное учебное пособие. Москва, МПСИ: НПО, «Модек», 2004, с. 304.

tirish dasturlari mavjud emas; oliy o‘quv yurtlarida falsafiy ta’limni o‘qitish jarayonida kelajakdagi muhandislarning yetarli ahamiyatli qiymat yo‘nalishlarini shakllantirish uchun tegishli atrof-muhit va moddiy-texnik bazani yaratish uchun e’tibor berilmaydi.

Falsafa o‘qitishning boshqa fanlarni o‘qitishdan farqlantiradigan yana bir muhim jihati shundaki, boshqa fanlarni o‘qitishda eksperiment uslubidan foydalanish mumkin bo‘lgani holda, falsafada bunday imkoniyat yo‘q. Shuning uchun falsafani o‘qitishda, asosan, mantiqiy mushohadaning o‘zi bilan kifoyalanishga majbur bo‘linadi. Shuning uchun ham Aristotel mantiq fanini falsafa emas, lekin falsafani, umuman, har qanday bilimni o‘rganishga tayyorlovchi muhim dastlabki bosqich, ya’ni propedevtika deb atagan edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafada har bir tushuncha va tamoyillarning milliy talqini bor, makon, zamon, bilish, mantiq, xalq hayoti va taqdiri kabi masalalar ham doimo aniq mazmun-mohiyat kasb etadi. Shu ma’noda atoqli olim I.Gegelning “Faylasuflar osmondan yomg‘irdek yog‘maydilar yoki yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorindek yerdan unib chiqmaydilar, ularni xalq yaratadi” degan so‘zlari aynan falsafaning milliyligini ifodalaydi.

Ayni shunga ko‘ra, bugungi kun falsafa o‘qituvchisi o‘z talabalarini bir vaqtning o‘zida ham serqirra bilim, ham yaxshi tarbiya asoslari, ham yuksak ijod namunalari bilan tanishtirib borishi, shuning bilan birga, ularning yaralishi sirlaridan boxabar etishi ham kerak. Shu tarzda falsafa o‘qituvchisi jamiyatga, bir vaqtning o‘zida, ham mantiqiy tafakkur qobiliyati rivojlangan, ham yuksak axloqli, ham sof va oliyjanob elitar madaniyat egasi bo‘lgan, ya’ni, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega bo‘lgan barkamol avlodni yetishtirish vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019, 89-бет.

(2). Катречко С.Л. Специфика философского дискурса. Философия в современном мире: опыт философского дискурса. Москва, 2003, с. 230–233.

(3). Ортиқов Т. Фалсафа фанми ёки... “Мулоқот”, 1994, 11–12-сондарб 31–32-бетлар.

(4). Азарова Н.М. Язык философии. Типологический очерк языка русских философских текстов XX в. Монография, Москва, “Логис/Гнозис”, 2010, с. 7.

(5). Жижек С. Гегель в подключенном мозге. Санкт Петербург, “Скифия-принт”, 2020, с. 264.

(6). Подорога В.А. Топология страсти. Мераб Мамардашвили: современность философии. Москва, “Канон”, 2020, с. 352.

(7). Маркелова Е.В. Стилевая классификация философских текстов и ее использование в методике преподавания философии. “Сибирский педагогический журнал”, № 8, 2012, с. 86.

(8). Гусев Д.А. Философия. Популярное учебное пособие, Москва, МПСИ: НПО «Модек», 2004, с. 304.

Саламова Феруза Хакимбековна (Нукусский государственный Педагогический институт имени Аджинияза, кафедра «Дошкольное воспитание и дефектологии», старший преподаватель)

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ЗАНЯТИЯ СО СЛАБОСЛЫШАЩИМИ ДЕТЬМИ

Аннотация. *В статье рассматривается эффективность индивидуальных занятий со слабослышащими детьми, анализируются их преимущества перед групповыми формами обучения. Особое внимание уделяется персонализированному подходу, позволяющему адаптировать методики под уровень слухового восприятия, речевого развития и когнитивные особенности ребенка. Рассмотрены современные сурдопедагогические методы, включая верботональный подход, билингвистическое обучение и использование специализированных технических средств (слуховых аппаратов, кохлеарных имплантов, компьютерных программ). Подчеркивается важность индивидуальных занятий в развитии слухового внимания, формировании устной речи и социальной адаптации детей с нарушениями слуха.*

Ключевые слова: *слабослышащие дети, индивидуальные занятия, сурдопедагогика, слухоречевое развитие, коррекционные методики.*

Salomova Feruza Xakimbekovna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti, «Maktabgacha ta’lim va defektologiya» kafedrasi katta o‘qituvchisi)

ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR BILAN INDIVIDUAL MASHG‘ULOTLARNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Maqolada eshitish qobiliyatida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan individual mashg‘ulotlarning samaradorligi ko‘rib chiqiladi, ularning guruhli o‘qitish shakllariga nisbatan afzalliklari tahlil qi-*

linadi. E'tibor bolaning eshitish qobiliyati, nutq rivojlanishi va kognitiv xususiyatlariga moslashtiriladigan shaxsiylashtirilgan yondashuvga qaratiladi. Zamonaviy surdopedagogika usullari, jumladan, verboton usuli, ikki tilli ta'lim va maxsus texnik vositalar (eshitish apparatlari, koklear implantlar, kompyuter dasturlari) qo'llash usullari yoritilgan. Individual mashg'ulotlarning eshitish diqqatini rivojlantirish, og'zaki nutq shakllantirish va eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvidagi ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *eshitish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolalar, individual mashg'ulotlar, surdopedagogika, eshitish-nutq rivojlanishi, tuzatuvchi usullar.*

Salomova Feruza Khakimbekovna (Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute, Department of Preschool Education and Defectology, Senior Lecturer)

EFFECTIVENESS OF INDIVIDUAL LESSONS FOR HEARING-IMPAIRED CHILDREN

Annotation. *The article examines the effectiveness of individual lessons for children with hearing impairments, analyzing their advantages over group learning formats. Special attention is paid to the personalized approach, which allows for adapting teaching methods to the child's level of auditory perception, speech development, and cognitive characteristics. Modern methods of deaf pedagogy are reviewed, including the verbotonal approach, bilingual education, and the use of specialized technical aids (hearing aids, cochlear implants, and computer programs). The article emphasizes the importance of individual lessons in developing auditory attention, forming oral speech skills, and facilitating social adaptation for children with hearing impairments.*

Keywords: *hearing-impaired children, individual lessons, deaf pedagogy, auditory-speech development, corrective methods.*

Введение. В современном образовании проблема эффективного обучения и воспитания детей с нарушениями слуха приобретает особую значимость. Слабослышащие дети сталкиваются с рядом трудностей в восприятии и переработке звуковой информации, что напрямую отражается на их речевом, когнитивном и социальном развитии. Ограниченность слухового восприятия затрудняет усвоение устной речи, формирование лексико-грамматического строя и коммуникативных навыков, а также может оказывать влияние на эмоциональное состояние и самооценку ребенка.

В этих условиях особое место занимают индивидуальные занятия, которые позволяют педагогу адаптировать образовательный процесс с учетом уровня слухоречевого развития, возраста, психологических особенностей и потребностей конкретного ребенка. Персонализированный подход дает возможность оптимально сочетать коррекционные, развивающие и воспитательные задачи, создавая комфортную и мотивирующую образовательную среду.

Современная сурдопедагогика располагает широким спектром методик и технологий — от классических систем до инновационных подходов, использующих цифровые ресурсы и технические средства реабилитации. Однако эффективность их применения в значительной степени зависит от того, насколько индивидуально они адаптированы под конкретного обучающегося.

Цель данной статьи – проанализировать эффективность индивидуальных занятий со слабослышащими детьми, определить их преимущества по сравнению с групповыми формами работы и обозначить направления совершенствования методик в условиях современной коррекционной педагогики.

Особенности работы со слабослышащими детьми. Рассматривая особенности работы с детьми с нарушениями слуха, можно, конечно, заметить, что потеря слуха влияет на формирование речи, когнитивное развитие и коммуникативные навыки, личностные подходы позволяют адаптировать программу под уровень слухового восприятия ребенка;

- использовать специализированные методики (верботональный метод, аудиовизуальные технологии);
- развивать слуховое внимание и речевые навыки в комфортном темпе.

Преимущества индивидуальных занятий. Что касается преимуществ индивидуальных занятий, то рассмотрим их отдельно:

Методики и технологии индивидуальной работы со слабослышащими детьми. Рассматривая методы и технологии индивидуальной работы со слабослышащими детьми, в данном случае предлагаем комплекс научно обоснованных приемов, доказавших свою эффективность в работе с детьми с нарушениями слуха современной сурдопедагогики:

1. **Классические сурдопедагогические системы:**
   - Методика Р.М. Боскис – акцент на развитии остаточного слуха через систему специальных упражнений
   - Система Э.И.Леонгард – формирование устной речи как основы социальной адаптации.
   - Метод “материнской школы’ – вовлечение родителей в коррекционный процесс.
2. **Альтернативные коммуникативные подходы:**
   - Билингвистический метод (жестовая речь + устная речь).
   - Метод тотальной коммуникации (сочетание всех доступных средств общения).
   - Система КУЗ (коммуникация с использованием жестов).
3. **Технические и цифровые решения:**
Kirish. O‘zbek xalq shoiri, atoqli olim, publitsist, o‘zining chuqur ma’noli va betakror qofiyali she’rlari bilan o‘zbek xalq she’riyatida muhim o‘rinni egallagan Erkin Vohidov ijodi XX asr o‘zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. O‘zbek she’riyati, o‘zbek madaniyati shoir nomi bilan chambarchas bog‘landi. Shoir chuqur falsafiy she’rlari, mutafakkirona xislatlari, o‘ta samimiy, o‘ta topqirona mutoyibalari bilan muxlislar qalbini zabt etdi. O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy, madaniy ahvolini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi, o‘zbek xalqi oldidagi ulkan xizmatlari, qahramonona mehnatlari uchun “O‘zbekiston Qahramoni” unvoniga sazovor bo‘lgani shoirning muxlislari qalbiga juda katta quvonch baxsh etadi. Albatta, shoir nomi doim xalq yodida saqlanadi, ulug‘ insonlarning nomlari asrlar o‘tsa-da, millat farzandlari qalbida abadiy yashayveradi.

Shoirning she’rlarida frazeologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rishimiz mumkin.Ikki va undan ortiq so‘zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma’nosi, odatda, bir so‘zga, ba’zan so‘z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko‘chma ma’noli barqaror birikma ibora yoki frazeologizm deyiladi. Masalan: 1. U ilonning yog‘ini yalagan odam. 2. Bizning orzularimiz ko‘p edi, ammo peshonamizga yozilgani shu bo‘ldi. Ushbu gaplarda ilonning yog‘ini yalagan – mug‘ombir, peshonamizga yozilgani – taqdir, qismat iboralari qo‘llangan.[1]

Frazeologizmlar nafaqat nutqimizni ixchamlashtiradi, balki ta’sirchan va obrazli nutq tuzishimizga yordam beradi.

Shoirlar ijodida frazeologizmlar bir qancha shakliy va mazmuniy o‘zgarishlarga uchraydi. Shoir vazn va matn talabiga muvofiq, ayrim iboralarni o‘zgartirib, mazmunini burib qo‘llashi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu jihatdan Erkin Vohidov she’rlaridagi frazeologizmlarni qo‘llanishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1. Odatiy frazeologizmlar. 2. Individual frazeologizmlar.

Tahlil va natijalar. Erkin Vohidovning “Donishqishloq hangomalari” she’ri asosida frazeologizmlarga nazar tashlaymiz.

Qalpoq oldi Matmusa, qalpoq desa – qalpoqday.

Uni kiyib Matmusa, yigit bo‘ldi chaqmoqday.

[1] Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, 2016, 113–114-betlar.

O‘nta qo‘yga arziydi, yaraqlashi bir jahon.[1]

Ushbu she’rdagi o‘nta qo‘yga arziydi iborasi individual frazeologizm hisoblanib, o‘zbek xalqida “qo‘y” bilan bog‘liq frazeologizmlar ko‘p uchraydi. Jumladan, “qo‘yi mingga yetdi”, “ming qo‘yli boydek” kabi iboralarda so‘zning “boylik” semasi yaqqol ko‘rinadi. Qahramon qalpoqning bahosini juda yuqoriga ko‘taradi, qalpoq shunchalik qimmat va hatto qadrliki, Matmusaga o‘nta qo‘y taklif qilinsa ham, u qalpoqni tanlaydigandek.

Eslanmagan qishloqning itigacha qolmadi.

Maqtalmagan qalpoqning ipigacha qolmadi.

O‘zbek xalq frazeologizmlari ichida ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, ignasidan ipigacha kabi iboralar uchraydi. “Butun tafsiloti bilan, hech narsani qoldirmay, mayda-chuydasigacha, batafsil” ma’nosini ang-latadi. Shunday ma’noni ifodalovchi boshdan oyoq iborasi ham uchraydi. Bu yerda ushbu birikma ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Qalpoqning ipdan tikilishini nazarda tutganimizda uning o‘z ma’nosi, shunchalik batafsil gapirildiki, hatto qalpoqning ipigacha gapirildi degan ma’noda uning ko‘chma ma’nosi yuzaga keladi. Bu yerda shoirning badiiy mahorati namoyon bo‘lgan.

Matmusani shundan hech ko‘zga ilmas edilar.

Qo‘rqsalar ham undan, hech hurmat qilmas edilar.

Ko‘zga ilmaslik iborasi mensimaslik, bepisandlik bilan muomala qilish, arzigulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaslik kabi ma’nolarni anglatadi va nazariga ilmaslik kabi holatda ham uchraydi. Shoir ikkinchi misrada ushbu iboraning ta’rifini ham berib ketgan: hurmat qilmas edilar. Pisand qilmaslik, oyoq uchida ko‘rsatish iboralari ham shu ma’noda qo‘llanadi:

Pilla yorar kapalak, qil sug‘rilar xamirdan.

Lek Matmusa chiqolmas, o‘zi qurgan tandirdan.

Ushbu misrada shoir go‘zal o‘xshatish san’atidan foydalangan, kapalakning pilla yorib chiqishini, xuddi xamirdan qil sug‘urganday oson bo‘lishiga qiyoslamoqda. Ushbu ibora osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz ma’nolarini anglatadi:

Kessangizlar boshimni, men niyatga yetarman.

Boshim olib bu yerdan biror yoqqa ketarman.

Bosh olib ketmoq iborasi butunlay tashlab, qaytmas bo‘lib ketmoq ma’nolarida qo‘llanadi.[2] Ushbu frazeologizmga sinonim tarzida boshini olib chiqib ketmoq, izsiz ketmoq kabi iboralarni keltirishimiz mumkin. Bu ibora, odatda, biror inson o‘z oilasidan yoki o‘z xalqidan jabr-zulm ko‘rganda yoki ular tomonidan yerga urilganda, mensimay qo‘yilganda, ularga nafrat tuyg‘usi bilan yoki arazlab ketib qolishi kabi holatlar bo‘lganda qo‘llanadi. O‘zbek tilida bosh so‘zi qatnashgan iboralar juda ko‘p uchraydi. Boshga ko‘tarmoq, boshdan kechirmoq, boshidan oshib ketmoq, boshiga yetmoq, boshida yong‘oq chaqmoq, boshi ko‘kka yetmoq, boshini ikkita qilmoq va yana shu kabi ko‘plab frazeologizmlar bunga misol bo‘ladi.

Chiqdi, ko‘rdi, o‘qidi, kim aqldan ozibdi?

«Ehtiyot bo‘l, simyog‘och – bo‘yalgan», deb yozibdi.

Albatta, yangi kiyimlarni kiyib olib, bo‘yalgan simyog‘ochga tirmashib chiqib, “bo‘yalgan” deb yozilgan so‘zni o‘qigandan keyin inson aqldan ozishi, tabiiy hol. Jinni bo‘lmoq, telba bo‘lmoq kabi ma’nolarni ifodalovchi ushbu ibora insonning ichki dunyosiga, aqliy faoliyatiga xos. Aqlini yeb qo‘ymoq, aql-hushini yo‘qotmoq, esi og‘moq, esidan og‘moq kabi frzaeologizmlar ham shu ma’noda qo‘llanadi. Aqli kirmoq, aqlini tanimoq, esi kirmoq, esini tanimoq ushbu iboralarga nisbatan antonim sifatida qo‘llanadi.

Qat’iyatli – Matmusa, u og‘ziga so‘z oldi.

Uyga kelib sandiqdan paytavalik bo‘z oldi.

Qat’iyatli Matmusaning og‘ziga so‘z olishi uning gapirishni, shuningdek, va’da berishni anglatadi. Bu iboraga nisabatan og‘ziga oldi iborasi sinonim bo‘la oladi. Og‘ziga olmaslik, og‘ziga talqon solmoq kabilar antonim sifatida qo‘llanadi. Gapirish, so‘zlash, nutq iroda etish og‘iz bilan bog‘liq bo‘lgani uchun aynan shu frazeologizmlar yuzaga kelgan va nutqda turg‘un birikma sifatida o‘rin egallagan.

Depti: Rahmat, shaharlik – yaxshi cholg‘u beribdi,

Faqat bitta narsaga aqlim yetmay turibdi.

“Idrok qilmoq, uqmoq, bilmoq”[3] kabi ma’nolarni anglatuvchi aqli yetmoq iborasiga antonim sifatida qo‘llanadigan aqli yetmaslik iborasi insonning bilim salohiyatiga bog‘liqdir. Fahmi yetmaydi, fahm-fa-

[1] Эркин Воҳидов. Табассум. Тошкент, 2010, 6-бет.

[2] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, 1978, 51-бет.

[3] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, 1978, 29-бет.

rosati yetmaydi kabilar idrok qilolmaydigan, bilim salohiyati yuqori boʻlmagan insonlarga nisbatan aytiladi. Bir inson ikkinchi bir insonni haqorat qilishi uchun ushbu soʻzlarni qoʻllaydi va bundan haqorat qilayotgan insonning oʻzini katta olishi, qarshisidagi insonni mensimasligi anglashilib turadi. Ammo Matmusadek “aqlim yetmay turibdi” deb insonlar oʻzlariga nisbatan ham ishlatadi. Bunda inson xuddi sirli jumboqlarning oldida ojizdek koʻrsatadi oʻzini.

«*Ey xotin, sen eringga nodon gapni deb qo'yding.*

Nima bo'ldi? Yo qarib es-hushingni yeb qo'yding?

Oʻzbek xalqi mentalitetida ayol kishi oʻz erini hurmat qilishi, yuziga tik qaramasligi, gap qaytarmasligi va barcha aytganlarini qilishi kerak. Ayol kishining eriga nisbatan bunday muomalasi Islom dinida ham ta’kidlangan. Aql yuritib, Allohga iymon keltirgan insonlar Islom dini yoʻl-yoʻriqlariga amal qiladi, demak, ayol kishining eriga nodon gapni deyishi, oʻz diniga boʻysunmaslikni yoki es-hushini yeb qoʻyganligini anglatadi.

Matmusa shunday qilib, ko'kragini keribdi.

Erini dono bilib, xotin ham tan beribdi.

Matmusaning magʻrurligini, oʻzidan-oʻzi koʻngli toʻlib xursand boʻlganligini shoir koʻkragini keribdi deya izohlagan. Boshi osmonga yetdi, qoʻyi mingga yetdi, doʻppisini osmonga otdi, ogʻzi qulogʻiga yetdi kabi iboralar ham qisman sinonim sifatida ishlatiladi. Bunda aqlli ekanligiga hatto xotini ham tan bergan Matmusaning quvongani, xursand boʻlganini anglash mumkin. E’tirof qilishga majbur boʻlib, rozi boʻlib Matmusaning xotini ham tan beradi.

Yana mehnat, yuz kuncha ter to'kdilar bearmon.

Yozgi haykal bitguncha qish keldi-ku qahraton...

Mashaqqat bilan qattiq ishlagan, jismoniy mehnat qilgan Matmusaning hamqishloqlarini shoir ter toʻkdilar deya ta’riflamoqda. Peshana teri toʻkildi kabi holatda ham uchraydigan bu ibora oʻzi mehnat qilib, halol yoʻl bilan ishlab rizq topadigan inson ma’nosini ham bildiradi. Halol soʻziga esa peshana teri iborasini ham sinonim qilish mumkin

Endi qolma yo'lingdan, men bilan gap talashma,

Arzon deb bir adashding, boshqa sira adashma.

Oʻzbek tilida yoʻl soʻzi qatnashgan bir qancha frazeologizmlar mavjud. Ularning koʻpi ish soʻzi bilan bogʻliq va ushbu ibora ham ishingdan qolma, ishingni davom ettir yoki yoʻlingda davom et, bu yerdan joʻna kabi ma’nolarni ifodalaydi. Yoʻl bermoq, yoʻl qoʻymoq, yoʻlga chiqmoq, yoʻlga solmoq, yoʻldan ozmoq, yoʻl koʻrsatmoq, yoʻl olmoq kabi iboralarning tub ma’nosida ham ish-harakatga bogʻliq ma’nolar mavjud.[1]

Ayo do'stlar, adashgan bir mo'mindan kulmaylik.

Matmusadek o'zimiz tandir kiygan bo'lmaylik!

Ushbu misrada shoirning topqirona badiiy mahorati koʻzga tashlanadi. Matmusa tandirini kiyib olib, yoʻlni koʻrmay, yoʻlini yoʻqotadi va shoir buni Matmusadek tandir kiygan boʻlmaylik, ya’ni pand yeb qolmaylik deya tanbeh bermoqda. Bir ishni qilishdan avval aql yuritib, oxirini oʻylab ish qilmagan inson mehnatiga kuyib qolishi hech gap emas.

Bir necha soʻzlar bilan izohlashimizga toʻgʻri keladigan soʻzlar bor tilimizda, ularning muqobili sifatida nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi frazeologizmlardan foydalanamiz va ta’sirchan, qisqa, ma’noli nutq tuzishimizda iboralarning oʻrni katta.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Erkin Vohidovning ijodida uchraydigan iboralarning bir qismini izohlaganimizda, uning nafaqat qalami oʻtkir shoir, balki topqir, hazil-mutoyibaga moyil ijodkor ekanini anglaymiz. Tilimizning esa naqadar boy, goʻzal til ekanligini his etamiz. Shoir mana shunday imkoniyatdan, albatta, mohirona foydalangan desak, yanglishmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, 1978.

(2). Эркин Воҳидов. Табассум. Тошкент, 2010.

(3). Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, 2016.

(4). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, 5 жилдлик, ЎзМЭ, 2006–2008,

(5). Кузиев У.Я. About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek language and dictionaries). Научные исследования: теория, методика и практика. 2017, с. 281–286.

(6). Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.

[1] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, 1978, 121–123-бетлар.

Komilova Dildora Shavkatovna (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi)

ASARLARDA TILNING ODDIY VA BADIIY IFODALANISHIDA POETIK SAN’ATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada badiiy asar tilining o‘ziga xosligi va uning ijodiy jarayondagi ahamiyati yoritilgan. Badiiy til oddiy muloqot vositasidan farqli ravishda poetik obraz, milliy ruhiyat va estetik qadriyatlarni ifodalash qudratiga ega ekani ta’kidlanadi. Muhammad Yusuf, Latofat Bo‘riyeva, Abdulla Avloniy, Iroda Umarova kabi o‘zbek adiblari hamda A. Pope, T. Hood, S. Heaney, A.L. Tennyson, C. Rossetti, S. Armitage, D. Walcott, T. Harrison singari ingliz adabiyoti vakillarining asarlaridan olingan misollar asosida tilning tashxis va tashbeh san’atlari orqali obrazlashuvi tahlil qilingan. Tadqiqotda tilning jonlantirish, o‘xshatish, metafora kabi poetik vositalar yordamida badiiy darajaga ko‘tarilishi, shuningdek, nutq odobi, so‘zning mazmuniy qatlamlari va sukutning badiiy talqinlari ko‘rsatib berilgan. Xulosa o‘rnida, tilning badiiy obrazga aylanishi ijodkor mahorati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi asosiy estetik omil sifatida namoyon bo‘lishi qayd etilgan.olinadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy til, badiiy obraz, poetik vositalar, tashxis, tashbeh, metafora, nutq odobi, sukut talqini, milliy ruhiyat, estetik qadriyatlar, o‘zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti.*

РОЛЬ ПОЭТИЧЕСКИХ ИСКУССТВ В ПРОСТОМ И ХУДОЖЕСТВЕННОМ ВЫРАЖЕНИИ ЯЗЫКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация. *В статье рассматривается специфика художественного языка и его значение в процессе литературного творчества. Подчёркивается, что художественный язык, в отличие от обыденной речи, обладает способностью выражать поэтический образ, национальный дух и эстетические ценности. На примере произведений узбекских авторов (Мухаммад Юсуф, Латофат Буриева, Абдулла Авлоний, Ирода Умарова) и представителей английской литературы (А. Поп, Т. Ход, С. Хини, А. Л. Теннисон, К. Россетти, С. Армитидж, Д. Уолкотт, Т. Харрисон) показано функционирование художественных средств, таких как персонификация, сравнение и метафора. В исследовании выявлено, что посредством данных поэтических приёмов язык поднимается на художественный уровень, где особое внимание уделяется вопросам речевого этикета, смысловым слоям слова и художественным интерпретациям молчания. В заключении отмечается, что превращение языка в художественный образ напрямую связано с мастерством автора и выступает важнейшим эстетическим фактором, отражающим национальные и общечеловеческие ценности.*

Ключевые слова: *художественный язык, художественный образ, поэтические средства, персонификация, сравнение, метафора, речевой этикет, интерпретация молчания, национальный дух, эстетические ценности, узбекская литература, английская литература.*

THE ROLE OF POETIC ARTS IN THE SIMPLE AND ARTISTIC EXPRESSION OF LANGUAGE IN WORKS

Annotation. *The article examines the specific features of literary language and its role in the process of artistic creation. It is emphasized that, unlike everyday speech, literary language has the capacity to embody poetic imagery, national spirit, and aesthetic values. Drawing on the works of Uzbek writers (Muhammad Yusuf, Latofat Buriyeva, Abdulla Avloni, Iroda Umarova) and representatives of English literature (A. Pope, T. Hood, S. Heaney, A. L. Tennyson, C. Rossetti, S. Armitage, D. Walcott, T. Harrison), the study highlights the use of artistic devices such as personification, simile, and metaphor. The analysis shows that through these poetic means, language is elevated to an artistic level, where particular attention is given to speech etiquette, semantic depth, and the literary interpretation of silence. In conclusion, the transformation of language into an artistic image is shown to be closely linked with the writer’s mastery and is regarded as a key aesthetic factor that reflects both national and universal values.*

Keywords: *Literary language, artistic image, poetic devices, personification, simile, metaphor, speech etiquette, interpretation of silence, national spirit, aesthetic values, Uzbek literature, English literature*

Kirish. Adabiyot insoniyat tafakkuri, ruhiyati va estetik dunyoqarashini ifodalovchi eng qadimiy va beqiyos san’at turlaridan biridir. Har bir badiiy asarning ildizida til yotadi. Chunki til nafaqat voqelikni tasvirlash vositasi, balki ijodkor qalbi va ongida qayta yaratilgan badiiy olamni ifodalash qudratiga ham egadir. Shu boisdan badiiy asar tili oddiy muloqot vositasidan farqli o‘laroq, poetik obrazlar, xalqona ruhiyat, milliy qadriyatlar hamda estetik tafakkurni mujassamlashtiradi.

Badiiy til orqali millatning tarixi, urf-odatlari, psixologiyasi, madaniyati va ruhiy kechinmalari badiiy obrazlarda ifoda topadi. Ijodkorning mahorati esa ana shu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Tashxis, tashbeh, metafora kabi poetik vositalar badiiy tilni sayqallab, unga obrazlilik, ta'sirchanlik va estetik qiymat bag'ishlaydi. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz adabiyotidan namunalar tahlil qilinib, ularda tilning badiiy obraz sifatida talqin etilishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, nutq odobi, sukutning badiiy ma'nosi, so'zning mazmuniy qatlamlari va ularning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashdagi o'rni yoritiladi.

Ushbu maqolada tadqiqot masalalarini yoritishda taqqoshlash, tahlil va qiyosiy poetik metodlarga asoslanildi. Avvalo, badiiy tilning nazariy jihatlari, uning oddiy muloqot tilidan farqli o'ziga xos xususiyatlari ilmiy manbalar asosida o'rganildi. Keyinchalik o'zbek va ingliz adabiyotiga oid poetik namunalardan misollar tanlanib, ular lingvopoetik tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Deskriptiv metod – badiiy til vositalarini (tashxis, tashbeh, metafora va boshqalar) tavsiflashda qo'llanildi.

2. Qiyosiy metod – o'zbek va ingliz adabiyoti namunalarida tilning obrazlashuvi o'rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashda ishlatildi.

3. Semantik-tahliliy metod – poetik misralarda ishlatilgan so'z va birikmalarning mazmuniy qatlamlari ochib berildi.

4. Kontekstual yondashuv – misralar muallif ijodi, davr ruhiyati va milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda izohlandi.

Metodologik asos sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid nazariy manbalar, shuningdek, milliy va jahon adabiyotidagi poetik tahlil tajribalari qo'llanildi. Shu tariqa, maqolada tilning badiiy obraz sifatidagi talqinini ilmiy asosda izohlash, ijodkor mahoratining estetik ifodasini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Asosiy qism: Badiiy asar – juda murakkab qurilma. Uning yaratilishida yuzlab turli-tuman, ba'zan bir-biriga qarama-qarshi omillar o'zaro birlashadi. U o'zida muallifning til bilish va undan foydalanish mahoratini aks ettiradi. Shuning uchun kashfiyot darajasidagi yetuk badiiy asarlar uning tili orqali qabul qilinadi. Asar tili esa nafaqat yaratilgan davri, balki unda aks ettirilgan davr tilini uzoq masofadan turib ham namoyon etadi. Chunki har bir davrning o'z tili bor. Poetik xosliklarga ega badiiy til adabiy til hamda xalq tili imkoniyatlariga tayanadi. U ijodkor mahorati asosida sayqallangan, jilolantirilgan bo'ladi. Obrazlilik, tasviriylik, emotsionallik, tipiklashtirilganlik, xalqchillik, lakonizmga xos siqiqlik va aforizmga xos mazmundorlik uning asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Xususan, milliy shoir va yozuvchilar tomonidan yaratilgan badiiy asarlar tilida millat ruhiyatining nozik qirralari, psixik jarayonlar, ular tufayli yuzaga kelgan xatti-harakatlarning badiiy tasvirini ochishga xizmat qiluvchi milliy so'zlar – etnoglossalar muhim o'rin tutadi.

Rus olimi G.Vinokur badiiy til deganda, badiiy asarlarni yozishda ishlatiladigan til tushuniladi deb aytgan. Badiiy til esa badiiy muloqotning yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Unda har doim ham go'zal tashbehlar, badiiy ko'chim (istiora yoki metaforalar), tashxis-u tajnislar, ramzlar ishlatilgan, bezakdorlik, bo'yoqdorlik va jimjimadorlik bo'lavermasligi mumkin. Negaki, bu vositalarsiz ham ijodkor o'z fikrini o'quvchilarga ta'sirchan yetkazishi mumkin. Bunday tajriba til ta'rifi va til odobi aks ettirilgan asarlarda yanada ko'proq kuzatiladi. Masalan, Muhammad Yusuf ham tilga kelganini aytaverish, surishtirmay rost-yolg'onni gapiraverish, ayniqsa, o'tirib qolgan qizlarni "qariqiz" atab g'iybat qilish eng katta gunoh ekanligini bildirib, bu haqda o'ziga xos oddiy uslubda, bo'yoq-bezaklarsiz gapirib, nutq odobiga chorlaydi:

Tilga kelganini aytaveramiz,
Surishtirmay rostdir-yolg'ondir, biroq
Menimcha, dunyoda eng katta gunoh –
Qariqiz haqida g'iybat to'qimoq.

Shu shoirning "Ko'hna quduq" dostonidan olingan quyidagi parchada to'yda ichib olib, tilini tiyolmaydiganlar, ba'zi to'y "raislari"ning vaysaqiligi tanqid qilingan:

Qadahlar jaranglar, qahqaha yangrar,
(Tilni tiyolmaslik bunday payt yomon).
Kecha raisining esa jag'i tinmaydi,
Hamd-u sano aytib to'ymaydi.

“Ona tilim jon-u dilim” deya she’r yozgan Latofat Bo‘riyeva ham yuqoridagi kabi tilni ta’rif va tavsif aylaydigan satrlarni oddiy so‘zlar orqali tizgan. U o‘zbek tili haqida shunday deydi:

O‘zbegimning iftixori,

Til millatning nomus-ori.

Ko‘rinadiki, bu o‘rinda oddiy haqiqat bilan bog‘liq informatsiya kundalik muloqotda ishlatiluvchi tilda bayon etilgan. U xuddi kundalik muloqot paytida o‘zga odam (shoir) yetkazayotgan informatsiyani o‘quvchi tushuncha shaklida qabul qilishi, ammo shu jarayonda qabul qiluvchi ijodkorning his-tuyg‘ularini ham informatsiya shaklida o‘z tasavvuriga singdirishi ayonlashadi. Birinchi she’r misralarini o‘qiyotganda o‘quvchi ko‘z o‘ngida bee’tibor, vaysaqi, g‘iybatchi kimsalar, ikkinchisida esa sergap, jag‘i tinmas to‘y raisi qiyofasi jonlanadi.

Latofat Bo‘riyeva she’ridan keltirilgan bayt ham tilning xalq va millat hayotidagi o‘rnini baholovchi hayotiy tezisdan iborat.

Umumlashtirib aytganda, keltirilgan har uchala she’riy misollarda til unsurlari vositasida yaratilgan badiiy reallik mavjud. Badiiy reallik esa voqelikning oddiygina aksi emas, balki uning ijodkor qalbida, ong-u shuurida qayta yaratilgan aksi – til badiiy obrazidir. Bu obrazda esa ijod onlarida shoir qalbida kechgan his-tuyg‘ular, o‘y-fikrlar, poetik mushohada aks etadi. Misol keltirilgan she’riy misralarda ishlatilgan so‘zlar tilimizda oddiy muloqotda qo‘llanadigan odatiy so‘zlar bo‘lib, badiiy so‘z darajasiga o‘sib chiqmagan.

Ijodkorlar o‘z tasavvurida yaratgan “til” obrazi badiiy so‘z vositasida moddiylashadi. Uning moddiylashishida esa har xil poetik tasvir vositalari xizmat qiladi. Til tasviri va talqini, uni badiiy obraz darajasida aks ettirishda quyidagi til vositalari ishlatilganiga guvoh bo‘lish mumkin:

1. *Jonlantirish (tashxis) san’ati.* Abdulla Avloniyning quyidagi misralarida tilga jonli mavjudot sifatida murojaat qilingan. Shu asosda ona til ota-bobolardan meros aziz, qadrdon, ruh iltifoti, rahmon tuhfasi, tug‘diq, ulfat, jonu jahon, ilm-u adab o‘rgatuvchi chin adib va muallim, millat ruhi va shonu shavkatini ko‘taruvchi kuch, muqaddas karamli sulton sifatida madh etilgan:

Ey ona til, aziz qadrdonim,

Iltifoti ruhim, Rahmonim.

Tug‘dig‘im kundan aylading ulfat,

O‘lguncha ayilma, ey jonim.

Menga ilm-u adab san o‘rgatding,

Chin adib, muallim, shonim.

Millatning ruhini ko‘targuchisan,

Ey muqaddas karamli sultonim.

Alexander Pope o‘zining "An Essay on Criticism" asarida nutq odobi va mulohazakorlik haqida yozadi:

"Words are like leaves; and where they most abound,

Much fruit of sense beneath is rarely found.

False eloquence, like the prismatic glass,

Its gaudy colours spreads on every place.

Ushbu satrlarda shoir metaforadan mohirlik bilan foydalanadi. U so‘zlarni barglarga o‘xshatadi.

Ya’ni shoir barglar ko‘p bo‘lgani bilan ularning ostida har doim ham meva bo‘lavermasligini, xuddi ko‘p so‘z so‘zlangani bilan hammasi ham mazmunli bo‘la olmasligini o‘xshatib bera olgan.

Hood Thomas “Poems of Thomas Hood”da sukut, jim turish holatini jonlantirib: “Silence at the proper season is wisdom, and better than any speech”, “Silence often speaks louder than words” degan satrlarni keltiradi. Bu bilan u “O‘z vaqtida sukut saqlash – donolik va har qanday nutqdan yaxshiroqdir”, “Sukut ko‘pincha so‘zlardan balandroq gapiradi” deb ko‘rsatadi.

Tongue that ripens with words,

With each uttered sound you are shaped,

You form histories and pasts,

You taste of memories, faint and fast.

Ushbu misralarda so‘z bilan pishgan til, har bir aytilgan tovush bilan uning shakllanishi, so‘ngra tarix va o‘tmishni o‘zida shakllantirishi, keyin barchasi xotirada qolishi haqida fikr yuritilmoqda. Bunda tilga xuddi tirik insonga murojaat qilgandek, “you”, ya’ni “siz” ikkinchi shaxs kishilik olmoshi orqali fikr bildirilmoqda.

2. *O‘xshatish (tashbeh) san’ati.* Yusuf Xos Hojib tilni arslonga o‘xshatgan:

Til arslon turur, qafasda yotur,

Agar qafasdan chiqsa, bashingni yeyur.

Til madhiga bag‘ishlangan yana bir she’r Iroda Umarovaning “Ona tilim” she’ridir. Unda ona til yurak qatidan mehr bo‘lib sochilgan jarangga qiyoslangan. Ijodkor o‘zbek tilini o‘zbeklarday do‘ppi kiygan zotga o‘xshatgan:

Ona tilim – do‘ppi kiygan So‘z,

Doim yangi yo‘lcha-atlasi.

Bir satriga tashlasangiz ko‘z,

Tovlanadi ming-ming qirrasi.

Shoira bunday betakror o‘xshatishlar qatorida yana “Ona tilim – asalchoy ta’mli, bulbultalqin, muhabbatsheva” kabi sifatlashli birikmalarni taqdim etgan.

Alfred Lord Tennisonning she’riy asarlarida qayd qilinganidek:

Speech is silver, silence is golden.

Better to listen and ponder,

Than speak words which hearts may sunder.

Tarjimasi:

So‘z – kumush, sukut – oltindir.

Yuraklarni yorib yuboradigan so‘zlarni gapirishdan ko‘ra,

Eshitish va mulohaza qilish yaxshiroqdirepistolyar janrning voqealar zanjiri o‘zaro uzviy bog‘lanmaslik xususiyatidan kelib chiqib, asliyatga mos mazmunning uzviyligini ta’minlash tarjimondan tarixiy, etnografik, mafkuraviy, ma- daniy bilimlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli bilimga ega bo‘lishni va ba’zan o‘z ijodiga ijodiy tadqi- qotchilik bilan yondashishni talab etadi.

Rossetti Kristina “Goblin Market and Other Poems” (“Goblin bozori va boshqa she’rlar”)da sukutni fasllarga hamda oltin o‘qituvchiga o‘xshatgan. Uni oltin epiteti bilan sifatlagan:

To be silent, as the seasons,

Is to listen and to learn.

Silence is a golden teacher,

Through it, peace and wisdom burn .

Tarjimasi:

Tinglash va o‘rganish uchun,

Sukut saqlash kerak fasllar kabi.

Unda tinchlik va donolik yolqillanadi,

Chunki sukut – oltin o‘qituvchi kabi.

S.Armitage tilni kostyumga o‘xshatgan:

Say what you mean, but dress it well,

Language is a suit; we choose the fit .

Tarjimasi:

Nimani nazarda tutayotgan bo‘lsang, ayt, lekin chiroyli qilib ayt,

Til – bu kostyum, biz uning mosini tanlaymiz.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, badiiy til oddiy muloqot vositasi emas, balki xalq ruhiyati, milliy qadriyatlar va estetik tafakkurni mujassamlashtiruvchi san’atkorona hodisadir. Til orqali ijodkor voqelikni qayta yaratadi, uni poetik obraz darajasiga ko‘taradi. O‘zbek va ingliz adabiyotidan keltirilgan misollar shuni tasdiqlaydiki, tashxis, tashbeh, metafora kabi poetik vositalar tilni ta’sirchan va mazmundor qiladi. Demak, badiiy til – millat ruhi va umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi, ijodkor mahoratini namoyon etuvchi asosiy estetik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Pope A. An Essay on Criticism. – Oxford: Oxford World’s Classics, 1990. – Satir II.

(2). Hood T. Poems of Thomas Hood / Ed. by Alfred Ainger. – London: Macmillan and Co., 1897. – 92 p.

(3). Heaney S. Electric Light. – London: Faber & Faber, 2001. – 128 p.

(4). Heaney S. Seeing Things. – London: Faber & Faber, 1991. – 128 p.

(5). Tennyson A. L. The Poetical Works of Alfred Lord Tennyson. – London: Macmillan, 1898. – 110

(6). Rossetti C. Goblin Market and Other Poems. – London: Macmillan, 1862. – 82 p.
(7). Armitage S. Paper Aeroplanes. – London: Faber & Faber, 1991. – 128 p.
(8). Walcott D. The Arkansas Testament. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 1992. – 160 p.
(9). Harrison T. Collected Poems. – London: Penguin Books, 1995. – 400 p.
(10). Yusuf M. Ko‘hna quduq: Doston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1997. – 112 b.
(11). Bo‘riyeva L. Ona tilim jon-u dilim: She’rlar to‘plami. – Toshkent: Yozuvchi, 2005. – 96 b.
(12). Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 1992. – 160 b.
(13). Umarova I. Ona tilim: She’rlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 88 b.

Xodjayeva Dilnoza Kamilovna (Toshkent davlat transport universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

NUTQIY JANR AKS ETISHIDA INTRALINGVISTIK VA EKSTRALINGVISTIK HODISALAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutqiy janrlarni shakllantiruvchi intralingvistik (til tizimiga oid) va ekstralingvistik (ijtimoiy-madaniy va kommunikativ vaziyatga oid) hodisalar o‘rganiladi. Tilshunoslikda nutqiy janrlar nutqiy faoliyatning muayyan turi sifatida qaralib, unda tilning grammatik, leksik va uslubiy vositalari (intralingvistik omillar) bilan bir qatorda ijtimoiy muhit, milliy madaniyat, muloqot sharoiti va maqsad (ekstralingvistik omillar) ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda turli nutqiy janrlarning shakllanishi, ularning kommunikativ mazmuni va madaniyatlararo xususiyatlari tahlil qilinib, intralingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro ta’siri ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutqiy janr, intralingvistik hodisa, ekstralingvistik hodisa, muloqot, til tizimi, madaniy kontekst, kommunikativ vaziyat.*

Ходжаева Дилноза Камиловна (Ташкентского государственного университета транспорта)

ИНТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В ОТРАЖЕНИИ РЕЧЕВОГО ЖАНРА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются роль и взаимодействие интралингвистических (связанных с языковой системой) и экстралингвистических (связанных с социокультурным и коммуникативным контекстом) факторов в реализации речевых жанров. В лингвистике речевые жанры понимаются как особая форма речевой деятельности, в которой грамматические, лексические и стилистические средства (интралингвистические аспекты) взаимодействуют с социальной средой, национальной культурой, коммуникативной ситуацией и прагматическими целями (экстралингвистические аспекты). В исследовании анализируется формирование различных речевых жанров, их коммуникативное содержание и межкультурные особенности, акцентируется внимание на взаимосвязи интралингвистических и экстралингвистических явлений.*

Ключевые слова*: речевой жанр, интралингвистические факторы, экстралингвистические факторы, коммуникация, языковая система, культурный контекст, коммуникативная ситуация.*

Khodjaeva Dilnoza Kamilovna (Researcher at Tashkent State Transport University)

INTRALINGUISTIC AND EXTRALINGUISTIC PHENOMENA IN THE REFLECTION OF SPEECH GENRE

Annotation. *This article examines the role of intralinguistic (language system-related) and extralinguistic (socio-cultural and communicative context-related) factors in the realization of speech genres. In linguistic studies, speech genres are considered a specific form of speech activity, where grammatical, lexical, and stylistic means (intralinguistic aspects) interact with social environment, national culture, communicative situation, and pragmatic purposes (extralinguistic aspects). The research analyzes how various speech genres are shaped, their communicative meaning, and intercultural features, highlighting the interplay between intralinguistic and extralinguistic phenomena.*

Keywords*: speech genre, intralinguistic factors, extralinguistic factors, communication, language system, cultural context, communicative situation.*

Kirish. Tilshunoslikda nutqiy janrlar insoniy muloqotning asosiy shakllaridan biri sifatida alohida o‘rganiladi. Nutqiy janr – bu ma’lum ijtimoiy va kommunikativ vaziyatlarda shakllangan, muayyan maqsad va vazifaga xizmat qiluvchi nutqiy birliklar majmuasidir. Har qanday nutqiy janrning shakllanishida ikki turdagi omillar bevosita ta’sir ko‘rsatadi: intralingvistik va ekstralingvistik hodisalar.

Intralingvistik hodisalar til tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini – fonetik, leksik, grammatik va stilistik vositalarning qo‘llanishini qamrab oladi. Masalan, rasmiy nutq janrida standart iboralar va qat’iy grammatik tuzilmalar ishlatilsa, badiiy nutqda ko‘proq obrazli ifodalar va metaforik vositalar qo‘llanadi.

Ekstralingvistik hodisalar esa nutqning ijtimoiy-madaniy sharoitini, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeini, milliy an’analarini, madaniy qadriyatlarini hamda muloqotning maqsad va vaziyatini o‘z ichiga oladi. Masalan, bir xalqning milliy urf-odatlariga asoslangan nutqiy janr boshqa madaniyat vakillari uchun o‘ziga xos yangilik bo‘lishi mumkin.

Nutqiy janrlarning intralingvistik va ekstralingvistik jihatlarini birgalikda o‘rganish ularning mohiyatini to‘liq anglash, turli madaniyatlararo muloqotda to‘g‘ri talqin qilish va tarjima jarayonida ekvivalent variantlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu maqolada nutqiy janrlarning shakllanishida va ularning aks etishida til tizimiga oid vositalar hamda madaniy-ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy janr nazariyasi tilshunoslikda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jiddiy ilmiy tadqiqotlarga sabab bo‘ldi. Avvalo, M. Baxinning “nutqiy janrlar nazariyasi”ga oid g‘oyalari tilshunoslik va madaniyatshunoslikda keng muhokama qilindi. Baxin nutqiy janrlarni insonning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va madaniy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq hodisa sifatida talqin etadi. Uning qarashlariga ko‘ra, nutqiy janr faqat lingvistik birlik emas, balki kommunikativ jarayonning ijtimoiy-madaniy shaklidir.

Keyingi tadqiqotlarda, xususan, Yu.Lotman, T.van Deyk va J.Habermas ishlarida nutqiy jarayonlarning semiotik, pragmatik va sotsiologik qirralari keng yoritilgan. Bu olimlar nutqiy janrlarning shakllanishida ekstralingvistik omillarning — madaniy kontekst, muloqot sharoiti, auditoriya va ijtimoiy vazifalarning hal qiluvchi o‘rin tutishini ta’kidlaganlar.

Intralingvistik jihatlar haqida esa ko‘plab tilshunoslarning izlanishlarida fikr yuritilgan. Masalan, A.Vejbitskaya, E.Sapir va boshqa olimlar til tizimining fonetik, grammatik va leksik birliklari nutqiy janrlarni shakllantiruvchi asosiy vositalar ekanini ko‘rsatadilar. Ularning tadqiqotlarida nutqiy janrning shakli va mazmuni til vositalarining tanlanishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu masala qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. H. Doniyorov, A. Madvaliyev, N. Mahmudovlarning tadqiqotlarida nutq madaniyati, janrlarning shakllanishi va ularning intralingvistik hamda ekstralingvistik xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar bildirilgan. Xususan, o‘zbek nutqiy madaniyatida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy vaziyat nutqiy janrlarning o‘ziga xosligini belgilab beruvchi omil sifatida qayd etiladi.

Shuningdek, tarjimashunoslikdagi tadqiqotlarda ham nutqiy janrning turli tillarda qanday aks etishi o‘rganilgan. L.Venuti, S.Bassnett kabi olimlar nutqiy janrlarning tarjimada milliy madaniyatni ifodalashdagi ahamiyatini yoritganlar. Bu qarashlar maqolamiz mavzusi uchun muhim, chunki nutqiy janrlarning boshqa madaniyatlarda qanday qabul qilinishi intralingvistik va ekstralingvistik omillar uyg‘unligiga bog‘liqdir.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, nutqiy janrlarni tadqiq etishda ikki omil — til tizimiga oid (intralingvistik) va ijtimoiy-madaniy kontekstga oid (ekstralingvistik) hodisalarni kompleks holda o‘rganish zarur. Bu yondashuv nutqiy janrning mohiyatini to‘liq anglash va uni madaniyatlararo muloqotda to‘g‘ri talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, nutqiy janrlarning shakllanishi va mazmuni ikki asosiy omil – intralingvistik va ekstralingvistik hodisalar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, intralingvistik omillar nutqiy janrning lingvistik asosini tashkil qiladi. Grammatik tuzilmalar, leksik birliklar, uslubiy vositalar nutqning janrini aniqlashda bevosita ishtirok etadi. Masalan, rasmiy nutqda standart iboralar, qat’iy sintaktik qurilmalar, neytral leksika ustun bo‘lsa, badiiy janrlarda obrazli ifodalar, metaforalar va emotsional leksika ko‘proq uchraydi. Bu esa janrning ichki ko‘rinishini belgilaydi.

Ikkinchidan, ekstralingvistik omillar nutqiy janrni mazmun va vaziyat bilan bog‘laydi. Muloqotning maqsadi, ishtirokchilarning ijtimoiy mavqei, madaniy qadriyatlar va milliy an’analar nutqiy janrning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Masalan, bir xil grammatik shakldagi gap turli vaziyatlarda turlicha janrni ifodalashi mumkin: ilmiy maqoladagi qat’iy ta’rif va xalq og‘zaki nutqidagi izoh o‘zaro farq qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, nutqiy janrni to‘liq talqin qilish faqat intralingvistik vositalarni o‘rganish bilan cheklanmaydi. Chunki nutqiy birliklarning mazmuniy qirralari ularning ijtimoiy-madaniy konteksti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Xulosa. Yuqoridagi tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nutqiy janr fenomeni faqatgina lingvistik birlik sifatida emas, balki murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham qaralishi lozim. Nutqiy janrlarning shakllanishi intralingvistik (grammatika, leksika, uslub, fonetika kabi til vositalari) va ekstralingvistik (ijtimoiy vaziyat, milliy an’analar, muloqot maqsadi va madaniy kontekst) omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Intralingvistik hodisalar nutqiy janrning formal, tuzilmaviy asoslarini belgilab bersa, ekstralingvistik hodisalar uning mazmuni va funksional xususiyatlarini aniqlab beradi. Demak, nutqiy janrni to‘liq anglash uchun til tizimi bilan bir qatorda, uni shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy muhit ham e’tiborga olinishi shart.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, nutqiy janrlarning xilma-xilligi va boyligi xalqning madaniy merosi, tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, rasmiy nutq janrlari davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartib bilan, badiiy janrlar esa xalqning estetik tafakkuri va milliy qadriyatlari bilan uyg‘unlashadi. Shuningdek, nutqiy janrlarning boshqa madaniy muhitga ko‘chirilishi ularning intralingvistik shakli bilan birga ekstralingvistik mazmunini ham qayta talqin qilishni talab etadi.

Shu bois, nutqiy janrlarni o‘rganishda ikki yo‘nalish – lingvistik tahlil va madaniy-pragmatik tahlil – uyg‘unlashganda, ularning mohiyatini chuqurroq anglash mumkin bo‘ladi. Bu yondashuv nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya fanlari uchun ham dolzarb ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, nutqiy janr aks etishida intralingvistik va ekstralingvistik hodisalarni kompleks tarzda tahlil qilish xalq tilining o‘ziga xosligini, milliy ruhini va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini yanada ravshanroq ochib beradi hamda ularni madaniyatlararo muloqotda to‘g‘ri talqin qilish imkonini yaratadi.

Foydlanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Doniyorov H. Nutq madaniyati va uslubiyat masalalari. – Toshkent: Fan, 1988.
(2). Mahmudov N. O‘zbek tilining nazariy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 2002.
(3). Madvaliyev A. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2006.
(4). Abduazizov A. O‘zbek tilining nutqiy janrlari. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
(5). Montaigne, Halliday M. A. K. Language as Social Semiotic. – London: Edward Arnold, 1978.
(6). Bassnett S. *Translation Studies*. – London: Routledge, 2014.

Raxmonova Iroda (o‘qituvchisi; rahmonovairodaxon@gmail.com)

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLARNI O‘RGANISH BOSQICHLARI: NAZARIY, METODOLOGIK VA AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz tilshunosligida frazeologizmlarni o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, undagi frazeologik birliklarning lingvistik va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologiya tilshunoslikda nafaqat grammatik va semantik, balki madaniy va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq o‘ziga xos soha sifatida qaralib, mazkur tadqiqotda A.V.Kunin va Charles Balli kabi yetakchi olimlarning yondashuvlari, frazeologiyaning nazariy va amaliy ahamiyati keng yoritiladi. Zamonaviy lingvistika va korpus tadqiqotlari asosida frazeologik iboralarni o‘rganishning yangi usullari ko‘rib chiqilib, ularning xalq madaniyati va qadriyatlarini ifodalashdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, lingvistika, A.V.Kunin, Charles Balli, frazeologik birliklar, semantik tahlil, madaniy tadqiqotlar, korpus lingvistika, kognitiv lingvistika, psixolingvistika.*

Рахмонова Ирода (преподаватель кафедры “Иностранные языки” Ферганского государственного университета)

ЭТАПЫ ИЗУЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ, МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению фразеологизмов в англистике, в которой анализируются лингвистические и культурные особенности фразеологических единиц. Фразеология рассматривается как самостоятельная область в языкознании, связанная не только с граммати-ческими и семантическими, но и с культурными и когнитивными процессами. В данном исследова-нии широко освещаются подходы ведущих ученых, таких как А.В.Кунин и Чарльз Балли, а также теоретическое и практическое значение фразеологии. Рассматриваются новые методы исследо-вания фразеологических выражений на основе современной лингвистики и корпусных исследований, а также анализируется их роль в выражении народной культуры и ценностей.*

Ключевые слова: *фразеология, лингвистика, А.В.Кунин, Чарльз Балли, фразеологические единицы, семантический анализ, культурные исследования, корпусная лингвистика, когнитивная лингвистика, психолингвистика.*

Rakhmonova Iroda (Lecturer at the Department of Foreign Languages Fergana State University)

STAGES OF STUDYING PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH LINGUISTICS: THEORETICAL, METHODOLOGICAL, AND PRACTICAL FOUNDATIONS

Annotation. *This article is dedicated to the study of phraseologisms in English linguistics, analyzing the linguistic and cultural characteristics of phraseological units. Phraseology is considered a distinct field in linguistics, related not only to grammatical and semantic processes but also to cultural and cognitive processes. In this research, the approaches of leading scholars such as A.V.Kunin and Charles Bally are thoroughly discussed, along with the theoretical and practical significance of phraseology. New methods for studying phraseological expressions based on contemporary linguistics and corpus research are examined, and their role in expressing national culture and values is analyzed.*

Keywords: *Phraseology, linguistics, A.V.Kunin, Charles Bally, phraseological units, semantic analysis, cultural studies, corpus linguistics, cognitive linguistics, psycholinguistics.*

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning eng muhim va o‘ziga xos sohalaridan biri sifatida xalqning madaniy merosi va hayotiy qadriyatlarini aks ettiruvchi til birliklarini o‘rganadi. Ushbu soha nafaqat tilning ichki tizimiga, balki uning madaniy va ijtimoiy jarayonlar bilan aloqadorligiga ham e’tibor qaratadi. Frazeologiyaning nazariy asoslari rus tilshunosligi va g‘arbiy lingvistikaning yetakchi olimlari, jumladan, A.V. Kunin va Charles Balli tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular frazeologiyani ilmiy asoslash va tizimli tahlil qilishning muhim yo‘nalishlarini belgilab bergan. Bugungi kunda frazeologiya tilshunoslikning nafaqat lingvistik, balki kognitiv, madaniy va psixologik tahlil usullari bilan ham bog‘langan keng qamrovli sohaga aylangan. Frazeologiyaning zamonaviy rivojlanishi texnologik taraqqiyot va lingvistik korpuslarning joriy etilishi bilan yanada yangi bosqichga ko‘tarildi. Zamonaviy lingvistika frazeologik iboralarni nafaqat nutq kontekstida, balki xalqning madaniy qadriyatlari va tarixiy merosi orqali ham tahlil qilishga imkon beradi. Frazeologik birliklarning barqarorligi, semantik yaxlitligi va tarixiyligi ularning lingvistik ahamiyatini yanada orttiradi. Ingliz tilida frazeologiyaning o‘rganilishi esa xalqaro lingvistik va madaniy aloqalarni rivojlantirishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Frazeologiya tilshunoslikda muhim soha hisoblanib, u xalq madaniyati va qadriyatlarini ifodalovchi iboralar orqali til boyligini o‘rganadi. Frazeologiya rivojlanishi XIX asrdan boshlab tezlashgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u lingvistik va madaniy tahlilning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Frazeologiya atamasi, dastlab, rus tilshunosi Aleksandr Potebnya tomonidan taklif qilingan bo‘lib, bu soha keyinchalik tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida rivojlandi. Ingliz tilida esa frazeologik iboralarni o‘rganish XX asr boshida faol boshlangan. Britaniya va Amerika tilshunoslari frazeologiyani semantik tahlil qilishga asoslangan tadqiqotlar olib borishgan. Ingliz tilida frazeologik iboralarni o‘rganish XIX asr oxiri va XX asr boshida rivojlangan bo‘lib, quyidagi olimlar bu sohada asosiy tadqiqotlarni amalga oshirgan:

1. Charles Balli – frazeologik iboralarning emotsional va ekspressiv xususiyatlarini o‘rgangan.
2. John R.Firt – frazeologiyaning kontekstual tahlilini kiritgan, u iboralarning ma’nosini faqat ularning kontekstdagi o‘rnida tushunish mumkinligini ta’kidlagan.
3. A.V.Kunin – ingliz tilidagi frazeologiyaning tizimli tahlilini amalga oshirgan va iboralarni turkumlashtirish modelini ishlab chiqqan.
4. Raymond W.Gibbs – frazeologik iboralarni kognitiv yondashuv asosida o‘rganib, metafora va iboralarning psixologik ahamiyatini ta’kidlagan.

Tahlil va natijalar. A.V.Kunin rus va ingliz tilshunosligida frazeologiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan olimdir. U frazeologiyani lingvistika doirasida alohida soha sifatida shakllantirgan va uning tizimli tahlilini amalga oshirgan. A.V.Kuninning frazeologik tasnifi amaliy tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi. Uning frazeologik birliklarni tasniflash tizimi semantik izlanishlarda katta ahamiyatga ega. Masalan, idiomalar va frazeologik birikmalarning barqarorlik va tarixiylik xususiyatlari zamonaviy korpus lingvistikasida keng o‘rganilmoqda. Kunin frazeologik iboralarni quyidagicha tasniflagan:

– frazeologik birliklar (idiomalar): bu iboralar semantik jihatdan yaxlit bo‘lib, ularning umumiy ma’nosi tarkibiy qismlarining ma’nosidan farq qiladi. Masalan, “to kick the bucket” (o‘lmoq);

– frazeologik birikmalar: ular tarkibiy qismlardan birining ma’nosini saqlagan, lekin umumiy ma’nosi kontekstdan kelib chiqadigan iboralar. Masalan, “to make a decision” (qaror qabul qilmoq);

– frazeologik so‘z birikmalari: grammatik va semantik jihatdan erkinroq bo‘lgan iboralar. Masalan, “as clear as day” (juda aniq va ravon). U frazeologiyaning quyidagi xususiyatlariga e’tibor qaratgan:

– barqarorlik: frazeologik iboralar o‘zining grammatik va leksik tarkibini o‘zgartirmaydi;

– semantik yaxlitlik: iboraning ma’nosi tarkibiy qismlarining ma’nosidan butunlay farq qiladi.

– tarixiylik: frazeologik iboralar, ko‘pincha, tarixiy manbalarga asoslangan. Masalan, 'to spill the beans” (sirni oshkor qilish) qadimiy ingliz urf-odatlariga borib taqaladi. Kuninning ishlari frazeologiyani tahlil qilishda nafaqat lingvistik, balki madaniy yondashuvning ham ahamiyatini ko‘rsatib bergan. Uning “English Phraseology” kitobi frazeologiya bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarning poydevori hisoblanadi. U frazeologik iboralarni semantik tahlil qilish va ularning kontekstual o‘rnini aniqlashda yetakchi yo‘nalishlarni belgilab bergan.

Xulosa. Frazeologiya tilshunoslikda tilning boyligini va xalqning madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi asosiy sohalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada frazeologiyaning tarixiy ildizlari, A.V.Kunin va Charlz Ballining ilmiy qarashlari, shuningdek, zamonaviy kognitiv va korpus lingvistikasi asosidagi tadqiqotlar batafsil ko‘rib chiqildi. Frazeologik iboralar semantik yaxlitlik va barqarorlik xususiyatlariga ega bo‘lib, ular nafaqat lingvistik, balki psixologik va sotsiologik ahamiyatga ham ega. Mazkur tadqiqot frazeologik birliklarni lingvistik jihatdan o‘rganishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt va korpus lingvistikasi, frazeologik iboralarni chuqurroq tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Frazeologiyaning lingvistik va madaniy tadqiqotlarda tutgan o‘rni xalqaro muloqot va madaniyatlararo almashinuvni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Самарқанд, 2007, 4–23-бетлар.

(2). Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Филол. фанл. докт... дисс. автореф., Тошкент, 2000, 50-бет.

(3). Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Номзодлик диссертацияси. Москва, 1952, 93–94-бетлар.

(4). Умарходжаев М.И. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря. Автореферат дисс.на соис.учен.кан.фил.наук, Москва, 1972, 4-бет.

(5). Кунин А.В. Фразеология современного английского языка: опыт систематизированного описания. М., “Международные отношения”, 2011.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda jamiyatda kulgi-hajvga bo‘lgan munosabat juda ijobiy.Bu yerda yoshlar o‘z fikrini tezlik bilan ayta olishi, o‘zligini namoyon qilish maqsadida media vositalari, ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanayotganini ko‘rish mumkin. Yoshlarni shunday chiqishlar internet ijtimoiy tarmoqlari bo‘lmish You tube, Tik tok, Odnoklasniki va hokozolardan tarqalmoqda. Ushbu ijtimoiy tarmoqdagi xabarlar, ko‘rsatuvlar ayrim hollarda ijobiy natijalarga olib kelsa, ayrim paytlari juda salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Demak, demokratik tafakkur ham ma’lum qonunlar va nizomlar bilan tartibga olinishi zarur ekan. Kulgi va hajvga oshufta bo‘lgan bugungi yoshlar kulgi va hajv nima ekanini anglashi, hajviylik kategoriyasini puxta o‘rganishi, shaxsning huquqlari, daxlsizligini anglagan holda faoliyat olib borsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Jamiyat hozirgi holatida “hajv, kulgi madaniy va dam olish faoliyati doirasidan tashqariga chiqib bormoqda. Inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib bordi va ijtimoiy muno-

sabatlarning turli subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning o‘ziga xos vositasiga aylandi” [4]. Demak, kulgi-hajvni zamonaviy jamiyatda kundalik hayotning asosiy unsuri deb hisoblash mumkin.

Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda shaxs estetik tafakkurida tanqidiylikni shakllantirishda kulgi-hajv sa’nati ahamiyatining parmanent xususiyatlarni aniqlash maqsadida 2025-yil fevral-mart oylarida Samarqand viloyati musiqa va drama teatri xodimlari O‘zbekiston - Filandiya pedagogika instituti San’atshunoslik fakulteti va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakultetlari 2–3-bosqich talabalari o‘rtasida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazdik. So‘rovnomada aynan tadqiq etiladigan mavzuni aynan tushunadigan ta’lim yo‘nalish talabalari qamrab olindi.

Respondentlarga “*Hajviylikning qaysi janri sizga ma’qul deb o‘ylaysiz?* degan savolga quyidagicha javob berishgan: 283 ta respondent “Menga farqi yo‘q” deb javob bergan. 69 ta respondent “Yumor janri ma’qul deb hisoblashgan. 46 ta respondent “Satira” deb javob berdi. Respondentning fikricha, jamiyatdagi salbiy holatlar, ijtimoiy illatlar, kishilardagi kamchiliklarni yuzaga chiqarish orqali kulgu uyg‘otish, mas-xaralash orqali fosh etishdir. Jamiyat hayoti rivojiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy voqea, hodisalarni tanqid qi-lish, fosh etish va rad etishda satira janri alohida mavqeni egallaydi. Hajviylik janrining ko‘plab qiziqarli turlari mavjud. Men uchun, masalan, satira va parodiya juda qiziqarli. Ular orqali jamiyatdagi muammolar-ni, odatlarni va inson xulq-atvorini kulgili tarzda tanqid qilish mumkinligi haqida ta’kitlab o‘tgan.

Kulgi-hajv san’atida eng ko‘p uchraydigan mavzular qaysilar deb o‘ylaysiz? degan savolga quyidagicha javob berishgan: 304 ta respondent 59% “Kundalik hayot voqealari – ko‘ngil qiyshiqligi, ichi qoralik, ko‘rolmaslik, poraxo‘rlik illatlarini yo‘qotish uchun zarur va katta ahamiyatga ega”, 82 ta respondent 16% siyosiy masalalarda deb javob berishmoqda, 77 ta respondent “Ijtimoiy masalalarda” deb javob berishgan. Respondentlarning fikricha, kulgi–hajv san’ati – bu hayotdagi turli hodisalarni, ijtimoiy muammolarni va insonlararo munosabatlarni kulgili tarzda ifodalovchi san’at turi. Ushbu san’at shakli ko‘pincha komediya, parodiya va satira elementlarini o‘z ichiga oladi. *Siz kulgi-hajv san’atining qaysi aspektlarini eng foydali deb bilasiz?* degan savol berildi. Respondentlardan 273 tasi (54%) “Jamiyatdagi muhim muammolarni ko‘rsatib berish deyishsa”, 101 tasi (20%) “Murakkab masalalarni soddalashtirib berishi” deb ta’kidlashgan, 78 tasi (16%) “Qiyinchiliklarga yumor bilan yondashish” deyishsa, 58 tasi (11%) “Jamiyatda muloqotni faollashtirishi” deb javob berishgan.

Kulgi va so‘z ustalaridan kimlarni chiqishlarini tomosha qilasiz? degan savolga respondentlar 290 tasi (57%) “Avaz Oxun”, 133 tasi (26%) “Million guruhini”, 85 tasi (16%) Hojiboy Tojiboyev chiqishlarini tamosha qilshlari haqida ta’kidlagan.

Kulgi–hajv san’ati yoshlarni qanday ijtimoiy faollikka undaydi deb o‘ylaysiz? degan savolga respondentlar 195 tasi (38%) Ijtimoiy muammolarni hal qilishga qiziqish uyg‘otadi deb javob berishsa, 130 tasi (26%) “Ijtimoiy-siyosiy faollikka undaydi” deb ta’kitlashgan, 127 tasi (25%) madaniy tadbirlarga qatnashishga undaydashi haqida o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. *Kulgi–hajv san’ati yoshlar orasida qanday muloqot madaniyatini shakllantiradi?*degan savolga respondentlar 312 tasi (61%) “Ochiq va erkin muloqot qilish uchun zamin yaratadi” deyishsa, 117 tasi (23 %) “Tanqidiy muloqot fikrlashga undaydi” deb javob berishgan, 80 tasi (16 %) “Satirik muloqotlarni amalga oshiradi” deb javob berishgan.

*Kulgi–hajv san’ati yoshlarning ma’naviy qadriyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?*degan savolga respondentlar 270 tasi (53%) “Ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, qadriyatlarni boyitadi” deyishsa, 125 (26%) bilmasligi haqida ta’kitlagan, 113 tasi (22%) “Salbiy ta’sir ko‘rsatadi, qadriyatlarni zaiflashtiradi deb javob bergan. *Kulg–-hajv san’atida sizni eng ko‘p nima bezovta qiladi?*degan savolga respondentlar 224 tasi (44%) “Hech nima, hamma narsa ma’qul” deb javob berisgan bo‘lisa, 140 tasi (27%) ”Mavzularning chuqur emasligi” deb javob berishgan, 117 tasi (24 %) ”Siyosiy korrektlikning yo‘qligi” deb o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan.

*Kulgi–hajv san’ati orqali kishilarda qanday ijtimoiy o‘zgarishlarni ko‘rishni istardingiz?*degan savolga respondentlar 168 tasi (32%) “O‘zaro hurmat va tushunishni oshirish deb javob bergan”, 160 tasi (31%) Ijtimoiy adolatga bo‘lgan diqqatni kuchaytirishiga zamin yaratadi deb javob bergan, 128 tasi (26%) “Jamiyatga bo‘lgan befarqlikni kamaytirishi” haqida ta’kidlashgan.

“Hajv, kulgi kishilarni tanqidga ijobiy munosabatini shakllantiradimi?” degan savolga respondentlar ijtimoiy dinamizm, kishilararo munosabatda tanqidiy munosabatni keltirib chiqaradi, kishilarni tana tuzilishi yoki kiyim boshlaridagi assimetrik buzilishlarda, nomutanosib muhitni to‘g‘irlanishga asos bo‘ladi deyishgan. Jamiyatda kulgi–hajvning sanksiyalash vazifasi mavjudligi tufayli insonlar odob-axloq chegaralarini mastahkam saqlaydilar va o‘z atrofidagilarni ham shunga chaqiradilar. Ya’ni “*birinchidan*, bu “shaxsiy men” ijtimoiylashuvining o‘ziga xos turi sifatida aks etadi; *ikkinchidan*, kulgi obyektini tarbiyalash, uni

ma’naviyatini isloh qilish sifatida, *uchinchidan*, kishini barcha yomon illatlardan, nomaqbul ishlardan, axloqsizliklardan to‘xtatib qoluvchi vosita sifatida” [5]. e’tirof etiladi.

Etnomadaniy o‘ziga xoslik, milliy paradigmalarning xususiyatiga ko‘ra demokratik tafakkurni milliy mentalitet tarkibiga kiritish juda uzoq davom etadigan evolyusion jarayondir. Milliy-etnik o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi mentalitet xalqni yashovchanligini, moslashuvchanligini bildirsa, ayrim paytlarda demokratik tamoyillariga salbiy munosabat bildirishi mumkin. Olima Sh.O.Madayevaning fikricha, “... demokratik tafakkur insonning davlat, siyosat, sotsial institutlar faoliyatiga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jamiyatning adolat, tenglik, ozodlik kabi demokratik tamoyillar va tushunchalarini anglagan holda yondoshish, ularga shu nuqtayi nazardan baho bera olish qobilyati, bu jarayonlarni anglash va hayot kechirishga asos bo‘ladigan dunyoqarashdir” [6]. Shu fikrni rivojlantirib aytish mumkinki, hajviylik ham insonni tafakkur erkinligini, kreativ fikrlashga konstitusiaviy yo‘l ochiqligini, chin ma’noda ozodligini namoyon qiluvchi o‘ziga xos dunyoqarash turidir.

Xulosa. Hajv–kulgi jamiyatda ijtimoiy muammolarni, axloqiy illatlarni kamaytiruvchi, ijtimoiy kasalliklarni “emlovchi” vosita bo‘lib, uning asosida demokratik tafakkur yotadi.

Birinchidan, tanlangan kulgili mavzu milliy mentalitet va qadriyatlardan unchalik ham chetga chiqmasligi kerak. Aks holda, chet el kulgi ustalari hajv ob’yektiga aylangan ijtimoiy-intim mavzulariga qorishib ketadi. Ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilmagan har qanday kulgi asari bu demokratiyani namoyishi emas; *ikkinchidan,* hajv va kulgi yoshlarni hozirjavobligini, ijtimoiy muammolarga chidamli, g‘ayratli, talabchan, adolatparvar qilib tarbiyalamog‘i zarur; *uchinchidan,* hajviylik turlarini rivojlanishi yoshlar tafakkurida konsrtuktiv yechimni shakllantirishi, o‘z fikrida izchillikni rivojlantirishi, fikr, g‘oyalarini mantiqiiy bayon eta olish qobiliyatini o‘sganligi bilan baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Борев Ю. Комическое. Искусство. М., 1970, с. 11.

(2). Борев, Ю.Б. Эстетика. -М., “Высш. шк.”, 2002, с. 56.

(3). Тарутина Е.И. Обыденное сознание, его когнитивный и ценностный аспекты. “Вестник Амурского государственного университета”, 2010, № 50.

(4). Сычев А.А. Природа смеха или философия комического. Саранск, Изд-во Мордов. ун-та, 2003, 176 с.

(5). Мадаева Ш.О. Миллий менталитет ва демократик тафаккур. Тошкент, 2007, 109-бет.

(6). Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. Т., “Маънавият”, 2007, 130–131-бетлар.

(7. M.Muxtorova. O‘zbek badiiy kinosida komediya janr dessrtasiyasi aftareferatidan, 2024, 16-bet.

Xamrabayeva Shirin Alisherovna (Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi)

XIX ASR BOSHIDAGI INGLIZ AYOL ROMANCHILIGIDA ESTETIK QARASHLAR VA IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLAR VA TARJIMA JARAYONLARINING XRONOLOGIYASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada XIX asr boshidagi ingliz ayol romanchiligida estetik qarashlarning shakllanishi, ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda ushbu asarlarning tarjima jarayonlari tahlil qilinadi. Bu davr ingliz adabiyotida xotin-qizlarning ijodiy faoliyati sezilarli darajada kuchaygan, roman janri orqali estetik ideal, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy tenglik masalalari ilgari surilgan davr sifatida alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotda Jeyn Ostin, Ann Radklif, Meri Shelley kabi yozuvchilarning asarlarida estetik qarashlar va ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning uyg‘unligi, ularning o‘zbek tiliga tarjima qilinish jarayonlari va bu jarayonning xronologik bosqichlari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *Ingliz romanchiligi, XIX asr, ayol yozuvchilar, estetika, ijtimoiy-falsafiy asoslar, tarjima jarayoni, xronologiya, Jeyn Ostin, Meri Shelley, Ann Radklif.*

AESTHETIC VIEWS AND SOCIAL-PHILOSOPHICAL BASIS IN EARLY XIX-CENTURY ENGLISH WOMEN'S NOVEL AND CHRONOLOGY OF TRANSLATION PROCESSES

Abstract. *This article explores the development of aesthetic views in early nineteenth-century English women’s novels, their socio-philosophical foundations, and the chronology of their translation processes. The period is significant in English literature for the rise of female creativity, where the novel became a medium to express aesthetic ideals, moral values, and issues of social equality. The study examines the works of Jane Austen, Ann Radcliffe, and Mary Shelley, highlighting the interplay of aesthetic and philosophical concepts, as well as the chronological stages of their translation into Uzbek. Special attention is given to the ways in which aesthetic tone, social context, and national values are conveyed in the translated texts.*

***Keywords**:English novel, nineteenth century, women writers, aesthetics, socio-philosophical foundations, translation process, chronology, Jane Austen, Mary Shelley, Ann Radcliffe.*

ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ АНГЛИЙСКОГО ЖЕНСКОГО РОМАНА НАЧАЛА XIX ВЕКА И ХРОНОЛОГИЯ ПРОЦЕССОВ ПЕРЕВОДА

***Аннотация**. В данной статье рассматривается формирование эстетических взглядов в английском женском романе начала XIX века, их социально-философские основы, а также хронология процессов перевода. Этот период имеет особое значение в английской литературе как время активного творческого участия женщин, когда роман стал средством выражения эстетического идеала, моральных ценностей и идей социальной равноправности. В исследовании анализируются произведения Джейн Остин, Анн Радклиф и Мэри Шелли, выявляется взаимодействие эстетических и философских идей, а также хронологические этапы их перевода на узбекский язык. Особое внимание уделяется отражению эстетического тона, социального контекста и национальных ценностей в переводных текстах.*

***Ключевые слова**: английский роман, XIX век, женщины-писательницы, эстетика, социально-философские основы, процесс перевода, хронология, Джейн Остин, Мэри Шелли, Анн Радклиф.*

Kirish. XIX asr boshlarida ingliz adabiyotida ayol yozuvchilarning romanchilik faoliyati sezilarli darajada kuchaydi. Bu davrda roman janri nafaqat badiiy-estetik tajriba maydoni, balki ijtimoiy va falsafiy qarashlarni ifodalash vositasi sifatida ham muhim o‘rin egalladi. Ayniqsa, ayol yozuvchilar roman orqali jamiyatdagi gender tengsizliklarini, axloqiy qadriyatlarni, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat masalalarini badiiy shaklda ko‘tarib chiqdilar.

Jeyn Ostin, Ann Radklif, Meri Shelley kabi yozuvchilarning romanlari nafaqat ingliz romanchiligining estetik tamoyillarini boyitdi, balki o‘z davri jamiyatining falsafiy va ijtimoiy asoslarini ham yoritib berdi. Ostinning realistik uslubi, Radklifning gotik romanlari va Shelley asarlaridagi falsafiy-ijtimoiy muammolar XIX asr boshidagi ingliz romanchiligini yangicha bosqichga olib chiqdi. Bu asarlarda insoniy munosabatlar, axloqiy me’yorlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar badiiy-estetik darajada chuqur tahlil qilindi.

Mazkur romanlarning boshqa tillarga, xususan, o‘zbek tiliga tarjima qilinishi jarayonida ularning estetik ohangi va ijtimoiy-falsafiy qatlamlarini to‘liq saqlash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi. Tarjimalar xronologiyasini o‘rganish orqali ingliz ayol romanchiligining o‘zbek adabiy jarayoniga kirib kelishi, milliy o‘quvchi didiga qanday moslashtirilgani va estetik hamda falsafiy g‘oyalarning qay darajada to‘liq aks etgani haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u ingliz ayol yozuvchilarining XIX asr boshidagi estetik qarashlari, ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda tarjimalarining xronologik tahlili orqali adabiy jarayonlarning xalqaro miqyosdagi o‘zaro aloqalarini yoritishga qaratilgan.

XIX asr boshidagi ingliz ayol romanchiligi estetik qarashlari va ijtimoiy-falsafiy asoslarini o‘rganishda turli adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur adabiyotlarning tahlili uch yo‘nalishda olib borilishi mumkin: klassik manbalar, zamonaviy tadqiqotlar va tarjima jarayoniga oid ishlanmalar.

Asosiy qism. Ingliz ayol romanchiligini shakllantirgan asosiy yozuvchilardan Jeyn Ostin, Ann Radklif va Meri Shelleylarning asarlari o‘z davrida ham, keyingi davrlarda ham keng ilmiy o‘rganilgan. Jeyn Ostinning Pride and Prejudice (1813), Sense and Sensibility (1811) romanlari o‘zbek va boshqa tillarga ham tarjima qilingan bo‘lib, ularda realistik estetik qarashlar, ijtimoiy tenglik va axloqiy qadriyatlarning ifodasi markazda turadi. Ann Radklifning gotik romanlari (xususan, The Mysteries of Udolpho, 1794) romantik estetikani, qo‘rquv va hissiy tajriba asosidagi estetik tushunchalarni yoritadi. Meri Shellyning Frankenstein (1818) romani esa falsafiy-estetik yondashuvda inson, ilm-fan va jamiyat o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni aks ettiradi.

XIX asr ayol yozuvchilarining estetik va falsafiy qarashlari zamonaviy adabiyotshunoslikda feministik nazariya, ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar va madaniy kontekst asosida keng tahlil qilinmoqda. Masalan, Sandra Gilbert va Susan Gubar o‘zlarining The Madwoman in the Attic (1979) asarida ingliz ayol yozuvchilarning adabiyotdagi o‘rnini, ularning estetik hamda gender tafakkurini yoritib berganlar. Shuningdek, Terry Eagleton, Elaine Showalter kabi adabiyotshunoslar ingliz romanchiligida estetik va ijtimoiy-falsafiy asoslarni talqin qilganlar. Ingliz ayol romanchiligi asarlarining turli tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga tarjimalari ham adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida tarjima jarayoni masalalari Oybek, G‘afur G‘ulom, B. Qosimov va N. Niyozmetov kabi olimlar tadqiqotlarida yoritilgan. Tarjima jarayonining xronologiyasi ingliz romanchiligi asarlarining qaysi davrlarda va qanday uslublarda o‘zbek tiliga kirib kelganini ko‘rsatadi. Bu esa milliy o‘quvchining estetik va falsafiy qarashlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, XIX asr boshidagi ingliz ayol romanchiligi estetik qarashlari va ijtimoiy-falsafiy asoslarini anglash uchun nafaqat asliyatdagi badiiy matnlar, balki zamonaviy ilmiy-nazariy tadqiqotlar hamda tarjima jarayoniga oid manbalar kompleks tarzda o‘rganilishi zarur.

Asosiy qism. XIX asr boshidagi ingliz romanchiligi, xususan, ayol yozuvchilar ijodi ingliz adabiyotining yangi bosqichini belgiladi. Bu davrda roman janri nafaqat badiiy shakl sifatida, balki jamiyatning estetik va ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalash vositasi sifatida ham shakllandi. Ayniqsa, Jeyn Ostin, Ann Radklif va Meri Shellylarning romanlari o‘ziga xos estetik tamoyillar, ijtimoiy masalalarga yondashuv hamda shaxsiy erkinlik va axloqiy qadriyatlarni badiiy ifodalashda alohida o‘rin tutdi.

Ayol romanchiligi asarlarida estetik qarashlar ko‘proq realistik va romantik oqimlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Jeyn Ostinning romanlarida realistik estetik tamoyillar hukmron bo‘lib, unda kundalik hayot, jamiyatdagi urf-odatlar, insoniy munosabatlar va axloqiy me’yorlar aniq va nozik tasvirlangan. Uning romanlarida estetik ideal – bu insonning axloqiy tozaligi, jamiyatga foydali bo‘lishi va shaxsiy baxtini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishdir.

Ann Radklif esa o‘zining gotik romanlari orqali romantik estetikani rivojlantirdi. Uning asarlarida qo‘rquv, sirli manzaralar, hissiyotlar kuchli dramatik tusda beriladi. Bu estetik yo‘nalish o‘quvchini hissiy jihatdan hayajonga solish va inson qalbidagi ichki kechinmalarni ochib berishga qaratilgan. Meri Shelly esa o‘zining mashhur *Frankenstein* romanida estetik qarashlarni falsafiy muammolar bilan uyg‘unlashtirdi. Uning estetik idealida insoniylik, ilm-fan va axloqiy mas’uliyat o‘rtasidagi ziddiyatlar markaziy o‘rinni egallaydi.

Ayol romanchiligining ijtimoiy-falsafiy mohiyati ko‘proq jamiyatdagi gender tengsizliklari, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy adolat muammolari bilan bog‘liqdir. Jeyn Ostin romanlarida jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish, xotin-qizlarning ijtimoiy mavqei, oila va axloqiy qadriyatlar markaziy mavzuga aylangan. Radklif asarlarida esa inson erkinligi, qo‘rquv va hissiy kechinmalarning ijtimoiy ildizlari tahlil qilinadi. Meri Shelly falsafiy qarashlarida insonning ilmiy faoliyati va uning jamiyat oldidagi mas’uliyati masalalari chuqur yoritiladi. Ayniqsa, *Frankenstein* romanida ijtimoiy-falsafiy asos sifatida “insoniyatning ilm-fan oldidagi axloqiy javobgarligi” g‘oyasi ilgari suriladi.

XIX asr ayol romanchiligiga mansub asarlar keyinchalik turli tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham tarjima qilina boshlandi. Tarjima jarayonining xronologiyasi ingliz romanchiligi namunalarining milliy adabiyotga kirib kelish bosqichlarini ko‘rsatadi. Dastlab, Jeyn Ostin asarlari rus tili orqali o‘zbek kitobxoniga yetib kelgan, keyinchalik bevosita ingliz tilidan ham tarjima qilingan. Meri Shellyning *Frankenstein* romani esa ko‘proq XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tarjima jarayoniga kirib kelgan. Tarjimalar orqali ingliz ayol romanchiligining estetik qarashlari, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalari milliy adabiy jarayonga singdirilgan. Tarjimalarda ayrim hollarda asliyatdagi estetik ohang va falsafiy qatlamlar soddalashtirilgan bo‘lsa-da, umumiy g‘oya va asosiy mazmun o‘zbek kitobxoni ongiga yetkazilgan. Shu bilan birga, milliy tilning poetik vositalari tarjima jarayonida qo‘llanilib, asarlarning milliy ohangdorligi ham ta’minlangan.

Umumiy jihatdan, asosiy qism tahlillari shuni ko‘rsatadiki, XIX asr boshidagi ingliz ayol romanchiligi estetik va falsafiy jihatdan boy meros qoldirgan. Tarjima jarayonlari esa ushbu merosning xalqaro miqyosda tarqalishi va milliy adabiy jarayonlarga ta’sirini ta’minlagan.

Tahlillar qismi. XIX asr boshidagi ingliz ayol romanchiligi ingliz adabiyotida yangi estetik bosqichni boshlab berdi. Bu davrda roman janri ayol yozuvchilar ijodida nafaqat badiiy shakl sifatida, balki jamiyatdagi estetik qarashlarni, axloqiy qadriyatlarni va ijtimoiy-falsafiy muammolarni ifodalash vositasi sifatida ham namoyon bo‘ldi. Jeyn Ostin, Ann Radklif va Meri Shelly romanlari shu davr adabiy jarayonining yuksak namunalari hisoblanib, ular orqali estetik ideal, axloqiy mas’uliyat, shaxsiy erkinlik va ilm-fan oldidagi javobgarlik kabi muammolar badiiy talqinda yoritildi.

Jeyn Ostin o‘z romanlarida realistik estetik qarashlarni ilgari surib, kundalik hayot manzaralari, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy me’yorlarni nozik tarzda tasvirlagan. Uning asarlarida estetik ideal insoniy munosabatlardagi samimiyat, axloqiy poklik va jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashgan shaxsiy baxt orqali ifodalab, Ann Radklif gotik romanlari orqali romantik estetikaning o‘ziga xos ko‘rinishini yaratdi.

Unda qo‘rquv, sirli muhit va dramatik hissiyotlar estetik ta’sir vositasi sifatida qo‘llanib, o‘quvchining ruhiy kechinmalarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Meri Shelly esa *Frankenstein* romanida estetik qarashlarni falsafiy asoslar bilan uyg‘unlashtirib, ilm-fan, axloqiy mas’uliyat va insoniyat taqdiri kabi muammolarni badiiy shaklda yoritdi. Uning asarida go‘zallik va qo‘rquv, insoniylik va halokat bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilib, o‘quvchi chuqur estetik va falsafiy mulohazaga chorlanadi.

Ijtimoiy-falsafiy asoslar tahlili shuni ko‘rsatadiki, XIX asr ayol romanchiligi jamiyatdagi tengsizlik, axloqiy mas’uliyat va shaxs erkinligi kabi masalalarni ko‘tarib chiqdi. Jeyn Ostin asarlarida ayollarning ijtimoiy mavqei, nikoh institutiga oid qarashlar va jamiyatdagi tabaqalanish muammolari asosiy o‘rinda turadi. Ann Radklif ijodida insonning hissiy erkinligi va qo‘rquv fenomeni falsafiy asos sifatida ochib berilgan. Meri Shelly romanlarida esa insoniyatning ilm-fan oldidagi axloqiy mas’uliyati va ilmiy tajribalar oqibatlari ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida talqin qilingan.

Tarjima jarayonining tahlili esa ushbu romanlarning boshqa tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga qanday kirib kelganini ko‘rsatadi. Dastlab Jeyn Ostin va Meri Shelly asarlari rus tili orqali o‘zbek kitobxoni uchun tanish bo‘lgan. Bu jarayonda ayrim estetik qatlamlar soddalashtirilgan bo‘lsa-da, asosiy g‘oya saqlangan. Keyinchalik bevosita ingliz tilidan qilingan tarjimalar natijasida asarlardagi estetik ohang va falsafiy qatlam yanada to‘liqroq o‘zbek kitobxoniga yetkazilgan. Tarjima jarayonida muammolardan biri – asliyatdagi kinoya, dramatik ohang va poetik vositalarning to‘liq ekvivalentini yaratishdir. Shu bois tarjimonlar ko‘pincha ijodiy moslashtirish va madaniy ekvivalentlik strategiyalariga murojaat qilganlar.

Umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ingliz ayol romanchiligining estetik qarashlari va ijtimoiy-falsafiy asoslari bir-birini to‘ldirib, XIX asr boshidagi adabiy jarayonni boyitgan. Tarjima jarayonlari esa bu boylikning boshqa xalqlar, jumladan, o‘zbek kitobxoni ongiga yetib borishida vositachilik qilgan. Shu orqali ingliz ayol romanchiligi nafaqat ingliz adabiyotida, balki jahon adabiy jarayonida ham muhim o‘rin egallagan.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, XIX asr boshidagi ingliz ayol romanchiligi adabiy jarayonning alohida bosqichi bo‘lib, u nafaqat badiiy-estetik tajriba, balki jamiyatdagi falsafiy va ijtimoiy masalalarning badiiy talqinini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Jeyn Ostin, Ann Radklif va Meri Shelly romanlari orqali estetik ideal, shaxsiy erkinlik, axloqiy mas’uliyat va ilm-fan oldidagi javobgarlik kabi masalalar o‘quvchi ongiga chuqur singdirilgan.

Ayol romanchiligida estetik qarashlar jamiyatdagi hayotiy manzaralarni nozik tasvirlash, his-tuyg‘ular dramatizmi va falsafiy mushohada uyg‘otish orqali amalga oshgan. Ularning ijtimoiy-falsafiy asoslari esa o‘z davrida jamiyatdagi ayolning o‘rni, insoniy munosabatlardagi tengsizliklar, ilmiy taraqqiyot oqibatlari kabi dolzarb muammolarni ochib bergan.

Tarjima jarayonlari esa ushbu asarlarning estetik va falsafiy qatlamlarini boshqa xalqlarga, jumladan, o‘zbek kitobxoni ongiga yetkazishda vositachilik qilgan. Dastlabki tarjimalarda ayrim qatlamlar soddalashtirilgan bo‘lsa-da, keyinchalik amalga oshirilgan bevosita tarjimalar orqali asarlar mazmuni, badiiy uslubi va estetik ohangi yanada to‘liqroq qabul qilinish imkoniyati yuzaga kelgan. Tarjimonlarning ijodiy yondashuvi natijasida milliy kitobxonga ingliz romanchiligining o‘ziga xos estetik va falsafiy jihatlari yangicha talqinda yetib borgan.

Umuman olganda, XIX asr boshidagi ingliz ayol romanchiligi estetik qarashlar va ijtimoiy-falsafiy asoslarning uyg‘unligi orqali jahon adabiyotida mustahkam o‘rin egallagan. Ularning tarjima jarayonlari esa madaniyatlararo muloqot, estetik qadriyatlar almashinuvi va milliy adabiyotimiz rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hol ingliz ayol romanchiligini o‘rganish va tarjima jarayonlarini tahlil qilishni nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham dolzarb vazifa sifatida belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Xamrabayeva Shirin Alisherovna. (2025). Viktoriya davri ayollar romanlarining estetik qarashlari tarjima jarayonlarining tahlili.. Ilm-fan xabarnomasi. Science bulletin. Вестник науки. OAK. Volume 7, issue, May 2025. 824-828.

(2).Austen J. Pride and Prejudice. – London: T. Egerton, 1813.

(3). Shelley M. Frankenstein, or the Modern Prometheus. – London: Lackington, Hughes, Harding, Mavor & Jones, 1818.

(4).Radcliffe A. The Mysteries of Udolpho. – London: G. G. and J. Robinson, 1794.

(5).Gilbert S. M., & Gubar, S. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. – New Haven: Yale University Press, 1979.

(6). Qosimov B. Adabiyot va estetik tafakkur. – Toshkent: Fan, 2008.

(7). E.Ochilov . Tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari. – Toshkent: Universitet, 2012

Sobirova Go`zaloy Asqar qizi (Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi)

CHINGIZ AYTMATOVNING "ASRGA TATIGULIK KUN" ASARIDA MILLIY IDENTIKLIK YORITILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asarida madaniyatga singdirilgan tilning o‘rni o‘rganilib, iboralar, mifologik havolalar va ramziy iboralar sovet hukmronligi davrida Markaziy Osiyo o‘ziga xosligini saqlab qolish vositasi bo‘lib xizmat qilgani ta’kidlanadi. Yozuvchi romanni sinchkovlik bilan o‘qish orqali qahramonlarni madaniy muhitda ildiz otishi, mafkuraviy assimilyatsiyaga qarshi turishi, an’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi psixologik ziddiyatni aks ettirish uchun til va folklor unsurlaridan qanday foydalanganini ko‘rib chiqadi.*

***Kalit so`zlar:*** *Madaniy o‘ziga xoslik, milliy identiklik, folklor, ramziylik, tilni saqlash, an`ana va zamonaviylik, etnolingvistika.*

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В РОМАНЕ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА « ДОЛЬШЕ ВЕКА ДЛИТСЯ ДЕНЬ»

Аннотация. *В данной статье рассматривается роль культурного языка в произведении Чингиза Айтматова "Дольше века длится день" и подчеркивается, как словосочетания, мифологические ссылки и символические выражения служили средством сохранения центральноазиатской идентичности в период советской власти. Внимательно прочитав роман, автор исследует корни персонажей в культурной среде, их сопротивление идеологической ассимиляции и использование языковых и фольклорных элементов для отражения психологического конфликта между традицией и современностью.*

Ключевые слова: *Культурная идентичность, национальная идентичность, фольклор, символизм, сохранение языка, традиция и современность, этнолингвистика.*

THE REPRESENTATION OF NATIONAL IDENTITY IN CHINGIZ AITMATOV’S “THE DAY LASTS MORE THAN HUNDRED YEARS”

Annotation. *This article examines the role of the culture-embedded language in Chingiz Aitmatov's "The day lasts more than hundred years" and highlights how phrases, mythological references, and symbolic expressions served as a means of preserving Central Asian identity during the period of Soviet rule. Through a careful reading of the novel, the author examines the roots of the characters in the cultural environment, their resistance to ideological assimilation, and the use of language and folklore elements to reflect the psychological conflict between tradition and modernity.*

Key words: *Cultural identity, national identity, folklore, symbolism, preservation of language, tradition and modernity, ethnolinguistics.*

Kirish. Chingiz Aytmatov – nafaqat qirg‘iz, balki butun turkiy adabiyotning yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, uning asarlari falsafiy teranligi, badiiy ifodaviy kuchi va milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgani bois jahon miqyosida e’tirof etilgan. Adibning mashhur romanlaridan biri – *“Asrga tatigulik kun”* (1980) milliy identiklik, madaniy xotira va global o‘zgarishlar sharoitida xalqning ma’naviy-ruhiy qiyofasini badiiy tasvirlash borasida alohida o‘rin tutadi.

Mazkur asarda milliy identiklik faqat qahramonlarning taqdiri yoki milliy ranglar orqali emas, balki ramziy obrazlar, folkloriy motivlar va tarixiy ishoralar orqali yoritiladi. Roman qahramoni Yedigey timsolida turkiy xalqlarning ona zamin bilan bog‘liqligi, o‘z ildizlariga sadoqati va shu bilan birga zamonaviylikning, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning inson taqdiriga ko‘rsatgan ta’siri namoyon bo‘ladi.

Asardagi eng muhim ramziy qatlamlardan biri – “mankurt” afsonasidir. U milliy xotiraning yo‘qolishi, madaniy ildizlardan uzilish va xalqning o‘z o‘zligidan begonalashish xavfini ifodalaydi. Bu orqali Aytmatov milliy identiklikni asrab-avaylashning naqadar muhimligini, uni yo‘qotish esa xalqning ma’naviy halokatiga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. *“Asrga tatigulik kun”* romani milliy identiklikning badiiy ifodasini nafaqat turkiy xalqlar kontekstida, balki umuminsoniy qadriyatlar darajasida ham ochib beradi. Mazkur mavzuni tadqiq etish adabiyotning madaniy xotira va milliy o‘zlikni saqlashdagi o‘rni, milliy qadriyatlarning global jarayonlarda tutgan o‘rnini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Asosiy qism. Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asari sovet davri adabiyotining shoh asari bo‘lib, u siyosiy kontekstdan chiqib, madaniy o‘ziga xoslik, xotira haqidagi chuqur mulohazaga aylanadi. Qozog‘istonning bepoyon dashtlarida bo‘lib o‘tgan romanda til faqat hikoya qilish vositasi sifatida emas, balki turkiy xalqlar merosini saqlash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Aytmatov iboralar, mifologik havolalar va madaniyatga singdirilgan so`zlar orqali milliy o‘ziga xoslik adabiy makonini yaratadi.

Roman qahramoni Edigey temiryo‘lchi bo‘lib, uning hayoti O‘rta Osiyo zamini va urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liq. Uning nutqi dafn marosimlari, ma’naviy e’tiqodlar va ajdodlar xotirasiga ishoralarga boy. Bu ifodalar bezak emas - ular uning fe’l-atvori va u yashaydigan dunyoni tushunish uchun juda muhimdir. Jozef Mozur ta’kidlaganidek, Aytmatovning madaniy o‘ziga xos tildan foydalanishi "mafkuraviy bir xillikning sovetcha yondashuviga qarshi nuqta bo‘lib xizmat qiladi." Masalan, Edigeyning o‘z do‘sti Kazangapni an’anaviy marosimlarga ko‘ra dafn etishni talab qilishi shunchaki shaxsiy motam emas, balki madaniy vorisiylikning ramziy ifodasidir. Uning tili og‘zaki an’analar asosida shakllangan dunyoqarashni aks ettiradi, bunda so‘zlar tarix va e’tiqod yukini anglatib turadi.

Romanning eng yorqin elementlaridan biri manqurt haqidagi afsona - o‘zligini unutish va so‘zsiz xizmat qilish uchun qiynoqqa solingan odamdir. Asar syujetiga singdirilgan bu mif sovet hokimiyati davridagi madaniy yo‘qotishlarning kuchli allegoriyasi vazifasini bajaradi. Manqurt atamasining o‘zi yo‘qotilgan meros va ko‘r-ko‘rona itoatkorlik ramzi sifatida postsovet nutqi leksikasiga kirdi. Aytmatovning bu afsonani qayta hikoya qilishi til jihatidan boy bo‘lib, turkiy xalqlar og‘zaki eposining konsepti va tuzilishiga tayanadi. Hikoya shunchaki aytilmaydi - ajdodlar xotirasini uyg‘otadigan til orqali ijro etiladi. Ateş va So‘ylemez ta’kidlaganidek, manqurt "milliy o‘ziga xoslikni yo‘q qilish va madaniy amneziyaning psixologik oqibatlari" uchun metafora bo‘lib xizmat qiladi.

Makon va til: Dashtlar madaniy matn sifatida

Qozoq cho‘li shunchaki makon emas, balki o‘ziga xos xarakterdir. Aytmatovning Sario‘zak, Bo‘ronli tutashmasi, Sharq-G‘arb poyezdlari haqidagi ta’riflari ramziy ma’noga ega. Manzara madaniy o‘ziga xoslik tasvirlangan polotnoga aylanadi. "Poyezdlar Sharqdan G`arbga va G‘arbdan Sharqqa tomon yo`l oladi" kabi iboralarning takrorlanishi qahramonlar va ularning madaniyati duch keladigan g‘oyaviy chorrahalarni ta’kidlaydi. Geografiyaning bu lingvistik ramkasi yer va o‘ziga xoslik o‘rtasidagi chuqur aloqani aks ettiradi. Dasht faqat qahramonlar yashaydigan joy emas, balki ularning tarixi, afsonalari va tili yashaydigan joy. Braun va Lassin ta’kidlaganidek, Aytmatov ushbu hududdan "sovet hayotining yakkalanishi va ma’naviy o`zlikni yo`qotishni ta’kidlash" uchun foydalanadi, shu bilan birga an’anaviy madaniyatning ildizlarini eslatadi.

Tahlillar. Etnik xilma-xillikni bostirishga intilgan tuzumda Aytmatovning madaniy o‘ziga xos tildan foydalanishi qarshilik ko‘rsatish aktiga aylanadi. U rus tilidagi romaniga turkiy iboralar, islomiy havolalar va mifologik motivlarni singdirish orqali sovet mafkurasining birxillashtiruvchi kuchlariga qarshi chiqadi. Uning qahramonlari assimilyatsiyaga bo‘ysunmaydigan tarzda gapiradi, bu orqali yo‘qolishi mumkin bo‘lgan lingvistik merosni saqlab qoladi. Bu qarshilik nozik, ammo chuqur. U oshkora siyosiy bayonotlar orqali emas, balki madaniy xotiraning sokin barqarorligi orqali ifodalanadi. Har bir maqol, har bir marosim iborasi, har bir qayta aytilgan afsona unutishdan bosh tortishdir.

Aytmatov ekologik degradatsiyani - masalan, Orol dengizining qurishi va radioaktiv yog‘ingarchilikni madaniy xotiraning yemirilishi bilan bog‘laydi. Yerning vayron bo‘lishi o‘zlikni yo‘q qilish bilan parallel bo‘lib, Markaziy Osiyo kosmologiyasida tabiat va madaniyat bir-biriga bog‘liq degan g‘oyani mustahkamlaydi. Bu ekologik o‘lchov romanning madaniy tanqidiga dolzarblik bag‘ishlaydi. Xayoliy kosmik stansiya bo‘lgan Er sayyorasini ekspluatatsiya qilish Yer va uning mahalliy madaniyatlarini ekspluatatsiya qilishni aks ettiradi.

Chingiz Aytmatovning *“Asrga tatigulik kun”* romani milliy identiklikni badiiy va falsafiy darajada yoritishda o‘ziga xos asar hisoblanadi. Unda turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlari o‘ziga xos badiiy vositalar orqali tasvirlanadi. Romanning asosiy tahliliy yo‘nalishlari quyidagilar bilan bog‘liq: qahramon obrazi, folkloriy qatlam, tarixiy va falsafiy kontekst, milliy identiklik va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi.

Asarning bosh qahramoni Yedigey turkiy xalqlar hayot falsafasining, ularning madaniy ildizlari va ma’naviy olamining yorqin ifodasidir. Yedigey timsolida insonning ona yerga, xalqning madaniy ildizlariga bo‘lgan sadoqati aks ettiriladi. U o‘z hayot yo‘li, mehnati va ruhiy iztiroblari orqali milliy o‘zlikni ifodalovchi ramzga aylanadi.

Romanda milliy identiklikni ifodalashda folkloriy motivlar katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, “mankurt” afsonasi xalq xotirasining yo‘qolishi va milliy ildizlardan uzilishning timsoliga aylanadi. Bu afsona Aytmatov ijodida milliy identiklikni asrab qolishning naqadar muhimligini, o‘z tarixidan va tilidan ajralgan xalqning ma’naviy halok bo‘lishi mumkinligini teran falsafiy mazmunda ochib beradi.

Xulosa. Chingiz Aytmatovning *“Asrga tatigulik kun”* romani milliy identiklik masalasini badiiy-falsafiy darajada yoritgan yirik adabiy asarlardan biridir. Unda turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlari zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fonida talqin etiladi.

Asar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy identiklik faqatgina til, urf-odat yoki ramzlar orqali emas, balki insonning ichki dunyosi, madaniy xotira va tarixiy ong orqali ham shakllanadi. Yedigey timsolida xalqning o‘z o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishi, ona zamin va ajdodlar merosiga sadoqati yuksak badiiy vositalar bilan ifodalangan.

"Asrga tatigulik kun" - bu tilning o‘ziga xoslikni saqlab qolish qudratining isbotidir. Aytmatovning romani shunchaki hikoya emas - bu madaniy arxiv, xotira va ma’no ombori. Milliy o‘ziga xoslik iboralari, ifodalari va afsonalaridan mohirona foydalanish orqali u o‘quvchilarga zamonaviylik va milliylik, turli mafkura va bosimlarga qaramay milliy adabiyotini saqlab qolgan turkiy xalqlar qalbini ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aytmatov, Chingiz. Asrga tatigulik kun. Tarjima: Asil Rashidov. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.

(2). Ateş, O‘. F., & So‘ylemez, O. (2022). Abish va Aytmatov manqurtlari: milliy o‘zlikni yo‘qotishmi yoki aqldan ozish? Marmara Türkiyat Araştırmaları Dergisi.

(3). Brown, K., & Lassin, J. (2021). Asrga tatigulik kun: kontekst va muhokama mavzulari. Melikian Center Reading Group.

(4). Mozur, J. (1987). "Manqurt qalpog‘i"ni yechish: Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asari va turkiy xalqlar milliy merosi. The Carl Beck Papers in Russian and Eastern European Studies.

(5). Sobirova Go`zaloy Asqarovna (2025). Nazariya va amaliyotda tarjima usullari: Qiyosiy sharh. BDU Ilmiy axboroti № 6, iyun, 54-57-bet.

Usmonova Oydin Sherali qizi (Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti; oydinusmonova66@gmail.com)

“MASNAVIY” BOG‘CHASIDAN BIR KO‘ZA SUV

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahonga mashhur Jaloliddin Rumiy hazratlarining mukammal asari hisoblanmish “Masnaviyi ma’naviy” asari, unda keltirilgan mashhur fikrlar, hikoyalar va ulardan kelib chiqadigan xulosalar, iqtiboslarga muallif tomonidan to‘laqonli sharh berib o‘tilgan. Ushbu sharhlar ta’-lim-tarbiyaviy jihatdan berilgan.*

Kalit so‘zlar: *masnaviy, tasavvuf, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, tanqidiy fikrlash, ilm-irfon birligi, mavlaviya tariqati.*

Усмонова Ойдин Шерали кизи (Базовый докторант (PhD) Бухарского государственного педагогического института)

КУВШИН С ВОДОЙ ИЗ САДА «МАСНАВИ»

Аннотация. *Три статьи представляют собой исчерпывающий комментарий к всемирно известному произведению великого поэта Джалалуддина Руми «Маснавий Ма'навий», его знаменитым статьям, рассказам и произведениям, созданным на их основе. Комментарии носят образовательный характер.*

Ключевые слова: *маснави, суфизм, интеллектуальное образование, нравственное воспитание, критическое мышление, единство знаний, орден Мавлавия.*

Usmonova Oydin Sherali qizi (Basic doctoral student (PhD) of Bukhara State Pedagogical Institute)

A PITCHER OF WATER FROM THE MASNAVI GARDEN

Annotation. *This article provides a comprehensive commentary by the author on the world-famous work of the great poet Jalaluddin Rumi, “Masnaviy Ma’naviy”, the famous thoughts, stories, and conclusions and quotations contained in it. These comments are given from an educational perspective.*

Keywords: *masnavi, Sufism, intellectual education, moral education, critical thinking, unity of knowledge, Mawlawi order.*

Kirish. Jaloliddin Rumiy… Bu ismni eshitgandayoq har bir inson, ilm ahli egalarining qalbining tub-tubigacha to‘lqinlanadi. Bu ismda otashin muhabbat, ilohiy ishqning go‘zal ko‘rinishi, cheksiz ilm, ma’naviy barkamollik, ma’rifat yo‘lidagi izlanishlar ko‘z oldimizda gavdalanadi. Oradan shuncha yil o‘tgan bo‘lsa-da, Mavlononing barakali ijodi, sermazmun hayoti, ilmiy-adabiy merosi hanuzgacha ilmiy izlanuvchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Shoirning adabiy merosi quyidagilar:

▪“Devoni Kabir”, “Devoni Shamsi tabriziy”, “Devoni shamsul haqoyiq” degan nomlar bilan mashhur devon, g‘azal va ruboiylardan iborat.

▪“Masnaviyi ma’naviy”–25700 baytdan iborat bebaho tasavvufiy-ishqiy asar. So‘nggi yillarda taniqli o‘zbek shoiri Jamol Kamol tomonidam I–II jildlari, shoir Asqar Mahkam tomonidan I jildi o‘zbek tilida nashr etildi.

▪“Fiyhi ma fiyhi” (“Ichingdagi ichingdadir”)–Mavlononing suhbatlaridan iborat falsafiy kitob. 1998-yilda Toshkentda o‘zbek tilida nashr etildi.

▪“Mavoizi majolisi sab’a” – bu asar Rumiyning yetti o‘git va pand-nasihatlaridan iborat.

▪ “Maktubot”–Mavlononing turli davrlarda zamondoshlariga yozgan maktublaridan tashkil topgan to‘plam.

Jaloliddin Rumiy ijodi yuksak badiiyati bilangina emas, balki mantiq kuchi, falsafiy fikrlarga boyligi bilan ham katta ta’sir quvvatiga ega. Taniqli olim Radiy Fish so‘zlari bilan aytganda, shoirning mavhum mantiqiy kategoriyalarda emas, balki otashin shoirona timsollar vositasida talqin etilgan tabiat va jamiyat hodisalarining doimiy o‘sish, o‘zgarishda ekani, eskining yo‘qolib, yangining paydo bo‘lishi – dunyoning ziddiyatlar birligidagi ziddiyatlar jangidan iboratligi to‘g‘risidagi qarashlari buyuk nemis faylasufi Gegel e’tiroficha, unta dialektik metod yaratishga yordam bergan.

Jaloliddin Rumiy ijodi usmonli turk adabiyotining sarchashmasi hisoblanadi. Zero, shoirning millati – turk, kelib chiqishi – xorazmlik. Uning buvisi Aloviddin Muhammad Xorazmshohning qizi bo‘lgan. Mavlono tavallud topgan Balx shahri u davrda Xorazmshohlar davlatiga qarar edi. Hozirda Afg‘oniston hududida bo‘lgan bu qadimiy va dongdor shahar, aslida, uzoq asrlar mobaynida Turon mulkining mashhur shaharlaridan biri sanalib kelgan. Rumiy asarlarida otashin ishq kuylangan bo‘lib, haqqa erishmoqga ishq yo‘li bilan bormoqlikni afzal ko‘rgan va mashhur mavlaviya tariqatiga asos solgan. Rumiyning vafotidan so‘ngra, taxminan, 1300-yillarda uning izdoshlari, ya’ni, shogirdi Husameddin Chelebiy, o‘g‘li Sulton Valad va Arif Chelebiy tomonidan Turkiyaning Konya viloyatida tashkil etilgan. Dastlab, Eron va Turkiyada faol bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik esa Usmonli imperiyasida gullab-yashnagan va butun musulmon o‘lkalarida tarqalgan.

Ushbu tariqatning asosiy prinsipi – Ollohga tavhid ila yuzlanish, Rumiy hazratlarining asarlarini chuqur o‘rganib tatbiq etish (ayniqsa, “Masnaviyi ma’naviy asarini mukammal o‘rganib, shaxsiy fikrlarini bildirish, sharhlash). Bu tariqatning muhim marosimlaridan biri sema bo‘lib, uning asosiy maqsadi–insonni ruhiy o‘sish orqali yetuklik va Alloh bilan birdamlikka yetkazish, ego (nafs) o‘limi va qayta tug‘ilish ramzi bo‘lib xizmat qiladi.

Rumiyning asarlarida ham aynan shuni ilg‘ashimiz mumkin: ilohiy ishq ila haqqa yetmoqlik, insonlarga yaxshi munosabatta bo‘lmoqlik, sabr-matonat bilan hayot qiyinchiliklarini yengmoqlik, ilm o‘rganmoqlik va o‘rgatmoqlik kabi fazilatlar asarlarida ufurib turadi. “Masnaviy”ning asosiy mazmuni insonning ruhiy kamolotiga, Alloh sevgisiga, nafsni yengishga va ma’rifat yo‘lida taraqqiyotga qaratilgan. Har bir jildda Rumiy turli hikoyatlar, afsonalar, Qur’on voqealari va hayotiy misollar orqali chuqur falsafiy va axloqiy g‘oyalarni bayon etadi. Asarning boshidan oxirigacha aqliy va axloqiy tarbiyaga asoslangan fikrlar, nazariyalarga ko‘zimiz tushadi. Shu sababli ham Hazratning eng qimmatli asari sifatida qaraladi va hali hanuzgacha “Masnaviy”ni butun dunyo o‘rganmoqda. Asarda shoir tomonidan ko‘plab tashbeh, ramziy obrazlar, qahramonlar, allegoriyalar va rivoyatlar-u hikoyatlar keltirilgan. Mavzuga mos qo‘llanilgan tarixiy qahramonlar, obrazlardan unumli foydalanilgan va asarning poetik jozibasini yanada mukammallashtirgan.

Rumiy didaktik uslubda, ammo juda chuqur poetik ifoda bilan o‘z g‘oyalarini bayon qiladi. Har bir hikoya orqali saboq, ruhiy xulosa va ma’rifiy ma’no chiqariladi. Eng qizig‘i shundan iboratki, hikoyalardan faqatgina bir xulosa chiqarilmaydi, tasavvufiy, axloqiy, didaktik, ijtimoiy-siyosiy jihatdan turlicha talqin qilinishi ham ajablanarli holdir. Asarni badiiy-adabiy, pedagogik, madaniyatshunoslik, leksik, diniy, falsafiy jihatdan o‘rganishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Taniqli turk ulamosi, ilm-irfonda mashhur olim, professor Usmon Nuriy To‘pbosh qalamiga mansub “Masnaviy bog‘chasidan bir ko‘za suv” asarida Jaloliddin Rumiy hazratlarining “Masnaviy”siga berilgan mukammal sharhi keltirilgan. Imom G‘azzoliy, Sa’diy Sheroziy, bir qancha usmonli podshohlarining didaktik g‘oyalari Rumiyniki bilan tahlil qilingan. Uning “So‘fiy hayoti” asarida esa “Masnaviy”da bayon qilingan so‘fiylar, aslida, qanday bo‘ladi savoliga javob tariqasida yozilgan bo‘lib, chin so‘fiylar ilm daryosiga sho‘ng‘shi, uzlatda hayot kechirishi va axloqi bilan murshidlariga namuna bo‘lishini misollar bilan keltirib o‘tgan. Bu asarda ham So‘fiy sifatida yana Rumiyga murojaat qiladi. “Ilohiy muhabbat” asarida ham “Masnaviyi sharifga murojaat qilib, Mavlononing betakror fikrlaridan foydalanib, ilohiy ishq formulasini yaratadi. Uning ta’limotiga ko‘ra:

- **Ilohiy muhabbat** – Allohga chin yurakdan muhabbat qilish va u istagan tarzda hayot kechirish.
- **Murshidga itoat** – Haqiqat yo‘lida bir pir, ya’ni ustoz zarurligini ta’kidlaydi.
- **Amal va niyat** – Har bir amal ixlos va pok niyat bilan bajarilishi kerak.
- **Zamonamizda tasavvuf** – U tasavvufni faqat zohiriy riyozatlar emas, balki hayotiy faoliyatning markaziy mezoni sifatida ko‘radi.

Paulo Koelo (Paulo Coelho) – zamonaviy braziliyalik yozuvchi, ma'naviyat, o'zlikni anglash va ruhiy sayohat mavzularini o'z asarlarida ko'p yoritadi. Uning asarlari "Masnaviy"dan ilhomlanib, dunyoga kelganligini bot-bot ta'kidlaydi. Xususan, o'zining "Alkimyogar" asari ham so'zimiz isbotidir. "Masnaviyi ma'naviy" ruhiy barkamollikni, insonning ichki olamini tasvirlasa, Koeloning "Alkimyogar"i esa taqdirni anglash, ma'naviy yetuklika ergashish kabilarni tarannum etadi. Quyida Koelo va Rumiy asarlaridagi o'zaro o'xshashliklar keltirildi.

Muhokama va natijalar. Ilm umumiylik asosidagi zohiriy ma'lumotlardan iborat bo'ladi va aql, naql, tajribaga tayanadi. Ma'rifat va irfon esa kashf, ilhom va ichki tajribaga tayanadi. Ilm bu kitobiy bilimlar, nazariyalar asosidagi praktikumlar, amaliyotlar bilan integrativ holda o'rganilafi, ma'lumotlar va teoriyalar ilmiylikka asoslanadi, ammo irfon ilm orqali shaxsni ma'naviy komillikka, ruhiy yetuklikka olib keladi, Shuning uchun haqiqiy olimlar ham ilmli ha komillikka erishgan bo'lishi kerak. Rumiy yuqoridagi purma'no fikrlari bilan ayni shu fikrga sha'ma qilyapti. Ko'p olimlar ilm o'rgangan, ammo irfondan (Ma'naviy yetuklik)dan nasibasiz, ular yaratganning habibi, ya'ni do'sti bo'la olishmaydi.

Gul suvi ersang, makoning nurli chehralardir. Najosat ersang, har yerda xorsan.
Xushbo'y hidli narsalar tujjoriga boq, har neni o'z jinsi ila go'zallashtirar.
Jins o'z jinsi bilan qorishsa, bu birlikdagi go'zallik ayri bir tabassumdadir...
Tushunchang tabassum qilsa, sen ham bir gul bog'chasidansan...

Mavlono tabiati bir-biriga zid bo'lgan insonlarni go'yo azobda qolganlar deya ta'riflaydi. Kim tabiatan o'zining teskarisi bo'lgan kishi bilan bir yerda qolishga majbur bo'lsa, bu uning uchun eng katta azobdir. "Masnaviy"dagi tuzoqqa tushgan ohu hikoyatida ham ayni shu holat keltirilib, eshak-u ho'kizlar bilan bir qafasda qolgan ohuning mashaqqatini yuqoridagi fikrlari bilan yoritib beradi. Bulbullarning makoni chamanzordir, qo'ng'izlarning vatani esa najosatxonadan o'zgasi emas. Bulbullar gulistonlardan zavqlanar ekan, qo'ng'izlar axlatxona, fasod va nifoqdan lazzat oladi, qush faqatgina o'z jufti bilan parvoz qiladi.

Bahor kelsa, toshdan bir narsa unarmi?
Sen tuproq bo'l, to bag'ringdan gullar unib chiqsin...

Bahor fasli kelganida, tuproq o'zining nasibasini oladi. Shu sababli undan go'zal maysalar unib chiqadi, tuproq bahorga erishgani kabi tosh ham bahorga yetishadi, lekin undan biror maysa unib chiqmaydi. Demak, bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, ayb bahorda emas ekan. Qalblari toshga aylangan kishilar uchun bahorda yoqqan yomg'irdan hech qanday naf yo'q.

Ahmoqlar hammaning kamchiligini qirq yorib tekshiradi, ularni tevarakka yoyadi
Ammo, xomliklari tufayli o'z kamchiliklarini also ko'rmaydi…

Ahmoq inson o'zining ayblarini ko'rmay, boshqalarning xatolarini tekshiradi, ularning nodonligining asosiy belgisi ham ayni shudir. Ahmoq inson johil bo'ladi, uning johilligi bora-bora g'aflatga olib keladi, g'aflat esa kelajakni barbod qiluvchi tilsimdir. Asardagi ko'pgina hikoyatlarda nodonlik qoralangan, donolik va aqllilik xislatlari ulug'langan. Misol tariqasida "Baqqol va uning to'tisi", "Dono zargar", "Nafsarslon kabidir", "Teri qo'ldan ketti", "Karning bemor ziyorati", "Aqlli darvesh" kabi hikoyalar shular jumlasidandir. Ushbu hikoyalarning har birida axmoqlikning qurboni bo'lgan va donoligi sababli ko'pgina xavf-xatardan omon qolgan obrazlar qiyofasida asarning mag'zi ko'rsatilgan.

Mening qalb olamim nega buncha faryod va fig'on aylar,
Mening dardimga, iztirobimga kim shifo berar?

Har kim hazratni o'z qobiliyati va iste'dodiga ko'ra tinglaydi. Shoirning o'zi ta'kidlaganidek, "Yomon axloqli kishi meni o'zicha tushunib, ta'riflaydi. Haq va adolat yo'lidagi kishilar esa meni tinglaganda ruhi jo'shib, nay unga nido beradi…

Xulosa. Jaloliddin Rumiy qalamiga mansub ushbu nodir asar eski forscha (lekin ichida arabcha, turkcha va xalq iboralari ham bor) usulida yozilgan. Keyinchalik, u ko'plab tillarga tarjima qilinadi va sharq va g'arb olimlarida qiziqish uyg'otadi. Asar masnaviy deya nomlanishi uning she'riy rivoyat – 2 misrali baytlar shaklida yozilganligidadir. 6 jild, 26 000 dan ortiq baytni o'z ichiga olgan muhtasham asar 1258–1273-yillar oralig'ida Rumiyning shogirdi Huseyiddin Chelebiy tomonidan yozib olingan. "Masnaviy"da ilohiy muhabbat, taqvo, iroda, nafsga qarshi kurash, tasavvufiy yo'l, axloqiy masalalar yoritib boriladi.

Har bir mavzu keng doirada shoir tomonidan tushuntiriladi. Bunda Qur'oni karim, Hadisi sharif, ko'plab allomlarning qarashlari, ularning hayot yo'li, tarixda yuz bergan voqealar, tarixiy shaxslar bilan bog'liq hodisalar bilan boyitiladi. Rumiy "Masnaviy"ni tasavvuf yo'lida sayr etuvchi "ruhiy yo'lchi"lar uchun "Qur'oni majidning sharhi" sifatida atagan. Asarda Qur'on oyatlari, hadislar bilan boyitilgan nasihatlar ko'p uchraydi. Masnaviyda tasavvufdagi shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, tushunchalari keng sharh-

lanadi. Haqiqatga erishish uchun, avvalo, shariat bosqichini bilish va unga qat'iy amal qilish muhimligini tushuntiradi.

Tariqat esa haqiqatga eltuvchi bir yo'l sifatida qarab, kimdir bu yo'lda javonmardlik bilan, kimdir mehnat bilan, yana kimdir adolat bilan borsa, Rumiy Ishq bilan borishni afzal ko'rishini izohlaydi va o'zining mavlaviya tariqatiga asos soladi. "Masnaviyi ma'naviy" makon va zamon tanlamaydigan qimmatli asardir. Undagi hikoyatlar va rivoyatlar kitobxonni fikrlashga undaydi, tanqidiy tahlil asosida mulohazakorlikka chaqiradi, o'zidagi salbiy xususiyatni yo'qotib, ijobiy fazilatlar ustida ishlab takomillashtirishga yordam beradi. Ko'rib turganimizdek, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"si bugungi zamon ta'lim tarbiyasi uchun nihoyatda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, taraqqiyot zamonida har bir yosh avlodning bu kabi nodir asarga ehtiyoji oshib boradi. Asarni oliy ta'lim tizimida, professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar o'rtasida jalb qilish juda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Rumiy Jaloliddin. Masnaviyi ma`naviy. T., 2010.

(2). Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. T., "Kamolot", 2018.

(3). Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. G.V.Izbullayeva. Buxoro, "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona", 2023, 2024-bet.

(4). "Masnaviyi ma`naviy"dan hikoyalar, masallar, hikmatlar. G.V.Izbullayeva. Toshkent, "Navro'z" nashriyoti, 2015.

(5). Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. 1-jild, 1-kitob, Najmiddin Komilov. Rumiyni anglash ishtiyoq.

(6). Orif Usmon. Jaloliddin Rumiy. "Muloqot", 1997, 6-son, 39-bet.

(7). Sattoriy H. Rumiy o'tgan yo'l. "Jahon adabiyoti", 2007, 10-son, 145-bet.

(8). "Masnaviy" bog'chasidan bir ko'za suv. Москва, 2010, Usmon Nuriy To'pbosh.

(9). Cihan-Artun, Fatma B. «Rumi, the Poet of Universal Love: The Politics of Rumi's Appropriation in the West» Submitted to the Graduate School of the University of Massachusetts Amherst in partial fulfillment of the requirements for the degree of doctor of philosophy, Doctoral Dissertations. 2016, 243 p. https://doi.org/10.7275/7951348.

(10). Gökbulut S. Necmeddîn-i Kübrâ (hayatı, eserleri, görüşleri). İstanbul: İnsan yayınları, 2010, 242 s.

Nabiyev Maxsud Abdimannonovich (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

IQTISODIY MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY TALQINI

Annotatsiya. *Iqtisodiy madaniyat zamonaviy jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat iqtisodiy faoliyatga bo'lgan munosabatni, balki insonning mehnatga, mulkka, foydaga, iqtisodiy islohotlarga va bozor munosabatlariga bo'lgan yondashuvini ham belgilab beradi. U iqtisodiy faoliyatda aks etadigan qadriyatlar, e'tiqodlar, axloqiy mezonlar va xulq-atvor shakllari orqali ifodalanadi. Mazkur tushuncha iqtisodiyot va madaniyatning o'zaro bog'liqligini anglash, ularni falsafiy, sotsiologik va iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiyot, madaniyat, korrupsiya, geografik joylashuv, demografik holat, resurs, iqtisodiy determinism, epistemologiya, raqobat, halollik.*

КОНЦЕПЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Аннотация. *Экономическая культура является важной составной частью современной общественной жизни. Она определяет не только отношение к экономической деятельности, но и подход человека к труду, собственности, прибыли, экономическим реформам и рыночным отношениям. Экономическая культура выражается через ценности, убеждения, моральные нормы и формы поведения, отражающиеся в экономической активности. Данное понятие служит важным инструментом для понимания взаимосвязи между экономикой и культурой, а также для философского, социологического и экономического анализа этих процессов.*

Ключевые слова: *экономика, культура, коррупция, географическое положение, демографическая ситуация, ресурсы, экономический детерминизм, эпистемология, конкуренция, честность.*

THE CONCEPT OF ECONOMIC CULTURE AND ITS PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Annotation. *Economic culture is an essential component of modern social life. It determines not only attitudes toward economic activity but also a person's approach to labor, property, profit, economic reforms, and market relations. Economic culture is expressed through the values, beliefs, moral standards,*

and patterns of behavior that are reflected in economic activity. This concept serves as an important tool for understanding the interconnection between economy and culture, as well as for conducting philosophical, sociological, and economic analysis of these processes.

Keywords: *economy, culture, corruption, geographical location, demographic situation, resources, economic determinism, epistemology, competition, integrity.*

Kirish. Iqtisodiy madaniyat bu jamiyatning iqtisodiy hayotda o‘zini tutish uslubi, iqtisodiy faoliyatni tashkil qilishga bo‘lgan yondashuvi va ushbu faoliyatga axloqiy, ijtimoiy va madaniy mezonlar asosida baho berishidir. Bu madaniyat jamiyat a’zolarining iqtisodiy hodisalarga nisbatan o‘zaro fikr-mulohazalari, qadriyatlari va ijtimoiy stereotiplari asosida shakllanadi. Falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda, iqtisodiy madaniyat insonning iqtisodiy faoliyatda erkinlik, adolat, javobgarlik va mas’uliyat kabi etik kategoriyalar bilan bog‘liq qarashlarini mujassamlashtiradi. Bu madaniyat darajasi iqtisodiy tizimning barqarorligi, inson kapitalining rivojlanishi, innovatsion faoliyatning faolligi bilan chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, “iqtisodiy madaniyat o‘z ichiga ishlab chiqarish madaniyati, taqsimot madaniyati, ayirboshlash madaniyati, iste’mol madaniyati, boshqarish madaniyatini oladi” [1].

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalardan ma’lumki, iqtisodiy madaniyat bir necha tarkibiy elementlardan iborat bo‘lib, ularning har biri jamiyatdagi iqtisodiy ong va xatti-harakatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, iqtisodiy qadriyatlar jamiyat a’zolari tomonidan iqtisodiy faoliyatda ustuvor deb topilgan tamoyillarni, masalan, halollik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, samaradorlik va innovatsionlikni o‘z ichiga oladi. Ikkinchidan, iqtisodiy e’tiqodlar bozor erkinligi, davlat aralashuvi, raqobat, mulk shakllarining ustuvorligi kabi tushunchalarni qamrab oladi. Uchinchidan, iqtisodiy xulq-atvor normalari – bu iqtisodiy faoliyatda odamlardan kutiladigan xatti-harakatlar me’yorlari bo‘lib, masalan, shartnomalarga sodiqlik, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik va hisob-kitobda aniqlik kabi mezonlarni o‘z ichiga oladi. To‘rtinchidan, iqtisodiy institutlar-bu iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi rasmiy va norasmiy qoidalar, qonunlar, siyosiy qarorlar, moliyaviy tizimlar va ularni boshqaruvchi tashkilotlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiy madaniyat har bir jamiyatda o‘ziga xos shakllanadi va tarixiy, hududiy, diniy, siyosiy hamda global omillar bilan belgilangan bo‘ladi. Har bir xalq va jamiyatning iqtisodiy madaniyati o‘z tarixiy tajribasidan oziqlanadi. Geografik joylashuv, iqlim sharoiti, resurslar va demografik holat hududiy farqlarni yuzaga keltiradi. Diniy e’tiqodlar va axloqiy qadriyatlar iqtisodiy xulq-atvorga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Iqtisodiy madaniyat iqtisodiy faoliyat, moddiy qadriyatlarni ishlab chiqarish jarayoni, iste’mol va taqsimot, xo‘jalik hayoti va tashkil etishning qoida va tamoyillari, iqtisodiy ong va dunyoqarash yo‘nalishlari, ishlab chiqarish munosabatlari sistemasi, jamiyat subyektlari iqtisodiy manfaatlarining mutanosibligini qamrab oladi” [2]. Siyosiy tizimning ochiqligi, demokratik tamoyillarning ustuvorligi iqtisodiy madaniyat darajasini belgilovchi muhim omillardandir. Shuningdek, globallashuv natijasida iqtisodiy madaniyatlar o‘rtasida almashinuv kuchayib, milliy xususiyatlarning saqlanishi va yangilanib borishi zaruratga aylanmoqda.

Iqtisodiy madaniyat jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchidan, u iqtisodiy o‘sish va samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, u innovatsion muhitni shakllantiradi, yangi texnologiyalarni yaratish va joriy etish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, ijtimoiy adolat, barqarorlik va ishonch muhitining shakllanishiga hissa qo‘shadi. To‘rtinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi. Nihoyat, iqtisodiy madaniyat ekologik mas’uliyatni kuchaytirib, barqaror rivojlanish tamoyillarini ilgari suradi. Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda, iqtisodiy madaniyatning mohiyatini tushunishda bir qator nazariy masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, iqtisodiy determinizm va madaniy nisbiylik o‘rtasidagi muvozanat, individual manfaatlar va jamoatchilik manfaatlarining uyg‘unligi, moddiy boylik va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi tafovutni anglash hamda globallashuv sharoitida milliy iqtisodiy o‘zlikni saqlash masalalari muhokamaga loyiqdir.

Iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish uchun kompleks strategiyalar zarur. Bular jumlasiga ta’lim va ma’rifat orqali iqtisodiy savodxonlikni oshirish, huquqiy va institutsional islohotlar bilan iqtisodiy muhitni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni iqtisodiy madaniyatni targ‘ib qilishda qo‘llash, xalqaro tajriba almashuvi hamda milliy madaniyat bilan integratsiyani chuqurlashtirish kiradi. Bu strategiyalar jamiyatda sog‘lom iqtisodiy muhit, barqarorlik va ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy madaniyat nafaqat iqtisodiy faoliyatning aksidir, balki u jamiyatning umumiy taraqqiyot darajasini belgilovchi fundamental tushunchadir. Uning tahlili va rivojlantirishga doir strategik yonda-

shuvlar iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda va inson kapitalini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy madaniyat iqtisodiyot fanining muhim, ammo, ko‘pincha, e’tibordan chetda qoladigan jihatlaridan biridir. U jamiyatning iqtisodiy faoliyatga bo‘lgan munosabatini, iqtisodiy hodisalarga nisbatan shakllangan qarashlarini va iqtisodiy xulq-atvorini belgilaydigan murakkab hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Falsafiy nuqtayi nazardan, iqtisodiy madaniyatni tahlil qilish, avvalo, uning asosiy tarkibiy qismlari bo‘l-gan qadriyatlar, e’tiqodlar va xulq-atvor normalarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Iqtisodiy madaniyatni falsafiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqish, uning ontologik va epistemologik jihatlarini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi. Ontologik jihatdan, iqtisodiy madaniyat inson faoliyatining mahsuli sifatida ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi hisoblanadi. U insonlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda, iqtisodiy institutlarda, iqtisodiy faoliyatning mazmun va shakllarida, ijtimoiy ong va axloqiy me’yorlarda o‘z aksini topadi. Epistemologik nuqtayi nazardan esa iqtisodiy madaniyatni bilish jarayoni iqtisodiy hodisalarni anglash, ularning sabab-oqibatlarini tushunish, insoniyat tajribasini tahlil qilish va iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlari iqtisodiy qadriyatlar, iqtisodiy e’tiqodlar va iqtisodiy xulq-atvor normalaridir. Iqtisodiy qadriyatlar jamiyat a’zolari tomonidan iqtisodiy faoliyatda ustuvor deb hisoblangan me’yorlar bo‘lib, ular mehnatsevarlik, tadbirkorlik, tejamkorlik, halollik, adolat, tenglik va erkinlik kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu qadriyatlar jamiyatda iqtisodiy faoliyatni ma’naviy va axloqiy asosda yo‘naltiradi, iqtisodiy manfaat va jamiyat manfaatining muvozanatini belgilaydi.

Iqtisodiy e’tiqodlar esa jamiyat a’zolarining iqtisodiy hodisalar va jarayonlar haqidagi tasavvurlari, shuningdek, ularning bozor, raqobat, davlat aralashuvi, mulk shakllari va iqtisodiy barqarorlik haqidagi qarashlari bilan belgilanadi. Bu e’tiqodlar iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda, iqtisodiy tizimlarga bo‘lgan ishonchda va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi omillarini anglashda asosiy rol o‘ynaydi. Falsafiy jihatdan, ular inson tafakkurining iqtisodiy haqiqatni qanday talqin qilishiga asoslanadi. “Shunday qilib, iqtisodiy madaniyat shaxslar va ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy amallarini tartibga soluvchi ijtimoiy qadriyatlar va normalar yig‘indisidir” [3].

Iqtisodiy xulq-atvor normalari esa iqtisodiy faoliyatda qabul qilingan axloqiy va huquqiy me’yorlardir. Ular shartnomalarga sodiqlik, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik, halollik, soliq to‘lash madaniyati, raqobatda adolat, iste’mol madaniyati kabi me’yoriy qoidalarni qamrab oladi. Bu normalar jamiyatning iqtisodiy barqarorligini, institutsional ishonchni va ijtimoiy-axloqiy mezonlarni belgilovchi muhim vosita hisoblanadi. “Iqtisodiy madaniyatning muhim jihatlaridan biri saxovatli bo‘lishdir. Saxovatli bo‘lish umuminsoniy qadriyatlarga xos bo‘lib, iqtisodiy egoizmdan chekinish va muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zish, mehr-muruvvat ko‘rsatish demakdir” [4]. Iqtisodiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari uning dinamik xarakterga egaligi, tarixiy shartlanganligi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilma bilan uzviy bog‘liqligi, mintaqaviy va milliy xususiyatlarga egaligi hamda globallashuv ta’siriga ochiqligi bilan ajralib turadi. Har bir xalqning iqtisodiy qadriyatlari ularning tarixiy tajribasi, diniy va axloqiy dunyoqarashi, siyosiy tizimi va ijtimoiy hayot tarziga bog‘liq holda shakllanadi. Shu boisdan iqtisodiy madaniyat har bir jamiyatda o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy madaniyatni falsafiy kategoriya sifatida o‘rganish iqtisodiy munosabatlarning mazmunini anglash, ularning ijtimoiy va axloqiy asoslash, iqtisodiy faoliyatning barqaror va adolatli asosda rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy qadriyatlar, e’tiqodlar va xulq-atvor normalarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi roli va iqtisodiy tizimlarga ko‘rsatayotgan ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish zamonaviy iqtisodiy tafakkur taraqqiyoti uchun zaruriy shartlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyatlar ro‘yxati:

(1). Кравченко, А.И. Культурология. Учебное пособие для вузов, 3-й., М., “Акад. проект”, 2001, с. 18.

(2). Панферов К.Н. Экономическая культура (социально-философский анализ). М., “Юриспруденция”, 2000, с. 17.

(3). Евсенков О.В. Экономическая культура как регулятор экономической жизни. Петрозаводск, СПБ, 1998, с. 50.

(4). Маманазаров А. Ёшларда иқтисодий маданиятни шакллантириш ва маънавий-ахлоқий тарбия уйғунлиги. АДУ, 2-сон, 2016, 96–98-бетлар.

(5). Komilov R.R. (2018). The aesthetec and moral sides of the family and wedding ceremonies. In international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy (pp. 10–14).

(7). Komilov, R.R. (2017). The aesthetic significance of the uzbek nation's wedding ceremonies evolution. In practice of communicative behavior in social and humanitarian researches (pp. 47–50).

Usenov Jiyeńaliy (Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı Milliy ideya, ruwxıylıq tiykarları hám huqıq tálimi kafedrası docenti w.w.a, filosofiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD);
e-mail: jiengaliy@mail.ru)

"JASLAR" TÚSINIGI HÁM ONÍŃ QÁLIPLESIW TARIYXÍNAN

Annotaciya. *Bul maqalada "jaslar" túsiniginiń mánis-mazmunı, onıń jámiettegi ornı hám sociallıq rawajlanıw procesinde qalay qálipleskeni ilimiy talqılanadı. Tariyxıy dáwirler dawamında jas áwladqa bolǵan múnásibet ózgerip barǵanı, oqıwshınıń jámiyette tutqan ornı hám juwapkershiligi qalay almastırılǵanı mısallar tiykarında kórsetip beriledi. Sonıń menen birge, hár qıylı ilimiy derekler, demografiyalıq sıpatlamalar hám sociallıq qatnasıqlar yamasa "jaslar" atamasınıń mazmunlıq júklemesi tallanıp, onıń zamanagóy talqılawı menen tariyxı arasındaǵı baylanıs ashıp beriledi.*

Tayanısh sózler: *jaslar, sociallasıw, jámiyet tariyxı, shaxs kamalǵa keliwi, áwladlar almasıwı, sociogenez, filosofiyalıq analiz, sana evolyuciyası.*

КОНЦЕПЦИЯ «МОЛОДЕЖЬ» И ИСТОРИЯ ЕЕ ФОРМИРОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье научно анализируется сущность понятия «молодежь,» ее место в обществе и то, как оно формировалось в процессе социального развития. На примерах показано, как менялось отношение к молодому поколению на протяжении исторических периодов, и как трансформировались роль и ответственность молодежи в обществе. Наряду с этим, анализируются различные научные источники, демографические характеристики и социальные отношения, а также смысловая нагрузка термина «молодежь,» раскрывается связь между его современной интерпретацией и историческим развитием.*

Ключевые слова: *молодежь, социализация, история общества, становление личности, смена поколений, социогенез, философский анализ, эволюция сознания.*

THE CONCEPT OF «YOUTH» AND THE HISTORY OF ITS FORMATION

Annotation. *This article provides a scholarly analysis of the meaning of the concept of «youth,» its place in society, and how it has been shaped in the process of social development. Using examples, it demonstrates how attitudes towards the younger generation have changed over historical periods, and how the role and responsibilities of young people in society have evolved. Additionally, the article analyzes various scientific sources, demographic characteristics, and social relationships, as well as the substantive implications of the term «youth,» revealing the connection between its modern interpretation and historical context.*

Keywords: *Youth, socialization, history of society, personal development, generational change, sociogenesis, philosophical analysis, evolution of consciousness.*

Kirisiw. Búgin dúnya quramalasıp barmaqta. Globallasıw processleri turmısımızǵa tez pát penen kirip kelmekte. Dúnyada bolıp atırǵan hár qıylı ideologiyalıq gúresler, internet basımları, ashıqtan-ashıq ámelge asırılıp atırǵan qurallı soqlıǵısıwlar, juqpalı kesellikler, ekologiyalıq apatshılıqlar insandı qáweterge salıp qoymaqta. Mine, usınday qıyın-qıstaw dáwirde biziń mámleketimizde jámiyetlik turmıstıń barlıq tarawlarında keshiktiriwge bolmaytuǵın reformalar ámelge asırılmaqta. Elimiz Jańa Ózbekstandı qurıw hám 3-Renessanstıń tırnaq-tasın qalawday ullı maqsetler jolında barmaqta. Bul preoritet wazıypalar, óz gezeginde, bizden aktual máselelerdi sheship alıwdı talap etedi. Mámleketimiz aldında turǵan usınday aktual máselelerdin biri – bul jaslar máselesi bolıp tabıladı. Jaslardı aqılıy-intellektuallıq resurslar deregi dep bilgen búgingi Ózbekstanda jaslar máselesi mámleketlik siyasat dárejesine kóterildi. Ǵárezsizlikke eriskennen keyin, yaǵnıy 1991-jılı 18-noyabrde birinshi qabıl etilgen nızamımız – "Jaslar siyasatı haqqında"ǵı Nızam boldı. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev óziniń mámleket basshısı lawazımına kirisken dáslepki kúnlerinen baslap-aq jaslar máselesine ayrıqsha dıqqat-itibar qarattı. Jurtbasshımızdıń Ózbekstan Respublikası Prezidenti sıpatında birinshi qol qoyǵan nızam húјjeti – 2016-jıl 14-sentyabrdegi "Jaslarǵa baylanıslı mámleketlik siyasat haqqında"ǵı Nızam ekeninde de simvolikalıq mazmun-mánis jámlengen. Nátiyjede, xalqınıń yarımınan kóbiregin jaslar quraytuǵın mámlekette jaslarǵa baylanıslı mámleketlik siyasattı izbe-iz ámelge asırıw, jas áwladtı hár tárepleme jetik hám bárkamal, intellektuallıq potencialǵa iye, óziniń anıq poziciyasına iye, elde ámelge asırılıp atırǵan reformalarǵa biypárwa qaramaytuǵın, eldiń erteńgi múnásip keleshegi ushın at salısıwǵa tayar, maqsetke umtılǵan, ǵayratlı, watansúygish, sadıq, kámil insanlar etip tárbiyalaw Ózbekstandı dúnyanıń eń rawajlanǵan mámleketleri qatarınan orın alıwınıń áhmiyetli faktorı ekenin mámleket basshısı hám húkimet jaqsı ańlaydı.

Ádebiyatlar analizi. Biz maqalamızda jaslar máselesi haqqında sóz etpesten aldın dáslep "jaslar túsinigi" degen máselege anıqlıq kiritip alayıq.

“Jaslar túsinigi” ayrıqsha koncepciya sıpatında búgingi kúnde ilimniń kóplegen tarawları – psixologiya, pedagogika, demografiya, huqıq, siyasattanıw, filosofiya, sociologiya, tariyx, mádeniyattanıw h.t.b pánlerdiń predmetine aylandı. Jaslar máselesi búgin, yamasa keshe payda bolıp qalǵan joq. Ol Sokrat, Aristotelden baslap házirge shekem aktual máselelerdiń biri sıpatında izertleniw ob'ekti bolıp kelmekte. Durıs, “jaslar”, “jaslıq” degen túsinikler xalıqtıń sanasında burınnan bolǵan. Biraq, bul másele óz aldına sistema sıpatında ilimiy kózqarastan talqılanbaǵan. Al, “jaslar túsinigi” social-filosofiyalıq kategoriya sıpatında ilimde ótken ásirdiń 60-jıllarınıń aqırında sociolog V.T.Lisovskiy tárepinen qollanıldı [1]. Ilimpaz óziniń “Эскиз к портрету: жизненные планы, интерес и стремления советской молодёжи” atlı miynetinde “jaslar” túsinigine tómendegishe anıqlama beredi: “sociallastırıw basqıshınan ótip atırǵan, bilimlendiriw, kásiplik, mádeniy hám basqa da sociallıq funkciyalardı ózlestirip atırǵan adamlar áwladı” [2]. Yaǵnıy, ol jaslarǵa socium sıpatında emes, al process sıpatında qaraydı. I.Konnıń izertlew nátiyjeleri belgili dárejede qızıǵıwshılıq tuwdıradı, ol “Jaslar – bul jas shegarası hám jámiyettegi óz statusı menen ajıralıp turatuǵın ayrıqsha sociallıq-jas toparı: balalıq hám jaslıqtan sociallıq juwapkershilikke ótiw”, dep esaplaydı [3]. Oǵan bola, jaslar óz jas shegaraları menen sheklenip qaladı hám jámiyetke tolıq kirip barmaydı, sebebi olar sociallıq normalardı, keńirek aytqanda jámiyet nızamların tolıq orınlamaydı. Akademik J.Bazarbaevtıń anıqlaması boyınsha, jaslar jámiyettiń sociallıq-demografiyalıq toparı bolıp, úlken áwladlar tárepinen basshılıq etilip, óz aldına turmısqa tayarlaw hám kirgiziw menen baylanıslı iskerlikti ámelge asırıw hám jámiyettegi sociallıq-klasslıq bóliniwge sáykes keletuǵın sociallıq differenciallasıw menen xarakterlenedi [4]. Oraylıq Aziya izertlewlerinde “jaslar” atamasına múrájat etiw dáslepki jaǵdaylardan biri bolıp esaplanadı. Bul mashqalaǵa toqtap ótkenlerden biri K.L.Zadıxina bolıp tabıladı [5]. Izertlewshi terminlerdi talqılap, Ámiwdárya deltasındaǵı ózbekler tilinde «qatar» sóziniń iran tilinde bar ekenligin atap ótedi. Solay etip, bul sóz benen musılmanlardıń namaz oqıw waqtındaǵı qatarlar – meshitlerdegi namaz, sonday-aq, qatarǵa qoyılǵan buyımlar túsiniledi. Bul atama – “qatar” (birlik), “qatarlar” (kóplik) sociallıq áhmiyetke de iye. Sociallıq aspektte “qatar” sózi bir topar adamlardı, yaǵnıy “qatarlar” dep ataw ushın qollanılıp, olar balalıq jılların birge ótkergen, shama menen bir jastaǵı adamlar degen mánisti bildiredi. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde “**Qatar** – zamanlas, jaslas, teńles, qurdas, qatar-qurbı. Qatarınan kem bolmay, Ashılǵay balam, gúl baxtıń. Qız-kelinshek kelse bir óziń báhár, Qatar jigitlerge qılmadıń azar (Omar), h.t.b”, dep berilgen [6].

Talqílaw hám nátiyjeler. “Jaslar” túsinigi haqqında bunnan basqa da ilimiy kózqaraslardı keltire beriw múmkin.

Qaraqalpaq xalqında “jaslar” túsinigi qashan qáliplesken? Biziń jeke pikirimiz boyınsha, qaraqalpaq jasların dáwirlestirip alǵan maqul hám onı tiykarınan 3 basqıshqa bóliwge boladı.

1. Qaraqalpaq xalqı óz aldına millet sıpatında qáliplesip, “qaraqalpaq” ataǵın alǵannan keyingi dáwirdegi qaraqalpaq jasları.
2. Keńes húkimeti dáwirindegi qaraqalpaq jasları.
3. Ǵárezsizlik dáwirindegi qaraqalpaq jasları.

Qaraqalpaq xalqı XVI ásirde “qaraqalpaq” degen at penen belgili bola baslaydı. Bul dáwirlerde qaraqalpaq jasları degen atama ilimiy miynetlerde ushıraspaydı. Biraq, bul jas kategoriyasına baylanıslı xalıqtıń milliy psixologiyasında, xalıq awızeki dóretiwshiliginde saqlanıp kiyatırǵan pikirler bar. Mısalı, qaraqalpaqlarda “On tórtte otaw iyesi” degen ibara bar. Bul sóz teginge aytılmaǵan. Onıń ilimiy tiykarları bolıwı kerek. Xalqımız tiykarsız hesh nárse aytpaydı. Qaraqalpaq xalıq dástanlarında batırlar jas jigit waqtında kóplegen qaharmanlıq islerdi ámelge asırǵanlıǵı súwretlenedi. Mısalı ushın, Qoblan 11 jasında, Alpamıs 14 jasında ózleriniń qaharmanlıq is-háreketleri menen jurttı hayran qaldıradı. Jazıwshı K. Mámbetovtıń “Posqan el” roman-trilogiyasında Noǵay ordasınıń sultanı Ormambet biy on tórt jasında jolbarıs awlaydı, nayzası menen hesh qorıqpastan jolbarıstı shanshıp óltiredi. Demek, bul jas ózgesheliklerиniń astında ilimiy tiykar bar. Qaraqalpaq jaslarınıń tariyxtaǵı kórsetken qaharmanlıq isleri keleshek áwladlarǵa úlgi boladı. Olar dástanlardı hám romanlardı oqıw arqalı olardan ruwxlanadı, motivaciya aladı. Sovet húkimeti dáwirinde “qaraqalpaq jasları” degen túsinik bolmadı. Hámme ushın birdey “sovet jasları” degen túsinik húkim súrdi. Burıńǵı awqam dáwirinde jaslar komsomoldıń quram bólegi, kollektiv keleshek tiykarı sıpatında qaralǵan. Olarǵa ne kerekligi, hátte qızıǵıwshılıqlarınıń sheńberin mámleket hám hámeldarlar joqarıdan belgilep beretuǵın edi. Sol waqıtta ǵalabalıq dástúr bolǵan. Jaslardı jalpı túrde miynet otryadlarına tartıw, jalpı túrde bir ideologiyaǵa ertiw, jalpılamay bir túrde kiyindiriw sıyaqlılar ádettegi jaǵdayǵa aylanǵan edi. Insannıń individual ózgeshelikleri menen hesh kim esaplaspaǵan. Qaraqalpaq jasları da usı birden-bir ideologiyalıq túsiniktiń ishinde boldı. Bul dáwirdegi qaraqalpaq jasları túsinigi óz aldına úyreniwdi talap etedi.

Ǵárezsizlik dáwirinde Ózbekstanda jaslar máselesi mámleketlik siyasattıń eń tiykarǵı baǵdarlarınan birine aylandı. Mámlekette jaslardıń huqıqları menen máplerin qorǵaw, olarǵa zárúr sharayatlar menen imkaniyatlardı jaratıp beriw baǵdarında bekkem huqıqıy baza jaratılǵan hám bul sistema zaman talaplarına únles túrde jetilistirilip barılmaqta. Qaraqalpaq jasları da usınday imkaniyatlardan paydalanıp, xalıq turmısınıń túrli tarawlarında ózlerin kórsetpekte.

Jaslar kúsh-ǵayratqa tolı, energiyaǵa bay, hesh nárseden qorıqpay óz ideyaları hám oyların ámelge asırıw ushın alǵa umtılatuǵın topar bolıwı menen birge olar jámiyettiń eń ázzi qatlamlarınan biri esaplanadı. Jaslar jası úlkenler tárepinen hám ayrıqsha mámleket tárepinen sociallıq-ekonomikalıq jaqtan qorǵawdı talap etedi. Sebebi, óz waqtında jaslarǵa dıqqat-itibar bolmasa, olardıń mápleri hám huqıqları qorǵalmasa, jaslar, birinshiden, boyında bar talantı, uqıbınan ayrılıwı múmkin, itibarsız qalǵanı ushın olardıń ayrımları jaman jolǵa túsip ketiwi de itimal, h.t.b. Xalıq awzındaǵı "Bolar bala bes jasınan belgili" degen naqıl jas balanıń boyında qáliplesip kiyatırǵan unamlı qásiyetler haqqında aytılǵan bolıp, oǵan itibar hám mehir, tárbiya kerek ekenligi de názerde tutılǵan.

Juwmaq hám usınıslar. Jaslar – sociallıq jańalanıw ob'ekti, jámiyettiń fizikalıq qartayıwı sharayatında izertlew ushın áhmiyetli koncepciya bolıp esaplanadı. Bul Batıs Evropanıń oraylıq bólimleri hám Rossiyaǵa keskin tárizde sezilip, óziniń unamsız tásirin kórsetpekte. Mámlekette jas puqaralardıń jetispewshiligi Rossiyadaǵı korrupciya hám jumısshılardıń nızamsız migraciyası sharayatında migrantlardıń kóbeyiwine sebep bolmaqta. Ne ushın házirgi waqıtta Batıs Evropada migrantlar sanı keskin kóbeyip barmaqta? Sebebi, joqarıda aytıp ótkenimizdey, bul mámleketlerde jaslar azshılıqtı quraydı, yaǵnıy jumısqa jaramlı isshi toparı jetispeydi. Nátiyjede, Evropa mámleketleri basqa mámleketlerden, ásirese, Orta Aziya, sonıń ishinde, Ózbekstannan jumısqa jaramlı adamlardı kóplep shaqırıp alıwǵa májbúr bolmaqta. Álbette, olardıń kópshilik bólegin jaslar quraydı.

Jaslar mámlekettiń altın-valyuta rezervi menen bir qatarda mámlekettiń bahalı rezervi bolıp esaplanadı. Biz kóshpes múlkke yamasa banklerge divident alıwǵa úmitlenip pul salamız, kerisinshe, biz ósip kiyatırǵan áwladımızǵa aqılıy hám materiallıq qarjılardı salıwımız kerek. Óytkeni, jaslar – jámiyetlik hám mámleketlik turmıstıń túrli tarawlarında júzege shıǵatuǵın millionlaǵan baslamalar bolıp esaplanadı. Eger jaslar ózleriniń barlıq baslamaların ámelge asırıw imkaniyatına iye bolsa, bul ulıwma mámlekettiń nátiyjeli rawajlanıwınıń kepili boladı. Sonlıqtan, mámleketimiz basshısı jaslar potencialına bekkem isengen halda: "Ullı shayırımız Erkin Vohidovtıń aytqanınday, jaslıq – bul júrektiń altın sazı. Buǵan qosımsha etip, jaslar – xalqımızdıń, Oatanımızdıń altın fondı, desek durıs boladı", [7] degen edi. Bul gápte úlken haqıyqat bar. Sebebi, biziń elimizde xalıqtıń 60 procentin jaslar quraydı.

Paydalanílgan ádebiyatlar:

(1). Лисовский В.Т. Эскиз к портрету: жизненные планы, интересы и стремления советской молодёжи. М., "Молодая гвардия", 1969.

(2). Лисовский В. Т. Эскиз к портрету: жизненные планы, интересы и стремления советской молодёжи. М.: Молодая гвардия, 1969.

(3). Кон И.С. Молодёжь. Мёзия – Маршанск. Большая советская энциклопедия. Т. 16. Гл. ред. А.М. Прохоров. М., "Советская энциклопедия", 1974.

(4). Базарбаев Ж. «Формирование научно-атеистического мировоззрения Молодежи». Нукус, 1980, с. .133.

(5). Задыхина К.Л. Пережитки возрастных классов у народов Средний Азии. Родовое общество (этнографические материалы и исследования). М., 1951, с. 157–179.

(6). Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. IV том, Нөкис, "Қарақалпақстан", 2023, 374-бет.

(7). Мирзиёев Ш.М. Ёшлар – халқимизнинг, Ватанимизнинг олтин фонди. "Халқ сўзи", 2025, 14-февраль, 23-bet.

Тошполатова Ширин Мухиддиновна (соискатель Национального университета Узбекистана; shirinmother85@gmail.com)

ЗАКОНОДАТЕЛЬНАЯ БАЗА ЭТИКИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ГРАЖДАНСКИХ СЛУЖАЩИХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. *Данная статья посвящена комплексному анализу законодательной базы, регулирующей этику государственных гражданских служащих в Республике Узбекистан. Анализируются цели и задачи законодательства в области этики, а также механизмы его реализации и контроля. Особое внимание уделяется вопросам повышения эффективности этических норм и их влияния на формирование добропорядочной и ответственной государственной службы.*

Ключевые слова: *государственная служба, этика, законодательство, коррупция, государственное управление, реформы.*

Toshpolatova Shirin Muxiddinovna (O‘zbekiston Milliy universiteti izlanuvchisi;
shirinmother85@gmail.com)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI ETIKASI BO‘YICHA QONUNCHILIK BAZASI

Annotatsiya. *Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatchilari etikasini tartibga soluvchi qonunchilik bazasining kompleks tahliliga bag‘ishlangan. Unda etikaga oid qonunchilikning maqsad va vazifalari, shuningdek, uning amalga oshirilishi va nazorat mexanizmlari tahlil qilingan. Ayniqsa, etika me’yorlarining samaradorligini oshirish masalalari hamda ularning halol va mas’uliyatli davlat xizmatini shakllantirishdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *davlat xizmati, etika, qonunchilik, korrupsiya, davlat boshqaruvi, islohotlar.*

Toshpolatova Shirin Mukhiddinovna (Researcher, National University of Uzbekistan;
shirinmother85@gmail.com)

LEGISLATIVE FRAMEWORK OF ETHICS FOR STATE CIVIL SERVANTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Annotation. *This article is devoted to a comprehensive analysis of the legislative framework regulating the ethics of state civil servants in the Republic of Uzbekistan. The goals and objectives of ethics-related legislation, as well as the mechanisms for its implementation and control, are examined. Special attention is paid to issues of improving the effectiveness of ethical norms and their impact on fostering an honest and responsible civil service.*

Keywords: *civil service, ethics, legislation, corruption, public administration, reforms.*

Введение (Introduction). Этика государственной службы является ключевым фактором эффективного и справедливого управления в любом современном государстве. В Республике Узбекистан, где проводятся масштабные реформы государственного управления, вопросам этики государственных гражданских служащих уделяется особое внимание. Настоящая работа посвящена анализу законодательной базы, призванной регулировать этические аспекты деятельности государственных служащих в Узбекистане, обеспечивать соблюдение принципов добропорядочности, честности и служения общественным интересам.

Анализ литературы по теме (Literature review). За тридцать с небольшим лет, по историческим меркам мизерный срок, Республика Узбекистан пережила грандиозные события, порой – неоднозначные процессы, и теперь характеризуется относительно стабильным развитием. Основные политические, экономические и идеологические ориентиры выставлены. Выросло первое поколение независимого Узбекистана. Эти факторы не могли не отразиться на законотворчестве в Республике Узбекистан. Были приняты ряд законов, регулирующих трудовую деятельность государственных гражданских служащих. В частности, «О Кабинете министров Республики Узбекистан» (1993.), «О судах» (1993), «О прокуратуре» (1992), «О нотариате» (1996), «О государственной таможенной службе» (1997), «О государственной налоговой службе» (1997), «О государственной власти на местах» (1992). Был разработан законопроект о государственной службе, который обсуждался специалистами. Закон Республики Узбекистан «О государственной гражданской службе», одобренный Сенатом в 2022 г.

Меньшая действенность этических принципов на фоне сравнения с правовыми нормами с их системой наказания никем не оспаривается, тем не менее, официальные этические кодексы множатся. Профессиональные кодексы имеются у каждого профессионального объединения, международных организаций, направлений деятельности. Государственное администрирование не исключение. Более того, практика показала, что без соответствующего этического образования и воспитания одними мерами наказания эффективной государственной машины управления не создать. Пресловутый «человеческий фактор» играет в государственном администрировании не меньшую роль, чем в теории катастроф [1;144 с.].

В 1996 г. на ассамблее ООН был принят «Международный кодекс поведения государственных должностных лиц», ибо назрела насущность самоопределения в том хаосе норм и принципов, который представлял собой этический набор правил государственных служащих той или иной страны. Было востребована необходимость зафиксировать некие этические стандарты, сопоставляя с которыми можно будет оценивать реальное поведение государственных служащих. Регламентация – тренд теории этики, в то время как абстрактный поиск истины -это свойство теории морали.

Государство -это структурная организация определенной территории, главным элементом которой является власть. Различают следующие виды власти: законодательная, исполнительная, судебная (иначе – правоохранительная). К механизму власти можно отнести и систему принуждения, хотя как отдельный вид власти ее не различают. Механизм осуществления различных видов власти, состоящий из различного рода органов, называется государственным аппаратом, а сотрудники аппарата – *государственными служащими*.

Таким образом, этика государственного гражданского служащего это моральное сознание и практическое поведение, ядром которого являются нравственные ценности общества. Этика государственного служащего выстраивается на соответствующих законах государства, и отражает востребованные на данном этапе национальные этические ценности. Поэтому совокупность желаемых этических качеств государственного служащего именуется этическим *кодексом государственного гражданского служащего*. Обычно он бывает зафиксирован в правовых актах этого государства.

Методология исследования (Research Methodology). В процессе написания статьи были использованы такие методы и принципы, как сравнительный анализ, индукция и дедукция, анализ и синтез, системность, логичность и последовательность. Кроме того, при раскрытии темы были привлечены аналитические материалы зарубежной литературы и отечественных источников.

Анализ и результаты (Analysis and results). От того, насколько добросовестно госслужащие исполняют свои функции, во многом зависит мощь государства. Вместо «добросовестно» можно подставить «хорошо», «качественно», «справедливо». А это ценностно-этические категории. Следовательно, наряду с природой государственной власти определенное значение в функционировании общества имеет этическая воспитанность сотрудников государственного аппарата. Государственный служащий- это официальный представитель государства, его доверенное лицо, дела и поведение которого решают вопрос доверия или недоверия населения государству. Как правило, государственная система бывает разветвленной, соответственно государственный аппарат тоже. Исторически государственные служащие, прежде их именовали «чиновники», делились на четырнадцать разряда по Таблице о рангах в Российской империи. В государстве Туран Амир Тимур «учредил новую государственную администрацию. В частности, понятия городских или районных мэров (доруга), чиновников, хазаров, администрацию. В частности, понятия городских или районных мэров (доруга), чиновников, хазаров, девон бек, мингбеги, юзбеги хировул представляли собой административное управление» [2]. Из Уложений Амира Тимура следует, что его государственный аппарат состоял из семи ведомств с четким разделением функций.

В соответствии с этажами государственной власти можно выделить три слоя государственных служащих: верхний эшелон власти; среднее звено реализации власти, местное администрирование и управление. Напоминаем, махаллинские комитеты это органы самоуправления[3, 158-с], которым поручены некоторые функции администрирования и управления территориальной единицей – махалли.

В данной работе считаем приемлемой определение этики государственных служащих безотносительно страновой принадлежности как «Этика государственного служащего – это система общих ценностей и правил, регулирующих взаимоотношения на государственной службе между руководителями и подчиненными, коллегами в процессе их совместной деятельности, между государственными служащими и гражданами» [4;98 с.].

Определение государственной службы по цитируемому закону Республики Узбекистан более лапидарное: «Правила этического поведения государственных служащих – совокупность норм этики, обязательных для соблюдения государственных гражданских служащих» [5]. Исследователи Узбекистана предлагают следующие определения этики государственных служащих

Выводы (Conclusion). Законодательная база этики государственных гражданских служащих в Республике Узбекистан представляет собой важный инструмент для обеспечения эффективного и добропорядочного государственного управления. Однако, наличие четких норм и правил недостаточно для достижения желаемого результата. Ключевое значение имеет эффективная реализация и контроль за соблюдением этических требований, а также формирование культуры этичного поведения среди государственных служащих. Дальнейшее совершенствование законодательства в данной сфере должно быть направлено на повышение его прозрачности, усиление механизмов ответственности и стимулирование этичного поведения, что в конечном итоге будет способствовать укрепле-

нию доверия общества к государственным институтам и успешному осуществлению реформ в стране.

Список использованных источников (References):

(1). Хамедов И. О концепции и проекте закона о государственной службе. “Жамият ва бошқарув”, 2017, 3-сон, с. 144.

(2). Тухтамишев У. Государство Амира Тимура и аппарат его управления. Архивариус. 2020, № 8, https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvo-amira-temura-i-apparat-ego-upravleniya/viewer

(3). Загыртдинова Ф.Б. Махалля: должен – значит можешь. Ученые записки Казанского университета, 2016, Т., с. 158.

(4). Архипова Н.И. Этика государственных служащих. Вестник РГГУ, 2011, с. 98.

(5). Закон Республики Узбекистан О государственной гражданской службе //https://lex.uz/uz/docs/6146009

Тожибоева Шахзода Аъзамжон кизи (Ферганский государственный университет, преподаватель кафедры “Практического курса английского языка”; https://orcid.org/0009-0006-4501-3202; karimovash.02@gmail.com)

ТИПОЛОГИЯ МЕТАФОР В ПРОЗЕ РЭЯ БРЭДБЕРИ: КОГНИТИВНЫЙ И ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТЫ

Аннотация. *В статье рассматривается метафора как ключевой инструмент формирования художественной атмосферы в рассказах Рэя Брэдбери. Автор подчеркивает, что метафора выступает не только в роли выразительного тропа, украшающего текст, но и как важнейший когнитивный механизм, позволяющий автору моделировать восприятие мира персонажами и читателем. Через метафорические конструкции Брэдбери передаёт тонкие эмоциональные состояния, философские образы и культурные аллюзии, что способствует созданию многослойной, насыщенной атмосферы. В рамках исследования выявляются типы метафор, наиболее характерные для прозы писателя, и раскрываются их функции в тексте. Делается вывод о том, что метафора в художественном мире Брэдбери – это неотъемлемая часть эстетической и смысловой структуры его произведений.*

Ключевые слова: *метафора, художественная атмосфера, эмоциональность, когнитивная поэтика, Рэй Брэдбери, образность, стиль, англоязычная проза.*

REY BREDBERINING PROZASIDA METAFORALAR TIPOLOGIYASI: KOGNITIV VA LINGVOSTILISTIK JIHATLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Rey Bredberining hikoyalarida metafora badiiy atmosfera yaratishning asosiy vositasi sifatida tahlil qilinadi. Metafora nafaqat estetik bezak sifatida, balki muallifning dunyoni qanday tasavvur qilganini ifodalovchi kognitiv mexanizm sifatida ham qaraladi. Bredberining metaforalari orqali obrazlar, emotsional holatlar, falsafiy tushunchalar va madaniy ishoralar ta’sirchan tarzda yetkaziladi. Bu esa matnning hissiy qatlamini boyitadi va o‘quvchiga chuqur taassurot qoldiradi. Maqolada muallifning adabiy uslubi, metaforalarning funksional xususiyatlari va ularning badiiy atmosferaga ta’siri keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *metafora, badiiy atmosfera, emotsional fon, Rey Bredberi, kognitiv poetika, obrazlilik, stilistika, ingliz tilidagi proza.*

TYPOLOGY OF METAPHORS IN RAY BRADBURY’S PROSE: COGNITIVE AND LINGUOSTYLISTIC ASPECTS

Annotatsiya. *This article explores the role of metaphor as a fundamental means of constructing artistic atmosphere in the short stories of Ray Bradbury. The author argues that metaphor serves not only as a stylistic ornament but also as a cognitive mechanism through which the writer conveys philosophical ideas, emotional states, and cultural codes. Bradbury’s metaphors create a multilayered narrative environment that enhances the reader’s immersion and emotional response. The article identifies the dominant types of metaphors in Bradbury’s prose and analyzes their contribution to the expressive and thematic coherence of the texts. It concludes that metaphor in Bradbury’s work is central to both its aesthetic appeal and conceptual depth.*

Keywords: *metaphor, artistic atmosphere, emotional dimension, cognitive poetics, Ray Bradbury, imagery, style, English-language prose.*

Введение. В современной литературоведческой парадигме метафора рассматривается как одно из ключевых средств формирования образной системы произведения, обладающее высоким се-

мантическим, эмоциональным и концептуальным потенциалом. В прозе Рэя Брэдбери она выполняет не только декоративную, но и структурообразующую функцию, моделируя внутреннюю реальность персонажей, обозначая границы между реальным и фантастическим и кодируя культурные смыслы. Исследование метафор в его творчестве требует комплексного подхода, объединяющего когнитивный и лингвостилистический анализ.

